

Rus adabiyoti shaxslarini

I. A. Bunin



Xilvat xiyobonlar

395

Rus adabiyoti durdonalari

IVAN ALEKSEYEVICH BUNIN



Xilvat xiyobonlar

She'rlar va hikoyalar

TOSHKENT
«O'ZBEKISTON»

2021

UO'K 821.161.1-1
KBK 84-5(2Ros-Rus)
B 95

Rus tilidan O'roz Haydar, Vafo Fayzulloh,
Yo'ldosh Eshbek, Dildorxon Aliyeva, Tohir Qahhor,
Nazira Jo'rayeva, Ortiqboy Abdullayev, Abdulla Sher, Umid Ali,
Orif Tolib, Saidjalol Saidmurodov, Olima Nabizoda,
Qudrat Do'stmuhammad tarjimai

Ivan Bunin.

B 95 Xilvat xiyobonlar [Matn]: She'rlar va hikoyalar / I. Bunin. –
Toshkent: «O'zbekiston» NMIU, 2021. – 208-b.

ISBN 978-9943-6585-4-7

Rus yozuvchisi va shoiri, Nobel mukofotining sovrindori Ivan Bunin nomi jahon kitobxonlariga juda yaxshi tanish. Ayniqsa, rassomona sinchilik, satrlar serma'noligi, fikrlar jozibadorligi aks etgan she'rlari har qanday qalbdagi go'zallik, nafasat va nazokat tuyg'usini uyg'otadi. Fasllar ifodasi samimiy va dilbar so'zlar bo'yog'ida hayotni sevishtirish va ardoqlashga chorlaydi.

Uning hikoyalaridagi oddiylik va samimiyat, qahramonlar tilining ohangi va o'tkirligi har qanday o'quvchini o'ziga jalb eta oladi.

Aziz kitobxon, keling, mazkur to'plamdan o'rin olgan she'rlar va hikoyalarni bir karra o'qib ko'ring. Ishonamizki, ular sizga ham yoqib qoladi...

UO'K 821.161.1-1
KBK 84-5(2Ros-Rus)



ISBN 978-9943-6585-4-7

© O'. Haydar va b. (tarj.), 2021
© «O'zbekiston» NMIU, 2021





CHASHMA

Ko'kalamzor xilvat o'rmonda,
Namxush soya kezinar doim.
Muzdek chashma mavjlanadi jim,
Tog' ostida, jarlik tomonda.

Qaynar, o'ynar, oshiqar yana,
Billur mavjlararo charx urib.
Sokin oqar shishadek erib,
Sershox eman ostida, ana.

Moviy samo, tog'li o'rmon va
Boqar o'ychan sukutda atrof.
Titrar turfa naqshlar – shaffof,
Junjib-da, chashma sahnida.



BIRINCHI QOR

Qish sovug'i ufurdi achchiq,
Yaydoq o'rmon etagin silkib.
Yallig'langan yaradek ufq,
Lovulladi shafaqdan kil kib¹

Tunda dovul quturdi rosa,
Tong yorishgach quvib g'uborni,
Bo'm-bo'sh bog'lar, dala, qishloqqa,
Hadya etdi birinchi qorni.

Qarang bugun oppoq choyshabin
Dalalarga to'shagan – nafis.
Oq g'ozlarning shoshqin galasi –
Qo'l silkishga kechikdik, afsus.

BOLALIK

Kun cho'g'day qizisa, qarag'aylarning
Shirasin bo'yidan tamshanadi lab.
Qushdek yengil tortib shodlanaman, so'ng
Kezaman quyoshli chodirlar bo'ylab.

Atrof shu'lazordir, oh qanday yorqin,
Qumloq – ipak kabi mayin, muloyim.
O'n yoshga to'lganday va olgancha tin,
Ulkan qarag'ayni quchoqlayman jim.

Qizargan, burushgan dag'al po'stlog'i
O'tashdan lovullab yolqinlanar bot.
Qarag'ay bu qadar taratmasdi bo'y,
Quyosh qo'r to'kmasa beayov va shod.

¹ *Kil kib* (shevada) – idish og'zi barobar to'ldirilgan suvning to'kilay-to'kilay deb turgan holati.

O'rmondagi ko'l qo'ltig'ida,
Yashil qayin bo'y cho'zgan ko'rkam.
«Namxush bahor kunlari, qizlar,
Sovuq yeldan qaltirar tanam».

Yomg'ir-u do'l, qorlar parmisol,
Goho shu'la yaltirar nafis.
«O qizlarjon, o'rmonzor, alhol,
Bahor husnin qiladi ko'z-ko'z».

Attang, yana tundlashdi havo,
Qarag'ayzor guvillar bebosh.
«Mayli bugun junjikay, ammo
Ertaga-da chiqajak quyosh».



QOR BO'RONI

Bo'ron uvillaydi tungi dalada,
Bulutlar chokidan oy sochar shu'la.
Qayinlar tebranar tuslanib horg'in,
Bo'zargan soyalar bekinar sokin.
Go'yo oq qayinlar oralab Ayozi,
Tumanli nur ichra kezar sarafroz.

Belanchak g'ichiri qanotlanadi,
Yog'och uy tarafdan sovuq yel kabi.
Kumushdek yarqirab oy porlar yana,
Yaxmalak yo'laklar yiltillar, ana.
Qayin shoxlarining orasidan boz,
Jim kuzatar yog'och kulbani Ayozi.

Muz qotgan dalalar, qadrdon qishloq,
Tunda bo'ron sizni silkiydi uzoq.
Izg'irin kuyidan uxlaydi har yoq,
Yolg'iz qarag'ay ham mudraydi bu choq.
Xayolda jonlanar: dashtdagi ovloq
Qabristonda bo'ron kezadi uyg'oq.



Quyoshli tong. Hovuzga tikka
Qaldirg'ochlar to'sh urar shitob.
Yuksalar so'ng moviy bo'shliqqa,
Nam qanotin silkitib shu tob.

Og'ushida masrur va xushbo'y,
Termiladi zumrad o'tloqzor.
Hovuz shisha kabi samoviy,
O'z qirg'og'in zumrad aksi bor.

Xuddi oyna, o'rtada qamish,
Qirg'oq bilan qulagan o'rmon.
Bulut guldek tasmali yonmish,
Tubida-chi, bir parcha osmon.

Ol bulutlar suzadi horg'in,
Hovuz tubi poyonsiz ohang.
Toraladi qishloq uzra jim,
Suv yuzidan qo'ng'iroq jarang.



Yo'l bo'yida sokin qayinzor qalin
Momiq qor ostida sham kabi porlar.
Ortga uloqtirib ulkan shoxlarin,
Chil oyoq bug'ular ildam choparlar.

Archalar uchiga tekkach shoxlari,
Qor uyumi ko'char shovullab mayin.
Umid yalovidan belgi har bargi,
O'rmonning uyqusin buzishi tayin.

Ana, iz tashlaydi yolg'izoyoq yo'l,
Negadir bug'ular sapchidi nogoh.
Daf'atan atrofda qo'pganday dovul,
Novdalarni tishlab qoqardilar, oh.

Bo'ronli vodiyan chiqoldi erkin,
Shiddatkor kuch ila to'dani olib.
Sohir go'zallikni (quvnoq va durkun).
Ajalning domidan qutqazgach g'olib.



Yomg'ir yog'ar yashil o'rmonda betin,
 Zaranglar-da shovqin soladi butun.
 O'ynar o'rmon gullari durkun.
 –Eshitayapsanmi? – qo'shiq jarangsoz,
 Ham beg'am-u beparvo, tashvishli biroz,
 O'rmon bo'ylab yoyilar erkin.

Yomg'ir yog'ar yashil o'rmonda betin
 Zaranglar-da shovqin soladi butun.
 Osmon qa'ri tortar musaffo,
 Har yurakka kuylar sokin qurar in.
 Nafosat sozida bo'lib-da maftun,
 Timsolingni topaman, Bahor!



Toshqin to'liqlardan yoyiladi suv,
 Bo'g'iq shovqin ichra otganicha to'r.
 Uchib o'tayotgan qushlar galasi
 Viqor-la qichqirar tutib-da surur..

Qora do'ngliklardan o'rlagan hovur,
 Tongdanoq qizdirar muzdek havoni.
 Nurlar chiltoridan taralgan shovur,
 Qitiqlay boshlaydi yerning tovonin.

Choshgoh chog' deraza ostida ko'lmak,
 Oynaday yaraqlar quyosh to'kkach qo'r.
 Mitti quyonchalar ayvonda, sergak,
 Shalpanguloqlarin o'ynatar bir-bir.

Nafis bulutlarning ortida havo
 Samoga iladi moviy pardasin.
 Quyoshning yoqimli taftidan, illo
 Xirmon sukunatning qavir ko'rpasin.

O bahor! Qarshilar seni tirik jon,
 Unutmoq mumkinmi ko'klam nash'asin.
 Bog'lar shiviridan entikar osmon,
 Kezar tomchilarning zangor sharpasi.

Suvlar shildirashi, yarqirashi ham,
 Xo'roz qichqirig'i jarangsoz biram.
 Ko'zlar yumiladi farog'atdan va
 Namxush shamollarning vasfidan yana.



DERAZADAN

Kedr shoxi – yashil so‘zana,
Go‘yo deysiz qalin to‘q baxmal.
Ortida bor shaffof bog‘, yana,
Unga hech ne bermaydi xalal.

Ilonizi ko‘kimtir so‘qmoq,
Boz tovlanar zumrad maysazor.
Qayinlarning shoxida – baldoq –
Kulrang bargak taratar ifor.

Zaranglarning tillarang xoli,
Ulashadi qalbga bedorlik.
Huv vodiylar mizg‘iydi tolib,
Olislarda erigan qordek.



Kuz. O'rmon. Barg raqsidan
 Qurigan botqoq mudrar.
 Oqimtir ko'l aksidan,
 Osmon gumbazi xira.

Nilufar gullari
 Za'far, ochilgan qiyg'och.
 Barg qoplagan yo'llarni,
 O'rmon bo'm-bo'sh, yalang'och.

Baribir sen go'zalsan,
 Quriganing chog'da ham.
 Mox bosgandan o'salsan,
 Maftunkorlik senda jam.

Ko'rfaz burnidan shundoq,
 Keksa daraxt boqar lol.
 Kumushlanarsan mudroq,
 Bahorga qadar, alhol.



Tuman pardasiga berkindi yobon,
 Qo'qqis yomg'ir yog'gach qiyalab sho'xchan.
 Nafosat o'tiga chulg'andi o'rmon,
 Yomg'irdan so'ng osmon billurlashdi – shan.

Otash-u rutubat og'ushida mast,
 Baxmaltus bug'doyzor quyoshdan porlar.
 Qayin butog'iga qo'nib zarg'aldoq,
 Beparvo g'ujurlab nenidir chorlar.

O'rmonzor oralab qo'zg'algan shamol,
 Barglarni erkalab o'ynar, yulqilar.
 Qayin-chi, shabnamlar sohib bezavol,
 Ko'z yosh orasidan tabassum qilar.



Tashqarida kezar ekan jim,
 Siyoh tusli tonggi soyalar.
 Chorlar go'yo qoqqanicha im,
 Gul bog'lagan bedapoyalar.

Allaqachon kun taftga ingan,
 Eshitilar bolta tovushi.
 Oqcharloqlar galasi chindan
 Unutilgan damlarning tushi.

Jaranglaydi daryo ortidan
 Kakkularning kukulashi ham.
 Qayinzordan taralar shu on,
 Yaproqlarning bo'ylari – xushta'm.

Shaffof daryo hayotlanadi,
 To'lqinlarning jimirlashidan.
 Rangin kuylar qanotlanadi,
 Don xirmonin g'imirlashidan.



Quyosh qo'ygach bolishiga bosh,
Cho'g'lanar shom, bo'zarat atrof.
Halqalanib tinar dala-dasht,
Ekinzorni aylab-da tavof.

Marjumaklar¹ gullagan – oppoq,
Asal hidin ufurar mayin.
Qishloq uzra shomgi qo'ng'iroq,
Ibodatga chorlaydi tayin.

Kakku esa allaqayoqdan,
Kukulab-da, sayraydi yayrab.
Totli lahza entiktirgan dam,
Qolgung kelur dalada tunab.

Quyosh asta yashirdi yuzin,
Yolqin sohib lovullar shafaq.
Issiq shamol qo'zg'aldi sokin,
Har nenida turtar xushchaqchaq.

Tun quyuldi. Yer oldi bo'sa,
Yulduzlarning shu'lalaridan
Ekinzordan horgan har kimsa,
Uxlar endi dala-dasht bilan.



¹ *Marjumak* (grechixa) – donli ekinlarning bir turi.


XAZONREZGI

O'rmon bir ko'shkdirki – naqshinkor,
Serjilo ranglardan serhasham.
Bo'y cho'zgandir guldor bir devor,
Kamalakdan yoqqandayin sham.

O'yma naqshdek barglar, ajabo,
Yaltiraydi havorang tusda.
Zaranglar-ku, qahrabo, hatto
Qora tortar archalar kuzda.

Daraxtlarda barglar siyrakdir,
Anqir eman, qarag'ay hidi.
Ko'kdan mayin to'kiladi nur –
Yigirilar urchuqsiz xuddi.

Quyosh qotgan, jilmaydi sira,
Uzilmagan sarg'ish mevadek.
Kirib ketar guldor ko'shkiga,
Kuz mehribon ma'sum bevadek.



Dala tutab yotar tongotar oni,
 Tumanli cho'l uzra qurq-qurqlar burgut.
 Yovvoyi unida ochlik fig'oni
 Sovuq g'ira-shira ichra sochar o't.

Xushbo'y hid taratar uyquchan dala,
 Burganlar shabnamdan chatnar beg'ubor.
 Hatto sovug'ing ham yoqimli, maza,
 Sening chorlovingdan adilman, Bahor!

Tuman burqsib suzar cho'lning bag'ridan,
 Burgutlar qiy-chuvi shamolda talosh.
 Bulutlarni yoqib, zulmat qa'ridan
 Shardek ko'tarilar samoga quyosh.

Deraza qirovdan kumushlanar tong,
 Xrizantemalar gullagan kecha.
 Osmon toqi yorqin, toza, nafarmon,
 Qor uchquni o'ynar bo'g'otlarda-da.

Quyosh-chi, junjikib sovuqda qotgan,
 Deraza tovlanar tillarang tusda.
 Bir shirin sokinlik bo'y cho'zgan tongdan,
 Oppoq qor hovuri suzadi, muzday.

Yorqin va musaffo osmon etagi,
 Shu'lalar qor uzra raqs tushar rangin.
 Kumushlanib porlar derazamdagi
 Xrizantemalar kulgi, jarangi.



Arazlagan qizdek faromush Bahor,
 Kel, ko'zimga tik boq, o'tmishni unut.
 Ma'yussan ne uchun, o'kinma zinhor,
 Nedan suyuklisan, kel, qo'limdan tut.

Eh jimsan, so'lg'insan uzilgan guldek,
 Qo'y endi, gapirma, iqrorlik nechun.
 Vujudingda balqir inja erkalik,
 Tokay boj to'layman yolg'izlik uchun!



OCHIQ DENGIZDA

Ochiq dengiz uzra to'sh urgan osmon,
Shamollar zabtidan qo'zg'algay og'ir.
To'lqinlar mavjidan chayqalib yelkan,
Kulrang qanoti-la quyi og'adir.

Zangor quloch yoyib yugurur shamol,
Ochiq dengiz uzra bulutlar bilan.
Sen esa unutsan, tushmisol, alhol,
Juda olisdasan, nazdimda yo'qsan.

To'lqinlar chayqalib arazin to'kar,
Yolvorib urgancha oyog'imga bosh.
Allakim samoviy ko'zlarin tikar,
Lip-lip o'ynayotgan mavjlarga yuvosh.

Nedandir imo bor tirikligingga,
Moviy suv singari erking ham ozod.
Yodingga soladi beparvo chog'da
Sening mangu unut bo'lganliging bot.



* * *

Qora bulut ketdi, namxush harorat
Bahor shomi ila tillashdi shu zum.
Shamol qanotida yelpinib behad,
Zaif qizaradi cho'l shafag'i jim.

Harir tuman qo'ng'ir daryo ustida,
Kumushsimon pardek suzadi yengil.
Daryo ortida-chi, alanga ichra
Ko'z olar tillarang ufqning yengi.

Sokin bog'da bulbul xonishi tinar...
Zimistonda iliq tun hovuridan,
Tomchilar tizilib shoxlarga qo'nar...
Bog' uyg'oq shumurtlar bo'y-shovuridan.

* * *

Atrof o'rmon. Qoraymoqda kun,
Jimirlaydi daryo etagi.
Oqarib-da shabnamlar, beun
O'qir kulrang xufton ertagin.

Qarag'aylar tizilgan qator,
Askarlardek ildamlar go'yo.
O'rmonga taft tutib so'ngi bor,
Olov qushi – quyosh-da ado.



Qarag'ayzor bo'ylab tashlayman qadam,
Qumlik qiyalikdan vodiya tomon.
Shom soya tashlaydi, tog' cho'qqisi ham
Hurpayadi, o'rmon hurpaygani on.

Qorong'ulik cho'kar chakalakzorga,
Tag'in yo'llar qochib yashiradi iz.
Qalbimda ishonch bor yolg'iz Xudoga,
Ola qarar menga izvoshchim ruhsiz.

Otlar ildamlaydi, kumush qo'ng'iroq
Jarangi singadi ufqlarga bot.
Baxtiyor lahzalar sehri umrzoq,
Mungli kuyingda-da zavq bor, ey Hayot!

Yirtqich hayvonlar-u qushlarda bor in,
Bukun eziladi g'ashlikdan ko'ngil.
Ha, ota hovlimdan ketgandim u kun,
Afv etgin, jonajon uyim, kechirgil.

Yirtqich hayvonlar-u qushlarda bor in,
Evoh yuragimni yoqar qayg'u, g'am.
Ijara uylarda cho'qindim har kun,
Yelkamda chiridi safarxaltam ham.

Tungi xiyobonda daraxtlarga boq:
 Yupqa tutun bilan qoplanar uchi.
 Ortida bo'zargan ufqdir –mayoq,
 Oq ko'lanka to'shar bulutlar ko'chi.

Yulduzlar naqshinkor shu'lası bilan,
 Yelvizak yolını kumushga bo'yar.
 Oyoqlar ostida shitirlab xazon,
 Olib bahor tushin hurkitar, suyar.

Nahot qalb begona yil bo'yi mendan,
 Navqironman axir, qadamim yengil.
 O'zim ham bilmayman, neni kutaman,
 Umid cho'g'in yutar kutishdan ko'ngil.

XAYRLASHUV

Chinorlar ortida oqargan vodiy,
 Qurigan chashmalar o'yida yonar.
 Tilla barglaridan taratgancha kuy,
 Qirmizi lolalar mahzun to'lg'onar.

Osmon qorayadi – kuyarkan quyosh,
 Sovuq shamol yelpir vodiy etagin.
 Moviy ko'zlaringda billuriy ko'z yosh,
 Feruzadek xira tortadi tag'in.



SHAFQSIZ TONG

Mudrar kekxa qayinzor,
Boshida ko'k chambarak.
Bu yerda na mozor bor,
Na orzudan bor darak.

Uyg'onib yoz shamoli,
Novdalardan uzar barg.
Olis dala xayoli,
O'ylarimda urar charx.

Na o'choq bor, na qozon...
Bo'm-bo'sh orzu yo'lagi.
Egnimdan tushmas hamon,
Talabalik ko'ylagi.

Nahotki sen yolg'izsan,
Yotmi dilim kulbasi.
Yaqinsan-u olissan,
Yoniq umid shu'lasi.

Butun yer shari bo'ylab,
Kezayapman hamon men.
Navqironman, ha, kuylab,
Senga yetgum omon men!



Orzularim kabi ma'yus tun,
 Muhabbatim dog'ida ado.
 Huv xilvatda chorlaydi betin,
 Gulxan milt-milt yonar ekan to.

Seni qanday atashlarin, o,
 Kinga aytib dil yorgum bu kun.
 Olis yo'llar dog'ida ado,
 Orzularim kabi ma'yus tun.

Tun oqarib oy botganda tik,
 Daryo orti silkiydi etak.
 Uyqusirab tuman kumushdek
 Maysazorda yarqirar – oynak.

Buruqsigan namxush qamishni,
 Shildiratar tortqilab shamol.
 Sukunatga chayqatib tushin,
 Qarta chiymay qishloq ochar fol.

Butxonada esa jinchiroq¹,
 Xiralashar yonishdan horib.
 Nim yorug'da junjikadi bog',
 Cho'l shamolin shu'laga qorib.

Kengliklarga tutib zarvaraq,
 Loladayin qizarar shafaq.

¹ *Jinchiroq* – bu yerda ikona(sanam) poyiga yoqib quyiladigan lampa.



TUYAYO'NG'ICHQA

Derazadan men sari akam,
Uzdi-da juft gulni irg'itdi.
Menga alam qildi chunonam,
Bu juftlikning aybi ne edi.

Sho'rlik sariq tuyayo'ng'ichqa,
O'gaylikning qurboni esiz.
Alamimni yutdim-u ichga,
Darhol cho'lga otlandim beso'z.

O dalalar, ko'zga xo'p yaqin,
Tilla rangda tovlanar, bay-bay.
Asalari g'uvillashi chin,
Yoqimlidir har nedan, hay-hay.

Dim havoda izg'ir mavjudot,
Sharpalari urilib yuzga.
Dala bo'ylab yoyadi qanot
Za'far yog'du – yonishi o'zga.

Ertaga ham kun qaynar, demak,
Yog'ilajak o'gaylik tavqi.
Olov sochib shamol esajak,
Bo'y cho'zajak qashshoqlik xavfi.

Ochlik zulmi yoyilar har yon,
Neki yo'g'on, tortar ingichka.
Har lahzada har ne balodan,
Qutqazajak tuyayo'ng'ichqa.



VATAN

Osmon tubi jonsiz, qoramtir,
Qovoq osgan tag'in qishki kun.
Qarag'ayzor qo'llarin silkir,
Qishloqqacha yo'l olis, uzun.

Tuman moviy hamda sutsimon,
Diltang etar beozor anduh.
Qorli cho'lda esgandek bo'ron,
Faryod chekar quvg'indagi ruh!

IKKI KAMALAK

Zarrin rangli ikki kamalak,
Yashnar tingach bahor yomg'iri.
Tussiz, qoshi to'kilgan falak,
Taftga inib, uchar shiviri.

Yolqinlanib pag'a bulutlar,
Jim tinglaydi bog'lar allasin.
Qora nuqta misol ko'rinar,
Olislashgan qushlar galasi.

Kamalaklar rango-rang tusda,
Muattar bo'y tarar ohista.

MOMAQALDIROQ

Chaqin chaqib momaqaldiraq,
O'rmon uzra gumburlagan on.
Issiq yomg'ir quyildi, biroq
Ko'lmaklarga sho'ng'idi osmon.

Kezib o'rmon so'qmog'i bo'ylab,
Fazoga ko'z tikkandim: tiniq.
O'tgan kunlar xotirin kuylab,
Ko'z yosh to'kar yulduzlar – siniq.

Mening esa yulduzim boshqa,
Kipriklari tim qora, uzun.
Bulut qaynoq nafas yutganday,
Chaqmoq hidin tuyaman mahzun

Bir fursatki, bahor bo'roni
Girdobida qolganimdayin,
Olis chaqmoq nuri tug'yoni
Yuraginga bo'ylagan sayin...

Jimjimador changalzor tomon,
Termulaman yulduz kabi jim.
Shivirlashim o'zimga ayon:
Eh, men seni qanday sevgandim!



Qushlar ko'zga tushmas osmonda bir bor,
 O'rmon itoatda faromush, yo Rab.
 Kimsasizlik tavqi ezadi takror,
 Xastalik har neda bo'y cho'zar, ajab.

Jarlikda zax bosgan qo'ziqorinlar,
 Achchiq hid taraydi havoga betin.
 Xilvatga undaydi bepanoh kunlar,
 Yorug'lik ilinjin unutib butun.

Kuz yomg'iri yog'ar, muzdek to'zonlar
 Yerning tushlarini hurkitar evoh.
 Qorayib ko'ringan bargi xazonlar
 Chirish mavsumidan etadi ogoh.

Qovog'i uyulgan daraxtlar, afsus,
 Sovuqdan junjikib titraydi behol.
 Faqat erkinligin qiladi ko'z-ko'z,
 Dasht aro kezib-da darbadar shamol.

Huv olisda qishloq. O'yladimmi, oh,
 Otlarning dupuri uyg'otar uyqum.
 Uchqur shamol erkin tuyaman nogoh,
 Shodlig-u qayg'udan jaranglar tuyg'um.



QUTB YULDUZI

Muzlar orasidan o'zining yolg'iz,
Yovvoyi o'tovin tikladi ajal.
Nuqra yog'du sochib Qutb yulduzi,
Olti oyki to'lar zulmatga badal.

Tuman ko'lkasida gohida paydo,
Goh o'tov yonida o'ltirar yolg'iz,
So'qir nigohini tikkandan, evoh,
Mangu muzdek qotgan ul porloq Yulduz.

TO'LIN OY

Suzayotir muzday tumanda,
Xira nurin sochib to'lin oy.
Maysazorlar porlar tubanda,
Shabnamlardan sham tutar chiroy.

Ovloq daryo qirg'oqlarida,
So'lg'in tortar qorayib qamish.
Ko'rinadi daryo narida,
Oq tol uchi ko'zingga tanish.

Qayerdadir tegirmon bo'g'i q
Shovqin sirin vaqtga bermas boy.
Tun bo'zargan, qishloq etmas churq,
Huv yuksakda porlar to'lin Oy.

* * *

Yarim tunda uydan yolg'iz chiqaman,
Og'ir qadamimdan titray boshlar yer.
Qoraygan bog'larga yulduzlar qo'ngan,
Oq poxol tomlarda behol o'ynar nur.

Neki narsa mavjud, bari motamda.

* * *

Turfa rang izlari xazonlarda jam,
Qochib qayga borgung taqdir izmidan.
Osmon mayin yog'du sochadi bu dam,
Yalang'och emanlar orasidan – shan.

Qandaydir samoviy darakdan nishon,
Jimlikda g'amginlik akslangan on.
Yana qalb kechirdi va takroran, bil,
Kechirarmikansan, eh aldoqchi yil!



QO'NOQ

Shomda qaynoq o'rmon zimistonida,
Suv yuzida shafaq yog'dusi xira.
Muzlagan boshpana tor ayvonidan,
Qani biroz pastla, kuyinma sira.

Erkin qanot qoqgil, shabnamlar qo'ngan,
Barglar orasida, mayli ertalab.
Billur havo ichra g'oyib bo'lginda,
Vatanga qaytishni unutmagil, Qalb!

* * *

Jo'xori poyada tashlanar ko'zga,
G'ildirak izlari, bargi xazonlar.
Junjikib tirishar sovuq dengizda,
Rangsiz meduzalar – mitti g'ilmonlar.

Kuzgi dalalar-u yalang'och dengiz,
Qoya jarliklari to'mtaygan – mahkum.
Yarimshol dengizda oshkor ochar so'z,
Sirli xilqat aro muqaddas udum.

–Suvni ko'ryapsanmi?
–Simobli go'yo,
Tuman shu'lalanib nimhol yaltirar.
Ko'zga ko'rinadi na yer, na samo,
Ma'yus yulduzlarning shu'lasi xira.



* * *

Yarim kecha olis sahroda,
Qanotlanar jaranglagan un.
Yovshanlardan asal hidi va
Rangpar oydan yog'ilar kukun.

Hayot, vaqtdan qarangki, go'yo
Tashqarida qolganday o'zim.
Uyqudadir zimiston sahro,
Sehrlagan misoli ko'zi.

* * *

Ro'paramda yalang'och o'rmon,
Tepamda-chi, oqaringan oy.
So'qmoqdaman, sachrab-da limon
Barglarini qoraytirar loy.

Muzday shovqin suzar yuksakda,
Pastda sukut jarangi paydo.
Yoshlik o'tdi darbadarlikda,
O'y-xayollar ovutar tanho!



Bamisli tun kunduzday yorug',
 Ortimizdan ergashar soya.
 Atirgullar tutgan kumush tug',
 Ufqda oy yerga hamsoya.

Tutib olgum xayrlashuv on,
 Rangsiz, sirli, g'amgin nigohing.
 Yuragimda yashirgum, bejon
 Murda kabi sovuqlikni so'ng.

Kun boshlanar, g'oyib bo'laman,
 Bo'm-bo'sh xonam qolar huvillab.
 Neki mavjud bari bir xil rang,
 Oddiy, eski, sira etmas jalb.

Qo'nib rangdor kapalak sokin
 Kashtadagi gulga bosar lab.
 Qanotlari hilpirab mayin,
 Uchar keyin moviy shift bo'ylab.

Shu on ochiq derazadan boq,
 Parcha osmon – o'xshar yenglikka.
 Xuddi ko'kish dengiz – yarqiroq,
 Tag'in chorlar moviy kenglikka.



YOSHLIK

Yalang'och o'rmonda qamchi chars-chursi,
Sigirlar mo'ngrashi havolangan on.
Oyoqlar ostida barglar shitiri,
Boychechak kulgisi yangrar – za'faron.

Oqargan dalaga horg'in iz tashlar,
Yomg'irli bulutlar tikkancha viqor.
Yurak-chi, sirli bir shodlikni qo'msar,
Hayot esa cho'ldek cheksiz, ulug'vor.

* * *

Xo'mraygan, ko'kimtir sovuq bu tunda,
Qordek oppoq atrof porlar naqadar.
Qishloq burjidagi g'arib bir kulba,
Deraza oynasi nafis qizarar.

Tungi shimol taraf qo'rqinchli va tund,
Qanotlanar johil salobati ham.
Ayoqli oq g'ira-shirada bu tun,
Qasrdan yoqimli yovvoyi kulbam!



* * *

Qoraygan dalalarda poyonsiz dengiz kabi,
So'nayotgan shafaqlar qayg'uli tusga kirar.
Tungi sayhonlik uzra mayin arg'amchi otib,
Shafaqlarning izidan soyalar jim izg'ishar.

Qo'shoyoqlar oralab sirli, xuddi ruh kabi,
Izg'ib-da, yumronqoziq hushtak chaladi go'yo.
Tovushsiz sapchish bilan so'ngra iz yashiradi,
To'satdan oyna tutib sodir bo'lganday ro'yo.

* * *

Tog'da qaynar jarangsoz chashma,
Chalganicha kumush qo'ng'iroq.
Qoraygan but xo'rlikka oshna,
Qayin cho'mich yonda – yarqiroq.

Qo'rqqoliging, qulliging uchun,
Nechun seni sevayin, o Rus!
Sendan shu but, oq cho'michchaning
Kamtarligi ming karra durust.



SHOM

Neki mavjud bari chala uyquda,
Oqargan soy uzra sovuq yel uchar.
Qoraygan tog'lardan tortib homuza
Quyug tuman quyi sirg'alib tushar.

Qoyalar to'shiga urilib shitob,
Tubanda to'lqinlar guvillar nolon.
Kulrang tuman ichra bug'lanib shu tob,
G'ira-shiralikda g'oyibdir osmon.

Yovvoyi suronda tikib salobat,
G'ala-g'ovur ichra tutundek qalqir.
Tog'lar-chi, ilohiy pahlavonsifat,
Ulug'vorlik bilan oftobday balqir.

Ibodatxonaga qadam qo'yar tun,
Tog'lar etagidan asta uzilib.
Qayg'uli kuylashar tumanda betin,
Sirli ma'budlarga jo'rovoz bo'lib.



SIRIUS¹

Qaydasan, muqaddas porloq yulduzim,
Samoviy go'zallik gultoji o'zing.
Sirli jozibangdan hayratda ko'zim,
Somonyo'li bo'lib yarqirar izing.

Qaydasan, yarim tun darbadar kezib,
Yorug' kengliklarni etguvchi oshyon.
Pokdomon umidlar shavqida suzib,
Olis yillarimdan so'yaysan pinhon.

Mayli yon, o'ynagil samo ko'ksida,
Ilohiy qudratdan otashlan ko'zim.
Xudo ham unutgan qabrim ustida,
Xanjarday yaraqla, so'nmas yulduzim!

SATURN

Olovli Don yanglig' faromushxotir,
Bepoyon fazoda kezinadi u.
Qalb ham lahzalarga itoatkordir,
Bamisli yulduzdek. Tangri ajri bu.

Biroq yarim tunda sharqda yuksalar,
Xuddi qo'rg'oshindek porlab benajot,
O't purkab dahshatli o'lik sayyora...
Ishing mukammaldir yaratguvchi zot!

¹ *Sirius* – yulduzlardan birining nomi.

KEMADAN

Ko'pirgan to'liqlar oq uchqun otar,
Qirg'oqlarga so'ylab hayot ertagin.
O'lik baliqchalar kemada yotar,
Kim ham afsus qilar ularga tag'in.

Feruzarang osmon shodlanar mubham,
Ammo ustuxonlar qurib qatlangan.
Ko'zni cho'qib olar yarqirashi ham,
Evoh tubanlikda har ne xatlangan.

SOLLAR

Daryoning mavjlari qoraygan chog'da,
Yelvizakning muzday nafasi tinar.
Quyoshning taftini tuymay qumloqda,
Maysalar oqarib nursiz ko'rinar.

To'liqlarni yamlab suzadi sollar,
Toshli qoyalarga urilmay barhaq.
Yog'siz pilik misol tutab-da yonar,
Sovuq kunbotarda qizarib shafaq.



* * *

Ko'ksimni keng ochdim qabul etmoqqa,
Bahoriy hislarni – oniy mehmonni.
Go'zalliging ila singib ketmoqqa,
Tabiat, bichib qo'y tandagi jonni!

Sen yuksak samosan, ham uzoqdagi
Moviy kengliklarning quyisan, inon!
Sen yashil dalasan – ko'klam ertagi,
Senga intilaman qalb bilan har on!

* * *

Oq bukri tollarning xarob bog'ida,
Qora suvda qalqdi men sevgan yulduz.
Gulxan miltillardi sahar chog'ida,
Endi osmonlardan topolmam, afsus.

Qishlog'imda o'tgan yoshlik yillarim,
Qo'shiqlar aytardim jo'r bo'lib kuyga.
Kutganman tolening quvonch gullarin,
Men endi hech qachon qaytmayman uyga.



Shovqin solar barglar chirpirab uchib,
O'rmon qarshilarkan kuzgi suronni.
Shamol kulrang qushlar galasin quchib,
Barglar-la raqs tushar, to'zg'ib har yonni.

Hali bola edim, beg'am, hazilkash,
Qushlar g'ul-g'ulasi yoqardi biram.
Qanoti ostidan uchsa g'ovurlash,
Zavqlanib o'ynardim, sakrab shod, xurram.

Shovqinli girdob-la xohlardim birga,
O'rmon bo'ylab uchib hayqirishni ham.
Vujud yonib, to'lib cheksiz surguga,
Uchratgan mis bargni quchardim mahkam.

ERUVCHANLIKDAN SO'NG

Yog'di taftli nayson yomg'iri,
Tuman tarqab moviylashdi boz.
Maftun etib havo shiviri,
Tonggi eokin ila uchdi soz.

Olis o'rmon yoqasida shan,
Sokin uxlar yashil qarag'ay.
Uning xushqad ustuni tuman
Namxush bo'yin har yon taragay.

Nafis naqshin barglar yutib cho'g',
Navdalar-da tutdi yashil tug'!



MARVARIDGUL

Yalang'och o'rmonga ufurdi sovuq...
Xazon orasidan nur sochding kulib.
Unda bola edim, har neki yovuq,
Ilk she'rim bitgandim ilhomga to'lib.

To abad pokiza yashash sabog'in
Uqmoqqa ont ichdim yosh qalbim bilan.
Mahliyo etgandi sersuv yaprog'ing,
Musaffolik tuydim ajib hidingdan.

* * *

Nayson o'rtasida bulut ortidan,
Ochildi osmonning moviy parchasi.
Ko'kimtir o'rmonda tebrandi birdan,
O'rgimchak inining quruq soyasi.

Qimirlagan chog'i g'ovakda ilon,
Eman barglarining uchdi shitiri.
Binafsha tusiga burkangach o'rmon
Ko'kka qanotlandi moviy shiviri.

Qayinzor atlasdek yarqirab shu dam,
Ochdi yaproqlarning nafis kitobin.
Bu aldov lahzasi, baxt lahzasidan,
Yuz karra shirindir sog'inch azobi!

SIRKDA

Bo'm-bo'sh balandlikda, samo ostida,
Egilib, tebranib, silkinadi dor.
Sim bo'ylab sirpanar dorboz ohista,
Qo'lida langar cho'p, sergak va hushyor.

Skripkaning ajib kuyidan qotib,
Tikilar yuksakka minglab nigohlar.
Miltillagan shamday hayrat uyg'otib,
Bo'm-bo'sh moviy falak burgutdek boqar.

Allaqanday g'ayrisiq kuch-quvvat,
Simni titratgan on uchib bir nola,
Tubsizlik qa'riga yoprildi behad,
Xuddiki, Nayada – oyparast bola.

SO'Z

Qabrlar sukutda, ustuxonlar ham,
Faqatgina so'zga berilgan hayot.
Azal zulmatidan qabriston – olam,
Qadimgi yozuvlar sado berar bot.

Axir bizda bundan boshqa boylik yo'q,
Asramoq vijdoniy sharaf, burchimiz.
Azob-u uqubat bo'lolmas to'siq,
Bizga boqiy in'om – ul muzaffar So'z!



TO'XTA, QUYOSH!

Uchar-u yaltirar lipillab kegay,
Sog'inchdan titrarman men ham tashnahol.
Oldinda uchar jang aravasi, hay,
Yo'l sari boqaman qarchig'ay misol.

Nima bor oldinda? Jarlikmi, girdob,
Shafaqning qontalash shu'lasi, hayhot.
Navin¹ hayqirig'i jaranglar shu tob:
«To'xta, Quyosh! To'xta, joyingda tosh qot!»

KEKSA OLMA DARAXTI

Qor yog'sayam xushbo'-yu xushqad,
Sochur shodlik jarangin faqat.
Guling o'ynar arilar bebosh...
Keksardingmi, qadrdon o'rtoq?
Qo'y, qayg'urma, bo'larmi shundoq-
O'zgalar ham keksalikda yosh!



¹ Navin – qadimiy ahdlanga ko'ra Musoning yordamchisi.



SIROKKO¹

Tog'lar uzra dovulning shovqini-yu gumburi,
Yarim tunda olisda alahlaydi telbavor.
Zaytun bog'idagi hov oyning-da xira nuri,
Uyqusiz chigirtkalar qo'shig'idek jarangdor.

Tillaqo'ng'izlar oyoq ostida milt-milt yonar,
Nuqradek o'rab olgan xira po'rtanalar ham.
Qayiqlar qabristoni cho'mar-u, ham to'lg'onar,
Zavq-shavqda uchirmoqda qaygadir barin olam.



¹ *Sirokko* – Afrikada esadigan quruq shamol.



OQSHOM

Baxt zohirdir bizning xotirda faqat,
U esa har yerda, ehtimol baxt bu –
G'aram ortidagi kuzgu bog' yohu
Musaffo havodir ruhafzo qudrat.

Tubsiz osmonda-chi tegrasi oppoq
Parqu bulut osiq, yarqirar chunon.
Kuzatgum... kam ko'rdik, kam bildik. Ayon,
Baxt berilar uni bilganga har choq.

Derazaga qo'ndi chiychiylab bir qush,
Horg'in nigohimni uzdim kitobdan.
Osmon cho'kar, osmon bo'mbo'sh qolar va
Tegirmon g'uvlashi eshitlar shan.

Tinglabu ko'ryapman, baxtliman demak,
Barisi o'zimda jam ekan beshak.



ALYONUSHKA

Alyonushka o'rmonda yashar,
Bug'doyrang qiz,sevinchi toshar.
Nigohlari otash va chaqnoq,
Tik boqqan chog' otadi chaqmoq.
Sayr istab so'qmoq yo'l bilan,
O'sha mitti qizaloq sho'xchan.
O'rmon bo'ylab ketdi o'sha dam,
Bir do'st izlab pan-pastqamdan.
Kim ham uchrrar o'rmonda axir?
Diqqat bo'ldi qizaloq oxir.
Azob tortdi bekorchilikdan,
Alyonushka so'ng yoqdi gulxan.
Quruq yerda gurillab olov,
O'rmonga o't tushdi, beayov
Yomg'ir yamlar to'nka, daraxtni,
Qushlar omon qoldi, nebaxtki,
O'zi g'oyib bo'ldi qay tomon,
Bilolmayin dog'daman hamon.



BEGONA

Sevasan, lek o'zgaga yorsan,
Faqat meni sevasan jonim.
Unutolmay adoi zorsan
So'nggi kunga qadar, inongum.

Hurliqosan, uning ortidan
Soya misol ergashding hatto.
Ma'sumgina boqqaning bilan.
Senga qiya boqmadi ammo.

Ayoliga aylanding shunda,
Sen qiz bola emasmidang, a?
Har nag'mangdan porlabda kunday,
Go'zallikda bo'lding ma'buda.

Vafosizday tuyulding, biroq
Faqatgina bir bora dildor.
Bir iboli porladi bu choq
Mehr to'la ko'zlaring oshkor.

Sir saqlashni bilmaysan, inon,
Unga mangu yotligingni ham.
Unutmaysan meni hech qachon,
Tangriga chin ichganday qasam.



BIZ YONMA-YON BORARDIK...

Biz yonma-yon borardik, ammo
Kuch topmading solmoqqa nazar.
Mart kunlarin shamolida boz,
Quruq suhbat xo'p g'ashga tegar.

Oqarardi sovuqdan bulut,
Tomchilarga do'ngan bog' bedor.
Porlar yuzing uzra oppoq o't,
Gullar kabi ko'zlaring zangor!

G'uncha misol ochilar labing,
Cho'chir nigoh tegib ketishdan.
Quruq shodlik tutadi tag'in,
Bizga o'sha g'alati olam.



NECHUN, NIMA HAQDA GAPIRMOQ KERAK?

Nechun, nima haqda gapirmoq kerak?
Orzu-yu muhabbat, qalb ila jo'shqin.
Yurak intiladi fosh qilmoq uchun,
Nima bilan deganso'z ila beshak.

Odamzodga oid so'zlar-da azal,
Allaqachon ular izdan chiqmagan!
Ma'no izlamangiz ulardan har gal,
Mazmun unutilgan, ma'no yig'magan.

Kimga ham bu haqda so'zlamoq kerak?
O'tli yurak yo zo'r istak bilan, bas.
Azob- uqubatning bor kuchin beshak,
Uddasidan chiqmas tushunmoqni kas.



Qirlar qo'ynidagi huv monastrlar,
Merosidir dengiz qaroqchilarin.
Unutilgan bo'm-bo'sh makonda, do'stlar,
Ruhim qachonlardir yashagan tag'in.

Men sizni sevaman odmi hujralar,
Devori zil cho'kkan hovlilarni ham.
Mog'ordan oqargan tuprog'ing va
Ko'prik ostidagi butangni har dam.

Sirpanchiq kulrang tosh, palaxsalar-u
Zaytunaro go'yo ko'm-ko'k ko'ringan,
Qirg'oqni band qilgan tog' yonbag'rini,
Qoya ostidagi zilol suving – shan,
Zaytun barglaringni sho'rtak shamoli,
Xushbo'y zira hidin taratar g'olib.

O'roz HAYDAR tarjimalari.



TOSHKO'MIR

Barlos Temur keltirdi sabiy o'g'liga
O'tni gurillatadigan la'l va toshko'mir.
U oqil erdi: na toshko'mir, na-da la'lga
O'g'lida talpinish bo'lmasin bo'lmag'ur.

Temur dedi: «Mubtalolikdan har qachon
Bilgin o'tda kuymoq a'lo, ajrat nafini».
Lek Xudo Rahmon zot bolaga mehribon –
Uning O'zi hilpib turdi go'dak kaftini.



QIYOMAT KUNI

Oltin qalqoni osiq taxtining tepasiga,
Surini puflaganda maloyika Isrofil –
Chumoliday oqamiz Hashrga¹ yoppasiga
Yorilgan qabrlardan tizilgancha muttasil.

Qalqon guvillab qolar – go‘rdan chiqargung
betil,
Mashhargohga Qiyomat soyang tushganda,
Qahhor.
Osmon qonli terining raftoriday
qip-qizil,
Ko‘nchi ichin ag‘darib sho‘r suvga solgan
so‘ng bor.



¹ Hashar – Qiyomatda odamzod tirilib, to‘planadigan joy.



Alloh shunday degan: «Agar sevimli bandam,
 Qur'onni dushman ichra qilsang qiroat
 Men oraga parda tashlab asrarman ajab¹
 Xushjarang oyatlarim johillar etsa haqorat»

Alomat hislar, qancha – go'zal fikrlar boshda,
 Sir tutarman sizdan. Yo'qdir yo'limda xatar.
 Hech kim ko'nglimni bilmas, Allohndan boshqa:
 U O'zi o'z pardasi bilan bizni ajratar.

MUHAMMAD (S.A.V.) VA SOFIYA

Chaqqon turmaklarkan, Sofiya tongda uyg'onib
 Qora sochlarini oppoq qo'llari ila.
 Yuzin yuvgan yoshlarni artmay der yonib:
 «Muhammad, hamma juxud deya meni turtkilar».

Muhammad kulimsib, boqqancha bir zum
 Der muhabbat bilan: «Aytgin azizam:
 Ibrohim – otam mening, Muso – amakim
 Muhammad – zavjam».

¹ Ushbu satrlar va she'r Qur'oni karimning quyidagi oyatiga asoslangan: Va biz ularning oldidan ham to'siq qildik, orqalaridan ham to'siq qildik, ko'zlariga parda tortdik. Bas, ular ko'rmaslar. (Yosin surasi, 9-oyat).

Qish kuni qosh qorayar, tun cho'kadi xotirjam
Ko'ngilga qular bir-bir – jilvalanganlar bari.
Ko'zguda ko'ringanlar yo'qolgan – so'nganday sham...
O'lim ham balki shunday, shundaydir o'lim jari.

Lahad qorong'iligida faqat mening sigaram
Ajib chaqnab turadi, cho'g'i qizarinqirab.
U ham so'nadi oxir, iz qoldirib biror dam
Ortidan xushbo'y, ukpar isi ham qolmas, yo Rab.

Kim bu Zot, o'ynayotgan? Kimning aziz barmog'i,
Chaqnab uzugi har on, simlar ustida tolmas?
Ko'nglimni yoritgancha orzu-armon chirog'i,
Qabr qorong'ilig'i meni hech qo'rqitolmas.

FARZ

Har nega qodir Alloh nomiga qasam!
Qalamga taqdir etdi yozmoqni azal.
Aytgan O'zi: So'zga sodiq bo'l odam,
Til nega va'da bersa, muqarrar bajar.

Qonun yoziq, qulsan qabul et, kulma,
Yo rad etgin va yo ulug'la chindan.
Kitob ko'tarib yurgan eshakday bo'lma,
Faqat yuk bo'lmasin yelkangga mingan.

IBROHIM (A.S.)

Qorong'i tun edi bir kun sahroda porloq,
Yulduz ko'rib ko'kda, xitob qildi Ibrohim:
«Mana mening Rabbim!» Tun yarmida biroq
Yulduz botib ketdi, endi ko'rolmas hech kim.
Tongga yaqin edi, bir kun sahroda porloq
Hilolni ko'rib, xitob qildi Ibrohim:
«Mana mening Rabbim!» Yulduz kabi biroq
Nuri so'nib, botib ketdi oy ham, topgay kim?
Erta tong chog'i edi, bir kun sahroda porloq
Quyoshga qo'l uzatib shod xitob qildi Ibrohim:
«Mana mening Rabbim». Oftob ham biroq,
Shomda botdi sirg'alib ufq ortiga jim.
Haq yo'lni Ibrohimga o'zi ko'rsatdi Alloh!

Vafo FAYZULLOH tarjimalari.



RUS BAHORI

Daralarda qayinlar diqqat,
Dalalarda tumanlar xira.
Otning tezaklari namiqqan,
Qorayadi yo'llar bokira.

Uyquli yurt qishloqchasida
Yopilgan nonlarning xush hidi,
Qishloqchaning jim ko'chasida
Ikki gadoy sekin yuribdi.

Ko'chalarda xalqob, ko'lmaklar,
Kul va bahor chiqitlari bor.
Mo'rildan tutun o'rmalab,
Supalarda yonar o't, g'ubor.

Qorovul it. Omborning yoni.
Ko'zi yumuq. Zanjiri zangli.
Tutundan qoraygan tom-u shift,
Kengliklar jim, ular tumanli.

Faqat xo'roz kuylar beparvo,
Bahorni kun bo'yi kerilib,
Dalalarda iliqlik, mudroq,
Yuraklarda shirin erinish.



...Va tush ko'rdim, ertakdagiday
 Yurmishmiz qirg'oqni qoralab,
 Ko'k yovvoyi ko'rfaz ustidan,
 Qarag'ayzor, qumlar oralab.

Yozning porloq choshgohi emish,
 Jazirama kun ham beozor,
 Oftobning shod nurlari bilan
 Sug'orilgan emish o'rmonzor.

Issiq, pushti qumlar ustiga
 Soyalar naqsh kabi to'shalmish,
 Qarag'ayzor uzra moviy ufq
 Tiniq emish, shodon yuksalmish.

Dengizlardan qaytgan shu'lalar
 Qarag'aylar ustida o'ynar,
 Shunday shaffof, oyna shilimlar¹
 Oqmish quruq po'stloqlar bo'ylab.

Men tush ko'rdim; shimol dengizin,
 O'rmonlarning etaklarini,
 Yiroqlarni, mening tengsizim –
 Yoshligimni – ertaklarimni.

¹ Daraxt shirasi.



QO'SHIQ

Men polizchi, oddiy dehqon qiz,
U – baliqchi, sho'x, yurgan yigit.
Limanda ko'rinmay borar oq yelkan,
U dengiz, daryoni ko'p ko'rgan yigit.

Deyishar, Bosforda yunon qizlari
Go'zalmish... men esa ozg'in, qoraman.
Yo'qolar to'lqinli yelkan izlari...
Balki u qaytmaydi, kutib tolarman!

Men kutaman yaxshi-yomon kunda ham...
Yo'qsa poliz bilan xayr-xo'sh qilaman.
Dengizga boraman, uzukni tashlab,
O'zimni sochimga osib o'laman!



SA'DIY VASIYATI

Xurmo kabi saxiy bo'l,
Agar qo'ldan kelmasa,
Sarvday tik va to'g'ri bo'l,
Bo'lg'in oddiy, mard, toza.

* * *

Bir kun kelib toparman fano,
Lekin bo'm-bo'sh bu xonam aro
Avvalgiday qolib ketadi
O'rindiqlar qadimiy, oddiy.

Avvalgiday uchib yuradi,
Shohilarda rangin kapalak,
Hilpillab, shitirlab, pirillab
Zangor-zangor shift bo'ylab halak.

Avvalgiday osmonning qa'ri
Boqar ochiq, keng derazaga,
Avvalgiday dengizning bag'ri,
Chorlar ko'kni moviy larzaga!



Yonma-yon ketardik, lekin sen menga
Endi qaramoqni qilmay ixtiyor
Va mart kunlarining shamollarida
Bo'm-bo'sh so'zlarimiz yo'qoldi ko'p bor.

Sovigan bulutlar oqarib, pastlab,
Tomchilab turardi o'sha bog' aro,
Sening yonoqlaring oqardi dastlab,
Ko'zlaring ko'kardi gulday, dilrabo!


Nim ochiq lablaring go'zaldir biram,
Boqmoqqa jur'at yo'q, men cho'chib ketdim!
Lekin biz ikkimiz yonma-yon yurgan
O'sha mas'ud dunyo hamon bor edi.



Eslayman uzun qish kechasin,
 Nim yorug'lik, sukunat sasi;
 Shamdan xira nurlar quyilar,
 Kechki bo'ron yig'lar, uvillar.
 «Qo'zichog'im, – pichirlar onam,
 Uxlamoqni qilsang ixtiyor,
 Uyg'onmoqlik uchun sen yana
 Erta bilan xursand va xushyor,
 Unut, bu qish qor bo'ronini
 Va men bilan ekaning unut,
 Shivorini esla o'rmonning,
 Saratonni esla, yodda tut.
 Qandoq shovullardi qayinlar,
 Esla, o'rmon ortidan asta
 Suzib kelar oltin to'lqinlar –
 Javdarzorlar yurar ohista!»
 Men bu tanish nasihatlarga
 Ishonch bilan qulog'im tutdim,
 Cho'mib orzu, xush niyatlarga
 Mudradim, bo'ronni unutdim.
 Shirin uyqu bilan quyildi
 Allalovchi shirin xayollar –
 Boshhoqlarning shildiroq kuyi,
 Qayinlardan sirli savollar.

Yo'ldosh ESHBEK tarjimalari.







ARAFa

Shaharda, vokzalga ketaverish. Izvosh daryo orqali tepalig-u ko'prikdan shitob bilan yelib borardi. Ko'prik tagida, sohilning sayoz yerida, ko'prik soyaboni ostida yo'lovchilarga orqa o'girib, o'zini himoya qilgandek yelkalarini ko'targancha bir yalangoyoq isqirt latta ichidagi allaqanday nishxo'rdni titib, ochko'zlik bilan oshalar edi. Orqada, yon tomonida dehqonlarning vahimali etiklari osilib turgan shaloq arava silkingancha, gumburlab, shamoldek yelib borardi. Hamma yeri unga belangan tegirmonchilar, bari dev-qomat va sap-sariq, boshyalang, bog'ichlari yechib tashlangan qizil ko'ylakda...

So'ng ikkinchi toifa vagoni. Va ro'paramda davangiday, kir-pisoch, kataklari yoqimsiz kerilgan yapasqi burni ustiga tilla ko'zoynak qo'ndirib olgan qirqlar atrofidagi janob o'tirardi. Bir payt mendan hazar qilgandek hamma birdan o'rnidan turdi, hech biri menga qaramayotgandi, ular tokchadagi yukbop jomadonlari-yu jomadonchalarini tartibga sola ketishdi. O'z hayotidan va mustahkam obro'-e'tiboridan mamnun, pishiq-puxta, o'ziga ishongan janob...

Lekin o'n oltinchi yilning kuzi allaqachon yaqinlashib qolgandi.

Dildorxon ALIYEVA tarjimasi.



BAHORDA – IUDEYADA

– Meni bir umrga mayib, oqsoq qilib qo‘ygan bu voqea ayni navqiron yigitlik chog‘imda, olis Iudeyada yuz bergan edi, – deb hikoyasini boshladi baland bo‘yli, qomati kelishgan, yuzlari sarg‘imtir, qo‘yko‘zlari yaltirab turadigan, jingalak kalta sochlari oqargan kishi. Chap tizzasi bukilmaganidan u doim qo‘ltiqtayozda yurar edi. U paytda O‘lik dengizning chap qirg‘og‘ida – afsonaviy Sodom va Gomorrada ish olib borayotgan tadqiqot guruhiga a‘zo edim, Istanbulda ushlanib qolgan sheriklarimni kutib Quddusda yotardim va vaqti-vaqti bilan Iyerixon yo‘lidagi badaviylar qo‘nalg‘asida yashovchi shayx Aidning oldiga borib turardim; safarga kerakli hamma narsani topib berish va yo‘lboshlovchilik qilishni zimmasiga olgan bu kishini menga qudduslik arxeologlar tavsiya qilishgandi. Birinchi kun bir kishi yo‘l ko‘rsatib bordi, maslahatlashib, gapni pishitib qaytdim; ertasi kuni uning o‘zi Quddusga keldi; shundan so‘ng manzilini yolg‘iz topib boradigan bo‘ldim, minishga kelgan chiroyli baytalini sotib oldim, keyin u tomonga kunda-kunora qatnay boshladim...

Ko‘klam fasli edi. Iudeya saxiy quyosh nurlariga g‘arq bo‘lgan, «Qo‘shiqlar qo‘shig‘i»da aytilganidek: «Qish o‘tib ketdi, zamin gulga to‘ldi, qo‘shiq kuylash davri keldi, mayna soz chaladi, nish ura boshlagan uzum kurtaklari muattar hid taratadi». Toshloq Iudeya sahrosidan o‘tadigan ko‘hna Iyerixon yo‘li har galgidek kimsasiz, tashlandiq bo‘lib, garmsel va qum ko‘z ochirmasdi. Ammo bu charog‘on bahor kunlarida men o‘zimni nihoyatda baxtiyor, shod-xurram his qilardim; Sharqqa birinchi marta kelishim, misli yo‘q yangi bir dunyoni o‘z ko‘zlarim bilan ko‘rmoqda edim. Bu dunyoda yana bir mo‘jiza – Aidning jiyani ham bor edi.

Urdun vodiysigacha cho‘zilib ketgan Iudeya sahrosining o‘zi bir olam, unda-bunda tikanak butalar o‘sib, ilonlar va kakliklar makon qurgan chag‘ir toshli, qumloq tepaliklar, yaydoq qirlar abadiy sukutga cho‘mib yotadi. Iudeyada butun qish bo‘yi yomg‘ir yog‘ib, muzdek shamollar esadi; bahor, yoz, kuzda yana bir xil manzara va qabriston jimligi hukmron, ammo hamma yerda jazirama issiq, mudroq sukunat.

Quduqlari bor kichik daralarda badaviylar manziliga xos izlar: gulxandan qolgan kul, chodirlarni tikish uchun doirasimon yoki to'rtburchak qilib taxlangan qator toshlar ko'zga tashlanadi... Men boradigan shayx Aidning manzili ham tepaliklar orasidagi keng qumloq o'tloqda joylashgan. Sariq qumlar qo'ynida nihoyatda xunuk ko'rinadigan qora namatdan yapaloq yoki to'rtburchak shaklda qurilgan bir necha o'tovdan iborat edi. Bu yerga kelganimda har gal chodirlar oldida tutab yotgan tezak uyumini ko'rar edim, chodirlar orasi tor: hamma yerda itlar, otlar, xachirlar, echkilar – ularni qayerda va qanday boqishadi, haligacha buni bilmayman. Bir to'da yalang'och, qora-qura, jingalaksoch bolalar, ba'zilari lo'lini, boshqalari zanjini eslatadigan, ammo lablari yupqa xotinlar va erkaklar uymalashib yurishardi...

Ularning kiyimlari ham juda g'alati: jazirama issiq bo'lishiga qaramay, erkaklar tizzagacha tushadigan qalin ko'ylak, paxtalik kamzul, uning ustidan esa ola-bula jundan, oq va qora rangda yo'l-yo'l qilib tikilgan, yelkalari keng, uzun va og'ir qabo kiyishadi: boshlariga bir uchi yag'riniga tashlangan, chekkalariga yana ola-bula enli jun ipak ip ikki marta aylantirib bog'lab qo'yilgan qizil hoshiyali yo'l-yo'l sariq ro'mol – kefiyya o'rab olishadi. Ayollarning kiyimi ularnikiga tamomila qarama-qarshi: boshlariga kubsimon ro'mollar tashlab yurishadi, yuzi ochiq, egnida kubsimon uzun ko'ylak, o'tkir uchli yengi oz bo'lmasa yerga tegay deydi, erkaklarning oyog'ida nag'al qoqilgan qo'pol boshmoqlar; ayollar yalangoyoq yurishadi, boldirlari biram ajoyib. Erkaklar chilim chekishadi, ayollar ham...

Qo'nalg'aga ikkinchi marta yo'l boshlovchisiz yolg'iz o'zim kelganimda meni yaqin do'stlaridek kutib olishdi. Aidning chodiri hammanikidan katta edi. Men bu yerda ichkariga kirish uchun etagi ko'tarib qo'yilgan qora namat chodir yonida qator o'tirgan bir to'da keksa badaviylarga duch keldim. Aid istiqbolimga chiqdi, o'ng qo'lini labi va peshonasiga tegizib, ta'zim qildi. Chodirga meni o'zidan avval kirgizdi. Ichkari kirgach, chodir o'rtasiga solingan gilamga o'tirishini kutib turdim, so'ng men ham unga o'xshab o'ng qo'limni labim va peshonamga tegizib, o'tirgan odamlarning hammasiga ta'zim qilib chiqdim, keyin Aidning yoniga o'tirib yana shu harakatlarni takrorladim, albatta, menga ham shunday javob qaytarishdi. Faqat xo'jayin ikkimiz qisqa va ohista gaplashib o'tirdik,



odat shuni taqozo etardi, bundan tashqari, hali men jonli arab tilini yaxshi bilmasdim, boshqalar chekar va sukut saqlashardi.

Chodirdan tashqarida menga va mehmonlarga ziyofat tayyorlashmoqda edi. Odatda badaviylar xibiz – zog'ora non va echki suti-da pishirilgan bug'doy yormasi iste'mol qilishadi... Mehmonni esa xaruf – qumda qazilgan va tezak yoqiladigan o'choqda pishirilgan qo'y eti bilan siylashadi. Taomdan keyin har doim qand solinmagan qahva tortishadi. Hamma bermalol yeb-ichib o'tirar, namat chodirdan tashqarida esa xuddi do'zax alangasidek garmisel ufurib turar, chodirning keng ochib qo'yilgan tirqishidan sahroga qarashning o'zi meni dahshatga solardi: olisdagi yaltiroq qumlar odamning ko'ziga xuddi suzib ketayotganga o'xshab ko'rinaradi. Shayx har bir so'zidan keyin menga xoja – «janob» deb murojaat qilar, men ham uni muhtaram badaviy shayx, ya'ni «sahro o'g'li» deb atar edim. Darvoqe, Urdun arabchasiga qanday atalishini bilasizlarmi? – Juda oddiy: bor-yo'g'i «suvloq joy» degani.

Aid ellik yoshlarga borgan, past bo'yli, suyagi ingichka, ozg'in bo'lsa-da, chayir; yuzi pishirilgan g'ishtning o'zi; kulrang tiniq ko'zlari o'tkir, oqara boshlagan qattiq, kumush cho'qqi soqoli va mo'ylovi yaxshilab kuzalgan, badaviylar soqol-mo'ylovga alohida e'tibor berishadi, boshqalar singari nag'al qoqilgan katta boshmoq kiygan edi. Quddusda oldimga kelganida belbog'iga xanjar taqib, uzun miltiq ko'tarib olgandi.

Jiyanini o'sha «do'st» bo'lib borgan kunimda ko'rdim, u boshidagi katta mis ko'zani o'ng qo'li bilan ushlagancha, chodir yonidan qaddini tik tutib o'tib ketgan edi. Necha yoshdaligini bilolmadim, chamasi, o'n sakkizdan oshmagandi, bundan to'rt yil avval erga tekkani va shu yildayoq beva qolgani, bolasi yo'qligini, tog'asining chodiriga g'irt yetim va qashshoq holda qaytib kelganini keyinchalik bilib oldim. «Ko'zingga qara, Sulamif!» deb o'yladim men. (Axir Sulamif ham aynan shunga o'xshagan edi. «Quddusning qizlari, men qora va chiroyliman»).

U chodir yonidan o'tayotib, boshini salgina burib, menga ko'z qirini tashlab qo'ydi: bu ko'zlar favqulodda qop-qora, sirli edi. Qoracha yuzlari, qalin binafsharang lablarini ko'rishim bilanoq, maftun-u lol bo'lib qoldim... Faqat shular deysizmi?! Butun qiyofasi meni mahliyo qilib qo'ydi: mis ko'zani qattiq ushlagan qo'llari yelkasigacha

yalang'och, uzun kubsimon ko'ylak ostida oxista to'lg'anib ketayotgan xipcha qomati, ko'ylagini ko'tarib turgan bo'liq ko'kraklari...

Bu ham yetmagandek, ikki-uch kundan keyin uni Quddusda – shundoqqina Yaff darvozasi yonida uchratib qolsam bo'ladimi! U olomon orasida men tomonga yurib kelar, boshida qandaydir tugun ko'tarib olgan edi. Meni ko'rib to'xtadi. Darhol oldiga bordim.

– Meni taniyapsanmi?

U bo'sh turgan chap qo'li bilan yelkamga salgina turtib qo'yib, jilmaydi:

– Tanidim, xojam.

– Nima olib ketayapsan?

– Echki pishlog'i...

– Kimga?

– Hammaga.

– Demak, sotar ekansan-da, unda menikiga olib boraqol.

– Qayerga?

– Mana buyoqqa, mehmonxonaga...

Men Yaff darvozasining shundoq yonidagi baland ensiz binoga joylashgan edim, u kichkina maydonning chap tomonidagi boshqa uylar bilan tutashib, zinapoyalarga to'la qorong'i, ba'zi joylari tim yoki ko'hna gumbazlar bilan yopilgan, qadimiy ustaxonalar va do'konlar qalashib ketgan «Shoh David ko'chasi»ga ulanib ketgan edi. U hech qanday qarshilik ko'rsatmasdan oldinga o'tdi va egri-bugri, tor tosh zinapoyalardan xiyol oldinga engashgan ko'yi xipcha qomatini erkin tutib yurib ketdi, ro'molchadagi pishloqni naridan beri nomigagina ushlab olgan o'ng qo'li yalang'och bo'lib, yelkasi-ga tushib turgan qora sochlari ko'zni o'ynatar edi. Buri-lishdagi zinapoyalardan birida to'xtadi: u tomonda, qo'shni uylarning tutash to'rtburchak devorlari ostida xuddi quduqdagi kabi ko'kimtir suv (ayni o'sha suv), yalang'och badani bilan shoh Davidni asir-u lol etgan Uriyaning xotini Virsafiya cho'milgan ko'hna «Avliyo Iyezikil shalolasi» yarqirab ko'rinib turar edi. U to'xtar ekan, oynaga qaradi, so'ng o'girilib, maftunkor ko'zlari bilan menga shodon nazar tashladi.

Men o'zimni tutib turolmadim, engashib bo'ynidan o'pdim, u menga hayratlanib boqdi, badaviylarda bo'sa olish odati yo'q. Xonamga kirgandan keyin u tugunini stol ustiga qo'ydi va o'ng qo'lini

menga uzatdi. Men kaftiga bir necha mayda mis chaqa tashladim, so'ng hayajondan qaltiragan holda bitta oltin funt chiqarib unga ko'rsatdim. U tushundi va kipriklarini yumdi, itoatkorona boshini egib, kaftlari bilan ko'zlarini berkitdi...

Yarim soatdan keyin uni zina oldida kuzatib qo'yar ekanman:

– Yana qachon pishloq olib kelasan? – deb so'radim.

U boshini ohista liqillatdi:

– Yaqin kunlarda kelolmayman.

Shunday deb besh barmog'ini ko'rsatdi: besh kundan keyin. Ikki hafta o'tgach, Aidning oldidan qaytayotib, manzildan ancha uzoqlashganimda, orqamdan miltiq ovozi eshitildi va yonimdagi toshga o'q kelib urildi, zarb shunday kuchli ediki, hatto, toshdan tutun chiqib ketdi. Men egarga engashib, otga qamchi bosdim, ikkinchi marta miltiq qarsilladi, chap tizzamga nimadir qattiq tekkanini sezdim. Quddusga yetguncha otni to'xtatmadim, bir vaqt engashib qaragam, etigimdan qon ko'piklanib oqmoqda edi... Aid qanday qilib ikki martada ham mo'ljalga urolmaganiga hali-hali hayron qolaman. Yana jiyani menga pishloq sotayotganini qayerdan bilib olganiga hamon aqlim yetmaydi...

Ortiqboy ABDULLAYEV tarjimasi.



Mening bu dunyodagi kunlarim juda oz qoldi edi.

Endi Antib yaqinida, bandargohga qo'shni bo'lgan Dengizbo'yi Alpida bir vaqtlar Bernar haqida qilgan qaydlarim tez-tez yodingma tushadi.

– Bernar derazamga bir siqim qum otgan paytda men dong qotib uxlab yotardim...

Mopassanning «Suvda» hikoyasi ana shunday boshlanadi, 1888-yilning 6-aprelida, «Balamiy» yaxtasi Antib bandargohini tark etishi oldidan, Bernar Mopassanni shu taxlit uyg'otgan edi.

– Derazani ochishim bilan yuzimga, ko'ksimga va vujudimga tunning farahbaxsh epkini urildi. Ko'kdagi harir moviylik yulduzlarining jonli jilvasidan titrab turardi...

– Havo bugun ayni muddao, janob.

– Shamol-chi?

– Sohildan esyapti, janob.

Oradan yarim soat o'tdi, ular endi allaqachon ochiq dengizda edilar:

– Ufq bo'zarib borar, olisda, Farishtalar ko'rfazi ortida Nitssaning chiroqlari, undan ham olisroqda esa Vilfranshning aylanib turuvchi mayog'i ko'rinar edi... Hali o'zi ko'zga tashlanmayotgan bo'lsa-da, lekin qor bilan qoplangani sezilib turgan tog'lardan ba'zan quruq va sovuq havo epkini kelib turardi...

– Bandargohdan chiqishimiz bilanoq, yaxtaga go'yo jon kirdi, yayrab ketdi, tezligi oshdi, yengil va mayda mavjlar uzra raqs tusha boshladi... Tong yorishib borar, yulduzlar bir-bir o'char edi... Huv olis ko'kda, Nitssa ustida Yuqori Alpning qorli cho'qqilari allaqanday o'zgacha bir pushti yolqinga chulg'anib borardi...

– Men quyosh chiqishini tomosha qilish maqsadida rulni Bernar-ga berdim. Kuchaya boshlagan shabada yaxtani titroq to'lqinlar uzra olg'a haydardi, men qandaydir olislarda yangragan qo'ng'iroq sado-sini eshitdim. Angelus bong chalardi... Odamlar hali uyquda yotgan, lekin zamin allaqachon uyg'ongan mana shu mayin, shaffof tong pallasini naqadar yaxshi ko'raman! To'yib nafas olasan, musaffo havoni simirasan, biz uchun abadiy sirli va buyuk iztirobga aylangan dunyoning bo'g'ilib kelayotgan borlig'ini ko'rasan kishi!..

– «Bernar – ozg'in, chaqqon, hayratlanarli darajada ozodalik va sarishtalikka ruju qo'ygan, g'amxo'r, sezgir. U pokdil, sadoqatli inson, ajoyib dengizchi...»

Bular Bernar haqidagi Mopassanning so'zlari. Bernar esa o'zi haqida mana bunday degan edi:

«Men yomon dengizchi emasdim deb o'ylayman».

Buni u o'limi oldidan aytgan, bu uning «Balamiy» 1888-yilning 6-aprelida, dengizga yo'l olgan o'sha Antibda, o'lim to'shagida aytgan so'nggi so'zlari edi!

O'limidan biroz ilgari Bernarni ko'rgan kishi shunday hikoya qiladi:

– Ko'p yillar mobaynida Bernar buyuk shoirning dengizda kechgan sarkash hayotiga hamrohlik qildi, Mopassan to' o'sha mash'um safarga, Parijga, doktor Blansh huzuriga yo'l olguniga qadar Bernar undan ayrilmadi.

– Bernar o'zining o'sha Antibida hayotdan ko'z yumdi. Lekin men uni yaqindagina, ko'pincha, «Balamiy» langarda turadigan mo'jaz Antib bandargohining nurafshon sohilida ko'rgan edim.

– Baland bo'yli, qotma, yuzlari dengiz sho'ridan dag'allashgan Bernarni gapga solish oson emas edi. Biroq suhbat mavzusi Mopassanga borib taqaldimi, bas, moviy ko'zlari shu ondayoq jonlanib ketardi, Mopassan haqida u shunday to'liqlanib so'zlardiki!..

– Endi u abadiy sukut qo'yniga cho'mgan. Uning so'nggi so'zlari shu edi: «Men yomon dengizchi emasdim deb o'ylayman».

Men bu so'zlarni u aynan qay taxlit aytganini yaqqol tasavvur qilaman. Bu so'zlarni u qat'iyat va iftixor bilan, oftobdan qoraygan, qarilikdan quruqshagan qo'llari ila cho'qina turib aytgan.

Xo'sh, bu so'zlar bilan u nima demoqchi bo'lgan. Bu dunyoga kelib, yaxshi dengizchi sifatida odamlarga naf yetkazganidan iftixor tuyg'usimi bu. Yo'q, tangri har birimizga hayot ila muayyan bir iste'dod ham ato etganini va uni tuproqqa qorishtirmaslikdek muqaddas burchni zimmamizga yuklaganini aytmoqchi edi u. Xo'sh, bular nima uchun kerak. Buni bilmaymiz. Biroq biz tubiga hech qachon yetib bo'lmaydigan bu dunyoda har bir mavjudot uchun ma'no va dunyodagi hamma narsaning «yaxshi» bo'lishi uchun qandaydir maqsad zarurligini, bu ilohiy maqsadga yetishmoq esa bizning tangri oldidagi xizmatimiz, ayni paytda ham quvonchimiz, ham iftixorimiz

ekanini bilishimiz shart. Bernar buni yaxshi bilar va his qilar edi. U zimmasiga Xudo yuklagan kamtarin burchni umr bo'yi munosib ixlos va sadoqat bilan ado etdi. Tangriga qo'rqqanidan emas, vijdonan xizmat qildi. Shunday ekan, u umrining so'nggi daqiqalarida o'sha so'zlarni aytmasligi mumkinmidi?! «Bandang tavbasini dargohida qabul aylaguvchi, ey birubor Tangri taolo, senga va odamlarga qarata bugun shuni aytishga jur'at etamanki, men yomon dengizchi emasdim deb o'ylayman».

– Dengizdagi biron-bir narsaga Bernar befarq qarayolmas edi, deb yozadi Mopassan: nogahon duch kelgan, qaydadir ochiq dengizda shamol esayotganidan dalolat beruvchi sovuq oqimga ham, g'arbda izg'irin shamol turganini anglatuvchi Esterel ko'kidagi bulutlarga ham... U yaxtani shu qadar ozoda saqlardiki, hatto kemanding mis qoplangan qaysidir bir qismiga tushgan dengiz tomchisiga ham chidab turolmas edi...

Ajabo, Bernarning bu tomchini darhol artib olishidan kimga naf bo'lishi mumkin? – U esa, albatta, artib qo'yar edi. Xo'sh, nega? Nima uchun?

Axir hammasi «yaxshi» bo'lishini, hatto, Xudoning o'zi xush ko'radi-ku! Bernar ham o'z ijodining «yaxshi» ekanini ko'rib, o'zi quvonar edi.

Nazarimda, so'nggi kunlarim bilan xo'shlashar ekanman, men bir san'atkor sifatida, o'z haqimda o'limi oldidan bir paytlar Bernar aytgan o'sha so'zlarga o'xshash gapni aytishga haqqim bor deb o'ylayman.

Abdulla SHER tarjimasi.



Mo'ysafid, sochlari qalin, hurpaygan, kun bo'yi chekkani-chekkan.

Tong-saharda bir tortib, aqlini peshlab olmasa, gandraklab, o'ziga kelolmaydi.

Debocha ham kerak emas, undaylar bu yorug' olamga, bola-chaqa va oilaga (garchi uni ota, buva deb chaqirishsa-da) begona va u ko'z ochib yunguncha dunyodan o'tadi, bu manfaatparastlar uyasi-ni-yu markazdan olis bu ovloqni toabadga tark etadi va ana o'shanda sen so'ra, surishtir, so'zla, bu bangidevona bu yorug' olamda kim uchun yashadi-yu, nima uchun yashadi.

Nima bo'lganda ham uning bu dunyoda o'z o'rni bor:

– Buvajon, tushlikka keling! Ugra sho'rva sovib qoladi!

– Sizlar menga qaramay boshlayveringlar... Men sal keyinroq... menga qolgani ham bo'laveradi...

O'zining esa tushlikni kutaverib qorni piyozning po'sti bo'lib ketgan.

– Ota, siz hech bo'lmasa ishtoningizni almashtirib oling, axir ich kiyimlaringiz taxlanib yotgan bo'lsa!

– Bu gapingga besh ketsa arziydi! Taxlanib yotganmish! Bir parcha butun yeri qolmagani qachonlar edi! Shunday bo'lganda, avaylab o'tirmasdim! Endi menga, kelinjon, hech nimaning keragi yo'q. Xudoga shukur, yashadim, endi izzatim bitdi, faqat Xudodan bitta o'tinchim – tezroq jonimni olsa...

O'ziga qolsa o'lguday ziqna, bor-yo'g'ining tashvishini qilgani qilgan, bu dunyodan ham hech umid uzgisi yo'q va umrning bir asrdan kamiga rozi ham emas.

Nimaga?

Buni o'zi ham bilmaydi.

Birovning ko'nglini birov bilib o'tiribdimi! O'zingnikini bilmaysan-ku!

Dildorxon ALIYEVA tarjimasi.



DUMLI YULDUZ

Boylarning uyidagilar ham, qishloqdagilar ham dumli yulduzga o'xshash nimadir kelayotganiga ancha vaqtgacha ishonishmadi: «Ular faqat qadim zamonlardagina bo'lgan!» Va nihoyat bir kuni tunda, shimoliy ufq tomonda, kareta turadigan saroyning orqasida birdan dumli yulduz ko'rinib qoldi. Uning yaltiroq dumi bir tomonga xiyol qiyshayib turardi. Xo'jayinlar uni soyabonli pillapoyada turib kuzatishdi. Ular xizmatkorlar xonasining ostonasidan turib ham undan ko'zlarini uzishmay cho'qinishdi. Ertasiga oqsoqol zodagonlar uyining tomiga chiqdi-da, chordoq oynasiga taxta qoqib berkitib tashladi. Taqir-tuqurni eshitgan uy egalari chiqib:

- Oqsoqol, nima gap, u yerda nima qilyapsiz? – deb so'rashdi.
- Nima qilardim, chordoq oynasini berkityapman.
- Nimaga?
- Nimaga bo'lardi, dumli yulduzdan himoyalalanish uchun-da.

Dildorxon ALIYEVA tarjimasi.



YOSHLIK VA KEKSALIK

Ajoyib yoz kunlari, osuda Qora dengiz.

Kema odamlar va yuklar bilan liq to'lgan, hatto kemanding quy-rug'ida ham lash-lushlar qalashib yotibdi.

Kema dunyo kezgan – Qrim, Kavkaz, Anatoliya sohillari, Konstantinopol...

Quyosh charaqlab turibdi, osmon musaffo, dengiz nafarmon, bosh-keti ko'rinmas portda odamlar qator tizilgan, kapitan yordamchilarining quloqni batang qilguvchi so'kinishlari, qichqiriqlari avjiga chiqadi, so'ng yana sokinlik cho'kib, hamma qimirlab qoladi.

Kemanding birinchi toifali kayutalari salqingina, shinam, toza va bo'm-bo'sh. Biroq oshxona yonidagi yo'lovchilar tunaydigan tor, badbo'y hujralar, shiypuncha tagi ivirsib, ko'zga xunuk tashlanadi. Hamma yoqda sassiq hid o'rnanib qolgan. Ustiga-ustak, kunning beayov jaziramasini, ilimiliq havo dimoqni achitadi. Biroq dengizdan taralayotgan ekin bularning hammasini to'zitib yuborguday bo'lib, vujudga halovat inadi.

Yo'lovchilar safida ruslar, no'g'aylar, kurdlar, gruzinlar, hatto greklar ham bor. Kurdlar, sizga aytsam, yovvoyi xalq – kun bo'yi dong qotib uxlashadi, gruzinlar esa quvnoq xalq: qo'shiq aytishadi, juft-juft bo'lib raqsga tushishadi, gohida sakrab ham qo'yishadi, qurmagurlar.

Kema Trapezundda talay vaqt turib qoldi. Men qirg'oqqa chiqqandim, kema zinasida uymalanayotgan bir to'da juldur kurdlargacha duch keldim, sal nariroqda egniga kulrang cherkes kiyib, ensiz kamarni mahkam siqib olgan chol diqqatimni tortdi. Kurdlar biz bilan bitta kemada suzib, bir palubada yotib, turib, joylarini toza saqlashardi.

Cholning soqoli dengiz ko'pigidek oppoq, yuzi esa oftobda qorayib ketgandi. Katta-katta ko'zlari esa yiltillab turardi.

Men uning oldiga yaqin borib, «salyam» – dedim, keyin so'radim:

– Kavkazdanmisiz?

Cholning chehrasi ochilib, do'stona iltifot qildi:

– Uzoqdan cho'tlayvering, janob. Biz kurdlarmiz.

– Qayerga ketyapsizlar?

Uning yuzlari jiddiy tortdi, mag'rur javob berdi:

– Istanbulga, janob. Shohimiz oldiga. Unga sovg'a-salom oboryapman. U o'g'illarimning barini urushga chaqirib olgandi.



Yettoviniyam shahid ketishdi go'ri nurga to'lgurlar. Ammo shohimiz meni yolg'izlatib qo'ygani yo'q, baraka topsin.

– Se-se-se... – deb yubordi tuyqus yonimizda turgan yosh grek. U po'rim kiyingan: boshida olcharang feska, egnida kulrang syurtuk va oq jilet, oyog'ida tugmalari qadalgan yaltiroq botinka bor edi. Qo'lida papiros, burqsitib tutun taratyapti. U boshini chayqab cholgachaingan bo'ldi:

– Bay-bay, qariyaning bir o'zi qolibdi-da, a?

– Qanday nodonlik, – tusi o'zgardi cholning. – Mana, sen qarib-qartayasan. Ammo, men hecham qarimayman. Maymun haqida eshitganmisan?

Yigit miyig'ida kulib so'radi:

– Qanaqa maymun?

– Bilmasang, eshitib ol. Tangri yer va osmonni yaratdi, buni bil-sang kerak?

– Bo'lmasam-chi.

– Keyin odamni yaratibdi-da, qulog'iga quyibdi: «Sen, – debdi, – o'ttiz yil mana shu dunyoda yashaysan, umring farovonlikda o'tadi, dunyoda nimaiki bor, hammasidan foydalanasan. Xo'sh, ma'qulmi, – debdi. Odam o'ylanib qolibdi: «Xammasi yaxshiku-ya, o'ttiz yil kamlik qilmasmikan?» So'ng Xudodan o'pkalanibdi: «Shuncha kam umr ko'ramanmi?» – Eshityapsanmi, – xitob qildi chol kulimsirab.

– Eshityapman, – javob berdi grek.

– Keyin Xudo eshakni dunyoga keltiribdi, unga ham tushuntiribdi: «Sen og'ir yuklarni tashiysan, odamlarni mindirasan, manziliga-cha eltib qo'yasan, agar o'jarlik qilguday bo'lsang, boshingga tayoq bilan urishadi. Rozimisan? – Bechora jonivor zorlanibdi, yig'labdi: «O'ttiz yil xor bo'lib yashaymanmi, hech bo'lmasa, yarmini chegirib qo'y», – debdi. Buni eshitgan odam: «Uning yarim umrini menikiga qo'shib ber», debdi Xudoga. Tangri rozi bo'libdi. Endi odamzodning umri qirq besh yilga uzayibdi. Qara-ya, chakki ish qilmabdi-ya! – debdi quvlik bilan chol.

– Bo'lmasam-chi, – javob qildi grek uning fikrini to'la anglab yetmay.

– Endi Tangri ko'ppakni yaratibdi va unga ham shuncha umr beribdi: «Sen, – debdi itga, – xojangni mol-dunyo-sini asraysan, undan bo'lak hech kimga ishonmaysan, kechalari uxlamay uyini



qo'riqlaysan», debdi. – Qaragin-a, it ham o'ziga berilgan umrdan norozi bo'lib, yarmiga ko'nibdi. Shunda odam yana ochofatlik qilibdi: «Shuncha umr uvol ketmasin, menikiga qo'sha qol», – debdi Yaratganga. Tangri tilagini bajo keltiribdi. Xo'sh, endi bu azamatning umri qanchaga cho'zildi?

– Oltmishga, – dedi grek quvonib.

– Xo'sh, ana undan keyin Xudo maymunni yaratibdi, unga ham o'ttiz yil umr beribdi, keyin tushuntiribdi: «Sen mehnat-mashaqqat-siz kun ko'rasan, faqat husndan mosuvo bo'lasan, boshing tap-taqir, yuzlaring ajinli, tap-taqir qoshing naq peshonangda bo'ladi, kim seni ko'rsa, o'sha zahoti xaxolab masxara qiladi...»

Shu tob grek cholning gapini bo'ldi:

– Demak, maymun ham umrining yarmidan voz kechadi, shundaymi?

– Shunday, – dedi chol yonida turgan millatdoshi qo'lidan mundahtukni olarkan, – odam bundan ham foydalanib, maymunning yarim umrini o'zinikiga qo'shishni so'raydi Xudodan. Yana...

Shundan so'ng qariya jimib, picha xayolga tildi, bizni unutdi go'yo. Keyin ko'zlarini bir nuqtaga qadab, vazmin gapira ketdi:

– Odam o'ziga berilgan o'ttiz yillik umrni maroqli o'tkazibdi – yebdi, ichibdi, urushda qatnashibdi, to'y-ma'rakalarda xursandchilik qilibdi, qiz-juvonlar bilan birga bo'libdi. Keyin umriga qo'shilgan o'n besh yilini eshakday ishlab, bor topgan-tutganini uyiga tashib o'tkazibdi. Keyingi o'n besh yil undan ham oshib tushibdi. To'plagan boyligidan xavotirga tushib, kechalari bilan uxlolmabdi, asabi ishdan chiqibdi. Umrining oxirida esa kuch-quvvatdan qolib, qarib-qartayib tasqara maymunga o'xshabdi-qolibdi. Kimning ko'zi tushsa, boshini liqillatib, xaxolab kularmish. Sen ham ayni o'sha odam ahvoliga tushasan, – dedi qariya grekka mundahtugini tishlari orasida siljitarkan.

– Siz-chi,siz bu ahvolga tushmaysizmi? – deb so'radi yigit.

– Ha, men boshqacha odamman.

– Qanaqa odam?

– Men kabilar bu dunyoda sanoqli, – dedi chol mag'rur. – Men eshakday boylik tashimadim, yo'q mol-dunyoga itdek qo'riqchilik qilmadim, endi maymunga o'xshab tashvishga tushishga ne hojat. Shunday ekan, nega qarilikni bo'ynimga olishim kerak?!

Umid ALI tarjimasi.



ZUMRAD OSMON

Tungi ko'kimtir, zim-ziyo osmonda oqish bulutlar suzib borardi. To'lin oy atrofini ham ko'kimtir bulutlar o'rab olgan. Kishi tikilib qarasa, go'yo bulutlar emas, balki to'lin oy suzayotganga o'xshardi, atrofidagi yulduzlar bamisoli sochib yuborilgan bir hovuch javohirday ko'rinardi: to'lin oy asta-sekin cheksiz samo uzra yuksalib borar va o'zi bilan birga yulduzlarni ham ortidan ergashtirib ketayotgandek edi.

Ochiq deraza raxida boshini ortiga tashlagancha osmonga tikilib o'tirgan qiz o'zini samodagi ajib tovlanishlardan boshi biroz aylan-gandek his etdi. Qizning yonida yigit turardi.

– Bu qanday rang ekan-a, hech ajratolmayapman! Tolya, siz ajrata olasizmi?

– Kisa, nimaning rangini?

– Sizga necha marotaba aytishim kerak, ismimni bunday atamang deb...

– Uzr, Ksenya Andreyevna.

– Men bulutlar ortida qolgan osmonning rangini aytayapman. Hayratomuz rang-a! Ham qo'rqasan, ham hayratga tushasan kishi. Haqiqatan ham, bu samoviy, yerda bunaqasi uchramaydi. Zumradga o'xshaydi.

– Osmonda ko'rinayaptimi, demak, u samoviy. Qiziq, nima uchun u zumrad bo'larkan. Zumradning o'zi nima? Ranglar qorish-masimi? Men uni hech ko'rmaganman. Bu so'z shunchaki yoqib qolgan, xolos.

– Ha. Ehtimol, bu zumrad emasdir, balki shunga o'xshash narsadir... bunaqasi, ochig'ini aytsam, faqat jannatda uchrasa kerak. Bu ajoyibotni ko'rib turib, jannat, farishtalar, Arshi a'lo borligiga qanday ishonmaslik mumkin?..

– Sambit daraxtida sap-sariq noklar..

– Tolya, siz judayam aynib ketgansiz, Marya Sergeyevna, esi past qiz har qanday yosh yigitdan afzalroq, deb haq gapni aytgan ekan.

– Kisa, u juda to'g'ri aytibdi.

Qiz egniga olachipor gulli chit ko'ylak kiyib olgandi, oyog'ida esa arzon payabzal. Uning boldiri va tizzalari to'la, sochlari kalta

qilib qirqilgan, boshini ko'rganni rom etadigan nozik bir tarzda xiyol ortiga tashlagandi... Yigit bir qo'lini qizning tizzasiga qo'yib, ikkinchi qo'li bilan uning yelkasidan quchdi va labidan bo'sa oldi. Qiz o'zini uning og'ushidan asta bo'shatdi-da, qo'lini tizzasidan olib qo'ydi.

– Tinchlikmi, xafa bo'ldingmi?

Qiz boshini deraza kesakisiga tiradi, shunda yigit qizning labini tishlagancha, yig'lavoray deb turganini ko'rdi.

– Senga nima bo'ldi?

– Ey, o'z holimga qo'ying...

– Ayt, nima bo'ldi o'zi?

Qiz shivirlab dedi:

– Hech narsa...

U deraza raxidan sakrab tushdi-da, yugurib ketdi.

Yigit yelka qisib qo'yarkan:

– Jinni bo'lganmi u! – deb qo'ydi.

Nazira JO'RAYEVA tarjimai.



Moskvada, deylik, Molchanovkada «imperatorlar teatrining so-biq artisti» istiqomat qiladi. So'qqabosh, yoshi o'tgan, yuzi yapas-qi, qotmadan kelgan. Ashuladan saboq beradi. Hech bir yil yo'qki, ayni dekabr oyida bu ayolning boshiga bitta ish tushib turmagan bo'lsin.

Bir kuni yakshanbada, ya'niki juda sovuq, quyoshli tongda, dah-liz tomondagi qo'ng'iroq jiringladi.

– Anna! Eshikka qara! – hadiksirabgina qichqirdi u oshpaz ayol-ga yotoqxonadan turib.

Oshpaz ayol eshikka shoshildi, borib ochdi va o'zini biroz orqa-ga oldi, ro'parasida bashang kiyingan, yasan-tusanni o'rniga qo'ygan mehmonlar – mo'ynaga burkangan, oq qo'lqopli ikkita oyimtilla, egniga yalangqavat shinel ilgan, oyog'ida ich-ichigacha muz o'tib ketgan yupqa poyabzal kiygan po'rim talaba turardi. Talaba meh-monlarga shunchaki hamrohlik qilgani o'z-o'zidan ayon edi.

Oynadagi muz naqshlar orasidan o'tib, ichkariga g'ira-shira yog'du taralib turgan kahraborang sovuq mehmonxonada mehmon-lar uzoq kutib qolishdi, so'ng uy bekasining ildam qadam tovushla-ri eshitildi va ular peshvoz chiqish uchun shosha-pisha o'rinlaridan qo'zg'alishdi. Nima gapligidan xabardor ayol juda hayajonda, yuziga quyuq qilib upa surtib, yirik, qoqsuyak qo'llariga atir purkab olgandi...

– Sizlarni kuttirib qo'yganim uchun, xudo haqi, meni afv eting-lar, – dedi u shoshib chiqqanidan yurak urishiga zo'rg'a bardosh ber-gancha, jozibali tabassum va oqsuyaklarga xos xotirjamlik bilan.

– Tashvishga qo'yganimiz uchun bizni afu eting, – dedi talaba uning so'zini bo'lib va o'zgacha izzat-ikrom ila yaltoqlangancha uning qo'lini o'pa turib. – Huzuringizga bizdan muruvvatingiz-ni darig' tutmassiz degan umidda tashrif buyurgandik. An'anaviy adabiy-vokal-musiqa oqshomini uyushtiruvchi qo'mita bizga iltifot ko'rsatib, beshinchi Moskva gimnaziyasi tarbiyalanuvchilarining foydasiga, rojdestvo bayramining uchinchi kuni ushbu oqshomda qatnashishingizni sizdan iltimos qilishni topshirdi.

– Janoblar, mumkin bo'lsa, meni shundan xalos etsangiz! – maf-tunkorlik bilan gap boshladi ayol. – Gap shundaki...

Biroq oyimtillalar ayolni shunaqangi muloyimlik va odob bilan, shunaqangi hamjihatlik ila o'rtaga olishdiki, shugina bir urinishda-yoq u, hatto, bosh tortishni qo'yavering, bir og'iz yo'q deyishga ham botinolmayotgandi...

Shu voqeadan so'ng oradan roppa-rosa uch hafta o'tdi.

Shu uch hafta ichi Moskva ishlaydi, savdo-sotiq bilan shug'ullanadi, vaqtichog'lik qiladi, biroq o'zining eng rang-barang barcha yumushlari-yu qiziqishlari va o'yin-kulgilari orasida u faqat birgina muhim 27-dekabr kechasini pinhona kutib yashardi. Shaharning har bir chorrahasida barcha rang va o'lchamdagi son-sanoqsiz afishalar ko'zga tashlanardi: «Tubanlikda», «Ko'k qush», «Uch opa-singillar», «Suv parisi»dagi Shalyapin, «Qor qiz»dagi Sobinov, Shor, Kreyn va Erlix, Zimin operasi, Igor Severyanin kechasi... Biroq endi beshinchi Moskva gimnaziyasining tarbiyasi qoniqarsiz o'quvchilari foydasiga o'tkaziladigan adabiy-vokal-musiqqa oqshomining iltifotli ishtirokchisi ismi sharifi katta-katta harflar bilan yozilgan mo'jazgina afishadan ko'z uzib bo'lmasdi. Bu vaqt ichida ishtirokchining o'zi unga ko'z tutib turgan Moskvaning ishonchini oqlash uchun tinmay, astoydil ishlardi – goh uni, goh buni, yana boshqasini yodga solar, kuylaydigan qo'shig'ini saralardi, ovozini sinovdan o'tkazardi... Endi kunlar favqulodda tez o'tib borar va bu tezlik uni vahimaga solardi: bu dahshatli kecha ko'z ochib-yumguncha kelib qoladi!

Ayol dars berishni to'xtatdi va hech kimni qabul qilmadi, ko'ksov, tumov yuqtirib olmaslik uchun o'zi ham uydan tashqariga chiqmadi. Tomoshabinlarga nimani taqdim etsa ekan? Bu savolga javob topish, hatto o'z ishining ustasi bo'lgan artist uchun ham qanday mushkul ekanini odamlar qaydan bilsin! Bu yerda nechog'liq sezgirlik-u nechog'liq did, tajriba va uddaburonlikni ko'rsata bilish kerak. Uzoq va mashaqqatli shubha-gumonlardan, ikkilanishlardan so'ng ayol eski, o'zining ajralmas repertuarida to'xtadi va muammo, har holda, o'z yechimini topgandek bo'ldi, tasdiqdan yana o'sha uchta narsa o'tdi: biri – haddan ziyod baxtga tashna va baxtdan taqvodorlarcha yuz o'giran mehribon ayol qalbining kuchi va dardi, undagi pinhona ehtiros, alladek yoqimli, ma'yus fransuzcha maftunkor qo'shiq; boshqasi – tovushdagi ohangdorlikning bor go'zalligini va rusning jasoratini namoyon etuvchi qo'shiq va nihoyat har doim-



gidek alohida hayratga solishi mumkin bo'lgan va «shavq bilan», yoshlardek, sho'x-o'ynoqi ijro etilib, yana xuddi shunday shiddat bilan qarsaklar zarbidan butun zalni larzaga keltirgudek eng yuqori, ingichka ovozda keskin tugallanuvchi uning: «Men sendan bo'sa olgan bo'lardim, biroq oyni ko'rib qolishdan qo'rqaman» shoh qo'shig'i! Bundan tashqari ayol, tomoshabinlar talabiga binoan, o'n ikkita nar-saga tayyorgarlikni boshlab yuborgandi... Kunlar ko'z o'ngida bir-birini quvlab lip-lip o'tib borar va uning qalbida o'zining kun-soati yaqinlashib qolganini sezdiruvchi tuyg'u yetilib kelayotgandi. Biroq u tinim bilmay ishlardi. Mana, oxiri o'sha so'nggi, hal qiluvchi kun ham yetib keldi.

27-dekabr kuni erta tongdan u jonini jabborga berib ishladi. Ertalab yana bitta, eng so'nggi tayyorgarlik ko'riladi. U endi estrada-da kuylagandek, ovozini baralla qo'yib, bor san'atkorona ta'sirchanlik bilan kuylar, dasturning boshidan oxirigacha cholg'uvchi unga ham-rohlik qilardi va u mehnatlari zoye ketmaganini his etdi! Biroq oq-shom uni nima kutayapti – Xudo biladi. G'alabami yoxud halokat. Uning yuzi o'tday yonar, qo'llari esa muz edi... Mashqlardan so'ng u o'z yotoqxonasiga yo'l oldi, yechindi va o'ringa yotdi. Annushka unga odatdan tashqari qandaydir baliqning donador ikrasini, so-vuq jo'ja va o'tkir sharob olib keldi: barcha katta artistlar sahnaga chiqish oldidan mana shu tarzda nonushta qilishardi. Tamaddi qi-lib bo'lgach, u pardalarni berkitib chiqib ketishni va uyda mutlaqo tinchlik saqlashni tayinladi-da, ko'zini yumdi, qorong'ida, biron-bir harakatsiz kechqurungi oltigacha bir, ikki, uch soat hech nimani o'ylamay, hech nimadan hayajonlanmay yotdi. Oltida sapchib turdi; dahliz qo'ng'irog'ining yoqimsiz ovozi eshitildi – ro'parada sarta-rosh turardi!

Ayol gup-gup urayotgan yuragi-yu lovullab yonayotgan quloqla-ri, yonoqlari va muzdek qo'llari bilan o'ziga rosa qirq tomchi tinch-lantiruvchi iforli valeriana suyuqligidan tomizdi-da, yasan-tusan qi-lib, qurbon bo'lish uchun hozirlanishga kelgan qariqizdek, xalatda, sochlari yoyiq holicha oyna oldiga kelib o'tirdi. Oshxonadagi plita ustida qo'lini oldindan ilitib olgan sartarosh kirib keldi-da, dalda bergandek:

– Bugun havo bo'lakcha! Sovuq yaxshigina bo'lsa-da, baribir kishiga yoqyapti! – dedi.



U ham artistlardek fe'l-atvorga ega bo'lgani bois uni yetarli darajada tushunib, ayoldagi artistlarga xos hayajonga hamdard bo'lgan ko'yi o'zini oldinda turgan voqealarning ishtirokchisi deya his etib, nafislik bilan shoshilmay ishlardi. U o'zining yengil-yelpi, beparvo gaplari, hazil-huzuli va, umuman, bunday ishlarda bor pishiq-puxtaligi, shuningdek, ayolning bo'lajak muvaffaqiyatiga qat'iy ishongan holda uni asta-sekin yupatib, unga bor kuch-quvvatini, jur'atini, umidini qaytarib berayotgandi... U o'z ishini yakunlab, unga har tomondan turib nazar tashlar ekan, bir jingalak va bir turmak soch bundan ortiq bo'lmasligiga ishonch hosil qilgach, ketdi, oshxonadagi soat esa jimgina yettini ko'rsatib turardi, uning yuragi yana taka-puka bo'la boshladi: sakkiz yarimda ayolni olib ketishga kelishadi!

Soat sakkiz bo'ldi, biroq u hali ham tayyor emasdi. U yana tomchili doridan ichdi. Bu safar gofmannikidan, ayol o'zining eng yaxshi ichko'ylagini kiydi, yonog'ini qizilga bo'yab, yuziga upa surtdi... O'zining gumburlagan ovozi bilan uni hayratda qoldirib, soat sakkiz-u o'ttizda yana qo'ng'iroq yangradi: kelishdi! Anna alpon-talpon dahliz tomonga yugurdi, hayajon bosgandan u ham o'zini yo'qotgandi, eshikni darrov ochishga qurbi yetmayotgandi...

Ular (bu safar ikki talaba) ijaraga olingan, juda baquvvat qirchang'i ot qo'shilgan, almisoqdan qolgan ulkan yengil aravada kelishgandi. Ular sarpoychan bo'lib, oyoqlari ham sovuqdan tosh qotgandi. Mehmonxona har doimgidek sovuq va kerosin hidi anqib turgan chiroq yonib turardi. Ular mehmonxonada xuddi kuyovjo'ra kabi yaltiragan silliq boshlaridan moyning xushbo'y isini taratib, ko'krakka katta-katta oq selondan kapalaknusxa bandni qo'ndirib olgancha, bitta mundirning o'zida sabr-toqat bilan kutib o'tirishardi. Ular muloyimlik va chidam bilan, indamay, har tomondan berkitib tashlangan eshik, ko'k va qizil chiroqlar shu'lalari miltillagan muzli oynalarga, royalga, devordagi mashhur qo'shiqchilarning suratlariga qarab o'tirishar, deraza ortidan tramvay g'ildiraklarining gumburlagan ovozi, eshik ortidagi An-nushkaning va artistning xavotirli qadam tovushlari quloqqa chalinardi... Shu zaylda o'n besh, o'ttiz, qirq daqiqa vaqt o'tdi... Nihoyat qo'qqisdan eshiklardan biri lang ochildi. Ular bab-baravar

irg'ib o'rnilaridan turishdi, artistka esa maftunkor va beparvo tabassum bilan ularga peshvoz chiqib keldi:

– Xudo haqi, janoblar, meni kechiringlar, sizlarni kutdirib qo'ydim... Nima, vaqt bo'ldimi? Unday bo'lsa, men tayyorman, qani, ketdik bo'lmasa...

Hatto yonoqlaridagi qizil bo'yoq va upaning orasidan ham to'q qizil dog' lovullab turardi, og'zidan esa valeriana tomchi dorisining, qo'lidan yog'upaning, havorang harir ko'ylagidan xushbo'y atir hidi dimoqqa urardi. Ayol raqs kechasiga otlangan Azroilga o'xshardi. Ayolning hamma tomoni jingalaklanib, shishirilgan kulrang, murakkab va baland qilib turmaklangan sochlariga qandaydir ispanchami-yey, qora to'r tashlangan, ko'kraklari oldinga turtib chiqqan, yalang'och yelkalariga oq qo'ng'iroq yungli kalta echki po'stini solig'liq edi... Talabalar ham shosha-pisha ayolning orqasidan dahlizga otilishdi. Ulardan baland bo'yli, oriqqinasi ayolning kalish-etigini qo'liga oldi-da, chaqqonlik bilan cho'kkalab, uning olmos to'qa qadalgan atlas qora poyabzalini kiydira boshlagandi. Ayol yordamlashish uchun ich kiyimining jimjimali to'ridan ushlab etagini tortmoqchi bo'lib engashganida, qo'ltig'idan achchiq badbo'y hid anqib ketganini sezdi...

Ayol yashin chaqnaib turgan bulut va allaqanday musofirxona to'g'risida kuylardi: «Bizni bu musofirxonaga Parvardigorning o'zi yubordi» va yana o'zgacha bir dabdaba bilan «Men sendan bo'sa olgan bo'lardim-u...». Birinchi qatorda o'tirgan tanqidboz mo'ysafid kinoya bilan qiqirlab kula boshladi-da, boshini burdi, nihoyatda ochiq-oshkora: har narsa qilsang qil-u, faqat o'pmagil... Baribir ahmoq bo'lgani qoldi: artistka ulkan muvaffaqiyat qozondi. Uni tinmay sahnaga taklif qilishardi va tomoshabinlarning talabiga binoan takrorlashni so'rashardi bular, ayniqsa, oyoq ostida turib olib, vahima bilan qichqirayotgan va cho'mich kabi bukilgan kaftlarini bir-biriga urib qarsak chalayotgan hushyor yoshlar edi.

Dildorxon ALIYEVA tarjimasi.



Bu oqshom biz stansiyada uchrashdik.

Nozanin qiz kimnidir kutayotgandi, parishonxotir edi.

Poyezd keldi va shu choq platforma odam bilan to'lib ketdi. Atrofdan yomg'irdan keyingi o'rmon isi va toshko'mir hidi anqirdi. Tanish-bilishlar shu qadar ko'p ediki, biz salom-alik qilishga arang ulgurardik. Ammo u tegrasiga xavotir aralash ko'z tashlab, izlagan kishisini topa olmadi.

Poyezd o'rnidan jildi. Dilbar qiz esa yonidan lip-lip o'tib ketayotgan vagonlarga moviy ko'zlarini katta ochgancha turib qolaverdi. Derazalarda, maydonda – har yerda yuzlar, yuzlar bor edi. Lekin unga kerakli chehra yo'q edi.

Nihoyat, vagonlar devori g'oyib bo'lib, so'nggi buferlar ko'zga tashlandi, poyezd tobora kichrayib, qisqarib yashil o'rmon oralab ketdi. Bo'shab qolgan perronda yalt-yult etayotgan tilim-tilim yomg'ir tomchilarida moviy osmon uzuq-yuluq aks eta boshladi.

Perronga soya tushgandi, oftob bizning ortimizga, bekat ayvoni orqasiga bekingandi, ammo o'rmondagi dala hovlilar bu tomonga ro'para bo'lgani uchun ravshanroq, deraza shishalari ham nurdan yarqirardi. Qayerdadir jo'shqin ohanglarda grammofon kuyi yangrar, qayerdadir kroket koptokchalarining urilgan ovozi eshitilar va sho'x quv yigitchalarning qiyqirig'i quloqqa chalinardi... Nozanin, hatto menga burilib ham qaramay, qisqa qilib dedi: «Biroz yuraylik». Men unga bo'syundim.

Bekatda ko'zga kechki quyoshning nuri urildi. Undan naryog'i sersoya o'rmon edi. Biz zich yashil tog'terak va yong'oqlarga ko'milgan, loy yo'l yonidan tushgan serildiz, o'ydin-chuqur so'qmoq, kallaklangan daraxtlar bo'ylab uzoq yurdik. U ildam-roq yurar, men uning etagi oyoqlarini yashirgan yubkasiga, katak gulli koftasiga, zich o'rilgan sochiga nigoh tashlardim. U shox-shabbalardan nam tortgan kiyimlarini quritib olish uchun epchillik bilan qulay joy topdi.

– Nima haqida o'ylayapsiz? – so'radi u men tomonga o'girilmasdan.

– Botinkangiz haqida, – dedim men. – Poyabzalingizning poshnasi fransuzlarnikiga o'xshamas ekan. Men fransuzcha poshna kiygan ayollarni yoqtirmayman.

– Menga ishonasizmi?

– Ishonaman...

So'qmoq tugagach, biz chor atrofi ochiq yam-yashil do'nglikka ko'tarildik, oftob bemalol ko'rina boshladi. U yurishdan to'xtab, men tomonga burildi.

– Qanday iltifotlisiz-a, – dedi u. – Yuryapsiz, indamaysiz...

Men o'zimni tutib, javob berdim:

– Rahmat. Odam qayg'uda qolganda shunday bo'lib turadi.

Uning ko'zlari katta ochilib ketdi.

– Qayg'u deysizmi? Qanday qayg'u?

– Birovni behuda kutganingizni yaxshi bilaman. Yana shuni bilamanki, siz hozir menga o'zingizga yetib olishni so'raysiz.

– Topdingiz. Shuni xohlarmidingiz?

Men indamay unga yaqin bordim-da, qo'lini tutib o'zimga yaqinlashtirdim. U bu sho'xligimdan norozi bo'ldi.

– Yo'q, – ming'illadi u. – Yo'q... Xudo haqqi...

So'ng indamay yengil siltov bilan qo'lini tortib oldi va yubkasi etagidan tutib maysazor do'nglikka chopdi.

O'ng-u so'l chakalakzor bilan qoplangan jarlik edi, oldinda ham pichanlar o'sib turgan jarlik bo'y cho'zib turardi, ochig'i, hech yerda ochiq yo'l ko'rinmasdi. U maysazorga kelib to'xtadi, jar labiga yaqinlashib qolgandi. Ammo u mening qadam tashlashimdan qo'rqib, zovur ustidan sakrab o'tdi-da, jarlik tomon qiyaladi. Men uning ortidan chopdim, birdan osmondan yengil, tez, quruq shitir-shitirlar eshitildi, chap tarafda, adirda bug'dek ko'rinayotgan kamalak ko'rindi.

– Yomg'ir! – ovozi jaranglab ketdi nozaninning va jimirlayotgan maysa uzra yana tez yugurib ketdi.

Dilbar qizni quyosh yoritar, titrar va shishaga oltin to'r quyilgandek yaraqlardi, goh-goh yomg'ir tez, shovqin-suron solib sepalab o'tardi. Hayhotdek qoramtir bulutlarni moviy osmondan yog'ilgan uzun ignalar teshib o'tib, undan tomchilar tushgani sezilib turardi. So'ng ular siyraklashdi, tepalikda paydo bo'lgan kamalak xira tortdi, shitir-shitirlar ham so'ndi.



Nozanin g'aram oldiga yetib keldi-yu, unga to'qnashib yiqilib tushdi, bundan kulib yubordi. Uning ko'kragi tez-tez urib turar, sochlarida tomchilar miltillardi.

– Bir eshitib ko'ring-a, yuragim qanday urayotganini, – u shunday deya mening qo'limdan tutdi.

Men uni og'ushimga oldim, so'ng yarim ochiq lablari tomon engashdim. U endi mone'lik ko'rsatmadi.

So'ng meni beozorlik bilan o'zidan nari surib, qizargan yuzlarini o'girib oldi. U quruq shoxchani tishlab, yiltillagan ko'zlarini uzoqqa tikdi.

– Bu birinchi va oxirgi marta, – dedi u. – Maylimi?

– Mayli, – javob berdim men.

Dilbar qiz menga sinchkov nigoh tashladi.

– Siz o'zi meni zarracha bo'lsa ham yaxshi ko'rasizmi? Siz bilan o'zimni baxtiyor his qilyapman! Meni hech kimga rashk qila ko'rmang. To'g'ri, men bironi kutayotgandim, oramizdagi bu kichkina munosabat unga xalal bermaydi deb o'ylayman. Ha, u inson endi mening rasman qaylig'im. Yaqinda men grafina El-Mammunaga aylanaman... Nega? Bilmayman. Shuning uchunkim, men undan qo'rqaman...

Nozanin qo'limdan ushlash maqsadida men tomon kaftlarini cho'zdi. Men bu mayin, pok qo'llarni bir-bir lablarimga bosib, o'pdim.

–Endi ketishimiz kerak, – dedi u.

– Qayerga?

– O'tloqda yana biroz sayr qilaylik...

Men bu dilbar qizni dast ko'tarib oldim, u bir muddat uyalganday tabassum qildi. Keyin ayollarga xos nozik harakatlar bilan to'zg'igan sochlarini tuzatdi, o'tloqning o'tkir, toza havosidan to'yib hidladi... O'rmonda ham, bu yerda ham kakkuning bo'g'iq kukusi eshitilar, bu ovoz yomg'irdan keyin yana yaqqol kuchaygan, baland osmonda esa ajralib, to'zib suzib yurgan iliq, bug'simon bulutlar tilla-qizg'ish tusga kirgandi...

Biz ortga qaytmoqchi bo'ldik, ammo kelgan yo'limizni topolmay adashib qoldik. Nozanin soniya ichida ayni dam qayerda ekanini anglab yetdi va kaminaga ishongani uchun u amrimga bo'ysundi.



Shu yerning o'zida u iltimosimni rad etmay, hayajon ichida o'z qissasini qisqacha hikoya qilib berdi. Tugatgach, uzoq vaqt jim qoldi.

O'rmon shimoldagidek g'ira-shira tusga kirdi. Bu yer suv sepilgandek jimjit, qorong'i, manzil esa bir necha chaqirim uzoqda edi. Endi o'rmonda quyuq sukunat va sokinlikka burkangan tun hukm surardi. Beqaror qiz horib, mudroq bosayotgandi. Biz qirg'og'iga yetib olgan botqoq ko'rinish olgan kichik ko'l daraxtlar bilan birga oqarinib turardi. Ammo u o'rmon singari nursiz va g'amgin edi. Bulutlar tarqagach, o'rmondagi zulmat tagi oqarinib, atrof asta-sekin oydin bo'ldi. Ammo tun ilimiliq, havo dim, hamma yoqda botqoq o'tlari va ignabargli daraxtlarning chuchmal isi taralardi. Yaltiroq qo'ng'izlar butalar ostida mudrayotgan chigirtkalarining shitir-shitiridan tilladek yaltirab, uchqun sachratishardi... Yo'lni qisqartirish uchun biz ko'ldan asriy qarag'aylar hozirlagan uzun va enli «yo'lak»ka burildik. Biz mashaqqat bilan yo'lni ajratib, qum kechib, yalanglikka chiqib olganimizda quruqshagan bir ignabargli daraxt barglari shitirlab ketdi va u yerdan boyqushning katta boshi sho'ng'ib chiqdi. U biz tomonga otildi, men, hatto, uning kulrang «pochasi»ni ko'rishga ulgurdim. Yirtqich qush keng, katta qanotlari bilan chir-chir aylanib, turib qoldi, so'ng do'g'asini yoyib, pastladi va zim-ziyolikda shox-shabbalar ichiga sho'ng'ib g'oyib bo'ldi.

– Xosiyati yo'q, – dedi nozanin boshini chayqab.

Men jilmaydim.

– Ishoning, xosiyati yo'q bu qushning, – takrorladi u so'zlarini qat'iyat bilan.

– Nima bo'ladi?

– Oh, bilmayman! Lekin menga baribir. Siz bilan bo'lgan kunlarni, ayniqsa, bu oqshomni hech qachon unutmayman...

U kutilmaganda meni quchoqlab oldi, g'amgin, ammo mayin ko'zlari bilan yuzlarimga termildi, so'ng picha o'ylanib turib, o'ng va so'l ko'zlarimga lab bosdi... Biz yalanglik uzra yurib, daraxtlar orasida miltillab ko'rinayotgan semafor chiroqlari oldidan chiqib qoldik. Butkul qorong'i edi; o'rmonda yomg'ir tomchilay boshladi. Biz dala hovli ayvoniga kirib kelganimizda va u yerdagi uchburchak soyabon tagidagi sham yoqilgan choy stoliga joylashganimizda, yomg'ir xuddi chelaklab quyilgandek yog'a ketdi.



Biz egnimizni qoqib, xonadagilarga mug'ambirlarcha yo'ldan adashib qolganimizni, yo'l qidirib kechga qolib ketganimizni gapi-rib berdik. Ilkis ovozimiz tindi: shiypinning qorong'i burchagidan, tebranma kursidan bo'ydor, ozg'in va keng yelkali, boshi taqir, qu-yuq soqolli, ko'zlari chaqnaib turadigan, o'ttiz yoshlardagi erkak tu-rib keldi. Keksalar xijolat tortdi, nozaninning rangi esa oqarib ketdi. Men notanish bu yigitga qo'l cho'zib, hazillashgan bo'ldim:

— E Xudo, bo'ydan toza bergan ekanda, a! Sizdan zo'r sovutdor si-poh chiqadi.

— Yo'g'-ey? — jonlandi u. — Shunday degin. Men graf Mammu-naman...

Menga ko'hna, katta soyabon topib kelishdi, keyin qayerda tu-nash mumkinligi borasida maslahatlar berishdi. Men shiypinning ivib ketgan zinalaridan tushib, hech narsa ko'rinmayotgan qorong'i-lik sari yurdim.

Dilbar qiz uchburchak usulida qurilgan yorug' chodir bo'sag'asida turib qolgandi. Men eshikka yetib olganimda, u ovozini ko'tarmagan ko'yi dedi:

—Xayr.

Bu nozaninning men eshitgan eng so'nggi so'zi edi.

II

«Azizim, — deb yozgandi dilbar qiz shundan keyin to'rt oy o'tgach, — sizni ogohlantirmay yo'qolib qolganim uchun meni ayb-dor sanamang. U mendan ming bor kuchli. Men erkimni yo'qotdim, eng dahshatli daqiqalardan qutulish imkoniyati bo'lsa-da, uni qo'ldan boy berdim. Endi menda siz bilan uchrashish uchun hech qanday umid qolmadi. Eh, o'sha damdagi uchrashuvimiz qanday kechgandi-ya! Men o'zimni qanchalar, qanchalar aldamay, sizning kaminaga bo'lgan tuyg'ularingiz softligini his etib turaman. Bu siz uchun kutilmaganda ro'y berdi va biz qisqa vaqt ichida kichik ishqiy sarguzashtni boshdan kechirdik. Ammo, baribir, ont ichaman, agar men umrim davomida kimni sevgan bo'lsam, bu faqat sizsiz...

Nima bu, odamlar uchun muhabbat kuyini takror-takror kuylash-mi?

Ehtimol shundaydir, gap o'zi muhabbatda ham emas-ku. Bir o'lib ketgan yozuvchining xatida shuni o'qigandim: «Muhabbat — bu

xohlagan narsangning yo'qligi va hech qachon bo'lmasligidir». Ha, ha, hech qachon bo'lmaydi. Ammo menga baribir. Men sizni sevgandim va hamon sevaman...

Sizni tez-tez g'ira-shirada yodga olaman. Qosh qorayganda biz yo'liqqandik, ayni dam sizga yo'llayotgan ushbu birinchi va aminmanki, so'nggi maktubimni ham shom qorong'usida yozayapman. Yozyapman-u, Xudo biladi qayerdaman: Alpda, chor atrofim muz, bulutlar atrofini qurshab olgan, huvillab yotgan mehmonxonadaman, kechki kuz oqshomi, oktabr. Erimda sil kasalligi boshlandi, men vijdonsiz qiz esa uning hayotini tahqirlab keldim. Men uni bemavrid Alpda ushlab turibgina qolmay, tumanli kunlarda ko'lga sudrab keldim. Endi u menga bo'ysunyapti.

Erim uzzukun miq etmay o'tiradi, ko'zlarini yaltillatadi, ammo mening amrimni so'zsiz bajaradi. Jim yursa, o'ziga yaxshi. Hozir ham jim o'tiribdi. Biz bu yerga kirganimizda so'nggi kunlarini oddiy dehqonga xos oshxonada kechirib kelyotgan mehmonxona xizmatkorini ko'rib, hayratdan tong qotdik. Bo'lishi mumkin, negaki uning rangi murdaniki singari oq edi.

Men bu yerga siz uchun kelgandim. Sokinlikda, umiddan nishona yo'q joyda siz to'g'ringizda o'ylash, xotiralarni yodga olish uchun...

Biram maroqliki, bu o'lkada kechki kuzakda tog'lar bir-bir ko'kish tus olarkan, kishini o'yga soladi. Osmon misoli loqayd va ko'l uzra past ko'rinadi, ko'kimtir tepaliklar orasidagi ko'l o'likdek, qoramtir tusga kirgan. Qachonki men bu bulutli samoga nazar solsam, undagi tumanga singib ketish xayoli miyamga kelaveradi, tunni biror tog'dagi bo'sh mehmonxonada o'tkazsam deyman... Agar shu yerda men bilan birga qolganingizda, yarim umrimni bergan bo'lardim...

Biz shahardan tongda paroxodda ketdik, kunning ikkinchi yarmida tog'da kezayotgandik. Bu yo'l qanchalar g'amgin edi-ya, a! Tik jarlikda pastak o'rmon, qiyalikda esa ariq bor edi. Mayda sarg'imtir barglar mudranib, zo'r-bazo'r tushardi. Ba'zan bu daraxtlarga befahm katta qizil sigirlar bir qarab qo'yishardi. Ba'zan butalar, shoxshabbalar atrofiga to'plangan cho'pon-cho'liq bolakaylarning qush ovozigina monand hushtaklari quloqqa chalinardi. To'shalgan quyuq sukunatda biz to'xtamay yuqorilab chiqib borardik. Toqqa, tik jarliklarga, g'ira-shira ko'rinayotgan qarag'ayzor o'rmonga qor tush-

gandi. Nafas rostlash uchun bir dam to'xtab olganimizda esa, men uzoq-uzoqlarga, pastda qolib ketgan och yashil tusga kirgan daraxtlarga termilib qolardim. O'shanda har bitta bargning tushishini eshitish mumkin edi. Ho'l butalar yig'lardi, sukunatda...

Tumanda og'zi qorayib ko'rinayotgan tunnel yaqinida, nishablikda besh-olti kulbadan iborat qandaydir qishloqqa duch keldik. Loy, sirpanchiq yog'och zinadan tepaga ko'tarilish oson emasligi, buning yechimini topish uchun sabr bilan yengish kerak edi. Biroq tez fursatda tog' tepasi kuzgi qor bilan qoplangani uchun bo'lsa kerak, qishloqda bitta iz qoldi.

Shu yerda erim to'xtab, ortga qaytishni taklif qildi.

Men uning taklifini qasddan rad etdim.

– Bu oqilona javob emas, – u shunday dedi-yu, bir muddat o'ylanib turib, so'ng tag'in ildamladi.

Tuman tobora quyuqlashar, atrof qorong'ilashar, biz esa qishloqdagilar bilan uchrashuvga shaylanib, qorayib turgan tunnel og'zi sari yuraverardik. Biz qariyb daradagi tubsiz tik ko'priknı bosib o'tgandik. Agar mening erki o'zida bo'lmagan hamrohım orqada qolganida, u shu lahzadayoq tumanga singib ketardi. Shuning uchun ham biz bir-birimizga ovoz berib, yonma-yon yurganimizni his qilib turardik. Ovozlارımız ham bo'g'iq va begona edi.

U menga biror nima demoqchi bo'lsa, orqaga burilib biroz yurar, men to'xtab qolgach, yaqinlashib, qo'limdan tutardi.

– Muloyim bo'l, – jur'atsiz ohangda derdi u, – qo'limdan mahkam tut, fufaykangni tort.

Unga achinib ketardim. Erim buni tushunib, ko'zlarini quyiga qaratar va qo'shib qo'yardi:

– Issiqroq boshpana topib olsak, biror muhim ish bilan shug'ullanamiz. Hozir esa vaziyat og'ir. Bu to'y sayohati emas, do'zaxning o'zginasi.

– Ajrashishimiz kerak, – javob berdim unga.

U indamadi. Qoshini chimirib, ming'irlab qo'ydi:

– Bu juda qiyin...

– Unda shu qiyin ishni o'z zimmamga olaman, – dedim men. – Sen meni bema'ni muhabbatingni deb qurbon qilma.

– Men hamma narsani qila olaman, – dedi u menga o'ktam ko'z tashlab. – Yo'qotadigan hech narsam yo'q.

Undan bo'shalib chiqib olg'a yurishda davom etdim.

Qor yog'ib o'tgan ho'l relslardan tepaga ko'tarildik, qarag'aylar, archalar tik qiyalikda o'sgandi. G'ira-shirada tumanda uning binafsharang izlarini ajratishdan ko'ra his qilish oson ekan. Bu bulutli tog'larda hayot nishonasi sezilmaydigan tepaliklarda og'ir sukunat hukm surardi. Bir vaqt yo'l chetidagi qari archa butalari shitirladi. Biz ko'rgan boyo'g'li yodingizdami. Men aynan shu joyda uni esladim va shundan keyin sizga yozishga ahd qildim. Bu, albat, boyo'g'li emas, kichkina chumchuq edi. Qushlar orasidagi eng kichigi shu edi, adashmasam. Sho'rlik ho'l bo'lishiga qaramay pir etib uchib ketdi...

Bu oqshomni tasavvur qila olyapsizmi. G'ubor qo'ngan qarag'ayzor, bosh-keti ko'rinmas ho'l, oppoq qorli yo'llar, tumandagi adashuv, buning ustiga, sen yoqtirmaydigan odam...

Qushcha esa bexavotir edi. Uni qishki tog' oqshomi qo'rqitmaydi. U o'ng kelgan joyga qo'nib, yana uchib ketaveradi. Chunki himoyachisi borligiga ishonadi. Mening esa himoyachimga ishonchim yo'q.

Hozir qarag'ay hidi anqib turadigan bo'm-bo'sh muz yotoqda uxlashga chog'lanyapman. Olovni o'chirganim on atrofimni bulutlar qurshab turgani haqida o'ylashim ayon. Erim qo'shni xonada yo'talib yotibdi. U insonmas, ko'mishga olib boradigan arava. Uni butun borlig'im bilan yomon ko'raman.

Agar ko'rishish nasib etsa, men xotirjam bo'lardim, sizning qo'llaringizni quvonchdan o'pib qo'yaman, o'shanda nimani xohlasangiz, ado etishga roziman. Yo'q, shunday bo'lishi kerak o'zi...»

III

Bu maktub menga qachon yetib kelganini Xudo biladi. Moskva-dan qishloqqa jo'natishibdi. U yerda xat sal kam uch oy turgan, so'ng janubga qarab yo'l olgan. Maktub mart boshida, Qrimga borishdan avval qo'limga tegdi.

Mutaassir bo'ldim, hayajonimni ifodalab berolmayman.

Javob tariqasida nima yozish kerak, nima qilishim kerak. Men bu haqida uzoq o'yladim va shu o'y kallamga keldi, Xudo kechirsin:

«Tog'lar oshib otda boraman».

Qrim tog'lariga ham tuman tushgandi. Ammo bahor edi, yigirma sakkizni urib qo'ygandim...

Lyay-lyudagi isqirt qovoqxonada, dovonda otlar qayta kuchga kirgunga qadar chuchuk ta'm vinodan ichdim. Xiyol mast bo'lib qoldim. Darchani ochib, bir muddat shamolda o'zimni yelpib o'tirdim. Xatni chiqarib, tag'in o'qidim, yuragim urib ketdi.

Oh, jonginam, azizim! Nima qilish kerak, nima?

Qovoqxonada ortiq o'tira olmadim. Toza havoga chiqdim...

Tuman qizg'ish tus olgan, asta-sekin so'nayotgandi. G'irashirada balandlik yorug' ko'rinar, iliq edi. Osmonda bulutlar tutuni qandaydir quvonchli narsadan darak berayotgandek tuyulardi... U o'sib, kengaydi va to'satdan ko'k rangga do'ndi...

Yozish kerak, shart!

Lekin nimani? Qayerga?

Meni qurshab olgan tog' sahrosida ko'k gumbaz yog'du tara-ta boshladi. Ammo dandanali tik qoyalar va tik jarlik uzra hamon tuman suzib yurar, bu quyosh nur sochgunga qadar uzoq davom etdi. Osmon tog'lar uzra yastangan, bepoyon va cheksiz, ko'm-ko'k bag'rida gard qolmagandi, havo toza va tepaliklar to'ldinlanib turardi. Shamol shimol tarafdin esar, ammo u mayin va yoqimli edi. Men bu havodan yanada mast bo'lib, dengizga yana bir qur nazar solish uchun jar labiga yaqinlashdim.

Jarlik tagida hosil bo'lgan mening bahaybat ko'kimtir soyamdan rang-barang yorug'lik gardishi bug' bo'lib taralardi. Ko'z oldimda nihoyasi yo'q, xuddi kovlab qo'yilgandek uyum-uyum bo'lgan bulutlar quyuqlashib, qo'l tegsa uvalanib ketadigan katta do'nglikka aylanardi. Tubsiz jarlik va qoyalar, qirg'oq va ko'rfazlar o'rniga ufqqa qadar dengiz ustida ko'z ilg'amas ana shu xilqat ilib qo'yilganga o'xshab tuyulardi. Mening qalbim, uning bor quvvati, bor izti-roblarim va quvonchlarim, men bir vaqtlar sevganda yuragimda uyg'ongan tuyg'ular, behisob bahoriy kayfiyat, yoshlik – hammasi o'sha yoqqa, ana shu ufqqa, qat-qat bo'lgan bulutlar o'lkasiga, uzun, yorqin va zangori dengiz qa'riga singib ketdi...

Qo'ng'iroq bir zaylda davom etgan uzoq yo'l o'tmishning qaytib kelmasligi va kelajak esa oldinda ekanligi borasida zang chalardi. Eski fayton, ko'hna uch ot qo'shilgan pochta aravasi... Qabatiga katta jomadonlarni qo'yib olgan, echkinikiga o'xshash quloqlari uzun tatar aravakash bilan otlarni dukurlatgancha va qo'g'ng'iroqlarni jiringlatgancha oxiri ko'rinmas katta yo'lda ketib borardik. Men mo-



viy osmon bag'rini kesib o'tgan keskir tishli ko'kimtir qoyalarga uzoq tikilib qoldim. Hamma yoqni qo'ng'iroq va tuyoqlarning dukur-dukur ovozlari to'ldirgan uch ot qo'shilgan arava esa chayqalla-chayqala ko'rkam daraxtzorlarni ortda qoldirib, dovondan pastlay-pastlay, yanada chuqur tushaverib, tobora o'sib boravergan osmon oldida oxir nuqtadek bo'lib qolardi chamamda.

Bu yerda, sukunat yutgan tog'li vodiya, bahorning ilk kunlaridagi singari shaffof jimlik, och-yorqin ko'k rang jozibasi, tanasi qora yalang'och daraxtlar, butalar va undan pastga uzilib tushgan, o'tgan yillardan qolgan jigarrang barglar, ilk bora unib chiqqan binafshalar, yovvoyi lolalar bor edi.

Bu yerda yana cho'qqilarda qor va sovuqdan yetarlicha «dam olgan» maysalar ham nish urib chiqqandi. Bu yer billurdek toza va erta bahor kunlaridagi kabi bahavo, jozibali edi.

Shunda menga hayotda ana shu bahor va baxt haqida o'ylashdan boshqa hech narsa kerak emasdek tuyuldi.

Mart oxirlarida, shimolda, qishloqqa endi kelgan damlarim kutilmaganda pochtdan Jenevadan Moskva orqali kelgan telegramma oldim. Unda shunday yozilgandi:

«Marhumaning istagini bajo keltirib xabar qilamanki, u shu yilning mart oyining 17-sanasida vafot etdi. El-Mammuna».

Umid ALI tarjimasi.



Bu ish dahshatli bo'lishi bilan birga g'alati va jumboqli, kalavaning uchini topib bo'lmaydigandek ko'rinardi. Bir tomondan, u judayam oddiydek ko'rinsa, ikkinchi tomondan, juda murakkab edi. Bizning shahar tili bilan aytganda, xuddi tuturuqsiz romanlarga o'xshardi, ayni damda esa unda chuqur ma'noli badiiy asar yozsa bo'ladigan bir nimadir bor edi ... Nima bo'lganda ham himoyachi sudda haq gapni aytdi.

— Bu ishda, — dedi u gap boshlab, — bu yerda xuddi men bilan ayblovchi o'rtasida hech qanday bahsga o'rin yo'qdek tuyulishi mumkin: axir ayblanuvchi o'z aybini bo'yniga oldi. Uning jinoyati va izzat-nafsi haqorat qilingan qurbonining shaxsiyati kabi o'zining shaxsiyati ham bu zalda o'tirganlarning ko'pchiligiga, har holda, erish va ahamiyatsizdek tuyular. Bu faqat tashqaridan shunday ko'rinadi, xolos, aslida unday emas: bahs va munozaralarga sabablar oshib-toshib yotibdi...

U so'zida davom etib, dedi:

— Aytaylik, mening maqsadim, sudlanuvchiga shafqat ko'rsatishga erishish. Shunda ko'p gapga hojat qolmasdi. Qonun chiqaruvchi shunga o'xshash hollarda sud nimaga amal qilib ish ko'rishi kerakligini ko'rsatmagan, u bunday paytlarda ko'proq aql-farosatga, vijdonga va ziyraklikka keng imkoniyat bergan va biz shu imkoniyatdan foydalanib, jinoyatchiga jazo berish uchun qonunning u yoki bu bandini tanlashimiz kerak bo'lardi. Men o'sha aql-farosat, vijdon, ziyraklikni ishga solib, shu orqali ularga ta'sir o'tkazib, sudlanuvchining aybini yengillashtiruvchi bor yaxshi sifatlarini yuzaga chiqarishga va shu orqali sudning unga munosabatini o'zgartirishga astoydil harakat qilardim, axir u bir gapda mahkam turib olgan: men buni ataylab qilganim yo'q, deyapti. Sudlanuvchini oz emas, ko'p emas, naq «odamxo'r bo'ri»ga chiqarilgan bunday vaziyatda ayblovchi bilan bahslashishdan o'zimni qanday qilib tiya olishim mumkin, axirhar bir ishni har kim o'zicha tushunadi, uni har kim yo unday, yo bunday tarzda yoritishi, o'ziga xos u yoki bu tarzda taqdim etishi mumkin. Mana bu ishda hozir biz nimani ko'rib turibmiz. Nazarimda yo'q narsani ko'rib turibmiz, ayblovchi bilan hamjihatlikda yori-



tib bera oladigan na bironta qarashimiz va na bironta tafsilot yo'qki, dangal: «Ha, shunday!» yoki «Yo'q, bunday emas!» deya olsak, qayoqda, men churq eta olmayapman. Ammo hammasidan muhimi shundaki, ishning ma'no-mohiyati «unday bo'lmagan»ga olib kelayapti...

Bu ishning o'zi boshlanishi vahimali edi.

O'tgan yilning 19-iyun kuni. Erta tong, soat besh-oltilar chamasi bo'lishiga qaramay, leyb-gvardiya polkining rotmistri Lixarev ishxonasida allaqachon tong otib ulgurgan, shahar havosi yoz quyoshidan dim va quruq edi. Rotmistrning uyi shahar tashqarisida gusar kazarmalarining biridagi korpusda joylashgani uchun ham atrofda hali jimjitlik hukm surardi. Atrofdagi bu sokinlik va o'zining navqiron yoshidan foydalangan rotmistr qattiq uyquda edi. Stol ustida likyordan bo'shagan shishalar, oxirigacha ichilmay qolgan qahva idishlari turardi. Qo'shni xonadagi mehmonxonada esa boshqa zobit – shtab-rotmistri graf Koshits, undan nariroqdagi ishxonasida kornet Sevskiy uxlab yotishardi. Erta tong odatdagidek jo'ngina boshlandi, xuddi shunday jo'n kunlarda g'alati voqealar sodir bo'lganidek, 19-iyunning ana shunday erta tonglaridan birida rotmistr Lixarevning uyida to'satdan aqlga sig'maydigan, hayratlanarli bir voqea bo'ldi. Kutilmaganda eshik qo'ng'irog'i chalinib, xizmatdagi askarning oyoqyalang ohista va yengil yurib, eshik tomon borgani eshitildi, so'ng tashqaridan kimdir ataylab baland ovozda o'kirdi:

– Uyda kim bor?

Eshikni lang ochdi-da, mehmon oshxonaga etigi bilan gurs-gurs bosib, shporlarini sharaqlatib, shovqin solib bostirib kirdi. Rotmistr boshini ko'tarib, uyquli ko'zlari bilan hayron qarab turardi: ro'parasida polkdosh do'sti kornet Yelagin turardi, u jikkak, ozg'indan kelgan, sochlari malla, sepkil yuzli, qiyshiq oyoqlari o'ziga mos, nimjon, egnida buni u har doim o'zining eng «ojiz» tomoni deb qayta-qayta takrorlashni xush ko'radigan bashang ust-boshda edi. U yozgi shineline tez yechib, uni stulga tashladi-da, baland ovozda: «Mana sizlarga mening pogonlarim!» – dedi. So'ng devor ro'parasidagi divanga kelib cho'zildi va qo'lini boshi orqasiga qo'ydi.

– To'xta, to'xta, – dedi ming'irlab rotmistr lo'q ko'zlarini undan uzmay, – qayerdan kelayapsan, senga nima bo'lgan o'zi?



– Men Manyani o‘ldirdim, – dedi Yelagin.

– Mastnisan? Qanaqa Manya?– dedi rotmistr.

– Mariya Iosifovna Sosnovskaya degan artistni.

Rotmistr oyog‘ini divandan tushirdi:

– Nima, hazillashyapsanmi?

– Afsuski, yo‘q, balki bu yaxshilikkadir, balki yomonlikka.

– Kim u? Yana nima bo‘ldi? – qichqirdi graf mehmonxonadan turib.

Yelagin cho‘zildi-da, oyog‘i bilan eshikni yengil tepib, lang ochib yubordi.

– Bo‘kirma, – dedi u.– Bu men, Yelaginman. Men Manyani otib qo‘ydim.

– Nima?– dedi graf va bir lahza indamay turdi-da, birdan xaxolab kulib yubordi.– Mana, gap qayerda!– baqirdi u quvnoqlik bilan.– Jin ursin seni, bu gal uzringni qabul qilamiz. Yaxshiyamki uyg‘otding, bo‘lmasa yana uxlab qolgan bo‘lardik, kecha yana soat uchgacha rosa ko‘ngilxushlik qilibmiz.

– Chin so‘zim, uni o‘ldirdim, – qat‘iy turib takrorladi Yelagin.

– Aldayapsan, ukajon, aldayapsan! – dedi mezbon ham paypog‘ini kiya turib baland ovozda. – Men bo‘lsa rostdanam bir gap bo‘libdi-da, deb, vahimaga tushayotgan edim... Yefrem, choy qani!

Yelagin shimining cho‘ntagiga qo‘lini suqib, undan uncha katta bo‘lmagan bir kalitni oldi va uni yelkasi osha stolga uloqtirib, dedi:

– Boring, ishonmasangiz o‘zingiz ko‘ring...

Sudda prokuror Yelagin voqeasini tashkil etgan surbetlik, hayosizlik va shunga o‘xshash ba‘zi dahshatli manzaralar haqida ko‘p gapirib, asosiy e‘tiborni ko‘proq shu tomonga qaratishga urinardi. O‘sha tong rotmistr Lixarev faqat dastlabki daqiqalardagina o‘zi aytganidek, hech qanday «g‘ayritabiiylik»ni, Yelaginning oqarib ketgan yuzini, ko‘zlarida hech bir «vahshiylik»ni payqamaganini, so‘ngra esa «undanam-bundanam hayratdan yoqa ushlagani»ni esdan chiqargandi...

II

Shunday qilib, o‘tgan yilning 19-iyun erta tongida mana bunday voqea yuz bergandi.



Graf Koshits va kornet Sevskiy yarim soat ichida Sosnovskaya yashagan uyning yo‘lagi oldida hozir bo‘ldilar. Endi ko‘ngilga hazil sig‘masdi.

Aravakashni uchirib haydashga majbur qilishdi, yetib kelgach, aravadan otilib chiqib, shosha-pisha kalitni gulf teshigiga suqa boshlashdi, qo‘ng‘iroqni ham zo‘r berib bosishdi, lekin kalit eshikka tushmadi, uying ichidan ham hech qanday sado eshitilmadi. Toqatlari toq bo‘lib, shoshib tashqariga chiqishdi-da, qorovulni izlay ketishdi. Qorovul orqa yo‘lakdan chopib oshxona tomonga o‘tdi, qaytib kelib, oqsoch xotinning aytishiga qaraganda, Sosnovskaya uyida tunamaganini, qo‘liga qandaydir o‘rog‘liq narsani ko‘tarib, kechqurun chiqib ketganini aytdi. Graf va kornet hayron bo‘lib qolishdi: endi nima qilishadi? O‘ylab-o‘ylab, yelka qisgancha qorovulni ham o‘zlari bilan birga olib, qismga jo‘nadilar. Qismdan turib rotmistr Lixarevga qo‘ng‘iroq qilishdi. Rotmistr telefondan baqirib berdi:

– Bu tentakning dastidan dod solishga ham tayyorman, u Sosnovskaya turadigan uyga emas, ular uchrashib turadigan ishratxona-ga borishlarini aytishi kerak edi: Starograd ko‘chasi, o‘n to‘rt. Eshityapsizmi? Starograd ko‘chasi, o‘n to‘rt. Xuddi Parij ishratxonalariga o‘xshab to‘g‘ri ko‘chadan kiriladi...

Ular Starograd ko‘chasi tomonga yugurib ketishdi.

Qorovul izvoshchi o‘rniga o‘tirdi, o‘zini vazmin, erkin tutgan holda daha nazoratchisi ofitserlarning ro‘parasiga cho‘kdi. Havo issiq, ko‘chalar sershovqin, odamga to‘la, shunday oftob charaqlagan, hayot qaynagan bir tongda qayerdadir odam o‘lib yotganiga ishonging kelmasdi. Nahotki yigirma ikki yoshli Sasha Yelaginning qo‘lidan shunday ish kelsa? Bunga uning qanday qo‘li bordiykin? Uni nima sababdan o‘ldirdi? Qanday o‘ldirdi? Hech nimani anglab bo‘lmasdi, savollarning hammasi javobsiz qolardi.

Starograd ko‘chasidagi ikki qavatli, eski fayzsiz uy yoniga kelib to‘xtaganlarida, ularning aytishlaricha, «butunlay ruhlari tushib ketgandi». Nahotki bu ish shu yerda sodir bo‘lgan bo‘lsa? Nahotki bularni ko‘rish shart bo‘lsa? Shunday deysan-u, ko‘rmasa bo‘lmasdi ham. Biroq daha nazoratchisi birdan sergaklandi, o‘zini tetik va bardam tuta boshladi.

– Kalitni bering-chi, – dedi u quruq va qat‘iy ohangda. Zobitlar qorovullarga xos hadik bilan kalitni unga tutishdi.

Uyning o'rtasida darvoza bor edi, darvoza ortida yolg'iz daraxt o'sib turgan choqqina hovli, to'q kulrangdagi toshli devor oldida daraxt yanada yashilroq bo'lib ko'zga tashlanardi. Darvozadan o'ng tomonda to'g'ri ko'chaga chiqadigan, haligi sirli eshik bo'lib, endi uni ochish kerak edi. Daha nazoratchisi qovog'ini uygancha kalitni qulfga solgan edi, eshik ochildi-qoldi va graf bilan kornet qandaydir qop-qorong'i yo'lakka o'xshash bir nimani ko'rdilar. Nazoratchi yoritkichni qayerdan izlash kerakligini bilgandek, qo'lini oldinga cho'zdi-da, devorga shap etib urdi, tor va huvillagan xona birdan yorishib ketdi. Xona o'rtasida ikkita oromkursi, uning o'rtasida stolcha, stolcha ustida esa tovuq go'shti, meva qoldiqlari bilan to'la likopchalar bor edi.

Bundan ham dahshatlirog'i hali oldinda edi. Yo'lakning o'ng tomonida qo'shni xonaga o'tiladigan yo'l bo'lib, u xona ham qop-qorong'i edi, shiftiga qora shoyi soyabon tortilgan, tagidan esa sopol fonus o'rnatilgan bo'lib, xuddi qabrni yoritgandek yoritib turardi. Xona devorlarining tepasidan pastigacha qandaydir qora mato qoplangan bo'lib, hamma yog'i berk, derazasiz edi. Bu yerda ham to'rdakatta, pastqam turk divani bo'lib, unda ichki ko'ylakda ko'zlari va labi yarim ochiq, oyoqlari biroz kerilgan, yuzlari oppoq oqargan tengi yo'q yoshgina sohibjamol cho'zilib yotardi.

Kirganlar taqqa to'xtab, qo'rquv va hayratdan bir zum qotib qolishdi.

III

Marhumaning noyob husn egasi bo'lishiga sabab, u o'z noyobligi bilan, masalan, nuqsonsiz ayollarni tasvirlaydigan zamonaviy rassomlar o'zlariga qo'yadigan talablarni qondira olardi. Bu yerda jononlarga xos hamma narsa muhayyo edi: sarvdek qaddi-qomat, tong kabi tiniq badan, ixcham, nuqsonsiz silliq oyoqlar, bolalarday ma'sum va jozibali lablar, bejirim, mukammal yuz, zarrin sochlar... Endi bularning hammasi jonsiz edi, barchasi toshday qotib, tusi o'chib, bu go'zallik marhumani borgan sari battar qo'rqinchli qilib borardi. Soch turmaklari shunday saqlangandiki, shu alfozda ham bemalol balga kirib borsa bo'laverardi. Boshi divanning ko'tarilgan yondoriga qo'yilgan, sal-pal ko'kragiga tegib turgan iyagi, uning yarim ochiq ko'zlari va butun chehrasiga qandaydir

o'ychanlik va hayrat bag'ishlardi. Shift tagidagi marhuma uzra qanotlarini keng yoyib turgan qandaydir yirtqich qushga o'xshash qora soyabon tubiga osig'liq shisha chiroq bularning barchasini g'ira-shira yoritib turardi.

Xullas, bu manzarani ko'rgan daha nazoratchisi ham dong qotib qoldi. So'ng bu ishni batafsilroq o'rganish maqsadida hammalari cho'chibgina unga yaqinlashdilar.

Marhumaning nafis yalang'och qo'llari bo'yi baravarida to'g'ri, tekis cho'zilib yotardi. Ko'kragida, ko'ylagining jimjimador to'rida Yelaginga tegishli bo'lgan ikkita tashrif qog'ozi, yerda esa yalang'och oyoqchalarga nisbatan g'oyatda qo'pol tuyulib turgan gusarlar qilichi yotardi. Graf bema'ni xayolga borib, uni sopidan chiqarib qon izlari bor-yo'qligini bilmoqchi bo'ldi. Daha nazoratchisi uni bu noqonuniy harakatdan to'xtatib qoldi.

– Ha, albatta, albatta, – shivirlab ming'irladi graf, – to'g'ri, hali hech nimaga tegish mumkin emas. Meni hayron qoldiradigani shuki, hech qayerda hech qanday qon, biron-bir jinoyat izini ko'rmayapman. Aftidan, zaharlanish bo'lsa keragov!

– Sabr qiling, – dedi nasihatomuz ohangda daha nazoratchisi, – tergovchi va doktorni kutaylik. Lekin, zaharlanishga ham o'xshab ketayapti...

Zaharlangan bo'lishi aniqqa o'xshaydi. Hech qayerda – na yerda, na divanda, na badanda, na marhumaning tungi ko'ylagida qondan asar yo'q edi. Divan yonidagi oromkursida ayollar pantaloni, tungi ko'ylak, ularning tagida esa sadafdek tovlanib turgan moviy rang ko'ylak, yaxshigina to'q kulrang matodan yubka va kulrang shoyi manto1 . Bularning hammasi divanda tartibsiz sochilib yotsa-da, lekin birontasi ham bir tomchi qon bilan bulg'anmagandi. Divan tepasidagi tokchadan topilgan bo'sh shamp'an idishlar va po'kaklar, sham qoldiqlari, soch to'g'nog'ichlari, yozib, yirtib tashlangan qog'oz parchalari, yorlig'ida «Or. Pulv» degan qop-qora vahimali yozuvli shisha idish ham zaharlanish bo'lsa kerak, degan fikrni tasdiqlab turardi.

Daha nazoratchisi, graf va kornet birlari olib, birlari qo'yib navbatma-navbat yorliqdagi yozuvni o'qib turganlarida ko'chadan ekipajning shovqini eshitildi: doktor bilan tergovchi yetib kelgandi. Bir necha daqiqadan so'ng Yelaginning gaplari haqiqat bo'lib

chiqdi. Sosnovskaya chindan ham revolverdan otib o'ldirilgandi. Ko'ylakdan qon dog'lari topilmadi. Ammo ko'ylakning tagida, yurak atrofida ko'kishtob qontalash dog'ni topishdi. Dog'ning o'rtasida chetlari kuygan, dumaloqlangan ro'molcha bilan yopilgani uchun hech bir joyni bulg'amagan qop-qora qon tomchilab turgan jarohat ko'rinib turardi.

Shifokorlar tekshiruvi yana nimaga aniqlik kiritdi? Ko'p narsaga emas: marhumaning o'ng o'pkasida sil xastaligidan qolgan izlar bor; yaqindan turib otilgani uchun o'lim bir lahzaning o'zida sodir bo'lgan; shu alfozda ham marhuma bitta-yarimta so'z aytishi mumkin bo'lgan; qotil va uning qurboni o'rtasida hech qanday kurash bo'lmagan; u shampan vinosini ichib, ketidan uncha ko'p bo'lmagan afyunni porterga (zaharlanishga ozlik qilardi) qo'shib ichgan va nihoyat, uni bu mash'um kechada erishgani – bir erkak bilan qovushgani bo'lgan...

Bu erkak nimaga, nima sababdan ayolni o'ldirdi? Yelaginning bu savolga javobi bitta edi: ularning har ikkisi (u va Sosnovskaya) «fojiali ahvolda» edilar, ular bu ahvoldan qutulishning o'limdan boshqa chorasini ko'rmaganlar. Sosnovskayani o'ldirib, Yelagin uning buyrug'ini ado etgan, xolos. Marhumaning o'limi oldidan yozgan xatlari esa bularning barchasini inkor etardi. Uning ko'ylagi ko'krigidan Yelaginga tegishli bo'lgan, marhumaning o'z qo'llari bilan polyak tilida (aytish kerakki, savodsizlarcha) yozilaverib, to'lib, titilib ketgan tashrif qog'ozini topishdi. Shulardan birida bunday so'zlar yozilgan edi:

– Teatr boshqaruvi raisi general Konovnitsinga! Do'stim! Bir necha yillik oliyjanob do'stlik uchun sendan minnatdorman... Senga so'nggi salomimni yo'llay turib, mening oxirgi chiqishlarimdan tushgan pulning hammasini onamga berib qo'yishingni iltimos qilardim...

Boshqasida:

– Bu odam meni o'ldirib to'g'ri ish qildi... Baxtsiz, bechora ona! O'z xohishim bilan o'lmaganim bois meni afv etishingizni so'rardim... Ona! Biz ko'rishamiz... u yerda, Arshi a'loda... Seza-yapman – bu oxirgi damim...

Sosnovskaya shunga o'xshash tashrif qog'ozlariga o'zining o'limi oldidan bitgan boshqa maktublarini ham yozib qoldirgan.

Ular tokchada mayda-mayda yirtilgan holda yotardi. Ularni yig'ib, yelimlab quyidagilarni o'qishdi:

– Bu odam mening va o'zining ajalini talab qilyapti... Bu yerdan tirik chiqishga umid yo'q...

– Xullas, mening kunim bitdi... Xudoyim, meni yolg'iz qoldirma... Men so'nggi xayolimni onamga va muqaddas san'atga bag'ishlayman...

– Oxiri yo'q, tubsizlik! Bu odam mening taq... Meni qutqar, Xudoyim, o'zing madad ber...

Va nihoyat, eng sirlisi:

– Baribir jahannam uchun...

Barcha maktublar – marhuma yonidan topilganlari ham, tokchada parchalangan holda yotganlari ham go'yo Yelaginning so'zlariga butunlay zid edi. Lekin, hamma gap o'sha «go'yo»da edi. Yelaginning taqdirini hal qiluvchi o'sha Sosnovskayaning yonidan topilgan «Men o'z xohishim bilan o'lmayapman» degan so'zlari yozilgan tashrif qog'ozi yirtib tashlansa bo'lmasmidi. Yelagin xatlarni yirtib tashlamagangina emas, balki o'zi bilan olib ketmagan ham edi, aksincha, o'z qo'li bilan (buni yana boshqa kim ham qilardi?) eng ko'rinarli yerga qo'yib qo'yan. Shoshib qolganidan ularni yirtmagandir. Bunday paytda yirtishni esdan chiqargan bo'lishi mumkindir. Ming shoshmasin, o'zi uchun xatarli bo'lgan bunday maktubni u qanday qilib marhumaning ko'kragiga solib qo'ysin? U o'zi, umuman, shoshib qolganmikan? Aslo, u marhumaning u yoq-bu yog'ini tartibga keltirgan, ustini ko'ylak bilan yopgan, yarasiga shunchayin ro'molcha bostirib qo'yan-da, o'zini ham tartibga keltirgan... Yo'q, bu yerda prokuror haq: bularni shoshganda qilib bo'lmasdi.

IV

Prokuror shunday dedi:

– Jinoyatchilar ikki xil bo'ladi. Birinchisi, tasodifiylar bo'lib, ular jinoyatni g'azab va nafrat ustida, ishlari o'ngidan kelmay qolgan vaqtda sodir etadilar, bu ilmiy tilda «oniy aqlsizlik» deyiladi. Ikkinchisi, sodir etayotgan jinoyatini oldindan o'ylab, yomon niyatda qasddan sodir etadi: bular tug'ma jinoyatchilar bo'lib, jamiyatning, jamoat tartibining dushmanlari, ya'ni «odamxo'r jinoyatchi»dir. Biz sudlanuvchi kursisida o'tirgan odamni bu toifalarning qaysi biriga



kiritsak bo'ladi? Albatta, ikkinchisiga. U, shubhasiz, tajribali jinoyatchi, u jinoyat sodir etdi, chunki u yallo qilib yurib, axloqsiz va bebosh yashashdan quturib ketgandi...

Bu tantanali nutq (Yelagin to'g'risida shahrimizning umumiy fikrini ifoda etgan bo'lsa-da) favqulodda g'alati edi. Yelagin sudda yuzini qo'li bilan odamlardan pana qilib, tirsagiga suyanib o'tirdi va savollarga qisqa-qisqa, g'ijinihgina, ma'yus javob berib turdi. Bir tomondan prokuror haq edi: sudlanuvchi o'rnida o'tirgan unaqa-bunaqa jinoyatchi emas, u, hatto, «oniy aqlsizlik»dan ham lat yemagan.

Prokuror o'rtaqta ikkita savol tashladi: birinchidan, o'zi jinoyat jazavada, ya'ni hayajonda sodir etilmaganmikan, ikkinchidan, u ixtiyorsiz ravishda qotillikka hamkor bo'lmaganmikan, — dedi va har ikkala savolga ham o'zi to'la ishonch bilan: «Yo'q, aslo», — deya javob qaytardi.

— Yo'q, — dedi u birinchi savolga javob bera turib, hech qanday jazava to'g'risida gap ham bo'lishi mumkin emas, negaki jazava holati bir necha soatga cho'zilmaydi. Yelagin nimadan ham jazavaga tushardi.

Oxirgi masalani hal qilish uchun prokuror o'ziga juda ko'p savol berdi va shu ondayoq ularni rad etib, masxaraomuz kulib qo'ydi-da, dedi:

— O'sha mash'um kunda Yelagin odatdagidan ko'proq ichmaganmikan? Yo'q, u o'zi ko'p ichadi, lekin o'sha kuni ichmagan.

— Uning salomatligi joyida bo'lganmi yo yo'qmi? Uni tekshiruvdan o'tkazgan shifokorlarning fikriga qo'shilaman: u sog'lom; lekin o'zini tiyishni mutlaqo bilmaydi.

— Agar u haqiqatan ham o'sha ayolni sevgan bo'lsa, unda jazava sevgan ayoli bilan er-xotin bo'lolmasligi tufayli kelib chiqmadimikin? Yo'q, bunday bo'lishi mumkin emas: chunki sudlanuvchi unga g'amxo'rlik qilmagan, birga bo'lish uchun biror-bir qat'iy chora ham ko'rmagan.

Bundan keyin:

— Balki Sosnovskayaning chet elga ketishi uni shu ko'ygga solgandir? Yo'q, ayolning jo'nab ketishini u avvaldan bilgandi.

— Balki Sosnovskayaning chet elga jo'nashi tufayli aloqalariga darz ketgandir? Bunday ham emas, chunki aloqalarining uzilishi

haqida bu kechadan avval ham ko'p marotaba gaplashilgan. Agar shunday bo'lmasa, unda nima axir? Nima, unda o'lim to'g'risida gaplashishganmi? Xonadagi g'alati holat, shayton vasvasasi, umuman, o'sha vujudni o'rtaguvchi «qora» tundek unga azob berarmidi? O'lim haqidagi gap-so'zlar Yelagin uchun yangilik bo'lolmasdi: bunday mish-mishlar o'zi va ma'shuqasi o'rtasida to'xtovsiz bo'lib, ko'ngilga ham urgandi. Shayton vasvasasi to'g'risida so'z ochishning o'zi kulgili. Uni ayrim narsalar: kundalik kechki ovqat, undan qolgan qoldiqlar-u bo'shagan shishalar aslo qiziqirtmasdi...

Yelagin yegan, ichgan, hojatxonaga borgan, goh vino deb, goh qalamtarosh deb, boshqa xonalarga ham chiqqan...

Prokuror shunday xulosaga keldi:

– Bungacha Yelagin qotillik sodir etganmidi, agar bu marhuma xohishiga ko'ra ijro etilgani inobatga olinsa, bahsni cho'zishga hojat ham qolmaydi. Yelagin Sosnovskaya o'zini o'ldirishni so'raganini aytib, uning «O'layapman, lekin o'z xohishim bilan emas» degan mazmunda yozilgan, o'zi uchun fojiali yakun topgan maktubini taqdim etib, bizni asossiz ishontirmoqchi bo'lyapti.

V

Prokuror nutqidagi tafsilotlarning ko'piga e'tiroz bildirish mumkin. «Sudlanuvchi mutlaqo sog'lom...» Lekin, kasallik bilan salomatlikning, aql bilan aqlsizlikning me'yori qayerda. «U oila qurish haqida o'ylamasdi ham...» O'ylamaganining boisi, avvalambor, bari behudaligiga ishonardi; ikkinchidan, nahotki sevgi va nikoh bir-biri bilan shunchalik bog'liq bo'lsa, Yelagin Sosnovskaya bilan nikohdan o'tganda, umuman, o'rtadagi barcha fojialarga chek qo'yib, bir yo'la xotirjam bo'larmidi? Har qanday kuchli, hattoki, umuman, unchalik oddiy bo'lmagan sevgida ham qanday qilib bo'lsa-da, nikohdan bo'yin tovlashdek antiqa bir xususiyat borligini nahotki hech kim bilmasa?

Takror aytaman, bular tafsilot, xolos. Aslida prokuror haq gapni aytgandi: bu jazava natijasi emasdi.

U yana shunday dedi:

– Shifokorlar xulosasida Yelagin jazavadan ko'ra ko'proq xotirjam bo'lgan, men esa uni nafaqat xotirjam bo'lganini, xotirjamligi bilan hammani hayron qoldirganini tasdiqlayman. Biz bunga jinoyat

sodir etilib, so'ng tartibga keltirilgan va u yerda Yelagin yana uzoq qolib ketgan xonani ko'zdan kechirganimizda amin bo'ldik. So'ng Yelaginning Starograd ko'chasidagi uydan xotirjam chiqib, eshikni shoshmay, yaxshilab qulflaganini ko'rgan tergovchi Yaroshenkoning ko'rsatmasi. Va nihoyat, Yelagin xulqi haqida rotmistr Lizarev fikri. Masalan, Yelagin kornet Sevskiy uni «aql-hushini yig'ib olishi»ga ishonitirmoqchi bo'lib, Sosnovskaya o'zini o'zi otmaganmi, shuni eslab ko'rishini so'raganida, u nima degan. U: «Yo'q, akaginam, hammasi juda yaxshi esimda!» – deya o'sha zahoti qanday otganini tasvirlab bergan. Tergovchi Budbergni «Yelagin o'z yoqimsizligi bilan hayron qoldirgan, ya'ni u iqroridan so'ng ham, sovuqqonlik bilan choy ichib o'tirgan». Tergovchi Foxt esa hayratdan yoqa ushladi: «Janob shtab rotmistri, – kinoyali dedi Yelagin, – umid qilamanki, meni bugunoq o'qishdan ozod qilasiz. – Bu shu qadar dahshatli ediki, – dedi Foxt, – kornet Sevskiy buni ko'tarolmay ho'ngrab yig'lab yubordi...» To'g'ri, rotmistr polk komandiri huzuridan unga chiqarilgan buyruqni olib kelganida, Lixarev va Foxtning yuzidan, eng muhimi, endi u zobit emasligini tushunganida Yelagin yig'lab yuborgan vaqtlar ham bo'lgan. Xuddi shunday damlarda u ho'ngrab yig'lab yuborgan, – dedi-da, prokuror ham ishni shu joyda yakunlab qo'ya qoldi.

Albatta, so'nggi jumla yanada g'alatiroq chiqdi. Shunga o'xshash boshga tushgan musibat seni tarashadek qotirgan baxtsiz damlaringda, to'satdan uyg'onib ketish, hatto, arzimasi, mutlaqo ahamiyat kasb etmagan, tasodifan ko'zingga tushgan biror narsa ham, dabdurustdan senga avvalgi shodon hayotingni, umidsizlikka to'la kunlaringni va shu damdagi ahvolingning bor dahshatini yodingga solishini kim bilmaydi deysiz. Barcha voqealar Yelaginga bu shunchaki ahamiyatsiz va tasodifiy narsalar emasligini unga eslatib qo'ydi. Axir uni tug'ma zobit desa bo'lardi, uning o'n ajdodi harbiy xizmatchilar bo'lgan. Endi esa u birdan zobit bo'lmay qoldi. Uning zobit emasligining sababi faqat bu emasdi, u endi o'z hayotidan ortiq ko'rgani, chin yurakdan sevgan ayolining bu yorug' olamda yo'qligi uchun ham zobit bo'lmay qolgandi, bunday qabih ishni uning o'zi o'z qo'llari bilan sodir etgandi.

Biroq, bu ham tafsilot, xolos. Eng asosiysi, «oniy aqlsizlik» haqiqatan ham bo'lmagan. U holda nima sodir bo'lgandi? Prokuror tan

olib aytdiki, «bu shubhali ishda asosiy e'tiborni, birinchi navbatda, Yelaginning fe'l-atvori muhokamasiga va Sosnovskaya bilan oralari-dagi munosabatni qanday aniqlashga qaratish kerak!» So'ng prokuror qat'iy turib dedi:

– Oralarida hech qanday o'xshashlik bo'lmagan ikki shaxs topishildi...

Shunday bo'lganmikan. Hamma gap shunda edi...

VI

Yelagin haqida, men, avvalo, shuni aytmochimanki, u endi yigirma ikki yoshga to'ldi: bu qaltis yosh, zamon esa notinch, bularning bari insonning kelajagini belgilaydi.

Odatda, bunday paytda odam, tibbiyot tili bilan aytganda, balog'at yoshini boshidan kechiradi, hayotda esa bu ilk muhabbat ko'rinishida bo'lib, negadir, bunga doim shoirona, umuman olganda, g'oyat yengiltaklik bilan qaraladi. «Ilk muhabbat»ga tez-tez fojia, qayg'u hamrohlik qiladi, lekin mutlaqo hech kim bunday paytda odamlarni shunchaki hayajon, azob emas, balki undan xiy-la teran, murakkab bir hissiyot o'rtayotgani haqida o'ylamaydilar; hali boshga tushmagan narsalar uchun kuyunishadi, balog'at davrining vahimasi, o'zni namoyon etishning mashaqqati, ilk jinsiy mayl. Agar men Yelaginning oqlovchisi bo'lganimda, suddan uning yoshiga aynan shu nuqtayi nazardan kelib chiqib e'tibor qaratishlarini va qarshimizdagi odamni shu ma'nodan kelib chiqib, mutlaqo tengi yo'qligini inobatga olishlarini o'tingan bo'lardim. «Navqiron zobit, es-hushini yo'qotib, aysh-ishratga berilgan», deya prokuror ko'pchilik fikrini takrorladi-da, haqligini isbotlash maqsadida hiko-yani boshqa bir guvoh – artist Lisovskiyni oshirib yubordi: Yelagin bir kuni kunduzi teatrga kelib, artistlar mashq qilishga tarqalishayotganda, uni ko'rib qolgan Sosnovskaya chaqqon chetga o'tdi-da, Lisovskiyning panasiga yashirinib: «Amaki, meni undan pana qiling!» – dedi. «Men uni pana qildim, – deya hikoyasini boshladi Lisovskiy, – sharobga cho'milqan bu zobit birdan to'xtadi va ganguib turgan joyida oyoqlarini kerdi-da, baqrayib: – bu Sosnovskaya deganlari qayerga daf bo'ldi», – dedi talmovsirab.

Ha, aynan shunday: miyasi aynigan odam, lekin nimadan aynigan: nahotki bebosh, bema'ni turmushdan bo'lsa?

Deyish mumkinki, Yelagin aslzoda va boy oiladan chiqqan. Onasi (qarangki, u ortiqcha hayajonga g'oyat moyil toifadan bo'lgan) dan u juda erta yetim qolgan, otasi esa berahm, qattiqqo'l odam bo'lgan. U doim shu qo'rquv tufayli otasidan uzoqlashib turib katta bo'lgan. Prokuror ayovsizlarcha Yelaginning nafaqat axloqiy, jismoniy qiyofasini ham osongina chizib tashladi.

Keyin shunday dedi:

– Shunaqa, janoblar, qahramonimiz mana shunday «ko'rkam» zobit libosida yurgan. Endi ahvoliga bir qarang-a. Endi uni bezaydigan hech vaqosi qolmagan; qarshimizda past bo'yli, bukri bir yigitcha, u malla mo'ylovi, betayin, bee'tibor boqib turgan basharasi, egnidagi qop-qora kamzuli bilan biroz Otelloni yodga soluvchi odamni ko'rib turibsiz. Menimcha, unda nasl buzilishining o'ziga xos belgilari yaqqol ko'zga tashlanib turardi. Zero, ba'zi hollarda, aytaylik, otasi ko'zidan narida o'zini ozod his etganda, va yana qonunni chetlashga imkoniyat tug'ilganda, odamlar bilan munosabatda biror-bir to'siq bilan hisoblashib o'tirmaydi.

Nima ham derdik, qo'poldan qo'pol berilgan bu baholarning ko'pi rost edi. Bularni eshita turib, men, avvalo, bir narsaga tushunolmadim, axir, qanday qilib o'sha mash'um, o'ta chalkash bir fojiaga bu taxlit yuzaki yondashish mumkin: ustiga-ustak, unda nasldan naslga o'tib kelayotgan belgi ham shundaygina ko'zga tashlanib turgan bir paytda, yana uni nimasi bilan ajratib olish mumkin; ikkinchidan, aytilgan ro'yi rost gaplarda men haqiqatning bir bo'laginigina ko'ra oldim, xolos. To'g'ri, Yelagin otasidan bezib o'sdi. Lekin, bu «jur'atsiz» degani emas-ku, ayniqsa, ota-ona oldida. Ustiga-ustak, ajdodlari, ota-bobolari bilan uni bog'lab turgan meros atalmish rishtani teran his eta olish baxtiga muyassar bo'lgan bunday odam uchun. Ha, Yelagin zobitga xos ko'rkam tashqi ko'rinishdan bebahra edi, lekin bu ham uning favqulodda qobiliyatli ekanidan darak emasmi: sinchiklab bir qarang-a, degan bo'lardim men prokurorga, malladan kelgan, oyoqlari ingichka, bukri bu odamga, o'shanda siz deyarli qo'rquv bilan kichik ko'zlari moviy (uni sizdan olib qochayotgan) bu sepkilli yuzi uchun ahamiyatsiz narsaning o'zi yo'qligini ko'rasiz. Va yana siz o'sha buzilgan naslning qudratiga bir e'tibor qiling-a: qotillik sodir etilgan

kun, u ertalabdan o'qishda bo'lgan va nonushtada olti qadah aroq, bir shisha shampan vinosi, ikki qadah konyak ichib, shunda ham mutlaqo hushyorlikni yo'qotmagan.

VII

Ko'pchilikning Yelagin haqida bildirgan chirkin fikrlariga qarama-qarshi o'laroq, polkdosh do'stlari o'z ko'rsatmalari bilan uni himoya qilishga tayyor turardilar. Do'stlari u haqda faqat yaxshi gaplarni aytishdi. Masalan, eskadron komandiri u haqda fikr bildirib bunday dedi:

– Yelagin polkka qadam qo'ygan kundan boshlab, ofitserlar orasida odob-axloqi bilan o'zini ko'rsata oldi va doimo o'ta xushfe'l, g'amxo'r, kichik xodimlarga munosabatda ham odil bo'ldi. U fe'lidagi bir jihat – betayinligi bilan ajralib turardi. Lekin buning hech kimga zarari tegmasdi. Faqat unda kayfiyat o'zgarishi, ya'ni quvnoq odamdan ma'yusga, sergakdan indamasga, qat'iyatli odamdan birdan o'z qadr-qimmatiga, kelajagiga ishonmaydigan odamga aylanib qolishi oson kechardi, xolos.

So'ng rotmistr Lixarev bunday fikr bildirdi:

– Uning g'alatiroq ekanini aytmasak, Yelagin g'amxo'r va yaxshi do'st, kamtarin va kamgap, ba'zan sho'x, bebosh, ba'zan esa zavq-shavqqa to'lib-toshib bizni hayron qoldirardi. U yonimga kelib, Sosnovskayani o'ldirganiga iqror bo'lganida, Sevskiy bilan Koshits Starogradskiy ko'chasidagi uyga yugurishdi. U ba'zan qo'rquvdan ho'ng-ho'ng yig'lar, ba'zan yovuzlarcha zaharxandalik bilan kulib qo'yardi. Uni qamoqqa olib ketishayotganda bizdan fuqaro kiyimiga qayerga buyurtma berishni so'radi...

So'zni graf Koshits davom ettirdi:

– Yelagin tabiati to'kis odam edi. U bir vaqtning o'zida ham muloym, ham asabiy, ta'sirchan va zavq-shavqqa to'la odamga aylanib ulgurishi mumkin edi. U teatrdan, musiqadan o'zgacha ta'sirlanar, bir zumda yig'lab yuborishi hech gap emasdi. U musiqa borasida ham ancha qobiliyatli bo'lib, deyarli barcha cholg'u asboblari bema'lol chala olardi.

Boshqa guvohlar ham taxminan shularni aytishdi:

– U juda ishqiboz odam bo'lib, doim qandaydir chinakam, favqulodda bir narsani kutib yashardi...

– Do'stlar bazmida quvnoq, hatto joningga tegar darajada muloym bo'lib, atrofidagi odamlardan shampan vinosidan ko'proq so'rab olardi-da, to'g'ri kelgan odamini shu bilan mehmon qilaverardi. Sosnovskaya bilan uchrasha boshlagandan beri hissiyotini iloji boricha sir saqlashga urinardi. U o'zgargandi, xayolchan, g'amnok yurardi. Bir kuni u o'zini o'ldirishga qaror qilganini aytib qoldi...

Yelagin bilan yaqindan tanish bo'lganlar shunday ma'lumot berishdi. Sudda o'tirib, men uning portretiga bunday qora bo'yoqni prokuror qayerdan topgani haqida o'yladim. Balki, unda biz bilmagan boshqa ma'lumot bordir? Yo'q, bunday bo'lishi mumkin emas. Taxminimcha, prokurorning unga qora bo'yoq chaplashiga sabab, uning «baxtli yoshlar» to'g'risidagi umumiy qarashlariga qo'shimcha, yana sudning ixtiyorida turgan, yagona, Yelaginni Kishinyovdagi do'stiga yuborgan xatini o'qib bilganlari sabab bo'lgandi. Xatda Yelagin o'z hayoti to'g'risida surbetlarcha so'zlab:

– Men, og'ayni, butunlay loqaydlik qurshovida qoldim: menga endi hammasi baribir! Bugun yaxshi, Xudoga shukur, lekin, ertaga nima bo'ladi, tupurdim, kechasi yotib o'yla – ertasi turib so'yla. «Uchchiga chiqqan aroqxo'r, dong'i ketgan ahmoq» degan nom ortirdim.

Bunday o'z-o'ziga baho chechangina prokurorning «O'z nafsi»ni o'ylab, lazzat ketidan quvgan Yelagin borini unga bag'ishlagan ayolni jamoat hukmiga tashlab, uning nafaqat umriga zomin bo'ldi, hatto so'nggi umidi – nasroniy urf-odatiga ko'ra dafn etilishdan ham mahrum etdi...» degan nutqiga aloqasi bordek tuyulardi. Chindan ham aloqasi bormidi o'zi? Yo'q, prokuror xatdan bir necha satrgina olgandi, xolos. Xatning to'liq matni quyidagicha edi:

«Azizim Sergey. Xatingni oldim, kech bo'lsa-da, javob yozyapman, nima ham qilardik. Xatimni o'qib, «buncha aji-buji, siyohga tushgan pashsha o'rmalaganmi!» deb o'ylasang kerak. Nima ham qilardik, buyam bir yozuv-da, aytishadi-ku, agar oyna degani bo'lmasa bormi, fe'l-atvoringga baho beruvchilar ham topiladi. Men o'sha-o'sha ishyoqmasligimcha qoldim, bilsang, undan ham battar, ikki yillik mustaqil hayot va yana allanimalar menda o'z izini qoldirdi. Shunday gaplar borki, hatto Hazrat Sulaymonga ham ayolmaysan! Agar bir kun kelib o'zimni gumdon qilganimni eshitib qolsang, hayron bo'lma, deb aytib qo'yayapman. Men, og'ayni,



qandaydir loqaydlik domiga tushib qoldim: menga endi hammasi baribir! Bugun yaxshi, xudoga shukur, ertaga nima bo'lsa bo'lar, tupurdim, kechasi yotib o'yla – ertasi turib so'yla. O'zimga «uchchiga chiqqan aroqxo'r», «dong'i ketgan ahmoq» degan nom orttirganim qoldi. Ishonasanmi, yo'qmi, bilmadim. Ba'zan yuragimdagi kuchni, og'riqni, barcha go'zal, dabdabali, umuman, jin ursin, qalbim nimaga talpinsa, o'shanga maylni his etib turaman. Balki buni yoshlikka yo'yarsan: nega endi men tengilar bunday holatlarni boshdan kechirmaydi. Men o'lguday asabiy bo'lib qolganman: ba'zan qishda, kechqurun bo'ron, sovuq bo'lishiga qaramay, o'rnimdan dast turaman-da, hatto hech nima bilan hayron qoldirib bo'lmaydigan shaharliklarni lol-u hayron qilib, ko'chaga chiqaman-da, asta-sekin yuqorilab boraveraman, e'tibor qilyapsanmi, yana o'sha qayerlardadir qulog'imga chalingan ohangni tutish istagida o'zimni mutlaqo hushyor va xotirjam tutgan holda. Qani endi tutolsam! Mayli, senga yorilaman. Yuragimdan urib qoldi, unaqasi hech yerda yo'q... Endi bu haqda bas qilaylik. Iltimos, menga xat yozib tur, manzilimni bilasan. Nima deganing yodingdami. Rossiya, kornet Yelagininga...»

Aqlga sig'maydi: hech bo'lmaganda, bu xatlardan birontasi o'qilganda ham mushtarak biror narsasi bo'lmagan ikki kimsa qanday qilib topishishdiykin, deb aytish mumkin bo'larmidi?

VIII

Sosnovskaya haqiqiy polyak ayoli bo'lib, Yelagindan katta, yoshi yigirma sakkizda edi. Otasi mayda amaldorlardan bo'lib, qizaloq uch yoshdaligida o'z joniga qasd qilgandi. Onasi anchagacha beva yashadi, so'ng xuddi o'shanday mayda amaldorga turmushga chiqdi va yana beva qoldi. Ko'rib turganingizdek, Sosnovskayalar oilasi o'rtahol oilalardan bo'lgan. Lekin boshqalarda topilmaydigan ajoyib samimiylilikni va bizga ma'lum bo'lgan sahnaga bu darajada erta qiziqish unda qayerdan paydo bo'ldi ekan. Bunga uning oiladan yoxud o'zi o'qigan xususiy pansiondan olgan tarbiyasi sabab bo'lolmaydi. U juda yaxshi o'qigandi, bo'sh vaqtlarida ko'p mutolaa qilardi. O'qigan kitoblaridan o'ziga yoqqan fikr va hikmatli so'zlarni yozib olib, mudom o'z hayotiga qiyoslab ko'rardi, umuman, u kundalikka o'xshash qaydlar qilib borardi, agar oylab qo'lga olmay tashlab qo'yilgan bu parcha-parcha qilib yirtilgan qog'ozlarni kun-



dalik deyish mumkin bo'lsa. Axir u bu kundalikka o'z orzu-umidlari, hayotga qarashlarini yozib, ko'nglini bo'shatardi, yana kirxona, tikuvchi va boshqa allanimalarga ketgan xarajatlarni ham kiritib borardi. U aynan qanday gaplarni ko'chirib olardi?

– «Birinchi baxt, bu – dunyoga kelmaslik, ikkinchisi esa – fano-ga ketish». Ajoyib fikr!

– Yorug' dunyo o'lgudek zerikarli, toqatni toq qiladi, yurak xori-qulodda nimagadir talpinadi.

– «Odamlar u dunyoga ravona qiladigan qiynoqlarinigina tushu-nishga qodir». Myusse.

– Men hech qachon turmushga chiqmayman. Bu haqda hamma gapiryapti. Bunga Xudo va Ajal nomi bilan qasam ichaman.

– Yo muhabbat, yo o'lim. Men sevadigan odam yer yuzida bor-mikan o'zi? Bundayi yo'q, bo'lishi ham mumkin emas! Unda telba-larcha sevganim, bu dunyoni qanday tashlab ketaman!

– Qo'rqinchli, maftunkor, sirli muhabbatni yerdan ham, ko'kdan ham topib bo'lmaydi...

– Oyim boylik uchun erga tegishimni xohlaydi. Men, boylik uchun-a! «Sevgi» degan so'z bu zaminga begona, unda azob-uqubat ham, joziba ham yetarli, afsus, men bunday tuhfadan benasibman!

Hisobsiz yirtqich ko'zlar menga yeb qo'ygudek boqadi, men o'zimni xuddi maxluqlar makonida bo'lgandek his etaman.

– «Uning hayotdagi barcha toat-ibodatleri qalbi tubidagilarni pinhon saqlashga qaratilgan bo'lsa-yu, unga suqilib kira oldim, deya kim ham maqtana olardi?» Myusse.

Sosnovskaya pansiondagi kursni tugatgach, onasiga o'zini san'atga bag'ishlashini aytganda, mehribon katoliklardan bo'lgan onasi avval-boshda buni eshitishni ham istamadi, qizi esa boshqa-larga o'xshamasdi, birovga itoat etish u yoqda tursin, hatto onasiga ham elburutdan ta'sir o'tkazib, Mariya Sosnovskayaning hayoti od-di, shuhratsiz bo'lishi mumkin emasligiga uni ko'ndirgandi.

U o'n sakkiz yoshida Lvovga jo'nadi va ko'p o'tmay o'z orzusi-ni ro'yobga chiqardi: sahnaga ham biron-bir qiyinchiliksiz erishdi va tez orada nazarga tushdi. Omma orasida ham tez tanildi, ancha jid-diy bo'lgan teatr san'ati olamida xizmatining uchinchi yilida bizning shaharga taklif etildi. Lvovga kelgan kunidanoq, deyarli avvalgidek kundaligini yurita boshladi:

– «U haqda gapirishyapti, kulishyapti, yig'lashyapti, uning o'zi kim, kim biladi?». Myusse.

– Agar onam bo'lmaganida, o'zimni o'ldirgan bo'lardim. Bu mening doimiy orzuym...

– Men shahar tashqarisiga chiqqanimda, u yerdan tubsiz, ajoyib osmonni ko'raman va shu lahzada menga nima bo'layotganini anglolmay qolaman. Shu payt ovozim boricha qichqirgim, kuylagim, biron nima o'qigim, yig'lagim, sevib qolgim va oxiri o'lgim kelib ketadi!

– Men o'limning eng go'zalini tanlayman. Ixchamgina uy olamanda, uni motam matosi bilan qoplayman. Devor ortida kuy yangraydi, men esa oddiygina oq ko'ylakda, o'z ifori bilan o'ldiruvchi atrofimdagi gullar ichida yotaman. O, bu qanday nash'ali!

Keyin:

– Hamma tanamga muhtoj, ruhimga emas...

– Boy bo'lganimda butun dunyoni kezardim va undan muhabbatimni ayamagan bo'lardim...

– «Inson nima istashini o'zi bilarmikan, o'ylaganlariga o'zi ishonarmikan?». Krasinskiy.

Va nihoyat:

– Yaramas!

Qilgan ishini payqash uncha qiyin bo'lmagan bu «yaramas» yana kim bo'ldi ekan. Anig'i shuki, u bor, uning mavhum shaxs bo'lishi mumkin emas. «Lvovdayoq, – dedi tergovchi Zauze, Sosnovskayaning xizmatdoshi, – u kiyinmasdi, yechinib xizmatini ado etardi, tanishlari-yu muxlislarini uyida, ochiq-sochiq tungi ko'ylakda, yalang'och oyoqlarini ko'rsatib qabul qilardi. Uning go'zalligidan hamma lol qolardi, bu, ayniqsa, yangi kelganlarga ko'proq ta'sir qilardi va ular bundan hang-mang bo'lib qolardilar. Sosnovskaya shunda: «Aslo hayron bo'lmang, bularning bari o'zimmiki», deya tizzasidan tepasini bemalol ochib ko'rsatardi. Shu bilan birga, u tez-tez ko'z yoshi to'kib, uning muhabbatiga munosibi yo'qligini va birdan bir najoti o'lim ekanini bot-bot ta'kidlardi...

Mana, Konstantinopolga, Venetsiyaga, Parijga birga borgan, Krakov va Berlinda u bilan birga bo'lgan «yaramas» ham paydo bo'lib qoldi. Bu qandaydir galitsiyalik yer egalaridan bo'lib, favqulodda

badavlat odam edi. Sosnovskayani yoshligidan yaxshi bilgan tergovchi Volskiy u haqda shunday dedi:

– Men Sosnovskayani hamisha axloqsiz ayol deb hisoblaganman. O'lkamiz fuqarosi va artist sifatida o'zini qanday tutishni mutlaqo bilmasdi. U faqat pulni va erkaklarni xush ko'rardi, xolos. Bu beadab, qanday qilib qizaloq paytidayoq o'zini kekxa galitsiylik to'ng'izga topshirdi ekan?

Sosnovskaya o'z o'limi oldidan Yelagin bilan qilgan suhbatida aynan shu «to'ng'iz» haqida gapirib bergandi. Shu yerda u beparvolik bilan Yelaginga shikoyat qilgan:

– Men o'z holimcha o'sdim, menga hech kim qaramagan, men o'z oilamda, butun yorug' olamda barchaga begona edim. Butun avlodi bilan la'natga uchragur bir xotin meni, ishonuvchan, pokiza bir qizni fahsh yo'lga boshladi... Faqat dahshat bilan eslash mumkin bo'lgan, ablahlarning ablahi bo'lib chiqqan bir odamni men Lvovda xuddi o'z otamdek yaxshi ko'rib qolgandim. U meni nashaga, vinoqa o'rgatdi va meni Konstantinopolga olib ketdi. U yerda uning butun boshli harami bo'lib, u o'z haramida yotib, yalang'och joriyalarini tomosha qilardi-da, meni ham ulardek yechinishga majbur etardi, u shunday ablah va pastkash odam ediki...

IX

Shahrimizda Sosnovskaya to'g'risida tezda mish-mish gaplar tarqaldi.

– Lvovdayoq, – dedi tergovchi Meshkov, – ko'pchilikka bir kechaning o'zidayoq u bilan birga bo'lishni taklif etgan va sevisgha qodir bo'lgan qalbni izlayotganini aytgan. Sosnovskaya bunday qalbni sabot bilan izlagan. O'zi esa: «Mening asosiy maqsadim – yashash va hayotdan bahra olish», deya takrorlardi. Chashnagir barcha sharoblardan totishi lozim, lekin bironta xilidan mast bo'lishi mumkin emas. Ayol erkak bilan munosabatda ham shunday yo'l tutishi kerak». – O'zi xuddi shunday qilgan, – dedi Meshkov. – Sharobning baridan totib ko'rgan deb aytolmayman, biroq yo'ldan urganlarining sanog'i yo'qligini bilaman. Balki, u bularni eng asosiy ish – atrofida shovqin-suron ko'tarib, teatrga yollangan olqishchilarni to'plash uchun qilgandir. «Pul, – derdi u, – qo'lning kiri, men xuddi so'nggi meshchanlardek mumsik, ba'zan ziqnaman, lekin nimagadir

pul haqida o'ylamayman. Muhimi – shuhrat, qolganlari asta-sekin bo'laveradi». Sosnovskaya o'lim haqida gapirganida ham aynan o'zi to'g'risida birovlarini gapirishga majbur qilishni ko'zlagan bo'lsa, ne ajab...

Lvovda sodir bo'lganlari bizning shaharda davom ettirildi. Qayd-lar ham deyarli xuddi shunday yozib borildi:

– Xudoyim-ey, qanday zerikarli, qanday azob bu! Qani endi hammayoq ostin-ustin bo'lsa-yu, barini yer yutsa!

– Bir kuni kechqurun qabristonga bordim: u yer shunday ajoyib ediki! Mening nazarimda... yo'q, aslo, buni tasvirlashga ojizman. Menga qolsa tun bo'yi qabrlar ustida qolib, ularga obdan, tinkam quriguncha so'zlarimni to'kib-solgan bo'lardim. Ertasi kuni men o'z rolimni har qachongidan ham yaxshi o'ynadim...

Va yana:

– Men kecha kechqurun soat o'nlarda qabristonga bordim. Bu qanday ta'sirli manzara. Oy nuri qabr toshlari va xochlarni oppoq yoritib turardi. Meni minglab marhumlar o'rab olgandek tuyulardi. O'zimni shunday baxtiyor va yengil his qildimki... Men o'zimni juda yaxshi his etardim.

U Yelagin bilan tanishgandan so'ng, bir kuni undan polkda otliq askarlardan birining o'lganini eshitgan va Yelagindan uni ibodatxona, marhum yotgan yerga olib borishini so'ragan, keyin esa oyinda ibodatxona va marhumning ko'rinishi unda hayratlanarli taassurot qoldirganini yozgan.

Shuhratga, odamlar e'tiboriga tashnalik bu vaqtga kelib darg'azablikka aylanib ulgurgandi. Uning o'ziga munosabati yaxshi edi. Umuman olganda, uning chiroyida hech qanday o'ziga xoslik bo'lmasa-da, baribir, alohida, kam uchraydigan o'zgacha maftunkorlik, ayyorona yovuzlik bilan qorishib ketgan soddadillik, ochiq ko'ngillik bo'lib, bu qorishiq samimiylilikni doim o'ziga chorlab turardi: portretlariga qarang, nigohlariga diqqat qiling, uning o'ziga xosligi, biroz ochilgan lablar, doimo xo'mraygan, ma'yus nigoh, yoqimli, o'ziga tortuvchi, xuddi biror nima va'da qilayotgandek, qandaydir sirlilikka rozilik bildirayotgandek axloqsizlikning bir ko'rinishi bu. U o'z go'zalligidan qanday foydalanishni bilardi. U o'z muxlislarini o'zidagi bor go'zalliklar – jarangli ovozi, kulgili va ko'z yoshga to'la jonli sahna harakatlari bilangina emas, balki ular-

ni o'z badanini namoyish etadigan rollari bilan ham ushlab turardi. U uyida ko'ngilni sust ketkazadigan sharqona va yunon liboslarida yurar va ko'plab mehmonlarini shu liboslarida kutib olardi. Har xil to'pponchalar, xanjar, o'roq va turli xil ko'rinishdagi qilichlar, turli xildagi zaharlar solingan shisha idishlari bo'lgan, uning o'zi aytganidek, qotillik uchun maxsus mo'ljallangan bu xonaga ularni olib kirardi-da, bu yerda suhbatning jonini kirgizadigan doimiy narsa «ajal» derdi. Bu ham yetmagandek, tez-tez hayotdan voz kechishning turli usullari haqida suhbatlashardi va devordagi osig'liq revolvorni olib, tepkisini ko'tarardi, stvoli og'zini ichib turgan viskisiga tirab turib: «Meni hoziroq o'pinglar, bo'lmasa o'zimni otib tashlayman!» yoki bo'lmasa, og'ziga dumaloqlangan zahari kuchli dorini olardi-da, «Agar mehmon shu topning o'zida tiz cho'kib, yalangoyoqlarimdan o'pmasa, zaharni yutib yuboraman», – derdi. U barchasini shunday ishonarli qilib bajarardiki, mehmonning qo'rquvdan ranglari quv oqarib, unga ikki karra maftun bo'lib qaytardi va butun shahar bo'ylab aynan uning barcha hayajonga soladigan jihatlari haqida mish-mishlarni yoyar edi.

– U, umuman, hech qachon o'ziga o'xshamas edi, – dedi sudda uni uzoq vaqt yaqindan bilgan guvoh Zaleskiy. – Odamni mazaxlash, jig'iga tegish – bular uning doimiy mashg'uloti edi. U sirli va yoqimli qarashlari, ma'noli kulishlari, ma'sum boladek ma'yus xo'rsinishlari bilan odamning g'azabini qo'zg'ashga juda usta edi. U Yelagin bilan ham o'zini shunday tutardi. U Yelaginni goh yondirar, goh ustidan sovuq suv quyardi... U asli o'lishni istarmidi? Yo'q, u hayotning ashaddiy ishqibozi edi, ajaldan esa o'lgudek qo'rqardi. Umuman olganda, uning fe'lida xushchaqchaqlik, quvnoqlik ko'proq edi. Esimda, bir kuni Yelagin unga oq ayiq terisini sovg'a qilib jo'natdi. Bu vaqtda u uyida mehmon kutardi. Po'stin uni shunday quvontirdiki, uyidagi mehmonlarni ham unutdi. U po'stinni yerga tashladi-da, hech kimga e'tibor qilmay, ustida boshi bilan o'mbaloq oshib, shunday harakatlarni ko'rsatdiki, bunga har qanday akrobat hasad qilgan bo'lardi. Nimasini aytasiz, ayolmisan ayol edi.

Uni g'am-g'ussa, umidsizlik holdan toydirganini, o'sha, bizga tanish Zaleskiy gapirib bergandi. O'n yildan beri bilgan shifokor Seroshevskiy u Lvovga ketishidan avval uni davolaganda unda sil

kasali alomatlari topilgandi. Yana oxirgi paytlarda u ruhiy tushkunlikdan, xotira pasayishidan, gallyusinatsiyadan azob chekardi. Xullas, shifokor uning aqli rasoligidan ham xavotirda edi. O'z ajali bilan o'lmasligiga, hatto uni asab kasalidan davolagan shifokor Shumaxer-ni ham ishontirolgandi. (Undan Shopengauerning ikki tomligini olib, uni diqqat bilan o'qib chiqqan, ajablanarlisi shuki, keyin ma'lum bo'lishicha, u o'qiganlari ma'nosiga juda yaxshi tushungan). U hammani o'z ajali bilan o'lmasligiga ishontirar, do'xtir Shumaxer uni aynan shu asab buzilishidan davolagandi. Shifokor Nedzelskiy shunday ko'rsatma berdi:

– G'alatiroq ayol edi. Undagi quvnoqlik, noz-karashma ko'proq uyida mehmon kutgandagina ayon bo'lardi: ba'zan hech narsadan hech narsa yo'q, birdan jim qolardi, so'ng ko'zlari ola-kula bo'lib boshini stolga urardi yoki bo'lmasa narsalarni – bordoq bormi, qadah bormi, yerga ota boshlardi... Bunday vaqtda unga qancha tezroq «qani, yana» deya shoshiltirsangiz, u harakatini shuncha tezroq to'xtatardi.

Va nihoyat, aynan mana shu «g'alatiroq va maftunkor ayol» bilan kornet Aleksandr Mixaylovich Yelagin uchrashishdi.

X

Bu uchrashuv qanday sodir bo'ldi? Bular orasidagi yaqinlik qanday dunyoga keldi? Ularning bir-birlariga bo'lgan tuyg'ulari, munosabatlari qanday edi? Bu haqda Yelaginning o'zi ikki marta hikoya qilib bergandi: birinchi marta qisqa, uzuq-yuluq, qotillikdan bir necha soat o'tgach – tergovchiga; ikkinchi marta – so'roqda, birinchi so'roqdan uch hafta o'tgach.

–Ha, – dedi u, – Sosnovskayaning hayotdan ketishiga men aybdorman, lekin uning o'zining istagi bilan...

Men u bilan yarim yil avval teatr kassasi oldida poruchik Budberg orqali tanishganman. Uni chin yurakdan sevib qolgandim, u ham mening his-tuyg'ularimga befarq bo'lmas, degandim. Ba'zan u meni, men uni sevganimdan ham ortiq sevar deb o'ylardim, ba'zan esa buning aksi bo'lardi. Bundan tashqari, u doim muxlislari qurshovida bo'lar, ularga noz-karashmalar qilardi, men esa rashk azobidan adoyi tamom bo'lib borardim. Nihoyat, bizning bunday fojiali ahvolimizga aslida bu emas, men tushuntirilmaydigan nimadir sabab...

Nima bo'lganda ham qasam ichib aytamanki, men uni rashkdan o'ldirganim yo'q...

Aytganimdek, u bilan o'tgan yilning fevral oyida teatr oldidagi kassa yonida tanishganman. Men unikiga borganman, lekin oktabr oyigacha ko'p emas, oyda ikki marta bo'lganman, u ham bo'lsa kunduz kunlari. Oktabrda men unga sevgi izhor etdim, u menga uni o'pishimga ruxsat berdi. Bu voqeadan bir hafta o'tgach, u, men va do'stim Voloshin bilan shahar tashqarisidagi restoranga kechki ovqatga bordik-da, u yerdan faqat ikkimiz qaytdik, u xursand, mehribon, ozgina kayfi ham bor edi. Men o'shanda o'zimni shunday jur'atsiz his etdimki, hatto uning qo'lini o'pishga ham qo'rqardim. Keyin u mendan Pushkinni so'radi va «Misr kechalari»ni o'qib, dedi: «Birgina kechani sevgan ayolingizga bag'ishlash uchun hayotingizdan kecharmidingiz?» Men «ha» deb javob berishga shoshganimda, u sirli jilmaydi. Men uni juda sevib qolgandim, bu sevgi falokat keltirishini aniq ko'rib, his etib turardim. Imkon qadar yaqinlashganimizdan so'ng, unga muhabbatim, nimani his qilayotganim-u dardida ado bo'layotganim, otam unga uylanishimga ruxsat bermasligi, nikohsiz men bilan yashashning ilojsizligi, polyaklar jamiyati uni artist sifatida rus zobiti bilan nikohsiz ochiqdan ochiq aloqa qilmasligini bir amallab ayta boshladim. U ham o'z qismatidan, tushunib yetolmagan qalbidan shikoyat qildi. Mening izhori dilimga, sukut ichidagi savolimga, meni sevadimi, yo'qmi, bularga javobdan o'zini olib qochdi, uning qilgan shikoyatlari esa ikkimiz yaqin bo'lishimiz mumkinligiga menda umid uyg'otdi...

Keyin shu yilning yanvaridan boshlab har kuni unikiga boradigan bo'ldim. Men unga teatrga, uyiga guldasta yuborardim, sovg'alar qilardim... Men unga mandolina, oq ayiq terisi, uzuk va olmos ko'zli bilaguzuk sovg'a qildim, yana bosh chanog'i shaklida yasalgan to'g'nog'ich ham tuhfa etdim. U ajal ramzli narsalarni xush ko'rardi va u menga bir necha bor mendan aynan xuddi shunday fransuz tili-da «Quand meme pour toujours!» so'zlar yozilgan to'g'nog'ich olish orzusi borligini aytgandi.

Shu yilning yigirma oltinchi martida u meni kechki ovqatga taklif etdi: kechki ovqatdan so'ng u ilk bor o'zi «yaponcha xona» deb ataydigan yotoqxonasida menga o'zini bag'ishladi. Keyingi uchra-shuvlarimiz ham aynan shu xonada o'tadigan bo'ldi, u kechki ov-

qatdan so'ng xizmatkorni uxlashga jo'natardi. Keyin, u menga o'z yotoqxonasining to'g'ri zinaga olib chiqadigan tashqari eshigi kalitini berib qo'ydi. Yigirma oltinchi mart xotirasiga uning istagi bilan ismi sharifimiz, ilk yaqinligimiz sanasi o'yib yoziladigan nikoh uzugiga buyurtma berdik...

Shahar tashqarisiga qilgan safarlarimizning birida qishloq ibodatxonasi yonida joylashgan xoch oldida turib, Xudo oldida uni mangu sevishim, u mening xotinim ekanligi, to o'lguncha unga sodiq qolishim haqida ont ichdim. U ma'yus va o'ychan jim turardi. So'ng oddiy, lekin qat'iy turib: «Seni sevaman!» – «Quand meme pour toujours!» – dedi.

Bir kuni mayning boshlarida, unikida kechki ovqat paytida afyun kukunini oldi-da: «O'lish qanday oson-a! Bir chimdim kifoya, keyin hammasi tamom!» – dedi. So'ng kukunni shampan vinosi solingan qadahga sepib, uni og'ziga olib bordi. Men qadahni qo'lidan tortib olib, vinoni tosh ustiga sepib yubordim, qadah etik tepkisiga urilib, chil-chil bo'ldi. Ertasi kuni u menga: «Kecha fojia o'rniga, kulgili ish bo'ldi!» – dedi, va: «Nima qilsam ekan, jur'atim yetmayapti, sen ham eplolmaysan, qo'lingdan kelmaydi... Qanday sharmandalik!» – deya qo'shib qo'ydi.

Shundan so'ng biz juda kam ko'rishadigan bo'ldik: endi meni kechqurunlari boshqa qabul qilolmasligini aytdi. Nega endi? Men bundan jinni bo'layozdim, rosa qiynaldim. Bundan tashqari, u menga sovuq, masxaraomuz munosabatda bo'la boshlagandi, o'zini men bilan xuddi kecha tanishgandek tutar va tayinim yo'qligidan meni tahqirlardi... Birdan yana hammasi o'zgarib qoldi. U sayrga chiqish uchun oldimga kelardi, endi u tilyog'lamalik qilishga o'tgandi, balki bu uning oldida o'zimni sovuqqon tutishni o'zlashtira boshlaganimdandir. Oxiri u uchrashib turishimiz uchun xuddi o'zi buyurgandek xilvat ko'chalardan birida joylashgan, mutlaqo ko'zdan nari, qorong'i, alohida uy yollashimni so'radi... Bu uy qanday qilib tartibga keltirilganini bilasizmi...

Men o'n oltinchi iyun soat to'rtlarda uning uyiga borib, unga uy olganimni aytib, qo'liga kalit tutqazdim. U jilmayib turib kalitni qaytararkan: «Bu haqda keyinroq gaplashamiz», – dedi. Shu vaqt eshik qo'ng'irog'i chalinib, qandaydir Shklyarevich degan odam keldi. Men kalitni shosha-pisha cho'ntagimga yashirib, allanimalarni

gapira ketdim. Uydan u bilan birga chiqqan ham edik, Sosnovskaya yo'lakdan turib: «Dushanba kuni keling», – deya qichqirdi-da, men-ga asta: «Ertaga soat to'rt-da kel», deb shipshigandi, boshim gir ay-lanib ketdi...

Ertasiga roppa-rosa soat to'rt-da yetib keldim. Eshikni oshpaz ayol ochib, Sosnovskaya meni qabul qilolmasligini aytib, mak-tub tutqazganida, hayratdan yoqa ushladim. U maktubida o'zini noxush his qilayotganini, onasini ko'rgani dala hovliga borishini aytgan, «Endi kech», deb yozgandi. Bundan qonim qaynab, birin-chi uchragan qandolat do'koniga kirdim-da, «endi kech» dega-ning nimasi, hoziroq tushuntir, deya zaharxanda maktub yozib, xat tashuvchidan jo'natdim. Xat tashuvchi uni uyda yo'qligini aytib, maktubni qaytarib olib keldi. Shunda men u bilan aloqani butunlay uzishga qaror qildim. Uyga qaytib, uning uchun balki shunchaki hazil-mazax bo'lib tuyulgan, lekin men uchun o'zim bilan narigi dunyoga olib ketishim mumkin bo'lgan, hayotimdagi birdan bir aziz narsa – nikoh uzugini o'zimga qaytarishini so'rab ta'na-dashnomli yangi maktubimni yozdim: shu bilan bari tugadi, menga o'limdan o'zga yo'l yo'q demoqchi bo'lgandim. Maktub bilan birga uning menda saqlanayotgan suratini, xatlarini, yana mayda-chuyda narsa – qo'lqoplari, to'g'nog'ichlar va shlapasini ham o'ziga qaytarib yubordim. Xizmatkor kelib, yana uning uyda yo'qligini, xat bilan jo'natilgan narsalarni qorovulga qoldirib kel-ganini aytdi.

Kechqurun sirkka bordim, u yerda menga uncha tanish bo'lmagan o'sha Shklyarevichni uchratib qoldim, zerikib qolmaslik uchun u bilan birga shampän vinosi ichdik. Birdan Shklyarevich: «Menga qarang, ko'rib turibman, azob chekyapsiz, buning sababi-ni ham bilaman. Ishonavering, u bunga arzimaydi. Buni hammamiz boshimizdan o'tkazganmiz, u burnimizdan ip o'tkazib olgan...» deb qolsami. Qilich olib, boshini qoq ikkiga bo'lgim keldi-yu, ammo-lekin o'zimdän o'tganini o'zim bilardim, bunday qilish u yoqda tursin, hatto suhbatimizni ham bo'lolmasdim, undan aslida ichim-da xursand edim, chunki menga hamdard topilganidan quvonardim. Menga nima bo'lganini bilmadim-u, lekin men unga miq etmadim, Sosnovskaya to'g'risida-ku, og'iz ham ochmadim, lekin uni Staro-gradskiy ko'chasiga olib borib, uchrashuvimiz uchun o'zim yoq-

tirib tanlagan uyni ko'rsatdim. Bu uyni olib ahmoq bo'lganimdan o'lgudek uyalardim, ham alam qilardi.

U yerdan aravakashni Nevyarovskiy restorani tomon shoshirdim: yomg'ir shivalar, arava uchib borardi, meni yomg'ir ham, qarshimdagi yondirib kul qilayotgan alanga ham azoblardi, undan qo'rqardim. Tungi birlarda men Shklyarevich bilan restorandan qaytib, endi yechinib turgandim, xizmatkor xat tutqazdi: u meni ko'chada kutardi, tezda tushishimni so'ragandi. U xizmatchi ayol bilan birga kelib, mendan xavotirlanganini, shuning uchun ayolni o'zi bilan olib kelganini aytdi. Men ayolni uyiga kuzatib qo'yishni buyurib, o'zim karetaga o'tirdim, biz Starogradskiy tomon jo'nadik. Har doimgidek uning hozirgi xotirjam holati menga ham ko'chdi. Yetib kelganimizda, ancha o'ziga kelib qoldi, uy unga juda yoqdi. Men uni qo'lidan ushlab, ta'na-dashnomlarimni kechirishini, achchiq ustida berib yuborgan surati va boshqa buyumlarni qaytarishini so'radim. Biz tez-tez janjallashib turardik, bunda men o'zimni aybdor his qilardim va oxirida undan uzr so'rardim. Yarim kechasi soat uchda uni uyiga olib borib qo'ydim. Yo'l-yo'lakay suhbatimiz yana janjalga aylandi. U to'g'riga qarab o'tirardi, yuzi menga ko'rinmasdi, faqat atir isi-yu sovuqdan sovuq zahar ovozi his etar edim: «Sen erkak emassan, – derdi u, – senda xarakter degan narsaning o'zi yo'q, men xohlaganimda jig'ingga tegib, xohlaganimda yupatishim mumkin. Agar men erkak bo'lganimda, bunday ayolni burda-burda qilgan bo'lardim!» Shunda men qichqirib: «Unday bo'lsa, uzugingni qaytarib ol!» – dedim-da, uzukni zo'rlab qo'liga taqib qo'ydim. U menga o'girildi-da, xijolat bo'lgandek kulib: «Ertaga kel», – dedi. Men endi nima bo'lganda ham bormasligimni aytdim. U qo'rqa-pisa, uyalib: «Yo'q, sen Starogradskiyga kelasan, kelasan... – dedi. So'ng qat'iy qilib: – Yo'q, men kelishingni o'tinib so'rayman, men yaqinda chet elga ketaman, seni so'nggi bor ko'rib, senga muhim gapni aytishim kerak», – deb qo'shib qo'ydi. Va yana yig'lab: «Meni hayron qoldirgani, seni sevaman, sensiz yasholmayman deb o'zingni otishga ham tayyorsan-u, lekin so'nggi bor ko'rging kelmayapti!..» – deya yana qo'shib qo'ydi. Shunda men o'zimni qo'lga olib, ertaga qay paytda bo'sh bo'lishim xabarini yetkazishimni aytdim. Biz yomg'irda turib, uning yo'lagi oldida ajralisharkanmiz, yuragim unga bo'lgan sevgidan va rahm-shafqatdan yorilay derdi. Uyga qaytgach, menikida be-

malol uxlab yotgan Shklyarevichni ko'rib hayron qoldim va undan jirkanib ketdim...

Dushanba – o'n sakkizinchi iyun kuni ertalab unga soat o'n ikkidan keyin bo'shligimni aytib xat yubordim. U: «Starogradskiyda soat oltida», deb javob yubordi.

XI

Sosnovskayaning oqsochi Antonina Kovanko, oshpazi Vanda Linevich o'n oltinchi shanba kuni Sosnovskaya sochini jingalak qilaman deb, spirt lampasini yoqa turib, parishonlikda gugurtni tungi ko'ylagining etagiga tashlab yuborgan, ko'ylak birdan yonib, Sosnovskaya dahshatdan qichqirib, egnini yechib otgan va qo'rquvdan ahvoli yomonlashib, unga doktor chaqirishganini aytib ko'rsatma berishgan. So'ng takrorlab: «Bu yaqinlashib kelayotgan falokatdan darak...» deyavergan.

U baxtiqaro bo'lsa-da, yoqimtoy ayol edi! Uning bolalarcha vahimasi va tungi ko'ylakning yonib ketgani menga favqulodda ta'sir qiladi, tashvishlantiradi. Bu arzimas narsa u o'lgandan buyon odamlar orasida gap-so'zga sabab bo'lgan, sudda quloqni qomatga keltirgan, bir-birini inkor etuvchi dalillari bilan uzuq-yuluqligicha qolib ketgan o'sha jumboqli voqeaga aloqasi bordek, uni yoritib berishi mumkindek, nazarimda. So'nggi kunlarigacha mish-mishdan boshi chiqmagan, birgina tilagi uni tushunish, ko'nglini zabt etishlarini istagan, qiziqishlari doim namoyon bo'lib turgan, deyarli hech bir kimsa, jumladan, Yelagin ham tushunmagan, his etolmagan o'sha haqiqiy Sosnovskayaning menda jonli sezgilar uyg'otishi hayron qolarli hodisa edi.

Yana qaytaraman: inson mulohazasi hayratlanarli darajada ojjiz, notavon, hamma vaqt bo'lganidek, mana hozir yana shunday xodisa sodir bo'ldi. Odamlar, ro'y berayotgan hodisalarning muhimligini biz ozgina bo'lsa-da tushunib yetishlari kerak bo'lib qolsa, ko'rib-ko'rmaslikka, eshitib-eshitmaslikka olishlari ma'lum gap. Ularga Yelaginning Sosnovskayaning, umuman, ular o'rtasida bo'lib o'tgan, aniq-ravshan ko'rinib turgan munosabatni shu darajada haqiqatga xilof ravishda, atayin, noto'g'ri talqin qilish kerakmidi? Xuddi qabihlikdan boshqasiga miq etmaslikka kelishib olishgandek: bittasi aysh-ishratga berilgan, aroqxo'r, rashkchi bir gusar bo'lsa, yana biri

o'zining axloqsiz, pala-partish hayoti bilan o'zi ham chalkashib yotgan bir artist ayol bo'lsa...

– Alohida xonalar, vino, fohishalar, urish-janjal – mana, u haqda nimalarni gapirishadi. – Qilichning jarangi undagi oliy tuyg'ularni so'ndirdi...

Sharob, mana oliy tuyg'u! Yelagindek odam uchun sharob degani nima edi o'zi. «Ba'zan azobni his etaman, ba'zan esa yaxshi va baland turadigan narsalarga intilaman, umuman, jin ursin, yuragimni bekorga zirqiratishtim nima zaril menga! Qayerdadir qulog'imga chalingan, lekin hamon yo'q, ushlab bo'lmaydigan bir ohangni tutib olgim keladi. Kayfda nafasni yengil, bemalol olasan, o'sha tutqich bermas kuy ham kayfda aniq va yaqindan eshitila boshlaydi. Musiqa, sevgi, kayf – bular seni yo'ldan uradi, ular o'tkir va ortiqcha, dunyoni, hayotni his etishni haddan tashqari murakkablashtirib yuboradi».

– Ayol Yelaginni sevmasdi, – deyishardi u haqda. – U Yelagindan qo'rqardi xolos, chunki Yelagin, o'zimni o'ldiraman, deb unga doim tahdid qilib kelardi, ya'ni u nafaqat o'z o'limi bilan Sosnovskayaning yuragini og'ritib kelgan, uni katta mojaroning asosiy qahramoniga aylantirmoqchi bo'lgan. Dalillar shundan guvohlik beradiki, Sosnovskaya, hatto, unga nisbatan nafrat tuyg'usini his etgan. Sosnovskaya o'zi uniki bo'lganmide? Nahotki, bu narsa ishni o'zgartira olsa? U o'zi kimlarga tegishli bo'lmagan! Hatto Yelagin Sosnovskaya sevib ijro etgan ishqiy komediyani fojiaga aylantirishiga sal qolgan...

Yana:

– Sosnovskaya o'sha kundan kun avj olib borayotgan dahshatli va tiyiqsiz rashkdan o'lgudek qo'rqardi. Bir marotaba Sosnovskayanikida artist Strakun mehmon bo'lgandi. Yelagin avval-boshda tinchgina o'tirdi, faqat rashkdan yuzi oqargandi, xolos. So'ng bexos otilib o'rnidan turdi-da, qo'shni xonaga chiqdi. Sosnovskaya ham izma-iz uning ortidan chiqib, qo'lidagi revolvorni ko'rib qoldi-da, o'ziga, Sosnovskayaga rahm qilishini so'rab, tiz cho'kib yalindi. Bunday o'yinlar deyarli tez-tez bo'lib turgan. Sosnovskaya, nihoyat, Yelagindan butunlay qutulish maqsadida chet elga ketishga qaror qilgan va u o'limi oldidan bu safarga tayyor bo'lgan, buni anglash nahotki qiyin bo'lsa? Yelagin Starograd ko'chasidagi, Sosnovskaya chet elga ketishini bahona qilib, safar oldi uni qabul qila

olmaydigan o'sha uyning kalitini olib kelgandi. U kalitni olmadi, Yelagin kalitni majburlab tiqishtirmoqchi bo'ldi. Sosnovskaya: «Endi kech, uni olishdan hech qanday ma'no yo'q, men jo'nab ket-yapman», deya ma'lum qildi. Yelagin unga burab-burab shunday xat yozdiki, Sosnovskaya maktubni olaroq, uni murda holida topishidan qo'rqib, yarim kechasi bo'lishiga qaramay, oyog'ini qo'liga olib unikiga yugurdi.

Mayli, shundoq ham deydik (biroq bu mulohazalar Yelaginning tavba-tazarrulariga mutlaqo qarshi), har holda, nima uchun Yelagin Sosnovskayani bunday «vahimali», «haddan ziyod» rashk qilib, tinch hayotini fojiaiga aylantirmoqchi bo'lgan ekan. Unga bu nima uchun kerak bo'ldi ekan? Nega endi Yelagin rashkdan g'azabi zo'raygan bir paytda uni shunday otib tashlamadi ekan? Nima sababdan «qotil va qurbon» o'rtasida kurash bo'lmagan? Keyin, «Sosnovskaya goho undan jirkanardi ham... U begonalar oldida Yelaginga har xil haqoratli laqablar qo'yib, uni xo'rlar, hatto bir gal uni «maymoq kuchuk bolasi» deb ham chaqirgandi. Ey Xudoyim, Sosnovskaya shunisi bilan Sosnovskaya-da... Sosnovskaya yana boshqa kimdandir naf-ratlanishi haqida Lvov xotiralarida shunday yozadi: «U meni hali ham sevadi! Men-chi? Men nimani his qilayapman? Sevgini ham, nafratni ham!» U o'zi Yelaginni haqoratlaganmidi? Ha, bir marta urishib qolishgandi, ana o'shandan keyin bu hol ular orasida tez-tez takrorlanib turardi, Sosnovskaya oqsochini chaqirib, nikoh uzugini yerga uloqtirdi-da, turib baqira ketdi: «Mana bu matohni o'zingga ola qol!» Bundan avvalroq nima ro'y bergandi. Bundan avvalroq Sosnovskaya oshxonaga yugurib borib:

– Men seni chaqiraman-da, mana bu nikoh uzugini yerga uloqtiraman va uni o'zingga olib qo'yishingni aytaman. Esing-da bo'lsin, bu hazil, xolos. Keyin uni o'zimga yana qaytarasan, chunki shu uzuk bilangina men u bilanman, o'sha esi past bilan nikohlanganman, u men uchun dunyodagi barcha narsadan qimmatli... – dedi.

Sosnovskayani bekorga «yengiltabiat» deyishmasdi, katolik-lar cherkovi ham uni «beadab, buzuq ayol» sifatida nasroniy urf-odatlarini bo'yicha dafn etishni rad etgandi. U butkul erkin sevgini o'ziga kasb qilib olgan va shunga xizmat qiluvchi ayollar toifasidan edi. Bu yana qanaqa toifa bo'ldi ekan? Bunday mijozli jins vakillari

yaqqol ko'zga tashlanib turadi, uning nafsini qondirib bo'lmaydi, u qoniqmaydi ham. Sababi nima? Sababini men qayoqdan bilay! Qarangki, nimalar sodir bo'lmaydi: o'sha o'ta murakkab, o'ziga maf-tun etuvchi nusxa erkaklar orasida (u yoki bu darajada) tajovuzkor nusxalar ham uchraydi. Mohiyatan, bundaylar nafaqat ayollar bilan bo'lgan munosabatda, balki ular o'z dunyoqarashlariga ko'ra barcha narsalarga ta'sirchanligi o'tkir bo'lib, butun jon-tanini berib bo'lsa-da, aynan shunday ayollar toifasiga intiladi va shov-shuvli sevgi fojialari qahramoniga aylanadi-qo'yadi. Nimaga? Bu didning oqsoqli-gimi yoki yo'ldan ozganlikning sharofatimi, balki bunday ayollarga erishish osonligidandir? Albatta, yo'q, ming karra yo'q. Shuning uchun ham yo'qki, bunday erkaklar Sosnovskayadek ayollar toifa-si bilan yaqin aloqada bo'lish qanchalik azobligi-yu, ba'zan rostda-nam vahimali, hatto halokatli yakun topishini oldindan sezadilar va aniq ko'ra oladilar. Buni ko'rib, bilib tursalar-da, baribir, ko'proq aynan ana o'shanday ayollarga talpinib, o'zlariga balo-qazoni sotib oladilar.U, albatta, o'limi oldidan xat yozayotganda, so'nggi dami kelganiga o'zini ishontirmoqchi bo'lib, kulgili bir sahnada rol ijro etgandi, xolos. Kundalikdagi yozuvlar oz bo'lsa-da, buning aksi eka-niga ishontirolmaydi, u g'oyat siyqasi chiqqan, sodda bitilgan, qabr ziyorati to'g'risida hech qanday so'z yo'q...

Kundalikdagi soddalikni, yasamalikni, qabr ziyoratini hech kim inkor etmaydi, xuddi u Mariya Vecherova va Mariya Bash-kirsevaga o'xshashligiga ishora qilishni yaxshi ko'rgandek. Nima uchun u aynan o'sha xildagi kundalikni tanladi ekan, balki u shu toifa ayollarga o'xshashni xohlagandir. Unda go'zallik ham, yosh-lik ham, shuhrat, pul, yuzlab muxlislar – hammasi bor edi-ku. U bulardan ehtiros va zavq bilan foydalanardi. Uning hayoti muttasil azobga aylanib borardi, har doim hamma odamlar va hamma narsa u kutgandagidek bo'lib chiqavermaganidan keyin ko'ngilga urgan bu olamni tashlab ketish ishtiyoqi unga tinchlik bermay qo'ygandi. Bu nimaning kasridan? Bu uning boshiga bitgan baloning kasridan. Nima uchun aynan shu baloni boshiga sotib oldi, boshqa narsani emas. Bularning barchasi, ularning aytishlaricha, o'zini san'atga fido qilgan bunday ayollar uchun oddiy holmi? Nimaga bu shun-chalik jo'n? Nimaga?

Dam olish kuni ertalab soat sakkizlarda uning yotoqxonasiidagi stol qo'ng'iroqchasi jiringladi: u uyg'ondi-da, oqsochini odatdagidan ertaroq chaqirdi. Oqsoch xotin barkashda suyuq shokolad solingan finjon olib kirdi-da, deraza pardasini surib qo'ydi. U o'rinda har doimgidek xo'mraygancha lablarini yarim ochib, o'ychan va parishonxotir uni kuzata turib:

– Bilasanmi, Tonya, kecha men doktor ketganidan keyin darrov uxlab qoldim. Voy Xudoyim-ey, shunaqangi qo'rqib ketdim! Yelagin kelishi bilanoq o'zimni qushday yengil va yaxshi his qildim. Yarim kechasi uyg'onib, o'rnimda tiz cho'kib, bir soat xudoga iltijo qildim... O'zing o'ylab ko'r, butunlay yonib ketganimda nima bo'lardi, a?! Ko'zlarim oqib tushgan, lablarim shishib ketgan bo'lardi. Menga qarab bo'lmasdi... Aft-basharam paxta bilan qoplanardi-qolardi.

U shokoladga qo'l ham tekkizmay, nimalarnidir uzoq xayol surib o'tirdi. Keyin shokoladni ichdi-da, vannada cho'mildi va cho'milish xalatida yoyib tashlangan sochlarida o'zining ixchamgina yozuv stolida motam romiga solingan qog'ozga bir necha xat yozdi (u o'zi uchun bunday qog'ozga ancha avval buyurtma berib qo'ygandi). Kiyinib, nonushta qildi-da, jo'nab ketdi: u dala hovlida – onasinikida bo'ldi va uning doimiy ishongan odami aktyor Strakun bilan kech soat o'n ikkilarda qaytdi.

– Ikkovi xursand qaytishdi, – deya hikoya qildi oqsoch xotin. – Ularni yo'lakda kutib oldim-da, Sosnovskayani yonimga chaqirib, Yelagin u yo'qligida berib yuborgan narsani va xatni unga berdim. Narsalar borasida: «Tezda bularni yashir, Strakun ko'rmasin!» deya shipshidi, so'ng shosha-pisha xatni ochdi-yu, birdan rangi oqarib ketdi, o'zini yo'qotgancha, Strakunning mehmonlar xonasida o'tirganiga ham qaramay: «Xudo haqqi, tez karetaga yugur!» deb baqirdi. Men kareta olib kelishga ketdim. Kareta kelganida, u yo'lakda tayyor turardi. Biz bor kuchimiz bilan chopdik, u bechora esa yo'l-yo'lakay cho'qinib: «Ey Xudoyim, ishqilib, tirik bo'lsinda», – deya takrorlardi nuqul.

U dushanba ertalabdan cho'milish kiyimida daryoga ketdi. O'sha kuni unikida Strakun bilan ingliz ayoli tushlik qilishdi (unikiga har kuni inglizchadan dars bergani kelardi-yu, deyarli hech nima o'tmasdi). Tushdan keyin ingliz ayoli ketdi. Strakun esa yana yarim

soatlar turib, sigaret chekdi, so'ng oyog'iga yapon tuflisini ilgancha divanda yotgan bekaning tizzasiga boshini qo'yib yotdi. Oxiri Strakun ketdi, ketish oldidan Sosnovskaya undan bugun kech soat o'nda kelishini o'tindi.

– Bu juda tez emasmi? – kulib dedi Strakun yo'lakda hassasini qidira turib.

– Voy, yo'q, iltimos! – dedi u. – Bordi-yu, kelganingda men bo'lmasam, xafa bo'lma, xo'pmi...

Keyin u kaminda qandaydir xat va qog'ozlarni uzoq yoqdi. So'ng oqsoch xotin bilan hazillashib o'tirib, xirgoyi qilishdi:

– O'zim yonmaganimga yarasha, endi hammasiga o't qo'yaman! Bundan yonib ketgani ming marta yaxshi edi. Yonsam yonib, bir yo'la kulga aylanay...

Keyin yana dedi:

– Vandaga ayt, kechki ovqatni soat o'nga tayyorlab qo'ysin. Hozir esa men ketyapman...

U soat oltilarda qog'ozga o'ralgan revolvenga o'xshash narsani o'zi bilan olib chiqib ketdi!

U Starogradskiyga ketdi, yo'lda shanba kungi voqeadan so'ng etagi yonib ketgan tungi ko'ylagining etagini kestirish uchun tikuvchi Leshinskiyning uyi tomonga burildi, tikuvchining aytishiga qaraganda, o'sha kuni u quvnoq va yoqimtoygina ko'ringan. Sosnovskaya tungi ko'ylagining u yer-bu yerini ko'zdan kechirgan-da, qog'ozga o'ragan va uyidan avvalroq olib chiqqan bo'g'chasiga joylab, ustaxonada chevar qizlar bilan uzoq suhbatlashib o'tirgan va: «Ey Xudoyim, men endi ketishim kerak, kech qoldim, mening farishtalarim!» – deya qayta-qayta takrorlagan, oxiri bir xo'rsinib, o'rnidan dast turib, quvonch bilan:

– Xayr, pani Leshinskaya, xayr, singiljonlarim, farishtalarim, men bilan gurunglashib o'tirganingiz uchun rahmat sizlarga, siz-day ayollar davrasida o'tirish qanday maroqli, hadeb erkaklar bilan bo'laverish ham jonga tegar ekan.

U yana bir marta ostonada turib, kulib, boshini irg'adi-da, chiqib ketdi.

Nega u revolvorni o'zi bilan olvoldi?

Revolver aslida Yelaginniki edi, u Yelagin o'zini otib qo'yishidan qo'rqib, revolvorni o'zida saqlardi. «U bir necha kundan so'ng

chet elga ketishi munosabati bilan revolvorni o'z egasiga qaytarishni niyat qilgandi», – dedi oqlovchi va qo'shib qo'ydi:

– Shunday qilib, u mash'um, lekin uning uchun qasddan uyushtirilmagan uchrashuvga jo'nadi. U soat yettida Starograd ko'chasidagi 14-uyning 1-xonadoniga yetib bordi, mana, bu uyning eshigi ham yopildi, eshik faqat 19-iyun kuni ertalab qayta ochildi, xolos. Tunda u yerda nimalar sodir bo'ldi? Buni Yelagindan boshqa hech kim bizga hikoya qilib berolmaydi. Uni yana bir marta eshitib ko'raylik-chi...

XIII

Prokuror bizning xotiramizda yana bir bor jonlantirishni lozim topgan, o'sha ayblov bayonnomasi sahifasi bo'lmish va shu bilan o'z nihoyasiga yetgan Yelaginning hikoyasini sud zalini to'ldirgan odamlarning barchasi chuqur sukut bilan tingladi:

– Men o'n sakkizinchi iyun dushanba kuni ertalab unga soat o'n ikkidan keyin bo'sh ekanligimni bildirib, maktub jo'natdim. U: «Starogradskiyda soat oltida», – deya javob yubordi.

Men o'n besh daqiqasi kam oltida o'sha yerda edim, o'zim bilan yengil ovqat, ikki shisha shampan vinosi, ikki shisha porter, stakancha va bir shisha atir olib bordim. Uni uzoq kutishimga to'g'ri keldi, u soat yettilarda yetib keldi...

Uyga kirib, meni parishon holda o'pdi, so'ng keyingi xonaga o'tib, o'zi bilan qo'lida olib kelgan o'rog'liq narsani divanga tashladi. «Chiqib tur, – dedi u fransuzchalab, – men yechinishim kerak». Men chiqib ketdim. Yana uzoq bir o'zim yolg'iz o'tirdim. Men mutlaqo hushyor, lekin juda dilgir edim, munosabatimiz nihoyalab borayotganini g'ira-shira his etib turardim... Ustiga-ustak, muhit ham g'alatiroq bo'lib borardi: xuddi tundagidek, men olov yonida o'tirardim, holbuki bu qorong'i xonaning gung devorlaridan tashqarida hali yorug' va ajoyib yoz kuni hukm surayotganini sezib, bilib turardim... U meni uzoq vaqt yoniga chaqirmadi, men ham uning nima bilan band ekanini bilolmadim. Eshik orqasida tiq etgan tovush eshitilmasdi. Oxiri: «Endi kiraverishing mumkin!» – deya baqirdi u.

U divanda bitta tungi ko'ylagining o'zida, paypoqsiz, tuflisiz yalang'och oyoqlarini ko'rsatib, xo'mraygancha shiftdagi fonarga jim tikilib yotardi. O'zi bilan olib kelgan bo'g'cha ochilib, unda men o'z revolverimni ko'rdim-da: «Buni nega olib yuribsan?» deb

so'radim. U bir ozdan so'ng: «O'zim, shunday... Axir, men jo'nab ketayapman... Yaxshisi, sen buni uyingda emas, shu yerda saqla», – deb javob qaytardi. Xayolimdan «yo'q, bu bekorga emas» degan dahshatli bir fikr o'tdi.

Bundan keyingi suhbatimiz uzoq, lekin zo'rma-zo'raki, sovuq-qina o'tdi. Ichimda o'lguday qo'rqib turardim, miyamga biror aqlli gap kelib qolarmikin, deb kutardim, mana, hozir, fikrimni bir yerga jamlayman-da, oxiri eng muhim qarorimni aytaman deb intiq edim, chunki men bu uchrashuv biz uchun so'ngisi ekanini yoki, har holda, bizni uzoq muddatli ayriliq kutayotganini anglab tursam-da, hech narsa qilolmadim, o'zimni butunlay kuchsiz va ojiz his etardim. U: «Chekking kelsa, chekaver», – dedi. «Senga yoqmaydiku! – dedim men. «Endi menga baribir, – dedi u, – menga shampän vinosidan ber...» Bundan men shunday xursand bo'ldimki, zero, bu men uchun najot edi. Biz bir necha daqiqa ichida bir shisha shampän vinosini bo'shatdik, men uning yoniga o'tirdim-da, qo'llaridan o'pa turib, bu ayriliqni ko'tara olmasligimni aytdim. U sochlarimni to'zg'ita turib, parishon holda: «Ha, ha... Xotining bo'lolmasligim, bu qanday baxtsizlik... Barchasi, bari bizga qarshi, yolg'iz Yaratganining o'zigina bizga xayrixoh... Men sening qalbingni, tasavvuringni sevaman...» Bu so'nggi so'zlari bilan nima demoqchi bo'ldi, bilmadim. Men yuqoriga – soyabon tepasiga boqib: «Qara, sen bilan bu yerda xuddi sag'anada turgandekmiz. Qanday sukunat!» – dedim, u bunga ma'yus jilmayib qo'ydi...

Soat o'nlarga borib, u ochiqqanini aytdi. Biz oldingi xonaga o'tdik. U juda kam ovqat yedi, men ham, biz ko'proq ichdik. Birdan ko'zi men olib kelgan yengil ovqatga tushdi-yu, «Tentak, yana nimalarni ko'tarib yuribsan! Boshqa bunday qilma», – dedi. «Bu «boshqa» deganing qachon bo'larkin?» – dedim. U bir g'alati qarash qildi-da, so'ng boshini egib, qovog'i ostidan ko'zlarini olaytirib qaradi. «Iso, Maryam, – deb pichirlardi u, – biz endi nima qilamiz. Men telbalarcha seni xohlayapman! Yura qol...»

Birmuncha muddatdan so'ng men soatimga qaradim, soat ikki bo'lgandi. «O'-ho', kech bo'lib qolibdi, – dedi u, – hoziroq uyga ketishim kerak». Ammo, u joyidan ham qo'zg'almay, qo'shib qo'ydi: «Bilasanmi, bu yerdan juftakni qancha tez rostlasak, shuncha yaxshi, lekin joyimdan qo'zg'alolmayapman. Xuddi bu yerdan chiqib ke-

tolmaydigandek his etyapman o'zimni. Sen xudoning xohishi bilan mening yozmishim, qismatimsan...» Hattoki shuni ham tushunishni istamayapman. Ehtimol, u keyin yozib qoldirgan: «O'layapman, lekin o'z xohishim bilan emas» degan so'zlar bilan bog'liq biror narsa demoqchi bo'lgandir. Bu so'zlar bilan u mening oldimda o'zini kuchsiz, himoyasiz his etgan deb o'ylaysizmi. Menimcha, u boshqa narsani: bizning tolesiz bu uchrashuvimiz – taqdir, xudoning istagi, u o'z ixtiyori bilan emas, xudoning xohishi bilan o'layapman, degan so'zlarni aytmoqchi bo'lgan. Vaholonki, men o'shanda bu so'zlarga ko'pam e'tibor bermaganman, uning g'alatiroqligiga ko'nikib ham qolgandim. Keyin u dabdurstidan: «Qalaming bormi?» – deya so'rab qoldi. Men yana hayron bo'ldim: unga qalam nega kerak bo'lib qoldi ekan. Yondaftardagi qalamni olib berishga shoshildim. U tashrif qog'ozimni ham so'radi. Unga nimalarnidir yozayotganda: «Menga qara, tashrif qog'ozga xat yozish noqulay-ku», – dedim. «Yo'q, bu shunchaki o'zim uchun, – deb javob berdi, – men o'ylab, ham uxlab olaman, meni yolg'iz qoldir». Yozaverib to'ldirib tashlagan tashrif qog'ozini ko'kragiga qo'ydi-da, ko'zini yumdi. Hammayoq shunday tinchidi-qoldiki, bundan esing og'ib qolishi hech gap emasdi...

Shu alfozda yarim soatdan ko'proq vaqt o'tdi. U birdan ko'zini ochdi-da: «Yodimdan chiqayozibdi, men uzugingni qaytarib bergani kelgandim. Kecha o'zing hammasiga nuqta qo'ymoqchi eding-ku», – dedi sovuqqina qilib. U qaddini biroz ko'tardi-da, uzukni devorga qarab uloqtirdi. «Nahotki sen meni sevasan?– deyarli qichqirib dedi u. – Tushunolmayman, qanday qilib sen meni bu yorug' olamda yashashimga yo'l qo'yib beryapsan! Men ayolman, menda subut yo'q. Men o'limdan qo'rqmayman, azob chekishdan qo'rqaman, xolos, lekin sen bitta o'q bilan meni, so'ng o'zingni marhumga aylantirishing mumkin». Menga shu yerda ayanchli ahvolimizning dahshatli bir haqiqati ayon bo'lgandi, endi qanday yakun topmasin, buni nima bilandir hal etish vaqti kelgandi. Lekin uni o'ldirish – yo'q, aslo, bu ish mening qo'limdan kelmasligini sezib turardim. Men his etayotgan narsa boshqa edi, men uchun hal qiluvchi lahzalar yetib kelgandi. Men revolvorni oldim-da, tepkisini ko'tardim. U hayqirib: «Nima? Faqat o'zingni otasanmi? – deya irg'ib o'rmdan turdi. – Yo'q, Iso nomi bilan qasam ichamanki, bunday qilmaysan!» – dedi va revolvorni qo'limdan yulqib oldi.

Yana o'sha yurakni o'rtovchi jimjitlik. Men cho'nqayib o'tirardim, u esa qimir etmay yotardi. Bir vaqt u o'ziga o'zi polyakchalab nimanidir gapirdi-da, keyin: «Uzugimni bu yoqqa ber», dedi menga. Men unga uzukni uzatdim. «O'zingnikini ham!» – dedi u. Men bu buyruqni ham bajarishga shoshildim. U o'zinikini qo'liga taqdi-da, menga ham uzugimni taqishimni buyurdi, keyin gapira ketdi: «Men seni hamisha sevganman, hozir ham sevaman. Seni aql-dan ozdirdim, azob berdim, nima qilay, fe'lim shunaqa ekan, qismatimiz shunaqa bo'ldi. Menga yubkamni uzatib yubor-da, qora vino olib kel...» Unga yubkasini uzatdim-da, vinoga ketdim, qaytib kelganimda yonida zahar solingan shisha idishni ko'rdim. «Menga qara, – dedi u qat'iy ohangda. – O'yin-kulgilar shu bilan nihoyasiga yetdi. Sen mensiz yashay olasanmi?» Men «yo'q» deb javob berdim. «Ha, – dedi u, – men qalbingni, fikrlaringni butunicha o'zimmiki qilib olganman. Endi o'zingni o'ldirish uchun ikkilanmaysanmi? Agar shunday qilolsang, meni ham o'zing bilan olib ket. Mening ham sensiz yashashimdan ma'no qolmaydi. Meni o'ldirganingdan so'ng, o'layotganingda va nihoyat men endi toabad, butunlay seniki ekanimni bilib o'lasan. Endi men senga o'z hayotimni so'zlab bera-man...» U biroz dam olib, o'ziga keldi-da, shoshmasdan, bolaligidan boshlab butun hayotini menga hikoya qilib berdi...

XIV

Men, hatto, qaysi birimiz yozishni avvalroq boshlaganimizni ham yaxshi eslayman... O'shanda qalamni ikkiga bo'lgandim. Biz yozishni boshladik va hamma vaqt jim o'tirib yozdik. Yanglishmasam, men eng avval otamga xat yozdim... Siz nima uchun otam «mening baxtli bo'lishimni istamayapti» deb ularga qilgan ta'namni, mening esa biror marta bo'lsa-da, nikohimizga otamning roziligini olishga harakat qil-maganimni bilmoqchimisiz? Qaydam... Baribir ular bu nikohga rozi bo'lmasdilar... Men keyin polkdagi do'stlarimga xat yozib, ular bilan vidolashganman. Yana kimga deysizmi? Ha, tuzukroq qilib ko'mish-larini aytib, polk qo'mondoniga xat yozgandim. Demak, men o'zimni o'zim o'ldirishimga ishonardim, siz shunday demoqchisiz-da? Albatta. Xo'sh, nima uchun endi buni qilmadim? Bu yog'ini bilmayman...

U, esimda, shoshmasdan, to'xtab-to'xtab, har tomonini o'ylab yozardi; so'zni yozardi-da, xo'mrayib devorga qarab qo'yardi...

Xatlarni uning o'zi yirtib tashlardi, men emas. Yozardi-da, yirtardi. To'g'ri kelgan tomonga itqitardi... Nazarimda, hatto qabr ham o'sha so'nggi soatlarda, o'sha jimjitlikda, mana shu fonus ostida yozgan bekorchi maktublarimchalik qo'rqinchli bo'lmasa kerak. Men o'sha kecha u nimani buyurgan bo'lsa, hammasiga so'zsiz itoat etganman.

U to'satdan: «Yetar, bo'ladigan ishni tezroq bo'lgani yaxshi. Menga vinodan uzat, meni duo qil, ey Xudo!» deb qoldi. Stakanga vino quyib, unga uzatdim, u qaddini biroz ko'tarib, vinoga bir chindim kukun tashladi. U vinoning yarmidan ko'pini ichib, qolgani ichib qo'yishimni so'radi. Men ichib yubordim. U toqatsizlana boshladi-da, qo'limdan mahkam ushlab: «Endi meni o'ldir, o'ldir meni! Sevgimiz haqqi, o'ldir meni», – deya yalina boshladi.

Buni qanday eplashim mumkin edi? Nazarimda, uni chap qo'lim bilan quchdim, ha, albatta, chapi bilan va lablariga yopishdim. U: «Alvido, alvido... Yo'q, – yoki bo'lmasa: – Assalom, endi bunisi to'abadga... Bu yerlarda biror narsaga erisholmadim, demak, endi bari u yerda, Arshi a'loda...» Uni mahkam qisib turardim, lekin barmog'im revolvorni bosishga shay turardi... Esimda, butun a'zoyi badanim qaltiroq bosganini his etardim. U polyakchalab: «Aleksandr, sevgilim mening!» deyishga ulgurdi, xolos.

Bu soat nechada sodir bo'ldi deysizmi? Uchlarda shekilli. Undan keyin men yana ikki soat nima ish qildim. Lekin men soat birdan boshlab Lixarev tomonga keta boshlaganman. Qolgan vaqt uning yonida bo'lganman va o'zim bilmagan holda narsalarni tartibga sola boshlaganman...

Men nega o'zimni otmadim. Men bu haqda o'ylamasdim. Uning jonsiz jasadini ko'rdim-u, barchasini unutdim. Men undan ko'z uzolmasdim. Keyin hushimni yo'qotgan holda uni va xonani tartibga keltira boshladim... «Men sendan keyin o'zimni o'ldiraman» deb bergan va'damni buzishim mumkin emasdi, lekin loqaydlik meni butunlay domiga tortgan edi... Men hozir o'z hayotimga ham xuddi shunday loqaydlik bilan qarayman. Ammo meni jallod deb o'ylashlariga hech chidolmayman. Yo'q, yo'q! Balki men qonun oldida, Xudo oldida gunohkordirman, lekin zinhor uning oldida emas!

KO'Z YOSHLAR

Tilanchi kampir boy xonadon darvozasi yonida paydo bo'ldi. Egnida kampirlarga xos juldur kiyim, qoqsuyak oyoqlarida kampirlarga xos osilib yotgan paypoq, mungli ko'zlar...

Unga ellik tiyin tutqazdim-da, gapga soldim:

– Mana, buvijon, sizning bormagan yeringiz, kirmagan eshigingiz yo'q, hayotda ancha-muncha narsalarni ko'rib qo'ydingizov?

Kampir ko'zlaridan achchiq yosh to'kib dedi:

– Boshqa nima ham qilardim, otaxon, qo'limdan boshqa nima ham kelardi!

Chala, pala-partish olingan sochi oppoq oqarib ketgan, egnida xotinlarning yalangqavat ko'ylagi, yelkasiga xalta osib olgan Vanya ovsar o'tloqdan oqsab-to'qsab arang qadam bosib borardi:

– Omonmisan, Vanya! Ahvollar qalay?

Vanya so'lagini oqizgancha xursand ohangda:

– Tuproqdan tashqari, shunga ham shukur... – deb javob berdi duv to'kilgan ko'z yoshlarini artib.

Dildorxon ALIYEVA tarjimasi.



MUBORAK DUSHANBA

Moskva qishining qarichdan kalta kunlarida birpasda qosh qorayar, gazli fonar ko'chalarni sovuqqina yoritar, do'kon peshoyalariidagi chiroqchalar esa ko'zni quvnatib pirpirar, ayni shu paytda kunduz tashvishlaridan forig' Moskva hayoti jo'sh urardi. Tig'iz izvosh-chanalar dadil-dadil yeladi, yo'lovchilarga liq to'la tramvaylar og'ir-og'ir taraqlaydi, g'ira-shirada elektr simlardan yashil uchqunlar sachratadi, hali qori erib ulgurmagan yo'laklarda tobora sharpaga evrilayotgan o'tkinchilar chaqqon-chaqqon ildamlaydilar... Har kecha ushbu soatda yo'rtoqi otda aravakashim meni Qizil darvozadan Xaloskor Iso ibodatxonasiga yeldek uchirib eltib qo'yadi: mahbubam ibodatxona ro'parasida yashardi; har oqshom uni «Praga», «Ermitaj» yoki «Metropol»ga kechki taomga olib borardim. Taomdan so'ng teatr yoki konsertga, u yoqdan Strelnyadagi «Yara»ga... Oxiri nima bilan tugashi menga qorong'u edi. Bu haqda o'ylashga ham chog'im kelmasdi: baribir befoyda, har safar kelajagimiz haqida og'iz ochishim bilan gapni boshqa yoqqa burib yuboradi; mahbubam men uchun sirli, tushuniksiz, munosabatlarimizning o'zi g'alati edi, juda yaqin ham, yiroq ham emas. Mana shular kaminani adoqsiz ravishda zo'riqtirar, azob-la kuttirardi. Lekin shu bilan birga, uning yonida o'tkazgan har bir onimdan benihoya baxtiyor edim.

U kurslarda tahsil olardi, ammo kamdan kam qatnashardi. Bir safar: «Nega o'qiyapsan?» deb so'raganimda, kiftini uchirib qo'ya qoldi: «Axir, biz xom sut emgan bandamiz-da. Qilayotgan ishimizning ma'nisini anglaymizmi o'zi? Innaykeyin, men tarixga qiziqaman...» U bir o'zi turardi – tul qolgan otasi aslzoda savdogarlar urug'idan bo'lib, anchayin ma'rifatli kishi edi, iste'foga chiqib, Tverda umrguzaronlik qilardi. Mahbubam Moskva manzarasidan bahramand bo'lmoq uchun Xaloskor Iso ibodatxonasi ro'parasidagi uyning beshinchi qavatida joylashgan ikki xonali, keng va shinam jihozlangan kvartirani ijaraga olgandi. Birinchi xonani kattakon turk divani egallagan, yana qimmatbaho pianino ham bo'lib, mahbubam «Oy sonatasi»ning sokin, kishini mast etuvchi nafis muqaddimasini o'rganardi. Pianino ustiga va oynakursiga qo'yilgan qirrali guldondagi manzarali gullar odamning bahri dilini ochadi, buyrug'imga ko'ra, har shanbada mahbubamga barq urib ochilgan

gullar keltirib berishardi, shanba oqshomida uning qoshida hozir-u nozir bo'lganimda, tepasida sarpoychan Tolstoy portreti ilingan divanda oyoq uzatib yotar, bo'sa olmog'im uchun qo'lini asta uzatib, beparvogina: «Gullar uchun tashakkur...» deb qo'yar edi. Men unga bir quti shokolad, yangi kitoblar (Gofmanstal, Shnitsler, Tetmayer, Pshibishevskiy olib kelardim, evaziga o'sha-o'sha «tashakkur» va issiqqina qo'l. Ba'zida paltomni yechmasdan yoniga cho'kishga ham muyassar bo'lardim. «Negaligini bilmayman-u, – derdi u o'ychanlik ila qunduzyoqamga nazar tashlab, – ammo-lekin o'zing bilan hovlidan xonaga olib kiradigan qish havosidan dilim yayraydi...» Aftidan, unga hech narsa kerak emasdi: na gullar, na kitoblar, na tushlik, na teatr, na shahar tashqarisidagi kechliklar. Baribir uning sevimli va yoqtirmagan gullari bo'lardi, olib kelgan barcha kitoblarimni o'qib chiqardi, bir kunda bir quti shokolad-ni ko'rdim demay paqqos tushirardi, tushlik va kechlik borasida mendan qolishmasdi, yelimbaliq sho'rvasi bilan anjirgo'mma¹, durdada qizartirib qovurilgan bulduruq jon-dili edi. Turib-turib: «Tushunmayman, odamlarning joniga tegmasmikin-a, har kuni ovqat yeyishing kerak», – deb qolardi. Lekin o'zi tushlik va kechlikni sira kanda qilmas, moskvacha odat bilan tanovul qilardi. Po'rim kiyim-kechakka, baxmalga, shoyi matolarga, mo'ynaga o'chligi oyday ravshan edi...

Ikkalamizning ham yeganimiz oldimizda, yemaganimiz ketimizda, to'rt muchamiz so'g', navqiron va shu qadar ko'rkam ediki, restoran, konsertlarda nigohlar bizni kuzatib qolardi. Kamina Penza gubernasida tug'ilganman, lekin o'sha damlar negadir janubliklardek istarali, xushsurat edim, hatto «ortiq darajada kelishgan» edim, o'taketgan mechkay, to'la va farosatli bir mashhur aktyor shunday degandi: «Hech aqlimga sig'dirolmayman, kimsiz o'zi, sitsiliyalikmisiz, nima balo?!». Fe'l-atvorim ham janubliklarniki edi, qachon qarama hamishabahor, jo'shqin, hazil-huzulga moyil edim. Mening sohibjamolimning yuzlari bug'doyrang, suvsar mo'ynasi yanglig' mayin, jilokor sochlari esa zulukdek qora, qalamqosh edi, ko'rsangiz, xuddi hind go'zali deysiz; aqiq dudoqlari ustiga nim qora xatlar ingan; sayrga chiqqanda, ko'pincha, yoqutrang baxmal

¹ Somsa turlaridan biri, paramach.

ko'ylagi va shunaqa tUSDagi zarrin ilgakli tufli kiyib olardi (darsga bo'lsa sipo kiyinib borar, Arbatdagi go'shtni xush ko'rmaydiganlar yemakxonasida o'ttiz tiyinga qorin to'ydirardi); kamina xushchaq-chaq va sergap bo'lganim sari uning dami ichiga tushib ketardi: nendir tagiga yetmoqchi bo'lgandek xayolot olamiga sho'ng'irdi. Bir qarasang, qo'lida kitob bilan divanda yotgan ko'yi qoshlari chimirilib qoladi: men bunga ko'p guvoh bo'lganman, nega deganda, har oyning uch-to'rt kunida umuman tashqariga chiqmas, tinimsiz mutolaa qilardi, meni ham divan yonidagi oromkursiga o'tirib, jimgina kitob o'qishga majburlardi.

– Biram sergapsizki, pitir-pitir qilaverasiz, – deya urishib ham beradi, – mana shu bobni tugatishga qo'yasizmi-yo'qmi...

– Agar sergap va jonsarak bo'lmaganimda, ehtimol, sizni uchratmagan bo'lardim, – deb unga ilk tanishuvimizni eslatib qo'yaman. Bir kuni Andrey Beliy ma'ruza o'qiyotgan badiiy to'garakka borib qoldim. U yerda ko'rgan ko'zni kuydiradigan darajadagi lozar bir qiz sahnada gir-gir aylanib raqs tushgancha kuylardi. Xandon otib kulganimni ko'rib, u yuzida tushuniksiz ifoda bilan yonimga o'tirgan, keyin o'zi ham menga qo'shilib kulgandi. O'shanda men u bilan ilk bor chaqchaqlashgandim.

– Baribir, – deydi u, – baribir birpas jim o'tiring, biron nima o'qing, juda bo'lmasa, ana, tutun burqsiting...

– Jim turolmayman! Sizga bo'lgan muhabbatimning qudratini tasavvur ham etolmaysiz! Ko'nglingiz yo'q sizning menda!

– Tasavvur qilyapman. Mening ko'nglimga kelsak, o'zingiz juda yaxshi bilasiz, bu dunyoda otam va sizdan bo'lak yaqinim yo'q mening. Har holda, siz mening birinchi va oxirgi suyukligimsiz. Kammi bu sizga? Bo'pti, bas qilaylik. Sizning yoningizda bir satr ham o'qib bo'lmaydi, keling, choy ichamiz...

Men turib choy qo'yaman, yong'oq yog'ochidan yasalgan javondan finjon, likopchalarni olaman, birvarakayiga xayolimga kelganini gapiraman:

– «Olovli malak»ni o'qib bo'ldingizmi?

– Ko'rib bo'ldim. Shunaqangi balandparvozki, asti qo'yaverasiz, o'qisangiz, uyat bo'ladi.

– Kecha nega birdan Shalyapinning konsertidan ketib qoldingiz?

– Yerga ursang, osmonga sapchiydi-ya. Innaykeyin, mallasoch o'risni¹ umuman ko'rgani ko'zim yo'q.

– Sizga hech narsa yoqmaydi o'zi!

– Ha, hech narsa...

«Ajab sevgi!» deya o'yga tolaman, to suv qaynaguncha dera-za orti manzaralariga termilaman. Xonani gullar isi tutib ketgan, bu islar sohibjamolimning iforiga uyqash; derazaning bir tavaqa-sidan olislab yotgan daryo ortida oqimtir-ko'kish azim Moskva; chap qanotida Kremlning bir qismi ko'zga tashlanadi, ro'parada mahobatli Xaloskor Iso oqarib ko'rinadi, tillarang qubbada charx urib aylanayotgan qushlar akslanadi... «Ajab shahar!» deya o'yga tolaman, Oxotniy rastasi, Iverskiy, Darvesh Vasiliy, Spas-na-Boru, italyancha butxonalarida, Kreml minoralari cho'qqisida ham qirg'izcha nedir bor...

Kunbotarda kelganimda, goho u chetlariga suvsar mo'ynasi tutilgan shoyi kamzulda kitob o'qib yotgan bo'lardi, «Astraxanlik enamdan meros», deb kamzulini maqtab qo'yadi. Nimqorong'uda uning yoniga cho'kib, qo'llari, oyoqlariga lab bosaman... U ham miq etmas, qarshilik qilmasdi. Bundan ruhlanib, uning qaynoq du-doqlarini izlayman. O'zimni boshqarolmay qolganimni seziboq, u meni nari itarib, o'tirib olardi-da, chiroqni yoqishimni so'rab, xobgohiga kirib ketardi. Chiroqni yoqib, pianino yonidagi aylan-ma kursiga o'tirib, otash bo'lib yonayotgan ehtiroslarimga suv se-paman. Chorak soatlardan so'ng u yotoqxonasidan go'yo bundan oldin hech nima bo'lmagandek, boqibeg'am holda egniga ko'cha kiyimini ilib chiqardi.

– Qayoqqa boramiz? «Metropol»gami?

Butun oqshom u yoq-bu yoqdan, yot-begonalardan gaplashar-dik. Oradan ko'p o'tmay turmush qurish haqida gap ochganimda, og'zimga urdi:

– Aslo, xotinlikka yaramayman. Yaramayman...

Bundan aza ochib o'tirmadim. «Ko'ramiz!» dedim o'zimga o'zim, fikri o'zgarishiga ilinjanib. Shundan keyin nikoh haqida so'z ochmadim. Bir tomonlama munosabatlardan to'yib ketardim, ammo barchasini vaqt hukmiga tashlashdan o'zga chora ham topilmasdi.

¹ Bu yerda soxta rusparastlik, rusiyzabonlik haqida gap ketmoqda.

Bir kuni oqshom mahali uning yonida o'tirib, boshimni changalladim:

– Yo'q, bunaqasi ketmaydi, sabr kosam to'ldi! Meniyam, o'zingizniyam azoblashning nima keragi bor?

Churq etmaydi-ya.

– Nima bo'lgandayam, bu sevgi emas aslo...

U esa qorong'ulikdan xitob qildi:

– Balkim. Muhabbat neligini kim biladi?

– Men, men bilaman! – hayqirdim. – Kun kelib siz ham sevgi, baxt sharobidan sarmast bo'lishingizni kutaveraman!

– Baxt, baxt... Bizning baxtimiz bamisoli g'alvirdagi suv, botirsang – to'ladi, ko'tarsang – hech narsa qolmaydi.

– Nima deganingiz bu?

– Platon Karatayev Pyerga shunday degandi.

Qo'l siltadim:

– O'rgildim sharqona donishmandlikdan!

Keyin butun oqshom Badiiy teatrning yangi spektakli, Andreyevning yangi hikoyasi haqida valdirab o'tirdim... Chana-da silliq mo'ynali po'stinchasini ushlab jips o'tirganim, so'ngra «Aida»dagi marsh kuyi ostida gavjum restoranga qo'l ushlab kirganimiz, yonida o'tirib yeb-ichganim, shirin ovozi eshitganim, bir soatcha oldin bol olgan lablarini ko'rib turganim uchun ham shukur qilsam bo'lardi. «Ha, o'pdim, deb xayol qilaman, ol lablariga, yoqut-rang baxmal ko'ylagiga, o'mroviga mamnun boqqancha, «Moskva, Astraxan, Fors, Hindiston!» deb o'ylagancha, sochlarining yoqimli bo'yidan sarmast bo'laman.

Shahar tashqarisidagi restoranlarda kechligimiz nihoyalab qolganda, atrof tamaki tutuniga to'lganda, mohporam meni alohida hujraga sudrab, lo'lilarni chaqirishni so'rar, lo'lilar ham atay qilgandek betakalluflarcha shovqin-suron solib kirishardi: xor boshida yelkasiga ko'k tasmali gitara ilib olgan, basharasi suvga bo'kkan kishinikiday ko'karib ketgan, tap-taqir bosh, tikyoqa, burmabel, uqali kalta kamzuldagi lo'li, uning ortidan esa do'ngpeshana, kockillari moy bosgan lo'li ayol kirib keladi va varanglatib ashulani boshlaydi... Mahbubam qo'shiqlarni xumor bilan eshitardi... Tungi uch-to'rtlarda uni uyiga kuzatib qo'yardim, dahlizda, saodatli onlardan ko'zim yumilib, namiqqan mo'ynalariga lab bosardim-da,

ichimdan to'lib-toshib Qizil darvoza sari naq qushday uchardim.
«Ertagayam, indingayam, – deb o'ylardim, – o'sha jafo, o'sha baxt... Haytovur, baxt-ku, oliy baxt!»

Shu tariqa yanvar, fevral adoqladi. Maslenitsa ham o'tdi-ketdi. Istig'for yakshanbasida shom mahali beshda kelishimni amr qildi. Borsam, egnida qorako'l po'stini, oyog'ida namat etikchalari bilan peshvoz chiqdi.

– Namuncha qop-qora kiyinib olibsiz?! – dedim shodiyona ichkarilagan zahotim.

Ko'zlari suyumli va sokin edi.

– Axir, ertaga Muborak dushanba, – degancha, qorako'l yeng-chasidan qora layka qo'lgopdagi qo'lini chiqazib uzatdi. – «Yo Rab-bim, nafsim egasi...» Novodevichye monastiriga bormaymizmi?

Hayron bo'ldim-u, lekin darrov rozi bo'la qoldim:

– Boramiz!

– Hamma qovoqxonalar bir go'r, – qo'shimcha qildi u. – Masalan, kecha Rogojskiy qabristonida bo'ldim...

Battar hayron bo'ldim:

– Qabristonda? Nega? O'sha mashhur raskolnikchilarda-ya?

– Ha, raskolnikchilar. Pyotrdan ilgari Rus! O'zlarining arxi-yepiskoplari dafn etilgan. Bir tasavvur qiling: tobut – emandan, burungiday kundal bilan qoplangan, marhumning yuzi yirik qora naqshin chiziqlar tushirilgan oq «parda» bilan qoplangan – go'zal va vahimali. Tobut oldida ripida¹ va trikiriy² ushlab olgan dyakonlar...

– Shoshmang, siz qayoqdan bilasiz ripida, trikiriylarni?

– Siz meni bilmaysiz-da, aslida.

– Xudojo'ylicingizni bilmas ekanman.

– Bu xudojo'ylikmas. Nimaligini o'zim ham bilmayman... Lekin men, masalan, sahar-mardonda yoki oqshomlari, siz meni restoran-ma-restoran sudramaydigan mahallarni aytyapman, Kreml butxonalariga boraman, bu yetti uxlab tushingizgayam kirmagan... Ana shu-naqa. Dyakonlarni ko'rsangiz, naq Peresvet va Oslyabyaning o'zi! Ikki tarafdagi klirosda³ ikki xor, hammasi peresvetchilar: bo'ydor, zabardast, hammasi qora chakmonda, goh u tomon- goh bu tomon

¹ *Ripida* – pravoslav cherkovida: ibodat bilan bog'liq metall yoki yog'och anjom.

² *Trikiriy* – pravoslav cherkovida ibodat uchun qo'llaniladigan shamdon.

³ *Kliros* – butxonada xor uchun belgilangan maxsus joy.

kuylaydi, kuylagandayam nota bo'yichamas, barcha jo'r bo'lib, uyg'unlikda kuylaydi. Daxma esa qoraqarag'ay yog'ochidan. Tashqari izg'irin, quyoshning ojiz nurlari oppoq qorda ko'zni oladi... Eh, qayoqdanam tushunardingiz bularni! Ketdik...

Qqshom tinch-totuv o'tdi. Daraxtlarga qirov ingan. Monastirning qizg'ish-qontalash devorlarida zaxchalar tinmay vijirlaydi, kulrant qo'ng'irog'i ahyon-ahyonda horg'in daranglaydi. Sukunat aroqor g'irchillatib darvozadan o'tdik va qabristonning qorli yo'lagi bo'ylab yurdik. Kun endigina shafaqqa enmoqda, ammo hali yorug'. Shafaqning zarrin pardasida qirovlangan daraxt shoxlari yiltillaydi. Tegramizda mozorlar ustida doimiy yonib turguvchi chiroqchalar hazin yog'dulari ila miltillaydi. Mahbubam ortidan ketib bormoqdaman. Kichik-kichik izlariga ko'nglim iyib boqaman. Go'yo sezgan-day tuyqus o'giriladi.

– Meni shunchalar sevasiz-a! – dedi bosh chayqagancha hayronlanib.

Ertel va Chexovning qabrlari yonida turib qoldik. U Chexovning qabr toshiga uzoq tikildi, keyin kiftini uchirdi:

– Yasama rus uslubi va badiiy teatrning bema'nidan beta'sir qorishmasi!

Qosh qoraya boshladi. Sovuq. Asta darvozadan chiqdik. Aravakashim Fyodor izvosh eshigi yonida mo'min-qobillik bilan kutib o'tirardi.

– Yana birpas sayr qilaylik, – dedi mahbubam, – keyin quy-moqxo'rlikka Yegorovnikiga o'tamiz... Faqat juda tez haydamang, Fyodor, xo'pmi.

– Xo'p bo'ladi, begoyim.

– O'rdacha ko'chasida Griboyedov yashagan uy bor ekan. Izlab ko'rmaymizmi...

O'rdacha ko'chasiga bordik, allaqanday tor ko'chalarda izg'idik. Lekin kim ham bizga Griboyedov qaysi uyda yashaganini ko'rsatardi deysiz? Ko'chalar huvillagan. Allaqanday Griboyedov deganlari kimgayam kerak edi? Tevarak-javonibga allaqachon qora parda tortildi. Daraxtlar ortidagi qirov bosgan derazalar chiroq yorug'idan qizarib ko'rinadi.

– Shu atrofda Marfo-Mariya ibodatxonasi ham bo'lishi kerak.

– Obbo, tag'inmi?

– Yo‘g‘-ye, shunchaki aytdim-qo‘ydim...

Oxotniy rastasidagi Yegorov tamaddixonasining quyi qavati paxmoqsoch, qalin kiyinib olgan izvoshchilarga to‘la, moy va qaymoq surtilgan quymoqni dastalab-dastalab og‘izlariga tiqishadi. Xuddi hammomdagidek dim. Yuqoridagi issiq, past shiftli xonalarda ham mutaassib ko‘paslar qumoq-qumoq uvildiriq qo‘shilgan qaynoq-qaynoq quymoqni muzday shampan bilan yamlamay yutishmoqda. Ikkinchi xonaga o‘tdik. Burchakdagi Uchqo‘l Bibi Maryam sanami oldida chiroq yonib turibdi. Qora charm divanga cho‘kdik... Mahbubamning xatlariga qirov inibdi, yonoqlari jinday qizargan, qorachiq-lari kengaygan. Malohat yog‘ilib turgan orazidan ko‘z uzolmasdim. O‘zi esa cho‘ntagidan dastro‘molini olib, bidirlay ketdi:

– Oh, qandoq yaxshi! Pastda bebosh erkaklar, bu yerda esa shampan va quymoq, qolaversa, Uchqo‘l Bibi Maryam bor ekan. Uch qo‘l! Axir, bu Hindiston! Siz – to‘raxo‘ja, Moskvani menchalik tushunmaysiz!

– Tushunaman, tushunaman! – dedim shoshib. – Keling, baquvvat ziyofat buyurtiramiz!

– Qanaqasiga «baquvvat»?

– Bu kuchli, zo‘r degani. Axir, bilmaysizmi? «Dedi Gyurgi...»

– Qandoq yaxshi! Gyurgi!

– Ha, knyaz Yuriy Uzundasta. «Dedi Gyurgi Shimol knyazi Svyatoslavga: «Mehmonim bo‘l, og‘a, Moskvada» va baquvvat ziyofat uyushtirdi ul».

– Qandoq yaxshi. Faqat o‘sha Rus endi unda-bunda shimol monastirlarida qoldi, xolos. Yana-tag‘in cherkov munojotlarida. Yaqinda Zachatyevskiy monastiriga bordim, u yerda munojotlarni qanday qiroat bilan kuylashlarini tasavvur ham qilolmaysiz! Chudovoyda esa undanam zo‘r. Bultur Strastnoyga tinmay qatnadim. Eh, xo‘p yaxshi-ya! Hamma yoqda halqob-halqob suv, havo biram yoqimli, ko‘klam nafasi, qalbda sokinlik, ma‘yuslik va vatan tuyg‘usi, o‘tmish sog‘inchi... Cherkovning hamma eshiklari ochiq, uzzukun oddiy xalq kirib-chiqaveradi, kun bo‘yi ibodat... Oh, bi-ronta monastirga ketaman, xilvanishin birontasiga, Vologodskiygami, Vyatskiygami!

U holda men ham ketishimni, Saxalinga surgun qilishlari uchun bitta-yarimtani o‘ldirishimni aytmogchi bo‘ldim. Hayajonlanganim-

dan chekdim. Lekin oq ko'ylak-ishton kiygan, to'q qizil belbog' taqib olgan dastyor yigit kelib, ehtirom bilan eslatdi:

– Ma'zur tutgaysiz, janob, bizda chekish mumkin emas...

Va darhol alohida laganbardorlik bilan labi-labiga tegmay bidir-lay ketdi:

– Quymoqqa nima buyuradilar? Uyda tayyorlangan o'tli choyga nima deysizlar? Syomga baliq ikrasiga-chi? Baliq sho'rvaga bizda xeres ja-a ketadi-da, navaga baliqqa esa...

– Navajkagayam xeres, – deya qo'shimcha qildi suyukligim qa-qajonlik bilan. Men parishonxotirlik bilan tingladim, u esa gapdan to'xtamadi. U ko'zlari yonib so'zlardi:

– Rus solnomalarini, rus rivoyatlarini biram yaxshi ko'ramanki, yoqib qolganini to yodlab olmaganimcha takror-takror o'qiyveraman. «Rus zaminida Mur degan shahar bo'lgan ekan, unda Pavel ismli knyaz hokimlik qilar ekan. Kunlardan bir kuni iblisi la'in uning zav-jasiga uchar ilonni fosiqlik qilmoq uchun yuboripti. O'sha makkor ilon ayolga juda ham go'zal inson qiyofasida ko'rinipti...»

Men hazilomuz tarzda ko'zlarimda dahshatni aks ettirdim:

– Voy, qanday dahshat!

Sohibjamolim quloq solmay, gapida davom etdi:

– Xudo uni shu tariqa sinabdi. «Ayolning qazo fursati kelgach, knyaz va knyaginya Parvardigordan bir kunda jonlarini olishni so'rab yolvorishipti. Illo, bir tobutda ko'milishga ahd qilishipti. Bir qabr toshga ikki marhumning ismlarini o'yib yozishni buyurishipti. Shunday qilib, ular bir vaqtda darveshlardek kiyinishipti...»

Mening parishonligim hayronlik, hatto, xavotir bilan almashdi: bugun unga nima bo'ldi o'zi?

O'sha kechada, odatimizga xilof ravishda, soat o'n birda yolakda xayr-xo'sh qilib, chanaga o'tirganim zamon, u birdan meni to'xtatdi:

– Shoshmang. Ertaga kechqurun menikiga o'ndan vaqtiroq kel-mang. Ertaga Badiiy teatrdagi «gurung» bo'ladi.

– Xo'sh? – deb so'radim. – O'sha «gurung»ga bormoqchimisiz?

– Ha.

– Lekin siz o'zingiz, bu «gurung»lardan-da bema'niroq narsa yo'q, derdingiz-ku!

– Hozir ham shunday deymen. Lekin, baribir, borgim kelyapti.

Xayolan bosh chayqadim – moskvacha injiqlikdan boshqasi emas bu! biroq: – «Ol rayt!» deb qo‘ya qoldim.

Ertasiga kechki soat o‘nda liftda go‘zalimnikiga ko‘tarildim, eshikni o‘zimning kalitim bilan ochdim-u, qorong‘i dahlizga darrov kirmadim: ichkari noodatiy tarzda yop-yorug‘, hamma chiroqlar yoqilgandi, ko‘zgularning ikki yonida qandil, chilchiroqlar va divanning bosh tomonida qalpoqli uzun chiroq yoqilgan, pianino esa «Oy sonatasi»ning muqaddimasini kuylar edi, kishini allalab, dilga mas‘ud hasrat solgancha, kuy tobora avjiga chiqar, tobora yuraksiqma tus olar edi. Dahliz eshigini taraqlatib yopdim, kuy ovozi tindi, ayol kishining ko‘ylagi shitirlagani eshitildi. Ichkariladim, mahbubam qora baxmal ko‘ylagida pianino yonida tik turar, zuluk sochlari, bug‘doyrang, kahrabo qo‘llari, yelkalari, jinday upa surtilgan yonoqlari ortida yiltillab turgan olmos sirg‘alari, shahlo, barqut ko‘zlari va mayin qip-qizil lablari unga o‘zgacha nafosat baxsh etar edi; chakkalarida yaltillama kokillari taxtarom suvratlardagi mashriq go‘zallari yanglig‘ shahlo ko‘zlari tomon yarim halqalanib turardi.

– Agar qo‘shiqchi bo‘lib, estradada kuylaganimdami, – dedi u parishon yuzimga qarab, – olqishlarga xush tabassum va o‘nggachapga, yuqoriga va parter tomon ta‘zim qilib javob qaytarardim, o‘zim esa etagimni bosib olmaslik uchun kishibilmas nari surib qo‘yardim...

«Gurung»da u ko‘p tutun burqsitdi va shampaxo‘plab, o‘ktam hayqiriqlar va naqarotlar bilan pariycha nenidir tasvirlayotgan aktyorlarga, oq soch va qora qosh Stanislavskiy bilan oytovoq yuzli, pensne taqib olgan biqqi Moskvaga sinchiklab tikilaverdi, ikkala aktyor ham o‘zlaricha jiddiy qiyofaga kirib, xaloyiq gurra kulgisi ostida faranglarning beadab raqsini ko‘rsatib muqom qilishardi. Yuzlari oppoq oqargan, bir tutam beloruscha sochi tushib turgan peshonasi reza-reza ter Kachalov qo‘lida qadah bilan yonimizga keldi. Soxta ishtiyoqmandlik bilan o‘zining aktyorcha past ovozida qadah ko‘tardi:

– Go‘zallar malikasi, Shirvon malikasi, sening sog‘lig‘ing uchun!

«Shirvon malikasi» asta jilmayib, Kachalov bilan qadah urishtirdi. Kachalov esa uning qo‘lidan tutdi, u tomon egilganday

bo'lgandi, sal qolsa gindiraklab ketay dedi. O'zini o'nqlab, tishlarini g'ijirlatgancha, menga ko'z tikdi:

– Bu xushro'y kim bo'ldi? Ko'rarga ko'zim yo'q!

Keyin sharmankadan polkaning g'iyqillagan, chiyillagan, gursillagan, hakkalatib sakratadigan kuyi yangradi. Shunda biz tomon qachon qarama qayoqqadir shoshib yuradigan, hamishabahor, pakpakana Sulerjitskiy sirg'anibgina uchib keldi, savdogarlarga xos tavoze bilan egilib-bukildi-da, shosh-pisha burnining tagida po'ng'illadi:

– Tranblan polkasiga taklif etishga izn bersangiz...

Suyukligim tabassum-la o'rnidan turdi, chaqqongina bir depsinib qo'ydi-da, sirg'alarini yalt-yult qilib, gul-gul ochilgancha, Sulerjitskiy bilan stollarni oralab ketdi, hayratga to'la nigohlar va qarsaklar ularni kuzatib qoldi, shu orada anov hamishabahor boshini adl ko'tarib, eshakday hangradi:

Yur, tezroq yur, yursang-chi,

Sen-la polkaga tushgum!

Tungi soat uchda mahbubam ko'zlarini ochmay o'rnidan qo'zg'aldi. Kiyinib olgach, qunduz teri qalpog'imga qarab qo'ydi, qunduz yoqamni siypaladi va yarim hazil, yarim jiddiy ohangda:

– Albatta, xushro'y-da. Kachalov to'g'ri aytdi... «O'sha makkor ilon ayolga juda ham go'zal inson qiyofasida ko'rinipti...» – deganicha eshikka yo'naldi.

Qarshimizdan savalayotgan izg'iridan boshini xam qilib yo'l bo'yi jim ketdi. To'lin oy Kreml uzra suzmish bulutlar orasida dam ko'rinib, dam yashirinadi. «Nur sochayotgan boshchanog'-a», – dedi mahbubam. Spassk minorasidagi soat uchga bong urdi. Shunda u:

– Qanday ko'hna tovush-a, allatovur do'ng'illama va quyma. Xuddi mana shu tovushda o'n beshinchi asrda, tungi soat uchda bong urilgan. Florensiyadayam xuddi shu bongni eshitgandim, u menga Moskvani eslatgandi...

Fyodor podyezd yoniga kelib to'xtaganda, menga qarab zaifgina buyurdi:

– Unga ruxsat berving...

Aqlim shoshib qolgancha (mahbubam tunda unikiga ko'tarilishimga sira izn bermasdi) esankirab aravakashimga so'z qotdim:

– Fyodor, yayov ketaveraman...

Og'zimizga talqon solgancha, liftda yuqoriga ko'tarildik, qorong'i iliqlik va ora-sira kalorifer¹ bolg'achada taqillatib qo'yiladigan kvartira sukunatiga singib ketdik. Men sitamkorimning egnidan qordan silliqqlashgan po'stinini yechdim, nam tivit sholro'molini olib qo'limga tashladi va shoyi yubkasini shildiratib, tezgina xobgohiga o'tdi. Egnimdagilarni yechib, birinchi xonaga kirdim va jarlik labida turganday yuragim urishdan to'xtab turk divaniga cho'kdim. Chirog'i yoniq yotoxonaning ochiq eshigidan uning qadam tovushlari, ko'ylagini sochto'g'nog'ichiga ilintirib, boshidan oshirgancha, tortib-tortib yechgani eshitildi... O'rnimdan turib, eshikka yaqin keldim: u birgina nafis tuflichada, menga orqa o'girib, toshoyna qarshisida toshbaqataroqda oldiga yoyilgan zuluk sochlarini tarardi.

– Meni u haqda kam o'ylaydi deb yurganini-chi, – dedi u taroqni oyna kursisiga qo'yib. Solcharini orqaga tashlab, menga o'girildi. – Yo'q, men har doim o'ylayman...

Tongotarda uning qimirlaganini sezdim. Ko'zimni ochdim – u menga tikilib o'tirardi. Issiq o'rnimdan gavamni ko'tardim, u esa menga engashib, pichirladi:

– Bugun kechqurun Tverga ketaman. Qanchaga, yolg'iz Parvardigor biladi.

Yuzini yuzimga bosdi, kipriklari pipirayotganini his qildim:

– Yetib borishim bilanoq xat yozaman. Kelajagimiz haqida hammasini yozvoraman. Kechir, endi meni xoli qoldir, judayam charchadim...

Shunday dedi-yu, yostiqa bosh qo'ydi.

Men ohista kiyindim, uning sochlariga qimtinibgina lab bosdim va oyoq uchida tashqariladim. Yerga endi ina boshlagan yopishqoq qorni bir-bir bosib ketaverdim. Bo'ron tinibdi. Tevarak-javonib suv quygandek jimjit. Endi ko'chalar bo'ylab olislarga ko'z tikish mumkin. Qorning musaffo isi va novvoyxonadan ufurayotgan xushbo'y hid kelmoqda. Iverskiy ibodatxonasigacha yetib bordim. Ichkari butun boshli shamlar gulxnanidan lovullab qizargan. Kampir va gadoylarga qo'shilib toptalgan qorga tiz cho'kdim, qalpog'imni yechdim... Kimdir yelkamdan ushladi – o'girildim: qandaydir bechora kampir achinganidan yuzlari burishib, yig'lagancha menga qarab turardi:

¹ Issiq suv, bug' yoki issiq havo o'tadigan trubalardan iborat isitish qurilmasi.

– Qo‘y, kuyunaverma, bunchalik kuyinavermagin! Gunoh-a, gunoh!

O‘sha kundan ikki hafta o‘tib xat oldim, qisqa, shirinsuxanlik bilan, lekin uni kutmasligimni, izlamasligimni qattiq iltimos qilib bitibdi: «*Moskvaga qaytmayman, hozircha riyoatga berilaman, keyinroq balki rohibalikka kirarman... Rabbim menga yozmasligingiz uchun kuch-quvvat ato etsin sizga, azoblarimizni cho‘zib-ko‘paytirishdan ne naf...*»

Men uning iltimosini bajo keltirdim. Anchagacha ivirsiq qovoqxonalarda tentirab, har qanaqasiga tuban ketib, ichkilikka berildim. Keyin tarvuzim qo‘ltig‘imdan tushib, loqaydlanib asta-sekin oyoqqa turdim... O‘sha Muborak dushanbadan keyin ikki yil suvday oqib ketdi...

O‘n to‘rtinchi yilda, Yangi yil arafasida huv o‘sha, unutilmas kundagi kabi shom mahali quyosh mo‘ralab, osoyishtalik hukm surdi. Uydan chiqib, izvosh yollab, Kremlga yo‘l oldim. U yerda Arxangelsk cherkoviga kirdim. Huddi nenidir kutganday, xo‘rsinishga ham yurak betlamaydigan bo‘m-bo‘sh cherkovda ibodat qilmay, nuqul g‘ira-shira yorug‘likda ko‘hna mehrob zarhallarining zaif millatlashiga va Moskva shohlarining qabrtoshlariga ko‘z tikkancha turaverdim. Ibodatxonadan chiqib, izvozchiga Ordinkaga yurishni aytdim, derazalari chiroq yorug‘idan yorishib turgan torko‘chalar bo‘ylab lo‘killab bordim. Griboyedov torko‘chasidan o‘tdim va tinmay yum-yum yig‘layverdim...

Ordinkada Marfo-Mariya ibodatxonasi darvozasi tagida izvoshni to‘xtatdim: ichkari hovlidan karetalarning qorasi ko‘rinar, nimyorug‘ cherkovning ochiq eshiklaridan qizlar xorining g‘amgin va yoqimli kuyi eshitilar edi. Ne uchundir ichkarilashni istadim. Darvoza tagida darbon yo‘limni to‘sdi, mo‘min-qobillik bilan elandi:

– Mumkin emas, taqsir, mumkin emas!

– Qanaqasiga? Cherkovga kirish mumkin emasmi?

– Mumkin, taqsir, mumkin. Xudo xayringizni bersin, kirmang, hozir ichkarida muhtarama knyaginya Yelizaveta Fyodrovna bilan ulug‘ knyaz Mitriy Palich...

Men unga bir rubl qistirdim, taslim bo‘lganday xo‘rsinib, o‘tkazib yubordi. Hovliga kirishim bilanoq, cherkovdan qo‘lda ko‘tarib ketilayotgan ikonalar, tug‘-alamlar ko‘rindi, ularning ortidan boshdan oyoq oqqa burkangan, mohpora, peshona qismiga ol-



tin xoch tikilgan oq chambarak taqib olgan, daroz, qo'llarida sham ushlab, ko'zlarini yerga qadagancha qoidasi bilan knyaginya zoti oliyalari asta yurib kelardi. Uning ortidan yuzlarini sham yog'dulari yoritgan kuylovchi zohidalarimi yo rohibalarimi kim edilar-u, qayoqqa yo'l olishgan, bu yog'i menga qorong'u, turnaqator tizilishib olishgandi. Men negadir ularga qattiq tikilib qoldim. Shunda ulardan biri, o'rtada ketayotgani ittifoqo oq ro'mol tashlangan boshini ko'tardi-da, qo'li bilan shamni to'sib, qop-qora ko'zlarini zulmatga – men tomon tikdi... Qorong'ida nimani ko'rdiykin, mening o'sha yerdaligimni qanday sezdiykin? O'girildim-u, davozadan chiqdim.

Saidjalol SAIDMURODOV tarjimai.



MUZA

Men o'shanda, garchi buning uchun yoshim o'tinqirab qolgan bo'lsa-da, rassomlik san'atidan saboq olishga jazm etdim. Ko'nglimda avvaldan ham shunday havas bor edi. Tambov viloyatida yer-mulkim bo'la turib, butun qishni Moskvada o'tkazdim. Meni shogirdlikka olgan rassom no'noq, iste'dodsiz, ammo o'ziga yarasha dongdor ham edi; u san'at ahliga xos barcha zohiriy ko'rinishga ega bo'lib, sochini yelkasigacha jingalak qilib o'stirgandi. Tishiga trubka qisib yurar, kalta, qizil barqut kamzul, uringan, kulrang uzun etik-kalish kiyardi. Men ulardan judayam jirkanardim, muomalada hecham istihola qilmasdi, o'zganing mehnatiga mutakabbirlarcha chap ko'z bilan qarab, xuddi o'zicha so'zlashayotgandek: «Chizganingiz bag'oyat ajoyib, bag'oyat maroqli... Bir so'z bilan aytak, bu siz uchun ulkan muvaffaqiyatdir...» deb qo'yishga odatlangan bir kimsa edi.

Men Arbat xiyobonidagi «Praga» restoraniga yondosh «Poytaxt» musofirxonasida yashardim. Kunduzi rassomnikida yoxud o'z xonamda ishlardim, kechani ko'pincha ovqati arzon restoranlarda, turmushi it yotish mirza turishdan iborat daydi san'atkorlar orasida, yosh-u qarisi bir xilda pivo va qisqichbaqaga mukkasidan ketgan yangi-yangi tanishlarim bilan o'tkazar edim... To'g'risi, juda zerikarli va ko'ngilsiz hayot kechirardim! O'sha o'larday befarq, tepsa-tebranmas irkit rassomni, uning vayronaga aylangan, changga belangan, turli-tuman soxta bezaklar uyumi to'la ustaxonasini; o'sha qop-qorong'i «Poytaxt» musofirxonasini o'ylasam, faqat ensam qotadi... Ushbu lavhalar esimda qattiq saqlanib qolgan: dera-zaga qor to'xtovsiz uriladi. Arbat tomondan qo'ng'iroqlarini jaranglatib o'tayotgan ko'nkalar, ot qo'shilgan tramvaylarning taraq-turuq tovushi keladi, kechasi esa xira yoritilgan restoranda pivo va yana allaqanday raddibaloning achimsiq isi anqiydi... Cho'ntagimda bir-muncha pulim bo'laturib, nima sababdan shundayin ayanchli bir tarzda yashaganimni haligacha tushunib yetolmayman.

Bahorda, mart kunlarining birida, xonamda rasm chizish bilan mashg'ul edim; tosh yo'ldan eshitalayotgan nag'al tovushlari qishdagidan boshqacharoq, ko'nkalardan taralayotgan musiqaviy sadolar ham o'zgacharoq tuyular edi... Noxosdan kimdir dahliz eshigini taqillatdi. Baland ovozda «Kim?» deb so'radim. Ammo javob

bo'lmadi. Biroz kutdim, keyin yana «Kim u?» deya qichqirdim. Yana jimlik. So'ng yana eshik taqilladi, borib eshikni ochdim, ostonada kulrang etikli, uzun va to'g'ri bichiqli kulrang palto kiygan, qishki kulrang shlapali, novchagina bir qiz turar, ko'zlari shaddod boqar, yuzida, uzun-uzun kipriklarida, shlapa ostidan chiqib, sochilib yotgan soch tolalarida qor va yomg'ir nuqralari yaltirar edi. U mendan ko'z uzmasdan:

– Men mutaassib bir qiz – Muza Graf bo'laman, – dedi. – Sizning judayam ajoyib kishi ekanligingizni eshitdim-u, tanishgani kelaverdim. Qarshiligingiz yo'qmi?

Men juda hayron bo'ldim, ammo chiroyli nazokat bilan javob berdim.

– Boshim osmonga yetdi, juda mamnunman. Faqat oldindan aytib qo'ymog'im lozim, ya'ni men to'g'rimda eshitganlaringiz aslida boshqacharoq; aslida, hech qanaqa ajoyiblik joyim yo'q, men oddiy bir rassomman.

– Buning hech bir ahamiyati yo'q, muhimi, meni eshik oldida tutib turmang, ichkariga taklif qiling, – dedi u menga tik qarab, – tashrifimdan boshingiz osmonga yetgach, eshigingizni ham ochib qo'ying-da, jonginam.

U xonaga kirib, o'zini xuddi onasining uyida yurgandek tuta boshladi, chetlari zarhallangan, ba'zi joylari qoraygan ko'zgu ro'parasiga borib, boshidan shlapasini oldi, sarg'ish sochlarini tutatgan bo'ldi; paltosini yechib stulga tashladi, yengil jun matodan tikilgan katak-katak ko'ylagi darhol e'tiborimni tortdi, u divanga borib o'tirarkan:

– Kalishim bilan etigimni yechib qo'ying, – deb buyurdi. – Yo'q, avval paltomdagi dastro'molni olib bering.

Unga dastro'molni uzatdim, u artinib bo'lib, oyoqlarini men tomonga cho'ziltirdi.

– Men kecha sizni konsertda ko'rgan edim, – bepisand dedi u.

Men mamnunlik va esankirashdan ahmoqona iljayganimcha bu qanaqa mehmon o'zi, yopiray itoatkorona qiyofada uning qo'njli kalishlarini birin-ketin yechib qo'ydim.

Qizning vujudidan haliyam tashqarining beg'ubor havosi ufurib turar, bu hid xayolimni parokanda qilar, uning ruxsoridagi karashma, ajib nigohlaridagi noz-u istig'no, uzun va chiroyli qo'llaridagi maf-

tunkorlik, xatti-harakatlaridagi mardona shaddodlik bilan qo'shib
dilimni badtar hayajonga solar, o'rtantirar edi.

U divanga qulayroq o'rnashib, bemalol-bepisand o'tirib oldi,
nazarimda, hali-beri ketadiganga o'xshamasdi. O'ylanqirab, gap
topolmasdan, u men to'g'rimda kimdan nimalarni eshitgani, o'zi
kim, qayerda va kimlar bilan yashashini so'ray boshladim. U shun-
day javob berdi:

– Siz haqingizda kimlardan qanday gap eshitganimni aytib o'tir-
mayman. Bu yerga kelishimning birdan bir sababi, sizni kecha kon-
sertda ko'rib, yoqtirib qoldim, shu xolos. Siz nihoyatda chiroyli va
yoqimtoysiz. O'zimga kelsak, men shifokorning qiziman, uyimiz ham
bu yerdan unchalik uzoq emas. Prechistenskiy xiyoboniga yaqin.

Uning so'zlarida qandaydir qisqalik, keskirlik va nogohoniylik
bor edi. Men uni jalb etish uchun biror munosib gap topolmaganim-
dan keyin:

– Choy-poy ichasizmi, – deb so'radim.

– Ichaman, albatta, – dedi u. – Agar cho'ntagingiz ko'tarsa, Be-
lovning ranet olmasidan xarid qildiring, uning rastasi shundoqqina
Arbatda joylashgan. Faqat mehmonxona xodimini tezroq yuboring,
men juda besabr qizman.

– Aksincha, siz mutlaqo sipo ko'rinasiz.

– Ko'rinish ham gap bo'ldi-yu...

Mehmonxona xodimi bir qog'oz xalta olma hamda biqirlab qay-
nab turgan samovarni olib kelgach, u o'rnidan turib choy damladi,
piyola va qoshiqchalarni boshqatdan tozalab artdi... Bir piyola choy
ichib, olma yeb bo'lgach, divanga yaxshilab o'rnashib oldi, so'ng
meni qo'llarini yozib ishora qilgan ko'yi og'ushiga chorladi:

– Endi beri keling.

Yoniga borib o'tirdim. U meni quchoqlab oldi, shoshilmasdan,
ohista o'pti. Keyin bir muddat tikilib qoldi va xuddi men uning
lutflariga munosib ekanligimga ishonch hosil qilgandek, ko'zlarini
jimgina yumdi hamda uzoq, sidqidillik bilan yana avvalgi holatni
takrorladi.

– Mana shunday, – dedi u yengil tortgan odamday, – hozircha
shu ham kifoya. Ertaga bir gap bo'lar.

Musofirxona bo'lmasiga allaqachon qorong'ilik oralagan, faqat-
gina ko'chadagi chiroqlarning g'ira-shira yog'dusi ko'zga chalinir

edi. Ayni daqiqalardagi holatimni, quvonchimni bayon etishga til ojiz. Qayerdan keldi bu nogahoniy baxt! O'tib borayotgan ko'nkalar qo'ng'irog'ining yod bo'lib ketgan bir xildagi jarangi va otlar tuyog'ining taraq-turuq tovushi tushimda eshitilayotgandek tuyuldi.

– Indinga men siz bilan «Praga» restoranida birga ovqatlanishni istayman, – dedi u, – men u yerga hozirgacha bir marta ham kirmaganman, shuningdek, tajribasiz bir qizman. Shu tobda men to'g'rimda nimalarni o'ylab o'tirganingizni tasavvur qilaman, ammo, aslida siz – mening birinchi sevgilim, birinchi muhabbatimsiz.

– Qanaqa sevgi-muhabbat?

– Bo'lmasa, bularni qanday atash lozim?

...Shundan keyin o'qishni ham tashlab yubordim. Rassomlikka havasim ham barham topdi.

Biz u bilan hech ajralmasdan yashar, har xil ko'rgazmalarga, konsertlarga, tasviriy san'at tomoshaxonalariga borar, hatto, ba'zan ba'zan ommaviy ma'ruzalarni tinglashga ham qatnab turar edik. May oyida, uning xohishi bilan, Moskva yaqinidagi qo'rg'onga, eski bir chorbog'ga ko'chib bordim: u har kuni oldimga kelar, tungi soat birda yana uyiga – Moskvaga qaytib ketar edi. Umrim bino bo'lib chorbog'da yashamagandim, shunday chorbog' egasi bo'lishni xayolimgayam keltirmagandim. Moskva yaqinida, shunday ajoyib iqlimda, bizning cho'llarimizdagi qo'rg'onlarga mutlaqo o'xshamagan, ko'm-ko'k daraxtzorlardan iborat qo'rg'onda hech bir ish qilmasdan boyonlardek yashashimni esa, aslo kutmagan edim.

Atrof qarag'ayzor o'rmon, uzzu-kun yomg'ir yog'adi. Ahyon-ahyonda yorqin zangorliklar uzra oppoq bulutlar to'planadi, tevarakni mayin bir shovqin qoplaydi, keyin quyosh nurlari orasidan shaffof yomg'ir tomchilari duvillab to'kiladi, o'rmonzor tepasida xushbo'y qarag'aylarning hovuridan yuksalgan ulkan bug' paydo bo'ladi... Atrof rutubatli: shalabbo o't-o'lanlar, daraxtlar tanasi oydingidek yaltiraydi... Qo'rg'on tevaragidagi daraxtzorlar shunday haybatliki, bu yerdagi onda-sonda qaqqayib turgan chorbog'lar juda kichkina ko'rinar, xuddi issiq iqlimli mamlakatlardagi ulkan daraxtlar ostidagi mo'jaz uychalarga o'xshab ketar edi. Yarmigacha daraxtlar soyasi tushib turgan hovuz esa ulkan ko'zguni eslatardi... Mening istiqomatgohim o'rmonzor yoqasida, bog' etagida joylashgandi. Yog'ochdan qurilayotgan uy hali batamom bitkazilmagan, taxta de-

vorlaridagi yoriq-teshiklar ham berkitilmagan, farshining taxtasi randalanmagan edi: xonada hech qanaqa jihoz yo'q, faqat birgina qop-qoqsiz pechka ko'zga tashlanar edi. Karavotim ostida pala-partish yoyilib yotadigan poyabzallarim doimiy namgarchilikdan po'panak bosib ketgandi.

Kechalari yarim tungacha zimiston bo'lardi. O'rmonzor uzra g'arb osmonidan har doim ko'ringuvchi nimyorug'lik oydin kechalarda oy yog'dulari bilan o'shanday osuda, harakatsiz, ajoyib va afsungar bir holatda qo'shilib ketardi. To'rt tarafda hokim bo'lgan ana shu xotirjamlikni, ana shu sokinotni, musaffo osmon va havodagi ana shu osoyishtalikni seza turib, endi hech ham yomg'ir yog'masligi mumkin, deya ishonar edim. Ammo Muzani bekatga kuzatib qo'yib, o'rnimga cho'zilishim bilanoq, birdan yomg'ir boshlanganini, tomni taraqlatib shovqin solayotganini eshitardim, tashqaridagi qorong'ilik bag'rida chaqmoqning qiyrixon shu'lalarini ko'rardim...

Ertalabki binafsharang zaminda, rutubat og'ushidagi xiyobonlarda olachalpak ko'lankalar va quyoshning tig'dor nurlari jilvalanar, pashshatutarlarning chug'ur-chug'uri, sayroqi qorayaloqlarning besaranjom nag'masi yangrar edi. Choshgohga tomon tag'in o'rmonzordan bug' yuksalar, bulutlar to'dalanar va yana yomg'ir shovullab qolardi...

Shom oldidan hammayoq ravshan tortib, botayotgan pastak quyoshning oltinrang, billuriy nuri barglar orasidan o'tyb, titrab o'ynarkan, so'nikayotgan kunduzdan xabar berdi. Shu payt men Muzani kutib olgani bekatga yo'l oldim. Poyezd kelib to'xtashi bilan bir to'da chorbog'chilar yo'lak sari yopirildi. Parovozdan toshko'mir va o'rmonzorning g'uborsiz hidi anqidi, nigohim olomon ichida kelayotgan, qo'lida turli-tuman yegulik, ichimlig-u mevalardan qappaygan to'rxalta, qog'oz qopchiqlar ko'targan Muzaga tushdi... Uyga kelgach, yuzma-yuz o'tirib, bir-birimizga mehribonliklar ko'rsatib, yayrab ovqatlandik. Kechki payt, uning shaharga jo'nab ketishi oldidan bog'da sayr qildik. U shundoqqina yonimda, boshini yelkamga qo'yib olgan ko'yi, bu xuddi tushida ro'y berayotgandek, beixtiyor yurib borardi. Atrofda qora ko'zguli hovuz, yulduzlar sari qo'l cho'zgan, asriy, iltijoli daraxtlar... Bir qarashda ko'lni eslatadigan dalalarda daraxtlarning uzun, poyonsiz ko'lkalari yoyilgan, jimjit, bepoyon va fusunkor oydin kecha...

Iyun oyida Muza men bilan Tambov viloyatidagi qishlog'imga bordi, garchi nikohsiz bo'lsa ham, bir uyda yashay boshladik, xo'jalik ishlarini u o'z gardaniga oldi. U uzun kuz kunlarini aslo zerikmasdan, kelajak tashvishlari va kitob mutolaasi bilan o'tkazib yubordi. Qo'ni-qo'shnilardan biznikiga tez-tez kelib, mehmon bo'lib turadigan odam Zavistovskiy degan so'qqabosh kimsa edi: u sariqbashara, nimjon va qo'rqq, sozandalikdan ham xabari bor, biznikidan ikki chaqirim narida turadigan, kambag'allashgan zamindor edi. Qish boshlandi, u biznikiga deyarli har kuni kelardi. Men uni bolalikdan bilardim, endi esa, u nusxaga shunday o'rganib qoldimki, hatto, u kelmasa tun g'alati o'tayotgandek tuyulardi. U men bilan shashka o'ynardi, Muza bilan esa to'rt qo'llab royal chalardi.

Rojdestvo oldidan tasodifan zarurat tufayli shaharga jo'nadim. Oy chiqqan bir pallada shahardan qaytib keldim. Uyga kirib, Muzani topolmadim. Samovar qarshisida anchagacha tanho o'tirgach, xodimadan:

– Dunya, beka oyim qayerda, sayrga chiqib ketdimi? – deb so'radim.

– Bilmadim. Ular ertalabdan buyon uyda yo'qlar, – dedi.

– Kiyindilar-u, jo'nab qoldilar, – javob qildi yemakxonadan boshini xam qilib o'tib borayotgan enagam.

«Ha-ha, Zavistovskiy nikiga ketgan, – deb o'yladim, – to'g'ri, ular tezda birgalashib kelib qolishadi, hozir soat yetti bo'lib qoldi...» Keyin xosxonamga kirdim-u, birpasda tosh qotib uxlab qoldim, kun bo'yi yo'l yurib, o'larday sovg'otgan edim. Bir soatlardan so'ng kallamga nogahonda kelgan tahlikali fikrdan ko'zim yarq etib ochildi: «Axir u meni tashlab ketgan bo'lsa-chi! Meni bu yerda uxlatib qo'yib, o'zi bekatga ketgan, uning qo'lidan har ish keladi! Yo'q, ehtimol, u hozir qaytib kelgandir». Uyni aylanib chiqdim – yo'q, kelmabdi. Uyat-e, shalpaygan xizmatkorlarni ham g'aflatda qoldiribdi!..

Soat o'nga yaqinlashdi, nima qilarimni bilmasdim, hayron-sargardon edim: oxiri, mo'ynador, kalta po'stinimni kiydim-da, negaligini o'zim ham bilmagan holda, qurolimni oldim, so'ng Zavistovskiy qo'rg'oni tomon katta yo'l bo'ylab borarkanman, shunday o'ylardim: «Ataylab qilayotgandek, hozirgacha u sariqbashara ham

kelmadi, oldinda esa menga azob beradigan, shubhalar bilan qiynaydigan butun bir qayg'uli tun bor! Nahotki, Muza ketgan, nahotki u meni tashlab ketsa! Yo'q, bunday bo'lishi mumkin emas!» Qorliklar orasidagi iz tushgan yo'ldan g'irchillatib odim tashlab borardim: chap tarafimda, pastakkina, g'arib oy yog'dusida dalalarning qorli manzarasi oqarib ko'rinardi... Katta yo'ldan qayrilib, Zavistovskiyning ayanchli qo'rg'oni sari shitob yurdim: dala bo'ylab uning hovlisiga olib boradigan xiyobonning ikki chetida yalang'och daraxtlar qaqqayib turar, eski hovlining chap tarafida qiltillagan uy ko'rinar edi. Uy qop-qorong'i... Muzlab yotgan zinapoyadan ko'tarilib, qoplamasi ko'chib, osilib yotgan og'ir eshikni ming azob bilan ochdim, dahlizda qizarib yonayotgan pechkaga ko'zim tushdi, uy issiq, qorong'i... Zal ham shunday qorong'i edi.

– Vikentiy Vikentich! – dedim.

Bo'lma eshigi ovozsiz ochildi, faqat oy nuri va uch tavaqali ko'zguning aks shu'lası tushib turgan ostonada piymali Zavistovskiyo ko'rindi.

– E-e-e... Bu sizmidingiz... Kiring, kiravering, marhamat... men, ko'rib turganingizdek, chiroq ham yo'q, tunni mana shunday qorong'ilikda o'tkazyapman... – deya g'o'ng'illadi u.

Ichkariga kirib, do'ppayib turgan divanga borib o'tirdim.

– Tasavvur qila olasizmi, azizim, Muza qayoqqadir g'oyib bo'libdi... – dedim.

U indamadi. So'ng eshitilar-eshitilmas bir ovozda:

– Ha, ha, to'g'ri, men sizning ahvolingizni tushunaman... – dedi.

– Ya'ni, nimani tushunasiz, – deya keskin so'radim.

Xuddi shu asnoda, xuddi Zavistovskiyo ga o'xshab ovoz chiqar-masdan, unikiga o'xshash piyma kiygan, yelkasiga shol ro'mol tashlab olgan Muza yotoqxona tomondan biz o'tirgan bo'lmaga kirib keldi.

– Qurolingiz yoningizdami? – so'radi u – Agar otmoqchi bo'lsangiz, uni emas, meni oting!

Shunday dedi-yu, qarshimga, boshqa divanga o'tirib oldi.

Men uning piymali oyoqlariga, kulrang yubkasi ostidagi tizzalariga ko'z tashladim. Derazadan muttasil sepilayotgan zarrin shu'lalarda hammasi ayon ko'rinardi. Birdan: «Men sensiz yashay olmayman, mana shu birgina tizzalaring uchun, yubkang va piyma-

etiklaring uchun jonimni ham berishga tayyorman!» – deya xitob qilgim kelib ketdi.

– Hammasi ravshan, hammasi tugadi, – Muzaning sovuq, qat’iy ovozidan hushimga keldim. – Endi nayrangbozlik qilish behuda, – dedi u.

– Odam ham shu qadar shafqatsiz bo’ladimi, – deya ingraganday ohista dedim.

U Zavistovskiya o’girildi-da:

– Qani, papirosdan uzat, – dedi.

Zavistovskiy itoatkorona egilganicha Muzaga tamakidonini ochdi, cho’ntagini timirskilab, gugurt axtara boshladi.

– Siz men bilan sizlashib gapirishyapsiz, – dedim nafasim qisilib, – mening oldimda u bilan senlashib so’zlashmasligingiz ham mumkin-ku!

– Nega endi, buni qanday daxli bor, – u qoshlarini chimirib, papirosni labidan uzoqlashtirarkan, kibor bilan so’radi.

Yuragim gupillab urar, bo’g’zimga tiqilgudek hapriqar edi. Shartta o’rnimdan turdim-u, gandiraklaganimcha uydan chiqib ketdim.

Tohir QAHHOR tarjimasi.



Qashshoq, yetimcha qiz, o'zi o'ta yoqimtoy va juda yuvosh, deyarli esi past. Boy xonadon uni ishga oldi va zimmasiga eng iflos va eng ko'p kuch talab etadigan yumushlarni yukladi-u, qancha qiynalsa ham miq etmay, jimgina ishlar, nima bo'lsa ham ularga yoqishga urinardi. Oqsoqol, ya'ni qo'rg'onning kattasi, iste'fodagi harbiy fursatni qo'ldan bermay, qizning nomusini bulg'ab qo'ydi. Qizgina bolalarcha qaysarlik bilan qattiq qarshilik ko'rsatdi-yu, baribir taslim bo'lishdan o'zga chorasi qolmagandi. Bir oydan so'ng uning homilador ekani ma'lum bo'ldi va bundan barcha xabar topdi. Oqsoqolning xotini qildi qiyomat, qildi qiyomat... va boy xotin qizni zudlik bilan ishdan haydash payiga tushdi. Noiloj qolgan qiz zor-zor yig'lagancha lash-lushlarini naridan beri xaltaga joyladi-da, bu xonadondan bosh olib chiqib ketdi. Oqsoqolning xotini qarolxona ostonasida turib, quvonchini ichiga sig'dirolmay telbalarcha raqs tushar, hushtak chalib, itni qizga «ol-kish»lar, mis tog'orani suyak bilan urib, har xil ovozda:

– Qanjiq! Tilanchi! Qashshoq! Yalmog'iz! Jodugar! Odamxo'r! – deb qichqirar edi.

Dildorxon ALIYEVA tarjimasi.



Bu tushmidi yoki menga ro'yo bo'lib ko'rindimi?

Kuzning mungli to'lin oyi anchadan beri ko'kda suzib yurganday, kun davomidagi mayda tashvishlar va yolg'on-yashiqlardan orom oladigan vaqt kirganday tuyuldi menga. Menimcha, butun Parij, hatto eng chekkadagi g'arib kulbalar ham uyquga cho'mgan edi. Uzoq uxladim, uyqu meni juda sekin tark etdi. U xuddi o'z ishini qoyilmaqom bajargachgina ketadigan kuyinchak do'xtirga o'xshardi. Bunday tabib bemor sog'ayib, ko'ksini to'ldirib nafas olgachgina, ko'zlarini ochib, hayotga qaytish quvonchi bilan kulib qaragachgina xotirjam bo'ladi. Uyqudan uyg'onganimda sokin va oydin tun cho'kkan edi.

Beshinchi qavatdagi xonamda sassiz qadam tashlab, derazalardan birining yoniga keldim. G'ira-shira yorishib turgan keng xonaga ko'z tashladim, so'ng derazaning ustki oynasidan oyga tikildim. U meni o'z nurlariga cho'mdirdi, men esa uning yuziga uzoq termilib turdim. Yog'dular parda to'rlari orasidan o'tib, xonadagi qorong'ilikni biroz tarqatar edi. Bu tomondan oy ko'rinmasdi. Lekin to'rtala oyna ham, ularning yon-atrofidagi narsalar ham yorishib turardi. Yog'du oqish-moviy va oqish-kumushrang deraza raxlari yonidan o'tar, ularning qiyshiq va kulrang soyalari esa xiyol yorishib turgan kursi va o'rindiqlarga o'zini tashlagan edi. Eng chekka deraza yonidagi kursida men sevgan ayol o'tirardi. Ko'ylagi qizchalarnikiday oppoq, yuzi rangpar va chiroyli edi. U hozir ikkalamiz boshdan kechirgan va bizni, ko'pincha, g'azabga mindirib, murosasiz dushmanlarga aylantiradigan jamiki narsalardan toliqib o'tirardi.

Bu kecha uning ham uyqusi qochgan. Nega?

Ayolimga qarashdan qochdim, yoniga bordim-da, deraza tokchasiga o'rnavdim... Ha, vaqt allamahol bo'lgan, qarshimizdagi besh qavatli uyning butun devori zim-ziyo. Derazalari xuddi so'qir ko'zga o'xshaydi. Pastga qaradim, ko'chaning tor va chuqur yo'lagi ham qorong'i va kimsasiz. Butun shahar shunday. Xira nur sochayotgan oygina bir tomonga biroz qiyshayib, g'ildirab boryapti, ammo tutunday yoyilgan bulutlar orasida harakatsizday ko'rinadi. Shahar bo'ylab birgina u uyg'oq kezyapti. U to'ppa-to'g'ri menga tikilib

turibdi, biroz kemtilgan va shu sababdan g'amgin ko'rinadi. Bulutlar uning oldidan tutunday suzib o'tyapti. Oy yonida ular ancha yorug' edi, eriyotganga o'xshardi, nariroqqa borib ancha quyuqlashdi, tomlarning chetiga yetganda esa butkul qora kiyib, zulmat bag'riga singib ketdi...

Oydin tunni kuzatmaganimga ham ming yil bo'lgandi o'zi! O'ylarim yana olis, deyarli unutilgan kuz kechalariga yo'l oldi. Bunday kechalarni bolaligimda, o'rta Rossiyaning baland-past dashtlarida ko'rganman. Parijni xayolan tark etdim va butun Rossiya, yuksak osmon ostida yotgan ulkan kengliklar bir lahza ko'z oldimda namoyon bo'ldi. Ana – Baykalning tilloday tovlanib turgan sathi. Manavi bo'lsa, sharqqa tomon yorishib borayotgan zim-ziyo qarag'ay o'rmoni, bular esa, unda-bunda o'rmonlar, botqoqliklar, siyrak daraxtzorlar. Ulardan quyida janubga tomon bepoyon dalalar va tekisliklar cho'zilgan. O'rmonlar orasidan yuz chaqirimlab o'tgan temiryo'l relslari oy nurida kuchsiz yaltiraydi. Yo'l yoqasidagi uyqusiragan turfa rang chiroqlar ko'zlarini pipirratib, vatanimga tomon birin-ketin chopib borayotganday. Oldimda past-baland dalalar, ularning o'rtasida esa, zamindorning eski uyi. Nurab, tutday to'kilay deb turgani oy nurida aniq ko'rinadi... Nahotki bu bolaligimda xonamga mo'ralagan, o'smirligimda yo'ldosh bo'lgan o'sha oy bo'lsa. Hozir u omadsiz yoshligimni eslab men bilan dardlashib turibdi, yorug' tun bag'rida menga ovunch bo'lyapti...

– Nega uxlamayapsan? – ayolimning jur'atsiz tovushi eshitildi.

Qaysarligimiz sabab uzoq davom etgan sukunatni birinchi bo'lib u buzdi, bu esa ko'nglimda og'riqli bir qoniqish hissini uyg'otdi.

– Bilmadim... O'zing-chi?

Yana uzoq jim qoldik. Oy tomlarga yaqin kelib qolgan, xonamizga o'ychan tikilib turadi.

– Kechir, – dedim unga yaqinlashib.

U javob bermadi va ko'zlarini qo'llari bilan berkitdi.

Men uning qo'llarini ko'zlaridan oldim. Yonoqlariga yosh duma-lab tushdi, kipriklari yosh bolanikiday titranib turardi. Ayolimning qarshisiga tiz cho'kib, bag'riga yuzimni bosdim. Ikkovimiz ham sel bo'lib yig'ladik.

– Nahot sen aybdor bo'lsang? – shivirladi ayolim. – Axir ham-masiga men sababchi emasmanmi?

Ayolimning ko‘z yosh yuvgan yuzlariga shodon va mungli tabasum yoyildi.

Men esa ikkalamiz aybdor ekanimizni aytdim. Chunki ikkalamiz ham baxt qasamini buzdik. Ayni damda biz yana bir-birimizni o‘tli muhabbat bilan sevardik. Bunday hisni birga iztirob chekan, birga yanglishgan, shu bilan birga, haqiqatning kamdan kam uchraydigan lahzalarini ham birga qarshilaganlarga tuyishi mumkin.

Bizning baxtimizga xira tortgan, mungli oygina guvoh edi...

Orif TOLIB tarjimasi.



Taqirbosh, yuzi qip-qizil, meshqorin, uchar kvasfurush butun yarmarkani boshiga ko'tarib:

– Kep qol, mana kvas, burning achishmasa hisobmas! Kep qol, ko'pirib-toshgan kvasdan op qol! – deya baqirardi.

Issiq telpagini boshi orqasiga surib, qo'ltig'iga katta nonni qistirib olgan sariqmashak rus dehqoni burun kataklarini shishirgancha, har zamon-har zamonda nondan uzib og'ziga solar va uni chaynagancha olomon ichidan o'tib borardi.

– Kvas qanchadan? – so'radi u boshini baland ko'tarib.

– Burgutligidan cho'zsang, bir shisha, bo'lmasa, ikki tiyinga bir piyola.

– Yarim tiyinga-chi, quyasanmi?

– O'sha yarim tiyiningga chumchuqning tezagini ham olib bo'psan.

Erkak chaynalgancha o'ylanib qoldi. So'ng xo'rsindi-da, jiddiy ohangda dedi:

– He yo'q, ikki tiyinga qurbim yetmaydi. Bunaqa sarmoya hozircha menda topilmaydi.

Dildorxon ALIYEVA tarjimai.



O'sha yilning iyun oyida u uyimizda mehmon bo'ldi. U doim o'zimizning odam sanalardi: rahmatli otasi otamning ham do'sti, ham qo'shnisi edi. Ferdinand Saroy shahrida o'n beshinchi iyun kuni o'ldirildi. O'n oltinchi iyun ertalab esa pochtdan gazeta keldi. Otam qo'lida kechki Moskva gazetasi, xonasidan chiqib, bizlar – oyim va men hanuzgacha choy ichib o'tirgan yemakxonaga kirdi-da:

– Mana endi, do'stlarim, urush!– dedi.– Saroyda Avstriya shahzodasi o'ldirilibdi. Bu – urush degani!

Avliyo Pyotr kuni (otamning tavallud sanasi edi) biznikiga juda ko'p mehmon keldi, tushlik mahali mening unga unashtirilganim ma'lum qilindi. Biroq o'n to'qqizinchi iyulda Germaniya Rossiyaga urush ochdi...

Sentabrda u biznikiga faqat bir kunga – urushga jo'nash oldidan xo'shlashgani keldi (u paytlar hamma urush tezda tugaydi deb o'ylar va shuning uchun ham to'yimiz ko'klamga qoldirilgan edi). Mana, xayrlashuv oqshomi. Kechki ovqatdan so'ng, taomilga ko'ra samovar olib kirdi, shunda otam bug'dan terlagan deraza oynasiga tikilib, dedi:

– Ajab barvaqt va sovuq kuz!

Biz o'sha oqshom sokin o'ltirar, haddan tashqari bosiq, botiniy o'y va tuyg'ularimizni sir tutgancha, ahyon-ahyonda bir-birimizga shunchaki so'z qotib qo'yar edik. Otamning kuz haqidagi gapida ham yolg'ondakam loqaydlik bor edi. Men balkon eshigiga yaqinlashib, ro'molcham bilan oynani artdim: bog' uzra, qop-qora osmondan shaffof muz bo'laklariga o'xshash qirrador va ravshan yulduzlar charaqlardi. Otam gavdasini o'rindi suyanichig'iga tashlagancha, stol tepasidagi qizib ketgan osma chiroqqa parishon tikilib tamaki tutatardi, ko'zoynak taqqan oyim esa chiroq yog'dusida kamoli diqqat bilan ipak xaltacha tikardi, biz uning nima ekanini yaxshi bilardik, bu holat ham ta'sirchan, ham dahshatli edi. Otam undan so'radi:

– Shunday qilib, baribir nonushtaga qolmay, ertalab barvaqt ketmoqchiman degin.

– Ha, agar ruxsat etsangiz, ertalab, – deya javob berdi u. – Ming taassuf, lekin hali uydagilarimga biron-bir ko'rsatma ham bergan emasman.

Otam yengil so'lish oldi:

– Mayli, ixtiyoring, azizim. Gap shunaqa ekan, u holda oying bilan biz endi uxlaylik, ertaga seni, albatta, kuzatib qo‘ymoqchimiz...

Oyim o‘rmidan turib, bo‘lajak kuyovini cho‘qintirdi. U esa avval oyimning, keyin otamning qo‘lini o‘pdi. Ikkimiz xoli qolgach, biz tag‘in bir muddat yemakxonada bo‘ldik, men qarta suzishga tutindim. U esa xonaning u burchidan bu burchiga jim borib-kelardi, saldan keyin:

– Xohlaysanmi, biroz aylanib kelamiz?– deb so‘radi.

Ko‘nglim tobora xiralashib borardi, loqaydgina javob berdim:

– Mayli...

U dahlizda kiyina turib nima haqdadir o‘ylarkan, miyig‘ida jozibali kulgancha Fetning she‘rini esladi:

Sovuq erur bu kuz naqadar!

Nimchangni kiy, sholingni o‘ra...

– Nimcha yo‘q, – dedim.– Keyin nima edi?

– Yodimda yo‘q. Yanglishmasam, mana bunday shekilli:

Go‘yo yong‘in asta yuksalar

Qarag‘aylar oralab, qara...

– Qanaqa yong‘in?

– Oyning chiqishini aytmoqchidir-da. Bu misralarda qishloq kuzining allaqanday tarovati bor: «Nimchangni kiy, sholingni o‘ra...» Bobolarimiz va buvilarimiz zamoni... Eh, xudoyim-ey, xudoyim-ey!

– Senga nima bo‘ldi?

– Hech narsa, azizam. Baribir mungli. Ham mungli, ham yaxshi. Men juda-juda yaxshi ko‘raman seni...

Biz kiyinib, yemakxona orqali balkonga chiqdik, undan boqqa tushdik. Avvaliga shu qadar qorong‘i ediki, men beixtiyor uning yengidan ushlab oldim. Keyin javohirdek yarqiroq yulduzlarga ko‘milgan butoqlarning uchlari yorishayotgan ko‘kda qorayib ko‘rina boshladi. U to‘xtab, uy tomonga o‘girildi:

– Qara, derazalar qandaydir boshqacha, kuzga xos mayin yog‘du sochyapti. O‘lmasam, bu oqshomni hech qachon unutmayman...

Men uyga qaradim. U meni shveysarcha yopinchig‘im ustidan quchdi. Tivit ro‘molimni sal ochib, o‘psin deya boshimni sezilar-sezilmas orqaga tashladim. O‘pgach, u yuzimga tikildi.

– Ko‘zlaring qanday charaqlaydi-ya, – dedi. – Sovqotmayapsanmi? Havoni qara, qishning o‘zginasi. Mabodo o‘lib ketsam, har qalay, meni darrov unutib yubormassan?

Men o'ylab qoldim: «Rostdan ham o'ldirib qo'yishsa-ya?! Nahotki men uni qandaydir qisqa muddatga bo'lsa ham yodimdan chiqarsam, axir bu dunyoda hamma narsa bir kun kelib unutiladi-ku?» O'z o'yimdan o'zim cho'chib, shoshib javob berdim:

– Unday dema! Sen o'lsang, men ortiq yasholmayman! U biroz jim qolgach, dona-dona qilib dedi:

– Nachora, agar o'lsam, men seni u yoqda kutaman. Sen to'yib yasha, bu yorug' dunyoda xo'b o'ynab-kul, keyin yonimga borgin.

Men alam bilan ho'ngrab yubordim.

Ertalab u ketdi. Oyim kecha o'zi tikkan o'sha mash'um xaltachani uning bo'yniga osib qo'ydi, xaltachada oyimning ota-bobolari urushlarda taqib yurgan jajji oltin but bor edi, keyin biz uni allaqanday hayajonli noumidlik bilan cho'qintirdik. So'ng uning ortidan tikiilib, kimningnidir uzoq safarga kuzatayotganingda bo'ladigan gangish ichida, faqat biz bilan ilk quyosh nurlaridan o't-o'lanlar uzra yarqirab yotgan qirovni, farahbaxsh erta o'rtasidagina vujudga kelgan zidlikni his etgan ko'yi, eshik oldidagi zinada qotib turdik. Birozdan keyin huvillab qolgan uyga qaytib kirdik. Men yelkalarimni mahkam quchgancha, nima qilishga hayron, bor ovozi bilan ho'ngrashni ham, qo'shiq aytishni ham bilmay, xonalar bo'ylab tentiy boshladim...

«Uni o'ldirishdi» – qanday dahshatli so'z! Galitsiyada, bir oydan so'ng o'ldirishdi. Mana, o'shandan beri o'ttiz yil o'tdi. Uzun- dan uzoq tuyulgan bu yillar mobaynida boshimdan ko'p, juda ko'p voqealar kechdi: ular haqida diqqat bilan o'ylar ekansan, kechmish deb atalgan bu sirli, anglash mushkul, yurak ham aql ham bovar qilmaydigan hodisalarni xotirangda birma-bir saralaysan kishi. O'n sakkizinchi yilning ko'klamida, otamdan ham, onamden ham ajralgan damlar, men Moskvada, Smolensk bozoridagi «Bekam, endi qalaysiz, qatiq bersam yalaysiz!» deb doim ustimdan kuladigan chayqovchi xotinning yerto'lasida istiqomat qilardim. Men ham chayqov bilan shug'ullanar, u paytlardagi ko'plar qatori, goh qandaydir uzukmi, goh jajji xochmi, goh kuya yegan mo'ynami, qolgan-qutgan ba'zi narsalarimni papoq kiygan, shinellari yoqavayron soldatlarga pullar edim. Ana o'shanda, kunlardan bir kun bozorning Arbatga tutash burchagida, kamdan kam uchraydigan go'zal qalbli, iste'foga chiqqan harbiy kishi bilan tanishdim, tez orada turmush qurib, u bilan Yekaterinodarga jo'nab ketdim. Erimning ko'ngillilarga

qo'shilishga intilgan o'n yetti yoshlardagi jiyani ham biz bilan birga edi. Salkam ikki hafta yo'l yurdik: men – chipta kavushdagi qishloqi ayol, u – ohori to'kilgan kazakcha chakmonli, uzun soqoliga oq oralagan dehqon, xullas, Don va Kubanda ikki yildan ortiq yashadik. Qishda, dengizda bo'ron qo'zg'algan bir paytda boshqa son-sanoqsiz qochqinlarga qo'shib, Novorossiyskdan Turkiyaga qarab suzdik, yo'lda erim terlamadan o'ldi. Shundan keyin bu yorug' dunyoda mening uchovgina yaqin kishim qoldi: erimning jiyani, uning yoshgina xotini va ularning qizchasi – yetti oylik chaqaloq. Lekin, ko'p o'tmay, erimning jiyani go'dakni menga topshirib, xotini bilan Qrimga, Vrangel panohiga jo'nab qoldi. Shu-shu, ular bedarak ketishdi. Men esa og'ir qora mehnat bilan ham o'zimni, ham qizchani boqib, yana ancha vaqt Istanbulda yashadim. Keyin qizchani yetaklab, ko'plar qatori ne-ne yurtlarda sargardon bo'lmadim, deysiz! Bolgariya, Serbiya, Chexiya, Belgiya, Parij, Nitssa... Qizcha allaqachon ulg'ayib, juda yoqimtoy, ammo menga butunlay befarq qaraydigan fransuz qiziga aylanib, Parijda muqim yashab qoldi, u endi Madlen yaqinidagi qandolat do'konida xizmat qilar, kumushrang tirnoqli nozik qo'llari bilan shokolad qutilarini silliq qog'ozlarga o'rar va uni zarrin bog'ichlar bilan tugib, xaridorlarga tutqazar edi; men esa Xudo bergan nasibaga qanoat qilib, hanuz Nitssada yashayman... Nitssada birinchi marta ming to'qqiz yuz o'n ikkinchi yili bo'lgan edim, uning keyinchalik men uchun xor-zorliklar maskaniga aylanishini o'sha baxtiyor kunlarimda xayolimga keltira olarmidim!

Bir paytlar o'ylamay-netmay, sen o'lsang, ortiq yasholmayman, degan odam, uning o'limidan keyin ham yashayverdim. Biroq, o'shandan buyon boshimdan kechgan savdolarni eslar ekanman, doim o'z-o'zimdanda so'rayman: xo'sh, u kunlardan nima qoldi? So'ng o'zimga o'zim javob qilaman: birgina o'sha – sovuq kuz oqshomi... Nahotki hayotimda shunday oqshom bo'lgan? Ha, bo'lgan edi. Umr bo'yi ko'rgan kunim faqat shu, qolganlari ma'nisiz tushdek o'tdiketdi. Va men ishonaman, juda qattiq ishonaman: qaydadir u yoqda, huv o'sha oqshomdagidek navqiron muhabbati-yu o'sha yoshligi bilan u meni kutmoqda. «Sen to'yib yasha, bu yorug' dunyoda xo'b o'ynab-kul, keyin yonimga borgan...» Men to'yib yashadim, xo'p o'ynab-kuldim, endi tezda yoningga boraman.

Abdulla SHER tarjimasi.

Qosh qoraya boshlaganda Chern yo'lidan ketayotgan yosh savdogar Krasilshikov jalada qolib ketdi.

U movut chakmoni yoqasini ko'tarib, tomchilar duv-duv toma-yotgan kartuzini bostirib kiygan holda qo'nji uzun etiklarini arava-
chaning o'qiga qattiq tirab, to'siq orqasidagi o'rindiqa o'tirar, uvi-
shib qolgan ho'l barmoqlari bilan ivib ketgan tizginni siltab tortib,
yugurik otni yanada tez chopishga undar, suyuq balchiq sachratib
ketayotgan chap tomondagi gildirak yonida yirik qo'ng'ir ovchi it
tilini osiltirib, bir maromda g'izillab borardi.

Oldiniga Krasilshikov aravachani tosh yo'l bo'ylab cho'zilgan
qora tuproq, so'qmoqdan haydadi, so'qmoq ko'piklanib oqayot-
gan kulrang bo'tana bilan to'lgandan keyin katta yo'lga burilib,
mayda shag'alni g'ijirlatib keta boshladi. Yon-atrofdagi daraxtlar,
osmon ham yangi uzilgan bodring va fosfor hidi ufurib turgan quyuq
yomg'ir pardasi ostida ko'rinmay qolgan edi, ko'z o'ngida yorug'
shu'la qora bulutlarni teshib, ko'zni olgudek yaraqlab chaqnar va
bo'shliqqa tomir otgan yashin bosh ustidan qaldirab o'tib, bir lah-
zadan keyin xuddi qiyomat qoyimdan darak berayotgandek, dahshat
bilan gumburlab portlar edi. Ot dam-badam cho'chib tushsa-da, shi-
tob bilan chopib borar, it esa quloqlarini qisib, jon holatda sakrab-
sakrab yugurar edi.

Krasilshikov Moskvada o'sdi, shu yerda o'qib, universitetni bi-
tirdi, ammo yozda Tuladagi badavlat xonadonlarni eslatadigan chor-
bog'iga kelgach, mujiklar orasidan chiqqan pomeschik-savdogarga
o'xshab yurishni yoqtirib qoldi va tilla qutichaga solingan sigare-
ta chekadigan, yiltillatib moylangan etik, yon yoqa ko'ylak, burma
kamzul kiyadigan rus kishisi ekanidan nihoyatda g'ururlanadigan
bo'lib qoldi, hozir esa, jala va qaldiroqlar ichida, bosh kiyimi va
burnidan tomayotgan sovuq tomchilar g'ashini keltirayotganiga qa-
ramay, qishloq hayotiga xos qaynoq lazzat og'ushida sarmast edi.
Yoz bo'yi o'tgan yilgi saratonda mashhur artist jononga jazmanlik
qilib, iyul oyida uni Kislovodskka jo'natguncha Moskvada daydib
yurganini, bekorchilik, jazirama, kesilgan temir bochkalardan burq-
sib chiqayotgan ko'kimtir qoramoy tutuni va issiq qo'lansa hid-
ga to'la o'nqir-cho'nqir Moskva ko'chalarini, Kavkazga otlangan

Maliy teatr artistlari bilan Troitskiy nishabligida qilingan nonushtalarni, Tramble qahvaxonasidagi rohatijon o'tirishlarni, so'ng g'ilofi olinmagan mebellar, qandillar, naftalin hidli dokalarga o'ralgan su-ratlarga to'la xonasida intizorlikda o'tkazgan tunlarni tez-tez eslay boshlagandi.

Yozda Moskva oqshomlarining adog'i bo'lmaydi, o'n birlarga borganda qorong'i tushadi, kutib o'tiraverasan, o'tiraverasan, undan esa darak yo'q. Nihoyat, qo'ng'iroq, u ko'rkam yozgi libosda, nafasi tiqilib zo'rg'a gapiradi: «Meni kechir, jonim, kuni bilan boshim og'rib yotib qoldim, sovg'a qilgan choygulingniyam chaynab tashladim, shoshilganimdan olifta bir izvoshchini yollabman degin, o'lgudek ochman...»

Nihoyat, jala va momaqalldiroq na'rasi pasayib, atrof sal yorishgandan keyin, oldinda, tosh yo'lning chap tomonida yaqinda xotini o'lgan kekxa meshchan Proninning tanish karvonsaroyi ko'rindi. Shaharga hali yigirma chaqirimcha bor, nafas rostlamasak bo'lmaydi, – o'yladi Krasilshikov, – ot ko'pikka botib ketgan, tag'in nima bo'lishini kim bilsin, u tomonlar qop-qorayib yotibdi, chaqmoq chaqishini qarang-a... U yo'lni karvonsaroyga qarab soldi va yog'och darvoza qanotigacha otni yo'rttirib keldi. «Bobo! – qattiq qichqirdi u. – Mehmonni qabul qil!» Ammo tunukasi zanglagan yog'och uyning derazalari qop-qorong'i, sas-sado yo'q. Krasilshikov tizginni qoziqqa bog'lab, pillapoyadan soyabonli yo'lakka ko'tarildi, orqasidan loyga belangan, jiqqa ho'l iti sakrab chiqdi, uning ko'rinishi vahimali, ko'zlari chaqnab, ma'nosiz yaltirardi, ter bosgan peshanasidagi kartuzni ko'tarib qo'ydi, yomg'irda og'irlashgan chakmonini yechib, panjaraga tashladi va kumush to'qali kamar bog'langan yon yoqa ko'ylakda qolib, qora loy sachrab, ola-chipor bo'lib ketgan yuzini artirdi, so'ng qamchisi bilan pochasisga yopishgan loylarni urib-urib tushira boshladi.

Og'il eshigi ochiq bo'lsa-da, uy ichida hech kim yo'qqa o'xshardi. «Mollarga qarashyapti, shekilli, – o'yladi u va engashib, yon-atrofga tikildi, – jo'nab ketavergan ma'qulmikin?» Kechki havo og'ir va namchil edi. Yomg'irda egilib qolgan bug'doyzor tomondan behisob bedanalarning xushxon xonishi eshitilib turardi, jala tingan, ammo tun bostirib kelar, yer-u osmon xo'mraygan zulmat qo'ynida, tosh yo'ldan narida, pastak qoramtir o'rmon orqasida sovuq bulutlar yanada quyuqlashgan, dam-badam qizg'ish shu'la yoyilib, atrofga

yovuz tillarini cho'zardi. Krasilshikov dahlizga o'tdi, qorong'ida paypaslab mehmonxona eshigini topdi. Mehmonxona ham qop-qorong'i va kimsasiz edi, faqat qayerdadir osma soatning chiqillashi eshitalardi. U eshikni taraqlatib yopdi, oyog'ini sudrab borib, xonadagi boshqa eshikni ochdi: hech kim yo'q, faqat issiq qora shiftga yopishgan mudroq pashshalar norozi bo'lgandek guvillashdi.

– O'lib qolishganmi? – ovoz chiqardi u va shu zahoti qorong'ida so'ridan sirg'alib tushayotgan xo'jayinning qizi – Styopaning bolalarga xos biyron, yoqimli ovozini eshitdi.

– Sizmisiz, Vasil Likseich, men bir o'zimman, oqsochimiz dadam bilan urishib, uyiga ketib qoldi, dadam bo'lsa xizmatkorni olib, ish bilan shaharga ketuvdi, bugun qaytishi gumon... Momaqaldiroqdan o'lgudek qo'rqdim, bir mahal bu yoqqa kimdir kelganini eshitib, o'takam yorilayozdi... Salom, meni kechirasiz, marhamat qiling...

Krasilshikov gugurt chaqib, uning qora ko'zlari va qoramag'iz yuzini yoritdi:

– Salom, tentakkinam. Men ham shaharga ketyapman, mana, ko'rmaysanmi nimalar bo'layotganini, kutib turay deb kirdim... Sen bo'lsang, qaroqchilar bosdi deb o'ylapsan-da, a?

Gugurt yonib bitdi, ammo qizning xijolatomuz kulimsirayotgan yuzi, bo'ynidagi ko'zmunchoqlari, sarg'ish satin ko'ylak ostidagi kichkina ko'kraklari yaqqol ko'rinib turardi... Bo'yi Krasilshikovdan ikki baravar kichik, xuddi yosh qizaloqqa o'xshaydi.

– Hozir chiroqni yoqaman, – dedi qiz shosha-pisha va Krasilshikovning o'tkir nigohidan battar xijolat bo'lib, stol ustidagi chiroqqa qo'l cho'zdi. – Sizni xudo yetkazdi, yolg'iz o'zim vahima qilib yotgandim, – u mayin tovushda gapirar ekan, oyoq uchida turib, ehtiyotkorlik bilan chiroqning kampiragini burab, shishasini chiqardi.

Krasilshikov uning egilib turgan qomatiga tikilgancha, boshqa gugurt cho'pini yondirdi.

– To'xta, keragi yo'q, – birdan u gugurti yerga tashlab, qizning belidan quchoqladi. – To'xtab tur, qani, menga bir qaragin-chi.

Qiz xavotirlanib, yelkasi osha qaradi, qo'llarini pastga tushirib, unga o'girildi. Yigit uni bag'riga tortdi, qiz qarshilik ko'rsatmadi, faqat hayrat va qo'rquv ichida boshini orqaga tashladi. U g'ira-shirada qizning ko'zlariga yuqoridan nazar solar ekan, kulib qo'ydi:

– Yana qo'rquyapsanmi?

— Vasil Likseich... — qiz yalinchoq ohangda zo'rg'a gapirdi va yigitning quchog'idan sekin sirg'alib chiqishga urindi.

— To'xta. Nahotki meni yoqtirmasang. Har ko'rganingda sevinib ketishingni bilaman-ku...

— Sizdan yaxshi odam dunyoda yo'q, — deb pichirladi qiz haroratli tovushda.

— Ana, ko'rdingmi?..

Qizning lablaridan uzoq o'pdi, so'ng qo'llari pastga sirg'aldi.

— Vasil Likseich... Xudo xaqqi, qo'ying... Otingiz darvoza oldida qolib ketdi-ku. Esingizdan chiqarib qo'ydingizmi?.. Otam kelib qoladi... Qo'ying, kerak emas!

Yarim soatdan keyin u uydan chiqdi, otni hovliga kirgizib, bostirmaga bog'ladi, yuganini chiqardi, hovli o'rtasidagi aravadan yangi o'rigan o't keltirib soldi va charaqlab ochilib ketgan osmondagi sokin yulduzlarga tikila-tikila ichkariga kirdi. Issiq qorong'ulik og'ushidagi jimjit xonaga hamon olisdan zaif shu'lalar tushib turardi. Qiz so'ri ustida boshini ko'ksiga solintirib, g'ujanak bo'lib yotar, boyagi ishning g'alatiligidan ham qo'rqib, ham rohat qilib, beixtiyor issiq ko'z yoshi to'kardi. U qizning sho'rtang ko'z yoshlardan ho'l bo'lgan yuzidan o'pdi, o'ng qo'lida papiros ushlagancha chalqancha yotib, uning boshini yelkasiga qo'ydi. Qiz indamay tinch yotardi; u chekib, chap qo'li bilan yuziga tegib turgan parishon sochlarni erkala siladi...

Qiz tezda uxlab qoldi. U qorong'ilikka tikilib yotar ekan, mamnun kulimsirab qo'ydi: «Dadam shaharga ketdi...» Ketish bunaqa bo'ladi! Yaramas chol darrov bilib oladi. Qotmadan kelgan, jahli tez, qalin qoshi bo'lsa qop-qora, ko'zlari nihoyatda o'tkir, o'lgudek ichganda ham aqlini yo'qotmaydi deyishadi...

U uy ichi yorishib, shift bilan pol o'rtasidagi bo'shliq bemaalol ko'rinadigan bo'lguncha uxlamay yotdi. Boshini burib, oynaga qarab, ufq yashil tusga kirayotganini ko'rди, g'ira-shirada stol burchagiga qo'yilgan Iso Masihning bir qo'lini ko'tarib, odamlarga o'tkir nigoh tashlab turgan ulkan suratiga ko'zi tushdi. U qizga qaradi: yonboshlagan ko'yi oyoqlarini yig'ib, sokin uxlab yotibdi. Bechora qizaloq naqadar dilga yaqin...

Osmon batamom yorishib, devor orqasidagi xo'roz bir-ikki qichqirgandan keyin, u turishga shaylandi. Ko'kragi ochiq, sochlari

yoyilib ketgan qiz ham sakrab turib, yarim yonboshlab o'tirdi va hech narsani anglamay unga tikilib qoldi.

– Styopa, – dedi u ehtiyotkorlik bilan. – Vaqt bo'ldi.

– Ketib qolasizmi? – shivirladi u garangsib.

So'ng birdan hushi joyiga keldi, qo'llarini ustma-ust qo'yib, ko'kragiga ura boshladi:

– Qayoqqa ketasiz? Endi sizsiz qanday yashayman? Men nima qilaman endi?

– Styopa, men tezda qaytib kelaman...

– Dadam uyda bo'ladi-ku, sizni qanday qilib ko'raman?! Yo'ldan nariga o'tib, jon deb o'rmonda poylab turardim-u, meni uydan tashqariga kim chiqaradi deysiz?

Yigit tishlarini g'ijirlatib, uni chalqanchasiga ag'dardi. Qiz qo'llarini keng yoyib, oxirgi nafasini chiqarayotgandek shirin entikib, «Oh» deya nido qildi.

Birozdan keyin u ko'ylagini, kartuzini kiygan, qo'lida qamchi, chiqib kelayotgan quyoshga orqa o'giran holda so'ri oldida turar, qiz esa so'rida tiz cho'kkan ko'yi bolalarcha ho'ngrab yig'lar, labini xunuk qiyshaytirib, tez-tez gapirar edi:

– Vasil Likseich... Xudo haqqi... aziz-avliyolar haqi, meni xotin qilib oling! O'lguncha cho'ringiz bo'laman! Ostonangizni yalab yotaman! Oling meni! Jon deb izingizdan ketar edim, meni kim qo'yib yuboradi deysiz?! Vasil Likseich...

– Bas qil! – dedi Krasilshikov keskin. – Tez kunda kelib otangga uchrashaman. Senga uylanaman deyman. Eshitdingmi?

U cho'kkalab o'tirdi, darrov yig'idan to'xtadi, namlangan ko'zlari yaraqlab ochildi:

– Aldamaysizmi?

– Chin so'zim.

– Poklanish bayramida o'n oltiga to'laman, – dedi u shosha-pisha.

– Ana, demak, yarim yildan keyin nikohdan o'tishimiz mumkin ekan...

Uyga kelishi bilan u narsalarini yig'ishtirishga tushdi, kechqurun uch otli aravada temir yo'lga jo'nadi. Ikki kundan keyin u Kislovodskda edi.

Ortiqboy ABDULLAYEV tarjimasi.

Kuzning sovuq, yog'in-sochinli pallasida yomg'irdan shiltasi chiqib, egri-bugri, qoramtir g'ildirak izlaridan toptalib yotgan Tularning keng yo'llaridan birida tebranib borayotgan to'rt g'ildirakli soyabon arava uzun yog'och uy qarshisiga kelib to'xtadi: uyning bir tarafida podsholik tasarrufidagi pochta bekati, narigi tomonida esa yo'lovchilar hordiq chiqarib tunab qolishi yoki samovar qaynattirib, tamaddi qilib olishi mumkin bo'lgan xususiy musofirxona joylashgan. Loyga botgan aravaning soyaboni tepaga yarim ko'tarilgan, izvoshga qo'shilgan uchta jaydari otning dumi balchiq sachramasligi uchun tugib qo'yilgan edi.

Izvoshchining joyida, o'rindiqlarda belini mahkam sirib olgan, qoramag'iz yuzi tund va jiddiy chorpahil mujik o'tiribdi. Kamdan kam kishilarda uchraydigan qop-qora, quyuq soqoli uni qadimgi qaroqchilarga o'xshatib turardi. Soyabon ostida katta shalkali, nikolaycha qunduz yoqali kulrang shinel kiygan basavlat harbiy qariya o'tirar, uning qoshlari hali tim qora bo'lsa ham, mo'yloviga tutashgan chakka soqoli oppoq oqarib ketgan edi; iya-gi va bag'baqasi tozalab qirilgan, umuman, u tashqi ko'rinishdan Aleksandr II ga shunday o'xshab ketardiki, bu o'xshashlik Aleksandr II davrida yashagan harbiy kishilarning deyarli barchasida uchrardi; uning qarashlari ham qat'iy, savolomuz, shu bilan birga, birmuncha horg'in edi.

Otlar to'xtagan zahoti u tik, tekis qo'njli harbiycha etikdagi oyoqlarini aravadan pastga osiltirdi-da, bug'u terisidan tikilgan qo'lqopli qo'llari bilan shinelining etaklarini tutgan ko'yi yog'och uy yonidagi maydonchaga sakrab tushdi.

– Chapga yuring, zoti oliylari, – deya izvoshchi o'rindiqdan turmay dag'al tovush bilan qichqirdi; harbiy kishi ostonadan hatlarkan, baland gavdasini sal engashtirgancha, avval dahlizga, keyin mehmonxonaga kirdi.

Mehmonxona ozoda, saranjom va issiqqina edi. Chap tomondan devorga zar halli avliyo suvrati osilgan, uning ostida top-toza, dag'alroq matodan tikilgan dasturxon yozig'liq stol, stol tegrasida yaltiratib yuvib qo'yilgan taxta xarraklar. Xonaning o'ng burchagida yaqinda bo'r bilan oqlangan oshxona pechkasi; yon tomonda

ola-bula ot yopqichi yopilgan kat – suyanchiqsiz divanga o'xshash bir narsa pechkaning biqiniga taqashtirib joylashtirilgan; pechka tarafdin hil-hil pishib yotgan qo'y go'shti, karam va dafna bargining qorishiq, lazzatbaxsh hidi taraladi.

Mehmon shinelini yechib taxta o'rindiqqa qo'ydi, mundiri, po'rim harbiy etiklari yaqqol ko'zga tashlanib, gavdasi yanada basavlat tus oldi, keyin qo'lqop va bosh kiyimini yechdi-da, ozg'in, rangpar qo'llari bilan sochini ketma-ket horg'in taradi, oppoq, quyuk sochlari ikkala chakkasi uzra patila-patila bo'lib tushdi, bilinar-bilinmas chechak asorati qolgan cho'zinchoq, chiroyli yuzida, qora ko'zlarida favqulodda bir jonlanish paydo bo'ldi. Mehmonxonada hech kim ko'rinmasdi, u dahliz eshigini ocharkan, ovozini baralla qo'yib qichqirdi;

– Hoy, odam bormi bu yerda?

Shu zahotiyoq mehmonxonaga qora sochli, qora qoshli, yoshi o'tinqirab qolganiga qaramay, hali-hamon dilo'var, kekxa lo'li xotinlarga o'xshagan bir ayol kirib keldi. Uning yonoq chakkalari, dudog'ining ustki qismi nafis tuklar – irnlar bilan bezangan edi. Qomati to'la bo'lsa ham, qushdek yengil va nozik odimlar, bo'liq ko'kraklari qizil koftasini turtib turar, qora jun yubkasi ostidagi qorni esa xuddi g'ozning qorniday, uchburchak bir tarzda ko'rinar edi.

– Xush kelibsiz, zoti oliylari, – dedi u. – Tamaddi qilmoqchimisiz yoki samovar qo'yishni buyuradilarmi?

Musofir kishi ayolning dum-dumaloq yelkasiga, to'zg'ibroq qolgan qizg'ish tatarcha boshmoqli xushbichim oyoqlariga birrov ko'z yugurtirdi va e'tiborsizlik bilan qisqa-qisqa qilib dedi:

– Choy ichmoqchiman. Bu yerning bekasimisan, xizmatkormisan?

– Bekaman, zoti oliylari.

– Demak, mehmonxonani yolg'iz o'zing boshqarasan?

– Xuddi shunday, zoti oliylari, o'zim.

– Bu qanaqasi bo'ldi, a? Hamma ishni qo'lingga olvolibsan, yotulmisan deyman?

– Er qilmadim, zoti oliylari, ammo, sababi tirikchilik, qolaversa, o'zim ham xo'jalik ishlari bilan shug'ullanishni yaxshi ko'raman.

– Ha-ha, shunday degin. Ko'p yaxshi. Uyni pokiza tutarkansan, bu ishing menga ma'qul.

ayol sinovchan nigohini harbiy kishidan bir nafas bo'lsin uzmas, andak qisilgan, xayolchan ko'zlari unga qadalgan edi.

– Pokizalikni ham jonimdan ortiq ko'raman, – deya javob berdi u. – Axir, aslzodalar xonadonida o'sdim, tarbiya topdim, shunday bo'lgach, ro'zg'or tutishim ham shunga yarasha bo'ladi-da, Nikolay Alekseyevich.

Musofir ilkis qaddini rostladi, ko'zlari katta-katta ochilib, yuzlari qizarib ketdi.

– Nadejda! Senmisan?– dedi u shosha-pisha.

– Menman, Nikolay Alekseyevich, – deya javob berdi ayol.

– Yo rabbiy, yo rabbiy, buni qara-ya! – dedi musofir taxta o'rindiqqa o'tirarkan, ko'zlarini hamon ayoldan uzmay. – Kim ham shunday bo'lishini o'ylabdi deysan? Ko'rishmaganimizga necha yil bo'ldi ekan-a? O'ttiz besh yilmi?

– O'ttiz yil, Nikolay Alekseyevich. Men qirq sakkizga kirdim, siz ham oltmishga borib qolgandirsiz?

– Shunga yaqinroq... Yo tavba, juda qiziq bo'ldi, a?

– Nimasini qiziq, taqsir?

– Hammasi, hammasi-da... Nahotki tushunmayotgan bo'lsang!

Musofirning horg'inligi va parishonligidan asar ham qolmagan, endi u yerga tikilganча mehmonxona bo'ylab keskin odimlar edi. Bir payt u shartta to'xtadi, yuzlari lov-lov yonib, so'z boshladi:

– O'shandan keyin sen to'g'ringda hech narsa eshitmadim. Qanday qilib bu yerlarga kelib qolding? Nega aslzodalar xonadonidan ketding?

– Siz ketganingizdan keyin ular menga ham javob berib yuborishdi.

– Keyin qayerlarda yashading?

– Siz so'ramang, men aytmay qo'ya qolay, taqsir.

– Erga ham chiqmadim dedingmi boya?

– Ha, taqsir.

– Nima uchun? Shunchalik husn-u latofating bo'laturib-a?

– Jur'at qilolmadim, taqsir.

– Nega jur'at qilolmadim deysan? Nima deganing bu?

– Nimasini ham aytay endi. Balki yodingizdadir, axir sizni qanchalar yaxshi ko'rardim...

Musofir bu so'zlardan behad mutaassir bo'ldi, azbaroyi qizarib ketganidan ko'zlariga yosh qalqdi, so'ngra qovoq uyib, yana xona bo'ylab nari-beri odimlay boshladi.

– Hamma narsa o'tkinchidir, azizim, – deya g'udrandi u. – Muhabbat, yoshlik – hamma-hammasi foniyydir. Nima bo'lgan bo'lsa, o'tdi-ketdi. Hammasi dahmaza-yu bemazagarchilikdan iborat. Vaqti kelib bari unutiladi. Muqaddas kitoblarda bu xususda nima deyilgan, bilasanmi? «Oqib ketgan suvlar yanglig' xotirlagaysan».

– Nima bo'lsayam, peshonada bori bo'larkan, Nikolay Alekseyevich. Yoshlik-ku, hech kimsaga vafo qilmaydi, ammo muhabbat boshqa narsa.

Nikolay Alekseyevich boshini xiyol ko'tarib, yurishdan to'xtatib, hasratli kulimsirab qo'ydi:

– Sen meni bir umr sevolmasding-ku, axir!

– Yo'q, sevishim mumkin edi; o'shandan buyon qancha yillar o'tdi, ammo men yolg'iz muhabbatim bilan yashadim. Sizning avvalgiday emasligingizni, oramizda neki o'tgan bo'lsa, barini unutmog'ingiz mumkinligini, bu bilan hech narsa yo'qotmasligingizni ham bilardim... Lekin, hozir... Endi gina-kudurat qilib o'tirishdan hech qanday naf yo'q, albatta; ammo, to'g'risini aytganda, o'shanda siz meni juda shafqatsizlarcha tashlab ketgan edingiz, mana shuning uchun ham o'zimni o'zim bir necha bor o'ldirmoqchi bo'lganman. Sizni deb chekkan azoblarimni aytib ado qilib bo'lmaydi. Nikolay Alekseyevich, yodingizdami, qanday davrlar ediki, o'shanda sizni Nikolenka deb chaqirardim, siz esa meni, eslaysizmi nima deb atardingiz? Aytganday, mendan lutfingizni darig' tutmay, qandaydir «xilvat xiyobonlar» to'g'risidagi she'rlarni o'qisam ham indamas edingiz, – deya noxush jilmaygancha qo'shib qo'ydi ayol.

– Eh-he, sen haqiqatan ham ajoyib eding! – dedi mehmon armon bilan bosh chayqarkan. – Qanday jozibador, qanday dilbar eding-a! Ko'zlaring yonib turardi, juda xushqomat eding. Esingdami, seni ko'rganda hamma ortingdan nihoyasiz hayrat bilan termilib qolardi?

– Esimda, taqsir. Ammo siz ham o'shanda g'oyat ajoyib edingiz-da. Ana shuning uchun ham men bor husn-u latofatimni, butun yoshlik jozibamni sizga fido qilgan edim. Axir, bularni unutib bo'larkanmi!

– Ha-ha! Hammasi o'tarkan. Hammasi unutilarkan.

— To'g'ri, hamma narsa o'tadi-yu, ammo hamma narsa ham unutilavermas ekan-da.

— Bas, bas, meni xoli qo'y, — dedi mehmon to'satdan va qayrilib deraza yoniga bordi. — Iltimos, chiqib ket bu yerdan, — deya yolvordi u, so'ng dastro'molini olib, ohista ko'zlariga bosdi-da, bidirlagancha:— Ishqilib, meni Xudo kechirsin, — dedi. — Sen-ku, kechirgan ko'rinasan-a...

Ayol eshik oldiga yetganda taqqa to'xtadi:

— Yo'q, Nikolay Alekseyevich, men sizni kechirmaganman. Modomiki, gap hissiyotlarimiz haqida borarkan, to'g'risini aytmay ilojim yo'q, gunohingizdan o'tishni harchand istasam-da, hargiz kechirolmadim. O'sha paytlarda siz men uchun yorug' dunyodagi eng aziz kishi edingiz, keyin ham shunday bo'lib qoldingiz. Shu vajdan ham sizni kechirolmadim. Keling, yaxshisi, shularni eslab o'tirmaylik, go'rga kirgan qaytib chiqarmidi hech jahonda!

— Ha-ha, to'g'ri, o'tgan ishga salavot; buyur, otni qo'shishsin, — dedi musofir deraza oldidan nari jilarkan, birmuncha jiddiy, sovuqqon ohangda.

— Ammo, men senga aytsam, hayotda sira omadim yurishmadi. Baxtiyor bo'lolmadim, tag'in boshqacha o'ylab yurma, iltimos. Balki mening gaplarim sendagi xudkashlik, izzattalablik hissiyotiga ziddir; balki ular seni tahqir etar, biroq men, ochig'ini aytaman, xotinimni ko'r-ko'rona, telbalardek sevar edim. U esa, avval xiyonat qildi, so'ng men seni tashlab ketgandagidan ko'ra ham battar tahqirlab, tashlab ketdi. O'g'linga qattiq mehr qo'ygan edim, voyaga yetgunicha unga ne-ne umidlari ne-ne orzularimni bog'lagan edim-a! U esa odam emas, isrofgar, surbet, imonsiz, vijdotsiz, yaramas bir hayvon bo'lib chiqdi... Sirasini aytganda, bularning hammasi turmushdagi o'sha dahmaza-yu bemazagarchilikning bir ko'rinishi xolos. Xo'p, mayli, omon bo'l, azizam. O'ylab qaragam, sendan ayrilib, men ham hayotdagi eng bebaho gavharimdan judo bo'lgan ekanman.

Ayol unga yaqin keldi, egilib qo'lini o'pdi, Nikolay Alekseyevich ham uning qo'llaridan o'pdi.

— Buyur, otlarni qo'shaverishsin... — dedi u. ...Soyabon arava xususiy musofirxonadan olislab borarkan, Nikolay Alekseyevich xomush o'ylar edi: «Ha, judayam chiroyli edi, go'zal edi, sohira edi!» U xayrlashayotib aytgan so'nggi so'zlarini esga oldi va Nadejdaning

faqat qo'llaridan o'pganini eslab uyaldi, ammo shu zahotiyoq uyat-chanligidan xijolat chekdi. «U menga umrining eng go'zal davrini, oltin daqiqalarini baxsh etgani rost emasmi, axir?!»

So'nik quyosh endigina ufqqa bosh qo'ygan edi. Izvoshchi ham al-lanarsalarni o'ylagan ko'yi otlarni yo'rttirib borar, arava katta yo'ldagi son-sanoqsiz, qop-qora g'ildirak izlari bo'ylab shaloplalgancha tebrana-tebrana yelar edi. Nihoyat, izvoshchi qo'pol, to'pori tovushda so'z qotdi:

– Anavi xotin, zoti oliylari, jo'nashimiz bilanoq deraza oldi-ga kelib orqamizdan termilib qoldi. Avvaldan tanishligingiz bo'lsa kerak-da, zoti oliylari?

– Ha, Klim, tanish edik.

– Aqli raso xotin u. Juda boyib-bitib ketayotganmish, hamma-ning og'zida shu gap. Qarzga pul ham berib turadi.

– Shuyam martaba bo'pti-yu!

– Bo'lmasam-chi! To'kin-sochin yashash kimgayam yoqmay-di! Ammo, rostini aytganda, o'zi juda yaxshi xotin-da. Birovga zig'ircha yomonlik qilganini hali hech kim eshitmagan. Jaraq-jaraq pulni qarzga beradi-yu, ba'zi boyvuchchalarday tirriqlik qilmaydi. Lekin, o'z ishiga pishiq – qattiq xotin! Landavurlik qilib qarzni vaq-tida to'lamasang, o'zingdan o'pkala, ayab o'tirmaydi.

– Ha-ha, o'zingdan o'pkala... Tezroq hayda, muncha imillama-sang, poyezddan kechikib qolmaylik tag'in...

Ufqqa cho'kib borayotgan quyoshning kahrabo yog'dulari kim-sasiz dalalarda tanhogina jilvalanar, otlar o'tloq yo'ldan xuddi su-zib ketayotgandek bir maromda chopib borardi. Nikolay Alekse-yevich otlarning yalt-yult ko'zga chalinayotgan taqalariga termilib o'tirarkan, qora qoshlarini chimirgancha o'ylardi:

«Ha, o'zingdan o'pkala. Ajoyib damlar edi-da, o'shanda! Nainki ajoyib, chinakam afsungar damlar edi! «Atrofda na'matak gul ochmish alvon, xilvat xiyobonlar shivirlar tanho...» Yo rab, yo rab, keyin nima bo'lgan edi o'zi? Agar Nadejdani tashlab ketmaganimda nima bo'lardi? Qanday bema'nilik, qanday bemazagarchilig-a! Axir, mana shu Nadejda xarob bir musofirxona sohibasi bo'lmay, mening xotinim bo'lishi, Peterburgdagi xonadonimga beka, bolalarimga ona bo'lishi ham mumkin edi-ku?!»

U ko'zlarini behol yumib, boshini ohista chayqab qo'ydi.

Tohir QAHHOR tarjimai.

Beshinchi kuni esgan izg'irin ko'zni ochirmay qo'ydi. Ko'zni qamashtirguvchi oppoq qor va g'ira-shira ilg'anayotgan, sovuq zab-tiga olgan xutor kulbalaridan birida qayg'u hukmron edi: bu uyda murg'ak bir bola og'rib yotardi. Kichkina bemor isitmasi ko'tarilib, alahsiraganida g'ingshib, allaqanday qizil chipta kovush berishlarini yolvorib so'rardi. Mushtipar ona kun-u tun jajji o'g'lining to'shagi oldidan jilmas, qo'rquv va nochorlikdan alamini ichga sig'dirolmay achchiq-achchiq ko'z yosh to'kardi. Nima qilsa bo'ladi, qanday yor-dam berish mumkin? Er xizmat safarida bo'lsa, otlar yuvoshmas, eplash qiyin, kasalxonagacha esa o'ttiz chaqirim yo'l bosish kerak. Do'xtirga xabar yetkazilgan taqdirda ham, bunday sovuq avjiga chiqqan kunda uning kelishi dargumon...

Dahlizda taqillagan ovoz eshitildi. Nefed keltirgan bir uyum poxolni polga tashlab, hansiragan ko'yi kaftlarini uhlab, bir-biriga ishqab isitarkan, so'ng xona eshigini qiya ochib, bekaga yuzlandi:

– Xo'sh, bekam, ahvoli qanday? Xiyol yengillashib qoldimi?

– Qayoqda deysan, Nefed! Allaqayoqdagi narsalarni so'raydimi-yey. Qizil chipta kavushni so'rayapti...

– Qizil chipta kavush, Bu nima bo'ldiykan?

– Xudo biladi. Alahsirayapti. Isitmasi tushmayapti. Otashi jahon bo'lib yetibdi, bolam bechora.

Nefed telpak bostirilgan boshini irg'ab, o'yga botdi. Telpak, so-qol, eski pochapo'stin, qiyshaygan piymalar... qor ostida qolgan, muz qotgan... Tuyqus o'jarligi tutdi yigitning:

– Tayoqchani so'rayaptimi, ko'ngli shu narsani xohlayaptimi, demak, topish kerak, topish.

– Qayerda ekan bu zormonda?

– Novosyolkaga borish kerak. Rastada bordir. Qizili topilmasa ham fuksin bilan bo'yaymiz.

– Xudo xayringni bersin, Novosyolkagacha olti chaqirimlik yo'l-ku? Bu izg'irinda yurib bo'ladimi?

Nefed yana o'yga toldi, ammo zum o'tmay tilga kirdi.

– Hechqisi yo'q, boraman. Chiqmagan jondan umid, yayov borsam ham zarar qilmaydi. Shamolga ters turib boraman.

Nefed eshikni qiya ochiq qoldirgancha chiqib ketdi. Oshxonada bir soʻz ham qotmay, chakmonini kiydi-da, ustidan kalta poʻstinni egniga ilib, belini ohori ketgan belbogʻ bilan gir aylantirib mahkam siqdi. Soʻng qoʻliga qamchini olib eshikka chiqdi. Qor uyumlarini gʻarch-qurch bosgancha hovli osha darvozaga yetdi va misoli quturayotgan choʻl dengiziga roʻbaroʻ boʻldi.

Tush oʻtib, atrofga qorongʻi tusha boshlagach, mushtipar ayolning koʻngliga xavotir oraladi. Nefed shu mahalgacha qaytmagandi. «Yetib olgan boʻlsa, tunash uchun qoʻnoqqa qolgandir», – deya oʻzini ovutdi. Necha kunlarga choʻziladigan bunday sovuq havoda uyga qaytishga ham erinasan kishi. Ertaga tushlikkacha kutish kerak. Xizmatkorning uyda yoʻqligi ayolning koʻngliga battar vahm solar, tun tobora qoʻrqinchli tuyulardi. Butun uyni mana shu xavf-xavotir chulgʻab olgandi: zim-zimistonda, koʻzni ochirmaydigan boʻronli qorda shoʻrlik ne ahvolda qoldi ekan?

Moychiroq olovi lovullab yonar, titrab-koʻtarilib yolqin taratardi. Mushtipar ona uni olib polga, karavotdan sal nariga qoʻydi. Bolakay qilt etmay yotar, shuʼlada uning soyasi devor boʻylab koʻtarilib, haybatli tus olar, olov har titraganda soya ham shunga monand nari borib, beri kelardi. Bemor hush-behush koʻngil istagi tinchlik bermayotgan narsani talab qilishdan toʻxtamasdi. Baʼzan achchiq koʻz yoshlarini oqizib, yolvorishga ham tushardi:

– Oyijon, bera qoling! Jon oyijon, chipta kavushimni bering!

Bu dam onaizor tizzalarini yerga tashlab, koʻksini mushtlay ketardi:

– Ey Xudo, yordam ber! Oʻzing qutqar!

Nihoyat, tun arib, tong oqargach, deraza ortida gʻala-gʻovur eshitildi. Beka bu izgʻirin tovushi emasligiga, odamlar ovozi kelayotganiga amin boʻldi. Keyin kimdir derazani betoqatlarcha tiqillatdi.

Bekaning hovlisiga shoshib kirib kelganlar novoselsklik erkaklar edi. Ular Nefedning butkul muz qotib tarashaday qotgan, oppoq, jonsiz jasadini koʻtarib kelishgandi. Ular shahardan qaytishayotganda adashib qolib, tuni bilan izgʻishgan, tongda nogoh keng yalanglilikka chiqib qolishibdi. Sal narida dahshatli qorga botib, tarrakday qotgan otga yoʻliqishibdi. Bu ayanchli manzaradan ichlariga qoʻrquv tushib, «endi barchamiz shu yerda oʻlib

ketamiz», deb umidlari so‘nganida, uchi ko‘rinib turgan piymani ko‘rib qolishibdi. Qorni titib, piyma kiygan odamni qor uyumi-dan tortib chiqarishsa, u juda tanish odam chiqibdi, ammo baxtga qarshi tanada jondan asar qolmagan ekan. Xutorga qarashli ekani-ga ishonch hosil qilgan novoselsklik yo‘lovchilar najot topilgani-dan mamnun bo‘lishibdi-yu, ammo boshqa tarafdin ko‘ngillarini qayg‘u qamrab olibdi. Ular jasadni dast ko‘tarib, bekaning kulba-si tomon yurishibdi.

Darvoqe, Nefedning qo‘ynida yangi chipta kavushi va fuksin bo‘yog‘i solingan shisha ham bor ekan.

Umid ALI tarjimasi.

SHAQIRLAGAN QOVURG‘A

– Assalomu alaykum, muhtaram to‘ram. Ahvollar qalay deysizmi? Tuproqdan tashqarida yurganimga ham shukur. Pul-ning dardida bozorma-bozor, yarmarkama-yarmarka yelib-yugurib yuribman... Axir yosh ham qirqqa bordi, tilimni it-day osiltirib, chopib yurganimga ishonmang. Birdan bir oma-dim boshpanamning borligi, garchi u kulba bo‘lsa ham ba‘zan och-nahor qolib qaytganingda, har holda, o‘z uying o‘lan to‘shaging bor, hozir bag‘rimni ezgudek huvillab yotgan bo‘lsa-da, xudo ko‘rsatmasin bunday kunni. Qishloqdagi tirikchilik o‘zingizga ma‘lum; issiq, chak etgan yomg‘irning o‘zi yo‘q, kunduz kunlarning-ku, sira keti ko‘rinmaydi... Uying esa yutaman deydi: xotinni ko‘mdim, farzandlarimni ko‘mdim, bax-timga hozircha onam tirik. Biroq, oxirgi paytlar u ham meni xa-votirga solyapti: uyda oyog‘ini zo‘rg‘a sudrab bosadi, ko‘z ham, quloq ham arang ishlayapti, biroq shunga ham ishonch yo‘q, idrok, diqqat-e‘tibor ham haligiday, o‘zi ozib-to‘zib, bir siqim bo‘lib qolgan, jag‘ini bog‘lab qo‘ysang, tayyor o‘lik. Qanaqa ayol edi-ya! Bitta monastirning bekasi bo‘lishga arzigulik sav-lat ham, qaddi-qomat ham bor edi. Endi kuni bitib, shaqirlagan qovurg‘a qolgan, xolos.

Dildorxon ALIYEVA tarjimasi.

Men bu ayolni bir kuni ertalab mehmonxona hovlisida ko'rib qoldim. Mehmonxona ko'hna gollandcha imorat bo'lib, okean sohilidagi yam-yashil kokoszor bag'rida joylashgan edi. O'sha kunlari o'zim ham shu joyda dam olayotgan edim. Keyin har kuni uni shu yerda ko'radigan bo'ldim. U ayvondan ikki qadam narida bo'lgan uyning yengilgina, issiq soyasi tushib turgan joyda qamish kresloda yarim yotgan holda yastanib olardi. Baland bo'yli, mallatob, qiyiq ko'zli, kanopdan tikilgan kurtka va tor shim kiyib olgan dastyor yigitcha shag'al yotqizilgan yo'lka bo'ylab yalangoyoq g'art-g'urt qadam tashlab kelardi-da, kreslo yonidagi stolchaga patnisni qo'yar, patnisda tilla piyolada choy bo'lardi. Dastyor quruqshab, botiq lunji tomon tortilib ketgan lablarini qimirlatmasdan tavoze bilan bir nimalar derdi-da, ta'zim bajo keltirib, yana qaytib ketardi. Ayol esa yarim yotgan ko'yi poxol yelpig'ich bilan o'zini asta-asta yelpir, qora baxmaldek g'aroyib kipriklarini bir maromda pipiratar edi... U yer yuzida yaratilgan qaysi toifadagi maxluqot oilasiga mansub?

U obdan toblangan, danakdek ayol edi. Kahrabo ko'kraklari, yelkalari, qo'llari va oyoqlari tizzasigacha yalang'och bo'lib, badaniga, sonlariga ko'm-ko'k yaltiroq mato o'rab olgandi. Sariq yog'ochdan yasalgan sandaliga loklangan qizil tasma tortilgan, oyoqchalarining qizilga bo'yalgan tirnoqlari tasma orasidan ko'rinib turardi. Qatron sochlari boshiga ajoyib turmaklangan bo'lib, bu ko'rinish uning bolalarcha ma'sum qiyofasiga aslo mos emasdi. Quloqchalarining solinchaklarida g'ovak tilla sirg'alar tebranardi. Qop-qora kipriklari aql bovar qilmas darajada uzun va g'aroyib ediki, Bog'i Eramda guldan gulga uchib-qo'nib yurgan kapalaklarni eslatardi; ular jannatiy hind gulzorlarida ham gohida xayol misoli ko'zga tashlanib qolardi... Go'zallik, aql-idrok, ahmoqlik kabi so'zlar aslo unga to'g'ri kelmasligi, go'yo barcha insoniy xususiyatlar unga begona edi. Darhaqiqat, u boshqa sayyordan kelib qolgan jonzotga o'xshardi. Soqovlik – uning so'zsiz suvrati edi. U yarim yotgan ko'yi miq etmasdi, qop-qora baxmaldek kiprik-kapalaklarini bir maromda pipiratar, yelpig'ich bilan o'zini asta-asta yelpir edi...

Bir kuni ertalab mehmonxona hovlisiga riksha jadal kirib keldi. Odatda, men mana shu rikshada shaharni sayr etib qaytardim. Dast-yor yigitcha ayvon zinapoyasida istiqbolimga peshvoz chiqib ta'zim bajo keltirdi-da, past tovushda:

– Ser, yuz rupiya, – dedi inglizchalab.

Bu – o'sha sanamning bahosi edi. Afsus...

Olima NABIZODA tarjimasi.



Avgustning oxirlarida Kanndagi pansionga bordim. Dengizda cho'milib, tabiatdan nusxa ko'chirib, ijod qilmoqchi edim. Anavi g'alati ayol har kuni ertalab qahva ichar, o'zi alohida stol-da o'tirib tamaddi qilar, doim o'ychan, tund qiyofada yurar, choratrofdagi odamlarga e'tibor bermas, qahvaxo'rlikdan so'ng qaysi go'rlargadir g'oyib bo'lar, kechgacha qorasini ko'rsatmas edi. Pansionda bir haftadan beri yashayotgan bo'lsam-da, hamon o'sha ayolni qiziqib kuzatib yurardim: qop-qora sochlari qalin, bilakdek bir o'rim sochi orqasiga tashlab qo'yilgan, qaddi-qomati kelishgan, sog'lom, egnida qora-qizil movut ko'ylak, istarasi issiq, lekin qiyofasi tund... Bizga o'n besh yoshlar chamasidagi elzaslik qiz osh-ovqat, choy-non keltirib berar, bajonidil xizmatimizni qilardi. Yosh bo'lsa-da, siynalari bo'liq, to'lishgan, to'lishib yanada ochilib ketgan, tantiqroq, lekin yoqimtoy ojiza edi. U bironing gapini xuddi hurkak ohudek ko'zlarini pirpiratib, jilmayib tinglardi. Uni bir gal yo'lakda uchratib qolib savolga tutdim:

- Dites, Odette, qui est cette dame?
- Quelle dame, monsieur?
- Mais la dame brune, la-bas?
- Quelle table, monsieur?
- Numero dix.
- C'est une russe, monsieur.
- Et puis?
- Je n'en sais rien, monsieur.
- Est-elle chez vous depuis longtemps?
- Depuis trois semaines, monsieur.
- Toujours seule?
- Non, monsieur. Il y avait un monsieur...
- Jeune, sportif?
- Non, monsieur... tres pensif, nerveux...
- Et il a disparu un jour?
- Mais oui, monsieur...

«Gap buyoqda ekan-da! – deb o'yladim. Endi ba'zi narsalar oydinlashyapti. Lekin u erta bilan qaysi go'rlarga daf bo'lyapti ekan? Hamon sevgilisini izlayaptimi?

Ertasi kuni qahvaxo'rlikdan so'ng, odatdagidek, xonamdagi ochiq derazadan shag'al g'ichirlashi eshitildi-yu, pansion bog'chasiga mo'raladim: u odati bo'yicha yalangbosh, ko'ylagi rangidagi shamsiyasini ko'tarib tez-tez yurib borardi. Oyog'ida qizil poyabzal. Men darhol hassa bilan shamsiyani olib, uning orqasidan ergashdim. U ko'cha boshiga borib Karno xiyoboni tomon burildi, men ham o'sha muyulishdan burildim. O'yladimki, o'z xayollari bilan band bo'lib orqasiga qaramaydi, poylab borayotganimni sezmaydi. Darhaqiqat, to vokzalga borguncha orqasiga bir marta ham nazar tashlamadi. Vokzalda uchinchi toifali vagonga chiqayotgan chog'da ham orqasiga o'girilib qaramadi. Poyezd Tulonga borardi. Men ham har ehtimolga qarshi Sen-Rafaelgacha chipta olib, qo'shni kupega chiqdim. Chamasi, u olisga ketayotgan yo'lovchiga o'xshamasdi. Xo'sh, qayoqqa ket-yapti?.. Napulada, Teulada derazadan boshimni chiqarib qaramdim. Nihoyat, poyezd Treyyasda birpas to'xtagan payt yana boshimni chiqardim-u, bekatni tark etayotgan ayolni ko'rib qoldim. Vagondan sakrab tushib yana uning orqasidan yo'l oldim. Bu safar olis masofadan ta'qib etib boraverdim. Uzoq yurdik, dengiz yoqasidagi tik jarlik yonidan o'tgan egri-bugri muyulishlar, yosh qarag'ayzor oralab o'tgan nishab toshloq so'qmoq ham orqada qoldi. Shu so'qmoq orqali sohilga tik kesib chiqilsa, yo'l xiyla qisqarardi. O'rmon bilan qoplangan kimsasiz serqoya ko'rfazcha tomon tog' qiyalab borar, sohilga yetgach tik kesilgan tabiiy devor hosil bo'lar edi. Vaqt peshinga yaqinlashib qolgan, kun issiq, qilt etgan shabada yo'q, igna bargli archazordan taralayotgan xushbo'y hid dimoqni yoraman derdi, atrofda zog' uchmas, tiq etgan tovush eshitilmas, faqat chag'alaylar suv sathida suzib yurar, onda-sonda chig'illab qo'yishar edi. Dengizning ochiq bo'lgan janub tomoni yalt-yult etib ko'zni qamashtirar, yirik-yirik kumush yulduzhalar sapchib qirg'oqqa urilardi... Nihoyat, u og'irligini orqaga tashlab yugurgancha so'qmoq bo'ylab yam-yashil ko'rfazchaga tushdi. Ko'rfazcha to'q qizil qoyalar orasida paydo bo'lgan edi. Shamsiyasini qumloqqa tashlab shosha-pisha yechina boshladi. Oyoqyalang edi. Men sertosh qoyaga yotib oldim, u qoya ostiga qoramtir gulli ko'ylagini yechib tashladi. Unga qarab, hoynahoy, cho'milish ko'ylakchasi ham qoramtir-tund bo'lsa

kerak, deb o'yladim. Biroq, ko'ylak ostida hech qanday cho'milish ko'ylakchasi yo'q, faqat kaltagina harir pushti ko'ylakcha bor edi, xolos. Ko'ylakchasini ham yechib tashladi; u oftobda obdan toblangan, badanlari kahrabo tusiga kirgan, sog'lom, baquvvat edi. Yalang'och holda tip-tiniq suvga kirib bordi; chiroyli to'piqlarini egib-to'g'rilab, quyoshda qoraygan bellarini ko'z-ko'zlab suvga sho'ng'idi. Suvda jimib qoldi, aftidan, suvda aks etayotgan quyosh nurlari ko'zlarini qamashtirgan edi. Keyin oyoqlarini o'ynatib suvni shaloplatdi, suv tubida cho'nqayib o'tirdi, suvdan boshini chiqardi va bir aylandi-yu oyoq-qo'llarini keng yozib suv ustiga yotib oldi; asta-sekin suzib qumloq sohilga chiqdi, tirsagini tirab qumga boshini qo'ydi. Kumush tikondek yaltirab, bir maromda sokin chayqalayotgan bepoyon dengiz go'yo ufqqa singib ketardi. Sohilga tutash ko'rfazcha va shinamgina serqoya manzil tobora qizib borardi. Qoyadan iborat dim bo'shliqda, mo'jaz janub o'rmonida shu qadar teran sokinlik hukm surardiki, pastimdagi qumloqda ko'ksini qumga berib yotgan ayolning yaltirab turgan yelkalariga, keng yoyilgan oyoqlariga urilayotgan shaffof mavjlarning mayin chaloplashi ham bemalol eshitilardi. Men xarsang orqasiga yashirinib olib bu go'zallikni zimdan kuzatib yotar ekanman, borgan sari betoqatlanib, bu qiliq g'irt bema'nilik, surbetlik ekanini mutloq esimdan chiqarib yubordim. Qaddimni tiklab, trubkamni tutatib tamaki cheka boshladim. Daf'atan ayol ham boshini ko'tardi-yu, pastdan yuqoriga – men tomon ajablanib tikilib qoldi. Biroq, avval qanday yotgan bo'lsa, o'sha holatda cho'zilib yotaverdi. Nima qilishimni, nima deyishimni bilmasdan kalovlanib o'rnimdan turdim. Ayol birinchi bo'lib tilga kirdi:

– Men yo'l bo'yi orqamdan birov ergashib kelayotganini sezgan edim. Nega ergashdingiz?

– Kechirasiz, shunchaki qiziquvchanlik... – dedim gapni aylan-tirmasdan.

– Ha, ko'rinib turibdi, qiziquvchan ekansiz. Men haqimda so'rab-surishtirganingizni Odette aytgan edi. Sizning rus ekaningizni tasodifan eshitib qoldim, shu bois hozir unchalik ajablana-yotganim yo'q, ruslar haddan ziyod qiziquvchan bo'ladi. Biroq, ayting-chi, nima uchun orqamdan ergashib keldingiz?

– Avvalo, qiziquvchanligim, qolaversa, kasbim shunaqa.

– Bilaman, siz rassomsiz.

– Siz esa rasmbop ayolsiz. Bundan tashqari, har kuni ertalab qayoqqadir g'oyib bo'lardingiz. Bu hol ko'nglimga g'ulg'ula soldi: qayoqqa? nima uchun? Hatto nonushta qilmasdan ketardingiz. Vaholanki, pansion ahli bunday qilmaydi. Boz ustiga, turq-atvoringiz ham boshqalarnikidan farq qiladi, doim bir narsani o'ylab yurasiz. Yolg'iz bo'lasiz, miq etmaysiz, qandaydir yashirin siringiz borga o'xshaydi... Endi, yechinayotganimni ko'rib nima uchun qaytib ketmadingiz, deb so'ramoqchimisiz...

– Tekin tomoshani tashlab go'rga ketarmidingiz? – dedi ayol va birpas sukut saqlab, qo'shib qo'ydi: – Hozir suvdan chiqaman. Bir daqiqa teskari qarab turing, keyin buyoqqa kelasiz. Siz ham meni qiziqtirib qoldingiz.

– O'lsam ham teskari burilmayman, – dedim. – Men rassomman, qolaversa, biz yosh bola emasmiz.

– Bo'pti, menga baribir, – dedi u yelkasini qisib.

So'ng o'rnidan turdi va shag'alni g'ichirlatib shoshilmasdan olg'a yurdi, pushti ko'ylakchasini boshiga tashladi, keyin ko'ylakcha bo'ynidan jiddiy qiyofasi ko'rindi, kiyim ho'l badaniga yopishib qoldi.

Men uning yoniga yugurib tushdim, yonma-yon o'tirdik.

– Balki, trubkadan tashqari, papirosingiz ham bordir? – deb so'radi.

– Bor.

– Menga ham bering.

Papiros berib, gugurt chaqdim.

– Rahmat.

Tutunni ichiga tortib olis-olislarga nigoh tashladi, oyoq barmoqlarini o'ynatdi.

– Hozir ham sizga yoqyapmanmi? – deb so'radi kesatliq aralash.

– Bo'lmasam-chi! – deb xitob qildim. – Ofatijonsiz, badingiz, sochlaringiz, ko'zlaringiz... faqat tund qiyofangiz g'alati ko'rinyapti.

– Rostini aytsam, ko'nglimga yomon bir niyatni tugib qo'rganman.

– O'zim ham shunday bo'lsa kerak deb o'ylagandim. Siz yaqinda kim bilandir ajrashgansiz, kimdir sizni tashlab ketgan...

– Tashlab ketmadi, itqitib yubordi. Meni tashlab qochib ketdi. Bilardim, u adoyi tamom bo‘lgan kimsa edi, lekin unga ko‘ngil berdim. Keyin ma‘lum bo‘ldiki, qip-qizil bitta ablahni yaxshi ko‘rgan ekanman. U bilan bundan bir yarim oycha muqaddam Monte-Karlodan uchrashdik. O‘sha oqshom kazinoda qimor o‘ynab o‘tirgan edim. U ham yonimda turib qimor o‘ynardi, ko‘zlarini olaytirib sharchalarni kuzatardi. Omadi chopib ko‘p yutdi, bir marta yutdi, ikki, uch, to‘rt... Men ham ancha-muncha yutuqni qo‘lga kiritdim, u hamma-sini ko‘rib turardi. To‘satdan: «Tamom, pishti! Assez! – deb men tomonga o‘girildi-da: – N’est-ce pas madame?» – deb qo‘shib qo‘ydi. «Ha, pishdi!» – dedim kulib. «Iye, rusmisiz?» «Ko‘rib turibsiz-ku». «Unday bo‘lsa, ketdik – kayf-safo qilamiz!». Unga razm soldim, aftidan, azob ko‘rgan odamga o‘xshardi, lekin xiyla kelishgan... Keyin nima bo‘lganini tasavvur etish qiyin emas.

– Ha, qiyin emas. Kechki ovqat paytida apoq-chapoq bo‘lib, tinmay gap sotgansizlar, xayrlashadigan payt kelganda ajablangansizlar...

– To‘ppa-to‘g‘ri. Biz xayrlashmadik, bir-birimizga yopishdik-qoldik, yutib olgan pullarimizni sovura boshladik. Monte-Karlodan, Tyurbidan, Nitssadan yashadik. Kann bilan Nitssa oralig‘ida, yo‘l bo‘ylarida joylashgan qovoqxonalarda nonushta, tushlik qilardik. Siz u joylardagi narx-navolar osmonda ekanini bilsangiz kerak?! Hatto ma‘lum muddat «Cap d’Antibes» mehmonxonasida ham yashadik, o‘zimizni boy-badavlat etib ko‘rsatishga harakat qildik... Hamyonimizning tagi ko‘rinib qoldi, oxirgi mayda-chuydamizni to‘plab Monte-Karloga yo‘l oldik, lekin bu safarimiz halokat bilan yakunlandi. U biryuqlarga gum bo‘lib ketib pul topib kelar, ammo bu pullar avvalgilarga nisbatan arziyas miqdorda – ellik, yuz frankdan oshmas edi... So‘ng mening sirg‘alarimni, hatto nikoh uzugimni, ichdan bo‘ynimga taqib yuradigan tillo xochimni va.. meni qaysi go‘rlargadir eltib sotib yubordi...

– Albatta, erta-indin birov juda katta qarzini to‘laydi, nufuzli, sarmoyador do‘stlarim, tanish-bilishlarim bor, – deb ishontirgan.

– Ha, xuddi shunday bo‘lgan. Uning o‘zi kim edi? Anig‘ini hozir ham bilmayman. O‘zining o‘tmishi to‘g‘risida batafsil, aniq gapirishni istamasdi, mavzuni darhol boshqa tomonga burib yuborardi. O‘zim ham bunga unchalik e‘tibor bermasdim. Bilasiz, ko‘pchilik

muhojirlarning kechmishi bir xil bo'ladi: Peterburg, ajoyib harbiy qismda xizmat, keyin inqilob boshlanadi, Istanbul... Eski og'aynilari yordami bilan Parijda go'yo yaxshigina mavqega ega bo'ladi, istagan joyga qo'li yetadi, hozircha Monte-Karloda vaqtixushlik qiladi yoki Nitssada birorta obro'-e'tiborli do'stining pinjiga kirib olib... Xullas, shunaqa gaplar bilan qo'ynimni puch yong'oqqa to'ldirdi. Men bo'lsam kundan kunga ruhan tushib, yorug' dunyo ko'zimga tor ko'rinib borardi, u esa miyg'ida kulib: «Xotirjam bo'l, menga ishonaver, Parijda hozir biz uchun yelib-yugurishyapti... Nima qilganimni senga aytib o'tirmayman, baribir aqling yetmaydi, buyog'ini o'zimga qo'yib ber», deb taskin berardi.

– Xo'sh-xo'sh?

– Nima «xo'sh»?

U birdan ko'zlarini chaqnatib menga qaradi-yu, o'chib qolgan papirosini uzoqqa otib yubordi.

– Sizga bularning hammasi kulgili tuyulyaptimi?

Men qo'ldan tutib mahkam siqdim.

– Shunday deyishga uyalmaysizmi?! Men sizni Meduza yoki Nemezida qiyofasida tasvirlamoqchiman.

– Ular qasoskor sanamlarmi?

– Ha, juda yovuz.

U ma'yus jilmaydi.

– Nemezida! Yana qanaqa Nemezida?! Yo'q, siz yomon odamga o'xshamaysiz... Yana bitta papiros bering. U chekishniyam o'rgatdi... Hamma narsaga o'rgatdi!

Papirosni tutatib, yana olis-olislariga nazar tashladi.

– Darvoqe, cho'milish uchun shuncha joyga kelganingizni ko'rib nihoyatda ajablangan edim. Har kuni bo'zchining mokisidek u yoqdan bu yoqqa yurishdan zerikmasmikan deb o'ylagandim. Endi bil-sam, sizga yolg'izlik kerak ekan.

– To'g'ri.

Quyosh tobora zabtiga olib qizdirardi, hovur va xushbo'y hid ko'tarilayotgan qarag'ay shoxlariga qo'nib olgan chirildoqlar ach-chiqlangandek zo'r berib chiriqlardi. Ayolning qop-qora sochlari, ochiq yelkalari, oyoqlari qizib ketganini sezib turardim.

– Yuring, salqinga o'taylik, kun yondiraman deyapti. G'amgin tarixingizning davomini o'sha yerda gapirib berasiz, – dedim.

U uyqudan uygʻongandek seskanib:

– Ketdik, – dedi.

Biz yarim doira shaklidagi koʻrfazchani aylanib oʻtib, qizil qoʻya ostidagi salqin joyga oʻtirdik. Bu yer yop-yorugʻ, lekin dim edi.

Men yana uning qoʻlini olib, qoʻyib yubormadim. U buni sez-madi.

– Endi davomi nima boʻlardi? – dedi. – Men haqiqatan ham juda xunuk, sharmandali oʻsha voqeani eslashni-da istamay qol-dim. Hoynahoy, siz meni goh anavi-goh manavi firibgarning kun-da-shundagi jazmani boʻlsa kerak deb oʻylayapsiz. Hecham un-day emas. Mening oʻtmishim ham boshqalarnikidan unchalik farq qilmaydi. Erim dastlab Denikinning, soʻng Vrangelning Koʻngilli armiyasida xizmat qilgan, taqdir taqozosi bilan Parijga kelib qol-ganimizdan keyin, albatta, shofyorlik qildi. Lekin asta-sekin ichki-likka oʻrgandi, oxir-oqibat ichkilikka shu qadar ruju qoʻydiki, ish-dan haydalib, yalangoyoq daydiga aylandi-qoldi. Endi u bilan birga yashay olmasdim. Uni oxirgi marta Monparnasda, «Dominika» os-tonasida uchratdim. Albatta, ruslarning shunaqa qovoqxonasi borli-gini bilsangiz kerak? Tun, yomgʻir, u boʻlsa yirtiq etikda koʻlmak kechib yuribdi, qaddini dol qilib oʻtgan-ketganning yoniga chopib boradi, qoʻllarini choʻzib sadaqa soʻraydi, odamlarga yordamlash-moqchi boʻladi, aslida, taksidan tushayotgan yoʻlovchilarga halaqit berardi, xolos... Men serrayib qoldim, undan koʻzimni uzmasdim. Asta unga yaqinlashdim. Tanidi, qoʻrqib ketdi, xijolat boʻldi. Siz uning qanday ajoyib, mehribon, xushmuomala inson ekanini tasav-vur ham qilolmaysiz. Qotib qoldi, oʻzini qoʻyarga joy topolmasdan menga tikildi: «Masha, senmisan?» Bujmaygan, ust-boshi bir ah-volda, soqoliga ustara tegmagan, hammayogʻini sariq jun qoplagan, shalabbo boʻlgan, sovuqda dir-dir qaltiraydi... Hamyonimda bor pulimni unga berdim, hoʻl, muzdek qoʻli bilan qoʻlimdan ushlab bilaklarimni oʻpa boshladi, yelkalari silkindi, tovushini chiqarmas-dan yigʻladi. Xoʻsh, qoʻlimdan nima ham kelardi? Faqat ikki-uch marta har oyda yuz, ikki yuz frankdan pul joʻnatib turdim. Parijda mening shlapa tikadigan ustaxonam bor, moʻmaygina daromad qi-laman. Bu yerga men hordiq chiqargani, choʻmilgani kelganman. Mana, koʻrmaysizmi... Erta-indin Parijga qaytaman. Anavi firib-garni topib qulogʻining ostida «shalva qaynatib» qoʻysam, janjal

ko'tarsam juda bema'ni ish bo'lar ekan. Bilasizmi, men buning bema'niligini qachon rosmona tushunib yetdim? Hozir bildim, siz tufayli bildim. Boshimdan o'tgan sarguzashtni gapirib berdim-u, birdan anglab qoldim...

— Ajab, xushtoringiz qanday qilib juftakni rostlab qoldi?

— Hamma gap shundaki, u nihoyatda iflos yo'lni tanladi. Biz mana shu pansionchaga joylashdik, hozir siz bilan men qo'shniman. Sar d'Antibes mehmonxonasidan keyin bu yerda yashashni tasavvur etib ko'ring-a! Bundan o'n kuncha avval oqshom chog'i qimorxona-ga choy ichgani bordik. Albatta, musiqa chalinayotgan, yigit-qizlar juft-juft bo'lib raqsga tushayotgan ekan. Bunday manzarani ko'rsam beixtiyor ko'nglim ayniydigan bo'lib qolgan, shu qadar me'damga uribdi. Ishqilib, o'tiribman, pirojnoye yeyapman, u ikkovimiz uchun buyurtma beryapti, goh-goh iljayib piching qiladi: «Qara, anavilarni qaragin, haqiqiy maymunlarga o'xshaydi-ya, oyoqlarini tapillatib, basharasini burishtirganini ko'rmaysanmi!» — deydi sozandalarni ko'rsatib. So'ng bo'm-bo'sh portsigarini ochib yugurdakni yoniga chaqirdi. «Inglizlarning papirosidan olib kel», deb buyurdi. Yugurdak papiros keltirdi. U xijolatomuz: «Mersi, choy ichib bo'lganimizdan keyin haqini to'layman», dedi. Tirnoqlarini ko'zdan kechirib o'tirib: «Qo'lim dabdala bo'lib ketibdi-ku! Hozir yuvib kelaman», — dedi menga qarab va o'rnidan turdi-yu, ketdi.

— Keyin qaytib kelmadi.

— Yo'q. Men bo'lsam kutib o'tiribman. O'n daqiqa kutdim, yigirma, yarim soat, bir soat... Qanday ahvolga tushib qolganimni tasavvur etyapsizmi?

— Tasavvur etyapman...

Men o'sha manzarani yaqqol ko'z oldimga keltirdim: stol atrofiga choy ichib o'tiribdi, atrofiga alanglaydi, miq etmaydi, ahmoqona ahvolga tushib qolganini o'ylaydi, xunob bo'ladi... Yirik derazalar-dan tun qo'ynidagi osmon ko'rinadi, sokin dengiz mavjlanib jilola-nadi, palmalarning yaproqlari qorayib ko'zga tashlanadi, sozandalar polni tapir-tupur etkazib tepadi, asboblarini puflaydi, temir likop-chalarni zarb bilan uradi, erkaklar tovonlarini bir-biriga urishtirib musiqaga mos ravishda chayqalib, raqs bahonasida xonimlarga mah-kamroq yopishib, shahvoniy nafsini qondirish niyatida bir tomon-larga sudraydi... Qo'nji uzun etik kiyib olgan xizmatkor ko'kimtir

mundirni unga uzatib, bosh kiyimini yechib ta'zim qiladi, bir quti «Nigh Life»...

– Keyin nima bo'ldi? Siz o'tiribsiz...

– O'tirgan o'rnimda adoyi tamom bo'lganimni his etyapman. Sozandalar ham uylariga ketdi, zal bo'shab qoldi, elektr chiroqlari yoqildi...

– Derazalar oqarishib turibdi...

– Ha. O'rnimdan turay desam, oyoqlarimda mador yo'q. Nima qilsam ekan, najot bormi? Hamyonimda bor-yo'g'i olti frank bor, xolos. Qo'linga mayda tangalar ham ilashib chiqdi.

– U rostdan ham hojatxonaga yo'l oladi, zarur ishni ado etadi, o'zining firibgarlik hayotini o'ylaydi, so'ng tugmalarini qadaydi va yo'lak bo'ylab oyoq uchida yurib orqa eshikdan ko'chaga chiqib ketadi... Xudo haqqi, kimga ko'ngil qo'ygan edingiz?! Endi uni izlab topib o'ch olmoqchimisiz? Nima uchun? Siz bokira qizaloq emas-siz, uning kimligini, o'zingiz qanday ahvolga tushib qolganingizni yaxshi bilishingiz kerak edi. Yaqqol ko'rinib turgan bema'ni hayotni nega davom ettirdingiz?

Ayol sukut saqladi, yelkalarini uchirib qo'ydi.

– Kimga ko'ngil berganimni o'zim ham bilmayman. Aytadilarku, chin muhabbatga ehtiyoj bor edi... Afsuski, hech qachon haqiqiy muhabbatga duch kelmaganman... U erkak sifatida menga hech narsa bergan emas, berishi ham mumkin emasdi, chunki... U jimib qoldi. So'ng gapida davom etdi. Ha, uning kimligini, o'zim qanday ahvolga tushib qolganimni bilishim kerak edi. Biroq, men bilishni ham, o'ylashni ham istamasdim. Umrimda birinchi marta yengilyelpi hayotga qadam qo'ydim, orqa-oldimga qaramasdim, yallamayorim qilib yuraverdim, huzur-halovatdan bahramand bo'ldim, qandaydir vasvasa ichida yashadim. Xo'sh, nima uchun uni topib o'ch olmoqchi bo'ldim? Yana vasvasaga uchdim, xira xayollarga qul bo'ldim. Axir, men qabih, ayanchli janjaldan boshqa hech narsaga erisha olmasligimni bilmasmidim? Siz nima uchun deb so'rayapsiz. Chamamda, menga ham uning kasofati urdi, shekilli. Past ketdim, firibgarining hayotiga sherik bo'ldim; asosiysi – u meni qimorxonada sharmandali ahvolda qoldirib, o'zi hojatxona orqali ko'chaga qochib chiqib ketgani uchun qasd olmoqchi edim. Bosh-ketimni yo'qotib qo'ydim, qimorxona kassasiga borib yolg'on gapirdim, yalinib-yol-

vordim, ertagacha sumkachamni garovga olib qolinglar deb, iltimos qildim, lekin sumkachamni olishmadi, ijirg'anib choy, shirinlik, ingliz papirosi uchun to'lanadigan haqdan voz kechishdi. Parijga telegramma jo'natdim, uchinchi kuni ming frank pul oldim, qimorxonaga bordim, u yerda yuzimga qarashmasdan pulimni olishdi, hatto hisob-kitob qog'ozchasini qo'limga tutqazishdi. Eh, azizim, men hech qanday Meduza emasman, men shunchaki mushtipar ayolman, oji-zaman. Ustiga-ustak, nihoyatda ta'sirchanman, yolg'izman, baxtiqaroman. Lekin meni to'g'ri tushuning, axir makiyonning ham yuragi bo'ladi-ku! Men o'sha la'nati oqshomdan buyon go'yo bedavo bir dardga chalingan edim. Sizni menga xudoning o'zi yetkazdi, endi kutilmaganda o'zinga kelyapman... Qo'limni qo'yib yuboring, kiyinib olay, yaqinda Sen-Rafaeldan poyezd ham qaytib qoladi...

– Sadqayi sar, – dedim. – Yaxshisi, chor atrofga bir qarang, anavi qizil qoyalarni, yam-yashil ko'rfazchani, g'adir-budur qarag'aylarni ko'ryapsizmi? G'achir-g'uchur etgan jannatiy tovushlarni eshitmayapsizmi?.. Endi biz bu yoqqa birga-birga kelamiz. Bo'ptimi?

– Bo'pti.

– Parijga ham birga-birga ketamiz.

– Xo'p.

– Keyin nima bo'lishini Xudo biladi.

– Ha, albatta.

– Qo'lingizni o'psam maylimi?

– Mayli, mayli...

Olima NABIZODA tarjimasi.



QOTIL

Zamoskvorechedagi boloxonali oddiy yog'och uy. Oynalari top-toza, romlar a'lo sifatli ko'kishtob rangga bo'yalgan. Atrofi olomon-ga to'la, ro'parada yengil davlat avtomobili turardi. Kiraverishda-gi lang ochiq eshikdan tepadagi qizil hoshiyali ko'kimtir gilamcha ko'rinib turibdi. Ichi qizigan olomon o'sha tomondan ko'zini uzmas-di, shu top yoqimli ovoz eshitildi:

– Ha, azizlarim, o'ldiribdi! Beva yosh, badavlat savdogarlar avlodidan... Aytishlaricha, yigitni o'lgudek yaxshi ko'rgan. Yigit bo'lsa faqat uning pullariga yashab, to'g'ri kelgan bilan ko'nglini xushlab yuravergan. Oxiri jonidan to'ygan qiz vidolashish niyatida uni huzuriga chaqirgan, yedirib-ichirib rosa mehmon qilgan, so'ng: «Kel, senga to'yib qarab olay» degan-da, kayfi taraq erkakning yuragiga pichoq sanchgan...

Boloxonaning derazasi ochilib, qandaydir oq qo'lqopli qo'l avtomobilga ishora qildi. Mashina o't oldi, olomon tisarilib unga yo'l berdi. Mana, dastlab uning kelishgan oyoqlari, so'ng suvsar yopin-chig'ining etagi ko'rindi, so'ng butun kiyim-boshi bilan cherkovga, xuddi nikohdan o'tishga otlangandek, o'zi shoshmasdan, ohista zina-poyadan tushib kela boshladi. Badani sutday oq, qosh-ko'zlari qora, boshida hech nimasi yo'q, o'rtasidan to'g'ri farq ochilgan sochlari silliq taralgan, quloqlarida esa uzun zirak silkinib turardi. Yuzi xotir-jam, tiniq, lablari esa barchaga muloyim tabassum ulashardi... Ayol mashinaga o'tirdi, orqasidan qolgan ma'murlar ham o'tirishdi va shineli gavdasiga yarashib turgan kishi tekintomoshachilarga jiddiy va norozi kayfiyatda qarab qo'ydi; eshik qarsillab yopildi va mashi-na joyidan qo'zg'aldi...

Orqadan qarab qolganlarning bari zavqlanib:

– Eh, hech nima bo'lmaganday jo'nab qolishdi-ya! – deyishdi bir ovozdan.

Dildorxon ALIYEVA tarjimasi.



QO'NALG'A

Bu voqea Ispaniyaning janubidagi xilvat tog' chekkasida bo'lib o'tdi.

Iyun tuni, to'lin oy chiqqan, u osmonda uvoqqina bo'lib eng baland nuqtada turar, biroz pushti rang nurlari, odatda, binafshalar qulf urib ochiladigan damlarda, kunduzgi qisqa yomg'irlardan keyin keladigan issiq oqshomlardagi kabi pastak janub o'simliklari bilan qoplangan yassi tog' dovonlarini nurga belagan, to ufqqacha hamma narsani aniq ilg'ash mumkin edi.

Ana shu dovonlar o'rtasidagi torgina vodiy shimolga qarab cho'zilib ketgan. Qirning soya tushib turgan bir tomonida, o'lik sukunatga cho'mgan kimsasiz tun qo'ynida tog' jilg'asi bir me'yorda shovul-lab oqar, chirildoq va chirkak chivinlar qimmatbaho shaffof toshlarga o'xshab sirli yog'du sochib, havoda tinimsiz uchib, suzib yurishardi. Vodiy qarshisidagi tobora pasayib boruvchi soya bosgan tepaliklar eta-gidan qadimdan qolgan shag'al yo'l o'tgandi. Pastda – tekislikda bino bo'lgan tosh shaharcha ham o'ta ko'hna edi. Qorong'i tushib, el yotadi-gan paytda mana shu tosh shaharcha bo'ylab keng, oq enli mursak kiy-gan va boshiga popukli do'ppi qo'ndirgan baland bo'yli bir marokashlik oldingi o'ng oyog'ini oqsab bosayotgan to'riq otda borardi.

Shaharcha o'lik va tashlandiq qiyofada ko'rinardi.

Marokashlik oldiniga deraza oynalari o'rni vahimali qorayib tur-gan, tosh binolar orasidagi qarovsiz bog'lari g'ovlab ketgan xilvat ko'cha bo'ylab yurdi. Undan keyin uzun hovuzli, ustunli peshtoqi-ga ko'kimtir ma'buda haykali o'rnatilgan cherkov va qator turarjoy binolari hamda karvonsaroy joylashgan yorug' maydonga chiqdi. U yerda, pastki qavatdagi kichkina derazalarda hali chiroq o'chmagan edi. Mudrab kelayotgan marokashlik sergaklanib ko'zini ochdi, ji-lovni tortib, oqsoq otni maydondagi o'nqir-cho'nqirlar ustidan jadal yurishga undadi. Ot dupurini eshitib, bo'sag'ada ushoqqina, ozg'in, turish-turmushi tilanchiga o'xshaydigan kampir paydo bo'ldi, orqasi-dan sochini peshana gajak qilib, yalang oyoqlariga shippak ilgan, ka-palak gullari xira tortgan oqish kalta ko'ylakli o'n besh yoshlardagi qizaloq chopib chiqdi, ostonada cho'zilib yotgan junlari silliq, kalta quloqlari tikkaygan ulkan qora ko'ppak o'rnidan turdi. Marokashlik ostonada imirsilab qoldi, it esa shu zahotiyoy ko'zlari yonib, dah-

shatli oq tishlarini irjaytirib unga tashlandi. Marokashlik qamchisini o'qtaldi, ammo qizcha undan oldin qo'rquv to'la jarangdor ovozda:

– Negra! – deb qichqirdi. – Senga nima bo'ldi?

It boshini engashtirib, sekin orqasiga qaytdi va tumshug'ini uyga qaratib, yerga cho'zildi.

Marokashlik buzuq ispan tilida salom berib, «Shaharda temirchi bormi, ertaga ot tuyog'ini ko'rsatmasam bo'lmaydi, otni qayerga bog'lash mumkin, unga yem-xashak topiladimi, o'zimga kechki ovqat pishirib berasizlarmi?» – deb so'radi. Qizcha mehmonning kelishgan qaddi-qomati va chechak izi qolgan yuziga qiziqsinib tikilib, xotirjam yotganiga qaramay, o'zini xafa ko'rsatayotgan qora itini silab-siypalardi, qulog'i og'ir kampir har bir savolga shosha-pisha qichqirib javob qaytarardi: «Temirchi bor, xizmatkor uy yonidagi og'ilda uxlab yotibdi, otga xashak solishadi, mehmon ovqatdan tashvish tortmasa ham bo'ladi. Yog'da tuxum qovurish mumkin, ammo kechki ovqatga faqat ozgina sovib qolgan loviya bilan qovurilgan karam qovurdoq bor...»

Yarim soatdan keyin hamisha mast yuradigan xizmatkor qariya bilan otni saranjom qilgan marokashlik oshxonada stolda o'tirib ochko'zlik bilan ovqat yeb, oq musallasni yutoqib ichishga tushdi.

Karvonsaroy binosi ilvirab qolgan edi. Pastki qavatni pichanxona bo'lib, oxirida yuqori qavatning ikki tomoniga olib chiqadigan zinapoya bor edi; chapdagi so'ri qo'yilgan keng, pastak xona oddiy odamlarga mo'ljallangan, o'ngdagisi ham aynan shunday bo'lib, bir paytning o'zida oshxona va yemakxona vazifasini bajarardi, butun shifti va yon tomonlarini dud va qurum bosgan, devorlari qalin, ammo oynalari kichkina edi, bir burchagiga o'choq qurilib, qo'pol yog'och stullar va so'rilar qo'yilgan, g'adir-budur tosh to'shamasi yillar o'tib silliqqlanib ketgan edi. Shiftga osig'liq zanjiri qoraygan kerosin lampa tutab yonar, moy va qizdirilayotgan yog' hidi anqib turardi, kampir o'choqqa olov yoqib, sovib qolgan qovurdoqni isitar va quymoq pishirardi; mehmon esa sirka bilan yashil zaytun yog'iga aralashtirilgan yaxna loviyani tushirardi. U kiyimlarini yechmagan, mursagi dam yelkasida turar, yo'g'on charm boshmoq ichidagi oyoqlarini bor bo'yicha uzatib yuborgan, to'pig'iga o'ralgan oq jun cholvorini qo'njiga tiqib qo'ygandi. Qizaloq kampirga qarashib imirsilanib yurar va erkakning o'ziga tez-tez qadalayotgan o'tkir nigohi,



quruqshagan cho'tir yuzidagi ko'kimtir tomirlari va ingichka labiga ko'zi tushganda, qo'rqqanidan g'alati bo'lib ketardi. Chindan ham erkakning vajohati qo'rqinchli edi. Nihoyatda baland bo'yi keng mursakda yanada haybatli ko'rinar, popukli do'ppi ostidagi kallasi esa kichrayib qolganga o'xshardi. Yuqori labining chekkalarida qattiq qora tuklar dikkaygan, ana shunday bir-ikki tuk iyagidan ham chiqqan edi. Boshini xiyol orqaga tashlaganida, kekirdagi oldinga do'ppayib chiqib, uni yanada xunuk ko'rsatardi. Uzun, qoramtir barmoqlaridagi kumush uzuklari oqish tus olgan edi. U yer, ichar, ammo negadir indamay o'tirardi.

Kampir qovurdoqni isitib, quymoqni pishirib bo'lgach, cho'g'i o'chgan o'choq yonidagi so'riga horg'in cho'kdi va undan «Qayerlik bo'lasan, qayerga ketyapsan?» – deb qichqirib so'radi, erkak xirildoq ovozda qisqa javob berdi:

– Uzoqqa.

U qovurdoq va quymoqni yeb bo'lgach, bo'shagan may ko'zachasini silkitib ko'rди, qovurdoqqa qalampir ko'p solingandi, kampir qizchaga boshi bilan imo qildi. Qiz ko'zachani oldi va pichanxona eshigini ochib, tillaqo'ng'izlar ohista suzib, g'alati yog'du sochayotgan tun qa'rida g'oyib bo'lgach, u ko'krak cho'ntagidagi qutidan papiros olib tutatdi va yana boyagidek qisqa gap qotdi:

– Nevarangmi?

– Jiyanim, yetimcha, – kampir qichqirib marhum akasi – qizchani otasini qanchalik yaxshi ko'rganini va uni deb turmush qurmaganini, so'ngra to'rt yildan keyin bu karvonsaroy uniki bo'lganini, o'n ikki yil avval kelini, akasi vafot etganini va butun mol-u mulki o'ziga qolganini, odamlar kamayib borayotgan bu shaharchada ishlari yurishmayotganini gapirib berdi...

Marokashlik papiros chekib, xayolga cho'mgan holda parishon tingladi. Qizcha ko'zachani to'ldirib yugurib keldi, u qizni ko'rgach, papiros qoldig'ini qattiq so'rib, uzun qora barmog'i uchini kuydirib oldi, shosha-pisha yangi papiros tutatdi va kampirga baland ovozda (qulog'i og'irligini sezgan edi) ma'nodor qilib:

– Agar jiyaning mayni o'z qo'li bilan quyib bersa, juda mamnun bo'lardim, – dedi.

– U bunday qilmaydi, – shartta kesdi kampir, so'ng ezmalikni bas qilib, lo'ndasiga o'tdi va jahl aralash qichqirdi:

– Kech bo‘lib qoldi, musallasingni ichgin-u, borib yot, u hozir boloxonada senga o‘rin solib beradi.

Qizning ko‘zlari charaqlab ketdi, buyruqni kutib o‘tirmasdan sakrab turib, zinapoyadan chopqillab yuqoriga ko‘tarildi.

– Ikkalangiz qayerda uxlaysizlar? – so‘radi marokashlik va ter bosgan peshonasidan do‘ppini sal nari surib qo‘ydi.

– Yozda u yer juda issiq bo‘ladi, mijozlar yo‘q paytlarda (hozir ular butunlay yo‘q!) pastki qavatda, mana shu yerda yotamiz, – deya qichqirdi kampir va qo‘li bilan pichanxona ro‘parasidagi hujrani ko‘rsatdi-da, ishlari yurishmayotganidan shikoyat qilishga tushdi: – Hamma narsa qimmatlashib ketyapti, shuning uchun qo‘noqlardan ko‘proq haq olishdan boshqa ilojimiz yo‘q...

– Erta tongda yo‘lga tushaman, – dedi marokashlik kampirning gaplariga deyarli quloq solmasdan. – Ertalab faqat qahva bersang bo‘ldi. Hisob-kitob qilamiz. Qaraylik-chi, mayda pullarim qayerda ekan, – qo‘shib qo‘ydi u va mursagi ichidan yumshoq qizil charm hamyonini chiqarib, bo‘g‘zidagi bog‘ichini yechdi, oltin tangalarni stol ustiga sochib, o‘zini go‘yo ularni diqqat bilan sanayotgandek ko‘rsatdi, kampir esa tangalarni ko‘rganda ko‘zi o‘ynab, o‘choq yonidagi so‘ridan turib ketdi.

Boloxona qorong‘i va juda issiq edi. Qizcha tirqishlaridan yorug‘ nur tushib turgan dim, qaynoq xonaga kirib, dumaloq stol yonidan tez yurib o‘tdi va pastdagi kichik oynalarni eslatadigan deraza tavaqalarini to‘lin oy nur sochib, yulduzlar siyrak ko‘rinayotgan tarafga qarab ochib yubordi. Mayin havo kirib, nafas olishi yengillashdi, vodiyan jilg‘a ovozi eshitildi. Qizcha osmondagi eng baland nuqtaga ko‘tarilgan to‘lin oyni ko‘rish uchun gavdasini derazadan chiqardi, so‘ng pastga nazar tashladi. Hovlida iti tumshug‘ini ko‘tarib unga qarab turardi, besh yil avval kimdir adashtirib karvonsaroyga tashlab ketgan bu kuchuk uning ko‘z o‘ngida o‘sdi va faqat itlardagina bo‘ladigan ulkan sadoqat tuyg‘usi bilan unga qattiq bog‘lanib qolgan edi.

– Negra, – shivirlab xitob qildi qizcha, – nega uxlamayapsan?

It asta ingillab, tumshug‘ini ko‘tardi va pichanxonaning ochiq eshigiga qarab intildi.

– Qayt! Qayt! – jon holatda shivirlab buyruq berdi qizcha. – Joyingga bor!

It to'xtab, tag'in tumshug'ini ko'tardi, ko'zlarida qizg'ish uchqun yarqiradi.

— Senga nima kerak? — erkalab xitob qildi qizcha, u har doim it bilan xuddi odamdek gaplashardi. — Nega uxlamayapsan, tentak. Oy bezovta qilyaptimi?

It xuddi javob qaytarmoqchi bo'lgandek, tumshug'ini tag'in yuqori ko'tardi va yana sekin ingilladi. Qizcha yelkasini qisdi. It qizning ham jon-u diliga aylangan, dunyoda eng yaqin, yagona do'sti bo'lib qolgan edi. Hatto u nimani xohlayotganini sira adashmay anglab olaverardi. Ammo hozir it nimani istayotganini, nimadan bezovta bo'layotganini bila olmadi, shu tufayli barmog'ini o'qtalib qattiq ogohlantirdi va shivirlab jahl aralash keskin buyruq berdi:

— Joyingga bor, Negra! Uxla!

It yotdi, qizcha yana bir necha daqiqa deraza oldida turib qoldi... Balki anavi qo'rqinchli marokashlik g'ashiga tegayotganmikan. Odatda it karvonsaroyga keluvchilarni indamay qarshilar, hatto qaroqchi-yu ta'qibdan qochib yurganlarga ham e'tibor bermas edi. Shunga qaramay, negadir ba'zi-ba'zida ayrim odamlarni ko'rganda irillab tashlanib qolar, shunday paytlarda uni faqat qizchagina to'xtata olardi. Kim bilsin, issiq havo, qilt etgan shabada yo'qligi va ko'zni qamashtiradigan oydin tun uni junbishga solib, darg'azab qilayotgandir?

Favqulodda sokin kechayotgan tunda vodiydagi jilg'aning shovqini baralla eshitilar, og'ildagi taka besaranjom bo'lib, tuyog'ini dukurlatar, karvonsaroyning qari xachiri yo marokashlikning oti uni bexosdan bosib oldimi, kim bilsin, u bor ovozi bilan ayanchli ma'rab faryod solar va bu shaytoniy nola sukunat olamini buzib, atrofga taralardi. Qizcha shod-xurram kayfiyatda oynadan uzoqlashdi va boshqa deraza tavaqalarini ham ochib qo'ydi. Qorong'i xona yorishgandek bo'ldi. Bu yerda stoldan tashqari devor bo'ylab qo'yilgan keng uchta karavot ham bo'lib, ularning ustiga dag'al choyshablar yopilgan edi. Qizcha kiraverishdagi birinchi karavot choyshabini surib, bosh tarafini to'g'rilaotganda, xona xuddi ertaklardagidek tiniq ko'kimtir mayin shu'la bilan yorishib ketdi: tillaqo'ng'iz peshana gajagiga kelib qo'ngan edi. Unga sekin qo'lini tegizdi. Tillaqo'ng'iz bir miltillab ko'rinib, bir ko'rinmay yana xona bo'ylab uchib ketdi. Qizcha ohista xirgoyi qilib pastga tushdi.

Oshxonada marokashlik tik turib, kampirga past ovozd, ammo qat'iyat va jahl bilan nimanidir uqtirar, kampir rad etib, boshini chayqar edi. Marokashlik yelkasini qisdi va tund qiyofada ichkarriga kirib kelgan qizchaga o'girildi, qiz beixtiyor o'zini chekkaga oldi.

– Joy tayyormi? – xirillab qichqirdi marokashlik.
– Hammasi tayyor, – shosha-pisha javob berdi qizcha.
– Men qayerga borishni bilmayman. Kuzatib qo'y.
– O'zim ko'rsatib qo'yaman, – dedi kampir jahl bilan. – Men bilan yur..

Qizcha kampir tik zinalardan turtinib ohista ko'tarilayotganini ko'rib, izidan borayotgan marokashlikning boshmog'i qanday to'qillayotganini eshitib turdi, so'ng tashqariga chiqdi. Ostonada cho'zilib yotgan it shu zahotiyoq sakrab turdi va quvonchdan silkinib, uning yuziga suykaldi.

– Tek tur, tek tur, – qizcha shivirlab uni erkalagan ko'yi nari itardi va ostonaga o'tirdi. It ham qarshisiga kelib cho'qqaydi, qizcha uni bo'ynidan quchoqlab, peshonasidan o'pdi va u bilan birga tebranib, marokashlikning boloxonadan eshitilayotgan xirildoq ovozig quloq tutdi. U endi kampirga nimalarnidir xotirjam uqtirmoqda edi, ammo gapini anglab bo'lmasdi. Nihoyat, uning qattiq ovozi yetib keldi:

– Mayli, yaxshi, yaxshi! Faqat kechasi ichishimga suv keltirib bersin.

Zinadan ohista tushib kelayotgan kampirning qadam tovushlari eshitildi.

– U nima deganini eshitdim. Yo'q, men uning oldiga bormayman. Undan qo'rqaman.

– Bekorlarni aytibsan! – baqirdi kampir. – Bundan chiqdi, sen mana shu to'mtoq oyoqlarim bilan qorong'ida sirg'anchiq zinadan yana chiqishimni xohlaysanmi? Uning qo'rqadigan hech narsasi yo'q. Faqat u juda ahmoq va tajang, ammo ko'ngilchan yigit. Senga achinishini aytdi, «kambag'al qiz ekan, sepsiz qizni hech kim xotilikka olmaydi», dedi. To'g'ri aytadi, sepn qayerdan olarding. Axir butunlay xarob bo'ldik. Qashshoq odamlardan boshqa kim ham keladi bu yerga?

– Meni ko'rib, nega birdan achchig'lanib ketdi? – so'radi qizcha. Kampir chimirildi.

– Nimalar deyapsan? – to'ng'illadi u. – Men unga birovning ishiga burningni tiqma dedim... Shunga xafa bo'ldi. – So'ng jahll bilan baqirdi:

– Qani, bor endi, unga suv berib kel. Buning uchun senga bir nima beraman deb va'da qildi. Bor deyaipman!

Qizcha suv to'la ko'zachani ko'tarib, ochiq eshikdan kirib bor-ganda, marokashlik yechinib, karavotda cho'zilib yotar, oyning g'ira-shira yorug'ida qirg'iy ko'zlari, silliq qirilgan kichkina boshi yaqqol ko'zga tashlanardi. Xona o'rtasidagi stolda tig'i uzun, o'qdoni katta revolver yaltirar, narigi karavotda ustki kiyimlari oppoq tepa bo'lib uyulib yotar edi. Bularning hammasi vahimali ko'rinardi...

Qizcha yugurib kirib, ko'zachani stolga qo'ydi va zingillab iziga qaytdi, ammo marokashlik sakrab turib, uni qo'ldan ushlab oldi.

– To'xta, to'xta, – u tez gapirib, qizni karavotga tortdi, o'zi turib o'tirdi va qizning qo'lini qo'yib yubormasdan shivirladi: – Yonimda bir daqiqa o'tir, o'tir, quloq sol... faqat quloq sol...

Dovdirab qolgan qiz noiloj o'tirdi. Erkak bir ko'rishdayoq uni yoqtirib qolganini aytib, shosha-pisha qasam ichishga tushdi: «Bir bo'sa uchun o'nta tilla tanga... yigirmata tanga berishga tayyor-man, ulardan menda bir xalta bor», deya yostiqli ostidan qizil charm xaltachani oldi va titragan qo'llari bilan bog'ichini yechdi, choyshab ustiga oltinlarni sochib, go'ldiradi:

– Mana, ko'rdingmi, ular menda qancha?.. Ko'rdingmi?

Qizcha keskin bosh silkitib, karavotdan turdi. Marokashlik qizni yana tutib oldi va qattiq changali bilan og'zidan ushlab, karavotga uloqtirdi. Qizcha jon achchig'ida qo'lini tortib oldi va kuchi boricha:

– Negra! – deb qichqirdi.

Erkak yana qizning og'zi-burnidan siqib ushlab, qo'li bilan ochilib qolgan oyog'ini ko'tarmoqchi bo'ldi, qiz yulqinib bir tepdi, u beixtiyor qornini changalladi va shu daqiqada zinapoyadan bo'ron shiddati bilan uchib chiqayotgan itning sharpasini eshitdi.

U sakrab turib, stoldan revolvorni oldi. Lekin tepkini ushlashga ham ulgurmasdi, kuchli zarbadan polga ag'darilib tushdi. Og'zini katta ochib, ustiga tashlangan itning olov nafasi dimog'iga urildi, qo'li bilan yuzini berkitib ag'anar ekan, engagi xiyol ko'tarilib ketdi va it bir hamladayoq uning kekirdagini yulib oldi.

Ortiqboy ABDULLAYEV tarjimai.

Ming to'qqiz yuz o'ttiz uchinchi yilning 9-noyabr kuni mehribon Provansning o'zi kabi qadimiy va rahmdil Grass shaharchasida so-kin, iliqqina kech kuzning oddiygina kunlaridan biri edi. Men o'n yil davomida bu yerlardan hech qayoqqa chiqmay yashab kelyapman...

Bunday kunlarda qo'lim ishga bormaydi. Shunga qaramay, odatimga ko'ra, ertalabdan yozuv stoli yonidaman. Nonushtadan keyin ham shu yerga o'tiraman. Derazadan tashqariga qarasam, yomg'ir yog'adigan. Yo'q, bunaqa kunda ishlay olmayman. Bugun kinoteatrda kunduzgi namoyish bo'ladi, o'sha yoqqa bora-man.

«Belveder» joylashgan tog'dan pastga tushayotib, shahar-ga razm soldim. Uzoqdagi Kannga, bunday kunlarda elas-elas ko'rinadigan dengizga, Esterelning tuman bosgan cho'qqilariga qararkanman, «Balki shu daqiqalarda Yevropaning bir chetida mening taqdirim hal bo'layotgandir?» degan savol beixtiyor xa-yolimdan o'tdi.

Kinoteatrda kirganimda Stokgolmgaga ketgan xayolim yana unu-tildi. Tanaffusdan keyin «Bebi» degan quvnoq bema'nigarchilik boshlansa, men ekranga qattiqroq tikilaman: Aleksandr Ivanovich-ning qizi Kisa Kuprina tomosha berayotgan ekan. Biroq qorong'i-likda qandaydir bezovtalik bo'layotganini sezib qoldim. Qo'lchiroq yoqilib, kimdir yelkamga qo'lini qo'ydi-da, hayajon va tantana bilan shivirladi:

Stokgolmdan qo'ng'iroq qilishyapti...

Shu paytgacha o'tgan hayotimning ipi uzilib ketgandek bo'ldi.

Uyga odatdagidan tezroq yurib ketyapman, dilimda Kisaning o'yinlarini oxirigacha ko'rolmay qolganim armonidan bo'lak hech narsa yo'q, menga hozirgina aytilgan xabarga beg'amlik bilan ishonmayapman. Yo'q, ishonmaslik mumkin emas: me-ning tinchgina, bunday paytlarda Grassning tepasidagi tog' yon-bag'irlarini qoplab yotgan zaytun bog'lar orasida ko'rinmayotgan nimqorong'i uyim pastdan tepasigacha charaqlatib yoritilgan edi. Yuragim ma'yusgina ezildi... Hayotimda qandaydir burilish sodir bo'ldi, chog'i...



Kechki payt «Belveder»da telefon qo'ng'iroqlari tinmadi. Butun Yevropadagi poytaxtlardan kimlardir, turli tillarda baqirib-chaqirib meni tabriklashar, pochta-chilar deyarli butun dunyodagi mamlakatlardan (Rossiyadan tashqari) tabrik telegrammalarini peshma-pesh keltirib turishardi. Bular kamlik qilganidek, uyim dastlabki tashrif buyurganlarning, fotosuratchi va jurnalistlarning shiddatiga chidab berdi... Daqiqa sayin, soat sayin ko'payib borayotgan tashrifchilar har tomondan qo'l uzatib qo'limni siqishadi, hammasi hayajonda, hammasi bir so'z aytadi. Ularning yuz-ko'zlarini eslab qololmayman, hammasi aralashib, chaplashib ketgandek. Fotosuratchilar rangquti o'chgan qandaydir bir telbaning tasvirini butun dunyoga yoyish ilinjida chiroqlarini oldinma-keyin chaqnatishadi, bundan ko'zlarim qamashadi. Bir tomonda jurnalistlar savollarga ko'mib tashlashdi.

– Rossiyadan qachon chiqib ketgansiz?

– Yigirmanchi yil boshidan emigrantman.

– Qaytib borishni o'ylaysizmi?

– Yo Xudoyim-ey! Nega endi qaytishim kerak ekan?

– Sizni Nobel mukofotiga sazovor bo'lgan birinchi rus yozuvchisi deyishadi. Shu to'g'rimi?

– To'g'ri.

– Bu mukofotni qachonlardir Lev Tolstoyga taklif qilishganda, urad etgan ekan. To'g'rimi?

– Noto'g'ri. Bu mukofot hech qachon, hech kimga taklif etilmaydi. Mukofot berish masalasi hamma vaqt qat'iy sir saqlanadi.

– Siz Shvetsiya akademiyasi bilan yaqindan munosabatda bo'lganmisiz? U yerda tanishlaringiz bormi?

– Hech qachon, hech kim!

– Qaysi asaringiz uchun mukofot berishdi?

– Hamma asarlarim uchun bo'lsa kerak.

– Mukofot berilishini kutganmidingiz?

– Nomzodlar orasida borligimni bilardim. Mening nomzodim bir necha marta ko'rsatilganidan xabarim bor. Asarlarim haqida Byok, Osterling, Agrel kabi taniqli skandinavialik tanqidchilarning maqtovli maqolalarini o'qiganman. Ular Shvetsiya akademiyasi bilan yaqin munosabatda ekanlarini eshitib, mening foydamga biror gap aytishlari mumkinligini taxmin qilardim. Biroq hech nimaga qat'iy ishonmaganman.

– Nobel mukofotlarini berish odatda qanday o'tadi?
– Har yili ma'lum bir vaqtda: o'ninchi dekabrda.
– Demak, siz shu vaqtda Stokgolmgga yetib borishingiz kerak!
– Ehtimol, oldinroq yetib borarman: uzoq safarga chiqish zavqini tezroq tuygim kelyapti. Emigrant sifatida huquqsizligimdan, barcha emigrantlar kabi «viza» degan narsaga erishish qiyinligidan, mana, o'n uch yildirki, chet elga chiqolmayman. Faqat bir martagina Angliyaga borib keldim. Bu qachonlardir tinmay dunyo kezgan mendek odam uchun katta judolikdir.

– Skandinaviya mamlakatlarida bo'lganmisiz?
– Bo'lmaganman. Ko'p marta uzoq safarlarga chiqqanman, faqat sharqqa, janubga. Shimolni esa kelajakka qoldirgan edim...

Shunday qilib, kutilmaganda meni shiddatli bir to'lqin o'z domiga tortib ketdi. Bu to'lqin tez kunda es-hushidan ajralgan mavjudlikka o'xshab qoldi: ertadan kechgacha bir daqiqa ham erkinlik, tinim yo'q. Nobel mukofotining har bir sohibi atrofida bo'ladigan odatiy tashvish-u g'imir-g'imirlardan tashqari, men dunyodagi hech qaysi laureat duch kelmagan holatga uchradim, chunki men emigrantman, g'ayrioddiy holatdaman, butun dunyoni hayratlarga solgan Rossiya-dan chiqqanman. Stokgolmning bu qarori Rossiyaning hissiyotlarini haqoratlagan va kamsitgan, milliy miqyosdagi voqea bo'ldi.

* * *

Uchinchi dekabrda to'rtinchisiga o'tar kechasi men Parijdan uzoqlarda edim. «Shimoliy tezyurar» birinchi klassli alohida kupeda ketardim. Eh-he, necha yillar bo'ldi bunday sharoitning hislarini tuymaganimga! Tun yarimdan o'tganda Germaniyada edik. Poyezdning oxirgi vagoni maydonchasida turibman. Oyning xira yorug'ida vagon ostidan, yon-veridan Rossiyani eslatadigan nimadir tinimsiz otilib chiqib, shiddat bilan ortga ketardi. Bular qordan ola-chalpoq bo'lib yotgan tep-tekis yer, qor bosgan qandaydir darraxtlar edi...

Tongda Gannoverga yetdik. Ko'zimni ochib, deraza pardasini tortsam, oyna muzlagan. Relslarni ham muz qoplagan. Platformada u yoqdan bu yoqqa o'tayotgan odamlar mo'yna qalpoq, po'stin kiyishgan. Bunday manzaralarni ko'rmaganimga ancha yil bo'ldi! Yurak unutmas ekan!

Kechqurun bizning poyezdni «Gustav V» paroxodiga chiqarib, Shvetsiya qirg'oqlariga asta olib ketishadi. Yana savollarga javob berish, fotosuratchilar chirog'ining tinmay chaqnashi... Shvetsiyada men tushgan vagonni fotosuratchilar va jurnalistlar to'dasi qamal qilib oladi. Nihoyat, tun qorong'usida yana yolg'iz qoldim. Deraza tashqarisida qalin, oppoq qorga burkangan qop-qora o'rmon ko'rinadi. Men esa issiqqina kupedaman, qachonlardir Nikolayev yo'lidan ketayotgandekman...

* * *

Laureatga mukofot berish marosimi doimo 10-dekabrda, kechki roppa-rosa soat beshda boshlanadi.

Shu kuni yotoqxonam eshigi odatdagidan barvaqt taqilladi: sakkiz yarim bo'lmasidan uyg'otirlar deb qo'ygandim. Dik etib turdim-u, bugun qanaqa kun ekanligini esladim. Eng muhim kun! Soat sakkiz. Shimol tongi yorishib kelyapti, derazamdan ko'rinib turgan kanal qirg'og'idagi chiroqlar o'chmagan, Stokgolmning ko'z o'ngimdagi qismi o'z minoralari, cherkovlari, saroylari bilan Peterburgni eslatadi, tong va kun botish paytida ertaklardagi kabi go'zal bo'lib ketarkan.

Men bu kunni barvaqt boshlashim kerak: o'ninchi dekabr – Alfred Nobel vafot etgan kun, tongdanoq silindr kiyib, shahar tashqarisidagi qabristonga borib, uning qabriga, jiyani Emmanuel Nobel qabriga gulchambar qo'yishim kerak. Kech yotgandim, soat uch edi, hozir kiyina turib chayqalyapman. Issiq va achchiq kofe boshlanib kelayotgan tiniq, ayozli kun, kechqurun meni kutayotgan misli ko'rilmagan marosim – hammasi meni sergaklantirdi...

Tantanaga rasmiy taklif laureatlarga bir necha kun ilgari jo'natiladi. U (fransuz tilida yozilgan) shvedlarning barcha marosimlaridagidek o'zining aniq-tiniqligi bilan ajralib turadi: «Janobi laureatlar Nobel mukofotini olishlari uchun 1933-yilning 10-dekabr kuni, soat to'rt-u ellik minutdan kechikmay Konsert zaliga yetib kelishlari so'raladi. A'lo hazratlari qirollik uyi a'zolari va saroy a'yonlari kuzatuvida zalga tashrif buyurib, tantanada ishtirok etadilar va roppa-rosa soat beshda har bir laureatga mukofotni shaxsan topshira boshlaydilar. Shundan so'ng zal eshiklari yopilib, tantanalar boshlanadi».

Shvedlarning har qanday taklifiga na bir daqiqa kechikib borish, na ikki daqiqa oldin borish mumkin! Shuning uchun soat uch

bo'lmasdanoq kiyina boshladim. Bir kor-hol bo'lib qolishi mumkin-da. Masalan, frak-ko'ylagimning ilma tugmasi dunyodagi hamma tugmalarga o'xshab birdaniga qayoqqadir g'oyib bo'lib qolishi mumkin.

Soat to'rt yarimda yo'lga chiqdik.

Bunday paytda shahar chiroqlari laureatlar sharafiga, yana bir hisobda, yaqinlashayotgan Rojdestvo va Yangi yil munosabati bilan charaq-latib qo'yiladi. Mukofotlarni topshirish marosimlari o'tkaziladigan ulkan «Musiqa uyi» tomon oshiqayotgan avtomobillar oqimi shunchalik tig'izki, boshiga mo'yna qalpoq kiygan va bizni olib borayotgan zabardast haydovchi o'ziga yo'l topishga qiynalib qoldi. Bir saf bo'lib kelayotgan laureatlar kortejini ko'rib qolgan politsiyachilar boshqa avtomobillarni to'xtatib qo'yib, jonimizga oro kirdi.

Biz, laureatlar ham «Musiqa uyi»ga – olomon ichiga kirib bordik, lekin vestibulyda bizni ajratib oldilar-da, qandaydir yo'laklar bilan boshlab ketishdi. Shuning uchun biz estradada paydo bo'lganimizga qadar Parad zalida nimalar bo'lishini odamlardan eshitdim, xolos.

Zal kengligi va balandligi bilan hayratga soladi. Hammayoq gullar bilan bezatilgan, odamlar liq-liq: marvarid va brilliantlar bilan bezalgan yuzlab ayol liboslari, yuzlab fraklar, yulduzlar, ordenlar, rango-rang tasmalar va tantana belgilari. O'n minuti kam beshda Shvetsiyaning vazirlar mahkamasi to'raligicha, diplomatik korpus, Shvetsiya akademiyasi va Nobel qo'mitasi a'zolari, boshqa taklif etilganlar – hammasi joy-joyiga o'tirib, jimgina kutyapti. Rosa beshda jarchi fanfara chalib, monarx kelayotganidan xabar berdi. Fanfara tovushi tinib, qayerdandir, osmondan quyilayotgan milliy madhiyaning go'zal ohangi yangradi va monarx merosxo'r shahzoda bilan qirollik uyining boshqa a'zolari kuzatuvida zalga kirib keldi. Ularning ortidan a'yonlar va saroy ahllari kelishardi. Biz, to'rt nafar laureat bu paytda estradaga yondashgan kichik zalda kutib turibmiz.

Mana, biz ham chiqadigan vaqt keldi. Estradadan yana fanfara-lar tovushi yangradi va biz haqimizda yozilgan ma'lumotlarni o'qib eshittiradigan akademiklar ortidan ergashdik. Men ziyofatda birinchi bo'lib nutq so'zlashim kerak ekan, shuning uchun hozir taomilga ko'ra estrada (sahna to'rida laureatlar o'tiradigan joy)ga safning oxirida chiqyapman. Meni akademiyaning doimiy kotibi Pyer Galstrem boshlab boryapti. Shu yerda zalning, uni to'ldirib o'tirgan odamlar-

ning yasanganidan hayratga tushdim. Ta'zim bilan chiqib kelayotgan laureatlarni qarshilab hamma, shu jumladan monarxning o'zi, qirollik uyi a'zolari, saroy a'yonlari o'rinlaridan turishdi.

Estrada ham ulkan ekan, qandaydir mayda-mayda, qizg'ish tabiiy gullar bilan bezatilgan. O'ng tomonga akademiklar uchun, chap tomondagi birinchi qatorga laureatlarga atab to'rtta kreslo qo'yilgan. Tepadagi devordan Shvetsiyaning milliy bayrog'i polotnolari salobat to'kib turibdi. Odatda, estradaga laureat yashaydigan mamlakat bayrog'i osib qo'yiladi. Qiziq, mendek muhojir uchun qanaqa bayroq ilingan ekan? Sovet bayrog'ini osish mumkin bo'lmagani uchun Shvetsiya bayrog'ini ilishibdi. Oliyjanob ish!

Tantanalarni Nobel jam'armasining raisi ochdi. U qirolni va laureatni tabriklab, ma'ruzachiga navbat berdi. Odatga ko'ra, u o'z so'zini butkul Alfred Nobelga bag'ishlaydi. Bu yil uning tug'ilganiga yuz yil to'ladi. Keyin har bir laureatni ta'riflaydigan ma'ruzalar o'qiladi. Har ma'ruza o'qib tugatilgach, ma'ruzachi laureatni estradadan tushib, qirol qo'lidan mukofotni olishga taklif etadi. Mukofot Nobel diplomi solingan papka va katta oltin medal solingan qu-tichadan iborat. Medalning bir tomoniga Alfred Nobel tasviri zarb qilingan, ikkinchi tomoniga laureatning ismi tushirilgan. Antraktda Betxoven va Grig musiqalari yangradi.

Grig – men sevib tinglaydigan kompozitorlardan biri. Pyer Gals-trem men haqidagi ma'ruzani o'qishdan avval Grigning yangragan musiqasini huzur qilib tingladim.

Oxirgi daqiqa meni to'ldirantirib yubordi. Galstremning nutqi go'zal bo'lishi bilan birga, samimiy ham edi. U nutqini tugatgach, mayin tabassum bilan menga fransuz tilida murojaat etdi:

– Ivan Alekseyevich Bunin, marhamat qilib, zalga tushib, Oliy hazratlari qo'llaridan Shvetsiya akademiyasi sizga atagan 1933-yil mukofotini qabul qilsangiz.

Shundan keyin zalga cho'kkan jimjitlik ichida men estradadan yurib, zinapoyalardan asta pastga tushib, qirol tomon yurdim. U menga peshvoz chiqdi. Bu paytda zalni to'ldirib o'tirganlar oyoqqa qalqdilar. Hamma nafasini ichiga yutib, qirol menga nima deyishi-yu men qanday javob qilishimni kutib turdi. Qirol meni va men orqali butun rus adabiyotini tabriklab, iltifot bilan qo'limni siqib qo'ydi. Men unga ta'zim qilib, fransuz tilida javob qaytardim:

– Oliy hazrat, mening chuqur va samimiy minnatdorligimni qabul qilishdek marhamatingizni so‘rayman.

Tovushim qarsaklar ichida yo‘q bo‘lib ketdi.

Qirol laureatlarni tantanalarning ertasiga o‘z saroyiga taklif etib qutlaydi. Bugun kechqurun tantanalar tugagach, Nobel qo‘mitasi uyushtiradigan ziyofatga olib ketishadi.

Ziyofatda taxt vorisi raislik qiladi.

Biz yetib borganimizda, u yerda akademiyaning hamma a‘zolari, qirol uyi a‘zolari va saroy a‘yonlari, diplomatik korpus, Stokgolmning badiiy dunyosi va boshqa taklif etilganlar kutib turishardi.

Stolga birinchi juft bo‘lib mening xotinim bilan valiahd yaqinlashishdi. Xotinim stol o‘rtasiga, uning yoniga o‘tirdi. Mening o‘rnim malika Ingrid yonida (u hozir Daniya qirolichasi), qirolning ukasi shahzoda Yevgeniy ro‘parasida (aytgancha, u Shvetsiyaning taniqli rassomlaridan hisoblanadi).

Valiahd ziyofat nutqlarini boshlab berdi. U Alfred Nobel xotirasiga bag‘ishlab juda chiroyli gapirdi.

Keyin gapirish navbati laureatlarga beriladi.

Shahzoda o‘z joyida turib gapiradi. Laureatlar esa ziyofat berilayotgan zalning ichkarisiga qo‘yilgan, Shvetsiyaning qadimiy me‘morchilik usullari bilan yasalgan kattakon minbar ortiga o‘tib so‘zlaydilar. Radio bizning so‘zlarimizni ana shu estradadan butun Yevropaga olib eshittiradi.

Men fransuz tilida so‘zlagan nutqning aniq matni quyidagicha:

– Oliy hazratlari, muhtarama xonimlar, muhtaram janoblar! To‘qqizinchi noyabr kuni bu yerdan olis bir joyda, Provansalning qadimiy shaharchasidagi telefon qo‘ng‘irog‘i menga Shvetsiya akademiasining qaroridan xabar berdi. «Bu – mening hayotimdagi eng ta’sirli voqea bo‘ldi» degan odatiy gaplarni hozir sizlarga aytsam, nosamimiylik qilgan bo‘laman. Ulug‘ faylasuflardan biri to‘g‘ri ta’kidlaganidek, xursandchilik hissiyoti, u qanchalik kuchli bo‘lmasin, xuddi shunaqa kuchli qayg‘u oldida hech narsa emas. Xotiramda o‘chmas iz qoldiradigan ushbu bayram kuniga qayg‘u aralashtirishni hecham istamagan holda, men keyingi o‘n besh yil davomida tortgan qayg‘ularim xursandchiliklarimdan ancha o‘tib tushdi, deb aytishga jur‘at etaman. Bu qayg‘ular shaxsiy emas, butunlay boshqacha! Biroq shuni qat’iy ta’kidlashim mumkin, mening yozuvchilik hayotimda-

gi xursandchiliklar ichida zamonaviy texnikaning kichkina mo'jizasi bo'lmish telefonning Stokgolmdan Grassga uzatilgan qo'ng'irog'i menda eng ko'p qoniqish hosil qildi. Sizning vatandoshingiz Alfred Nobel adabiyot uchun ta'sis etgan mukofot yozuvchi mehnatining eng oliy nishonidir! Shuhratparastlik deyarli hamma odamga, har bir muallifga xos xislat va men ham o'ta vakolatli, qatiqqo'l hakamlar qo'lidan ushbu mukofotni olganimdan g'ururlanaman.

Biroq, o'sha to'qqizinchi noyabrda men o'zim haqimda o'ylaganmidim? Yo'q, bu o'ta xudbinlik bo'lardi. Eng birinchi tabrik va telegrammalar oqimi hayajonlarini qizg'in tarzda kechirib bo'lgach, tungi yolg'izlik va jimjitlikda Shvetsiya akademiyasi qaroring ahamiyati haqida o'yladim. Nobel mukofoti ta'sis etilgandan buyon sizlar uni birinchi marta, o'z vatanidan quvg'in bo'lgan odamga berdingiz. Men kim bo'libman? Fransiyaning mehmondo'stligidan foydalanib, unga o'z minnatdorchiligini ko'ksida saqlab yurgan bir quvg'inman. Akademiyaning janobi a'zolari, o'z shaxsiyatimni va asarlarimni bir chetga surib qo'yay-da, sizlarning bir ishorangizning o'zi qanchalar go'zal ekanligini aytishga ijozat etsangiz.

Dunyoda butkul mustaqil sohalar ham bo'lishi kerak. Shubha yo'qki, ushbu stol tevaragida turli-tuman dunyoqarashlarning falsafiy va diniy e'tiqodlarning vakillari o'tirishibdi. Biroq, hammaning boshini qovushtirib turgan mustahkam bir narsa bor. Bu – fikr va vijdon erkinligi, biz undan o'z madaniyatimiz bilan qarzdormiz. Yozuvchi uchun bunday erkinlik – aksioma, aqida. Sizlarning ishora esa, akademiyaning janobi a'zolari, erkinlikka muhabbat Shvetsiyaning haqiqiy milliy madaniyati ekanligini yana bir karra isbotladi.

Nutqimni yakunlash uchun yana bir necha so'z: sizlarning qirollik uyingizga, mamlakatingiz, xalqingiz va adabiyotingizga shu kundan boshlab mehrim tushib qolgan emas. San'atga va adabiyotga muhabbat Shvetsiya qirollik uyi uchun ham, sizlarning oliyjanob xalqingiz uchun ham doimo an'ana bo'lgan. Sharafli jangchi asos solgan Shvetsiya sulolasi dunyodagi eng shuhratli sulolalardan biridir. Qirol oliy hazratlari, ritsar-xalqning ritsar-qirol, begona yurtlardan kelgan, Shvetsiya akademiyasining e'tiborini qozongan erkin yozuvchiga yurakdan chiqqan va ehtirom to'la hissiyotlarini izhor etishga ijozat bergaysiz.

Qudrat DO'STMUHAMMAD tarjimai.





MUNDARIJA

QUTB YULDIZI (She'rlar)

Chashma. O'roz Haydar tarjimalari.....	4
Birinchi qor... Bolalik	5
Shimol qayini.....	6
Qor bo'roni.....	7
Hovuzda	8
Yol bo'yida.....	9
Yomg'ir yog'ar.....	10
Toshqin to'liqlardan	11
Derazadan	12
Kuz. Ormon.....	13
Tuman pardasiga	14
Tashqarida kezar	15
Quyosh qo'ygach	16
Xazonrezgi	17
Dala tutub yotar... Deraza qirovdan	18
Arazlagan qizdek	19
Ochiq dengizda	20
Qora bulut... Atrof o'rmon	21
Qarag'ayzor... Yirtqich.....	22
Tungi xiyobonda... Xayrlashuv.....	23
Shafaqsiz tong.....	24
Orzularim kabi... Tun oqarib.....	25
Tuyayo'ng'ichqa	26
Vatan... Ikki kamalak	27
Momaqaldiraq.....	28
Qushlar ko'zga.....	29
Qutb yulduzi... To'lin oy.....	30
Yarim tunda... Turfa rang	31
Qo'noq. Jo'xori poyada.....	32
Yarim kecha... Ro'paramda.....	33
Bamisli tun... Kun boshlanar.....	34
Yoshlik... Xo'mraygan, ko'kimtir.....	35
Qoraygan dalalarda... Tog'da qaynar	36
Shom	37
Sirius... Saturn.....	38
Kemadan... Sollar.....	39
Koksimni keng ochdim... Oq bukri.....	40
Shovqin solar... Eruvchanlikdan so'ng	41
Marvaridgul... Nayson o'rtasida	42
Sirkda... So'z.....	43

To'xta, quyosh!... Keksa olma daraxti	44
Sirokko	45
Oqshom	46
Alyonushka	47
Begona	48
Biz yonma-yon borardik	49
Nechun, nima haqda gapirmoq kerak?	50
Sitsiliyada	51
Toshko'mir. <i>Vafo Fayzulloh tarjimalari</i>	52
Qiyomat kuni	53
Parda... Muhammad (s.a.v.) va Sofiya	54
Ko'zgu... Farz	55
Ibrohim (a.s.)	56
Rus bahori. <i>Yo'ldosh Eshbek tarjimalari</i>	57
Ertak	58
Qo'shiq	59
Sa'diy vasiyati... Bir kun kelib	60
Yonma-yon ketardik	61
Eslayman	62

XILVAT XIYOBONLAR (Hikoyalar)

Arafa. <i>Dildorxon Aliyeva tarjimasi</i>	64
Bahorda – iudeyada. <i>Ortiqboy Abdullayev tarjimasi</i>	65
Bernar. <i>Abdulla Sher tarjimasi</i>	70
Buva. <i>Dildorxon Aliyeva tarjimasi</i>	73
Dumli yulduz. <i>Dildorxon Aliyeva tarjimasi</i>	74
Yoshlik va keksalik. <i>Umid Ali tarjimasi</i>	75
Zumrad osmon. <i>Dildorxon Aliyeva tarjimasi</i>	78
Itifotli ishtirok. <i>Nazira Jo'rayeva tarjimasi</i>	80
Kichik ishqiy sarguzasht. <i>Umid Ali tarjimasi</i>	85
Kornet Yelagin ishi. <i>Dildorxon Aliyeva tarjimasi</i>	95
Ko'z yoshlar. <i>Dildorxon Aliyeva tarjimasi</i>	132
Muborak dushanba. <i>Saidjalol Saidmurodov tarjimasi</i>	133
Muza. <i>Tohir Qahhor tarjimasi</i>	147
Odamxo'r. <i>Dildorxon Aliyeva tarjimasi</i>	155
Oydin kechada. <i>Orif Tolib tarjimasi</i>	156
Sarmoya. <i>Dildorxon Aliyeva tarjimasi</i>	159
Sovuq kuz. <i>Abdulla Sher tarjimasi</i>	160
Styopa. <i>Ortiqboy Abdullayev tarjimasi</i>	164
Xilvat xiyobonlar. <i>Tohir Qahhor tarjimasi</i>	169
Chipta kavush. <i>Umid Ali tarjimasi</i>	175
Shaqirlagan qovurg'a. <i>Dildorxon Aliyeva tarjimasi</i>	177
Yuz rupiya. <i>Olima Nabizoda tarjimasi</i>	178
Qasdlashuv. <i>Olima Nabizoda tarjimasi</i>	180
Qotil. <i>Dildorxon Aliyeva tarjimasi</i>	190
Qo'nalg'a. <i>Ortiqboy Abdullayev tarjimasi</i>	191
Nobel mukofoti xotiralari, nutq. <i>Quadrat Do'stmuhammad tarjimasi</i>	198

Adabiy-badiiy nashr

Ivan Alekseyevich BUNIN

XILVAT XIYOBONLAR

She'rlar va hikoyalar

Nashr uchun mas'ul

M. Bo'ronov

To'plab, nashrga tayyorlovchi

Bahrom Akbarov

Muharrir *Bahrom Akbarov*

Badiiy muharrir *Behzod Zufarov*

Texnik muharrir *Lina Xijova*

Kichik muharrir *Mathuba Salimova*

Musahhih *Surayyo Salohutdinova*

Kompyuterda tayyorlovchi *Gulmira Qulnazarova*

Nashriyot litsenziyasi AI № 158, 14.08.2009.

Bosishga 2021-yil 24-martda ruxsat etildi.

Bichimi 60×90¹/₁₆. Ofset qog'ozi. «New Roman» garniturasida
ofset usulda bosildi. Shartli bosma tabog'i 13,0.

Nashr tabog'i 10,89. Adadi 10000 nusxa. Buyurtma № 21-41

«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.

Telefon: (371) 244-87-55, 244-87-20

Faks: (371) 244-37-81, 244-38-10.

e-mail: uzbekistan@iptd-uzbekistan.uz.

www.iptd-uzbekistan.uz





I.A. Bunin

«O'ZBEKISTON»

ISBN 978-9943-6585-4-7



9 789943 658547